Куркумин и эвгенол — перспективные природные фенольные соединения с выраженными противовоспалительными, антиоксидантными и гепатопротекторными свойствами. Их многомишенные эффекты на пути NF-κB, MAPK, JAK-STAT и NLRP3 делают их привлекательными кандидатами для профилактики и лечения воспалительных заболеваний печени, включая MASLD и IFALD.

Их синергетическое взаимодействие может обеспечивать дополнительные терапевтические преимущества. Однако низкая биодоступность, особенно куркумина, остаётся серьёзным ограничением, подчёркивая необходимость совершенствования систем доставки и проведения более масштабных клинических исследований.

Будущие работы должны быть направлены на оптимизацию технологий доставки, изучение синергетических комбинаций, определение оптимальных доз и проведение долговременных исследований безопасности. Интеграция мультиомных технологий позволит лучше понять их сложные биологические эффекты.

В целом, несмотря на существующие трудности, куркумин и эвгенол представляют собой безопасные и потенциально эффективные природные соединения для комплексной терапии воспалительных заболеваний печени и могут рассматриваться как перспективные лекарственные средства или нутрицевтики для профилактики и лечения хронических воспалительных нарушений.

ISSN 3030-3907

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Eduarda Pires Costa, Manoela Maciel dos Santos, Rosinéa Aparecida de Paula, Danilo Aniceto da Silva, Renata Pereira Lopes, Robson Ricardo Teixeira, Reggiani Vilela Gonçalves: Antioxidant and Anti-inflammatory Activity of Eugenol, Bis-eugenol, and Clove Essential Oil: An In Vitro Study 2025;31033-31045. https://pubs.acs.org/doi/full/10.1021/acsomega.5c04146 .
2. Obrzut O, Gostyńska-Stawna A, Kustrzyńska K, Stawny M, Krajka-Kuźniak V. Curcumin: A Natural Warrior Against Inflammatory Liver Diseases. Nutrients. 2025;17(8):1373. https://doi.org/10.3390/nu17081373
3. Liu M, Wang J, Song Z, Pei Y. Regulation mechanism of curcumin mediated inflammatory pathway and its clinical application: a review. Front Pharmacol. 2025;16:1642248. https://doi.org/10.3389/fphar.2025.1642248
4. Jun-Jie Huang, Rui-Gang Zhou, Jun Chen, Wei-Long Peng, Cheng-Long Yu, Ming-Jiang Liu, Ruo-Nan Bo, Shao-Jie Yin, Gui Li: Eugenol Exerted Significant Anti-Oxidant and Anti-Inflammatory Effects on Experimental Colitis via Directly Acting on PPAR-γ. 2025;1933-1949. https://www.worldscientific.com/doi/abs/10.1142/S0192415X25500727
5. Khaleel RA, Hameed ZE, Ahmed OH. Evaluation of antimicrobial and immunomodulatory activities of Eugenol isolated from Syzygium aromaticum in a rat model. Drug Metab Pers Ther. 2025;40(4):249-261. https://doi.org/10.1515/dmpt-2025-0035

ISSN 3030-3907

INTERFAOL TA’LIM – SIFAT KAFOLATI

Hamdamova Muqaddas Xamidovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrasining o‘qituvchisi

Annotatsiya. Bu maqolada sifatli ta’lim berishda maktab, litsey, kollej o‘qituvchilari va institut hamda universtitet talabalariga fanlar kesimida interfaol metodlardan foydalangan holda xususan, ularning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirish uchun kichik metodik ishlanma hisoblanadi. Bu yerda keltirilgan ma’lumotlar orqali yuqoridagi bu komponentlar samarali bilim berishda o‘z tinglovchilariga qanday usullardan samarali foydalanish mumkinligini tushuntirishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Pedagog, fanlar, leksik minimum, fonetika, grammatika, morfologik, fragmentlar, “qanday” diagrammasi, “nilufar guli “ chizmasi, interfaol, metodik usullar, savol, dars, interfaol metod, interfaol ta’lim, pedagogik texnologiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается небольшой методический материал, направленный на обеспечение качественного образования с использованием интерактивных методов обучения по различным учебным дисциплинам для преподавателей школ, лицеев, колледжей, а также для студентов институтов и университетов, в частности для формирования их устной и письменной речи. Посредством представленной информации предпринимается попытка объяснить, какими эффективными методами и приёмами можно пользоваться для результативной передачи знаний обучающимся в рамках указанных компонентов.

Ключевые слова: Педагог, дисциплины, лексический минимум, фонетика, грамматика, морфологические элементы, фрагменты, диаграмма «как», схема «цветок лотоса», интерактивный, методические приёмы, вопрос, урок, интерактивный метод, интерактивное обучение, педагогическая технология.

Abstract. This article presents a small methodological framework aimed at ensuring quality education through the use of interactive teaching methods across various academic disciplines for teachers of schools, lyceums, and colleges, as well as for students of institutes and universities, particularly in developing their oral and written communication skills. The information provided seeks to explain how the above-mentioned components can be effectively applied to deliver knowledge efficiently and to demonstrate which methods and techniques can be used successfully in the educational process.

Keywords: Teacher, disciplines, lexical minimum, phonetics, grammar, morphological elements, fragments, “how” diagram, “lotus flower” scheme,

ISSN 3030-3907

interactive, methodological techniques, question, lesson, interactive method, interactive learning, pedagogical technology.

KIRISH.

Pedagogik faoliyatda «metod», «metodika» va «texnologiya» tushunchalari keng qo‘llaniladi. Hatto, mazkur tushunchalar mohiyatini tavsiflashda xilma-xil yondashuvlar mavjud bo‘lgan, ta’lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o‘z ichiga oladi. Bu ishlarni amalga oshirishning shakllangan va amaliyotda qo‘llanilayotgan har turli usullari va shakllari asosida ko‘plab ta’lim metodlari hosil bo‘lgan va bu jarayon davom etmoqda. Muayyan ta’lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo‘li, usuli yoki ko‘rinishidan iborat bo‘lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o‘ziga xos ta’lim metodini hosil qiladi. Ana shunday ta’lim metodlaridan biri- interfaol metod hisoblanadi.

Asosiy qism: Ta’lim jarayonida interfaol usullarning samarali qo‘llanilishi quyidagi omillar bilan kafolatlanadi:

-mazkur usulni qo‘llash uchun oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rish va rejalashtirish lozim;

-ushbu usulni qo‘llash uchun tegishli vaziyat yaratilishi zarur;

-interfaol ta’lim jarayoni umumpedagogik talablar asosida, hissiyotehtiroslarga berilmagan holda, do‘stona, samimiyatli ravishda tashkil etilishi;

-individual yondashuv jarayoni o‘quvchining erkin fikr yuritish, o‘zining ichki kechinmalarini ijodiy bayon qilishlari uchun tegishli sharoitning yaratilishi;

-interfaol metodlar turli shakllarda amalga oshirilishi zarur.

Shunga ko‘ra, interfaol metodlarning qo‘yidagi shakllaridan ta’lim jarayonida keng ko‘lamda foydalanilmoqda: Aqliy hujum, Ajurli arra, Kichik guruhlarda ishlash, inter faol metodlar, Debatlar, Munozara, “O‘z o‘rningni top”, “Kichik guruhlarda ishlash” usulidan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligini ta’minlaydi, har bir o‘quvchining munozarada qatnashish huquqini va bir-biridan o‘rganish imkonini beradi. Demak, ta’lim-tarbiya jarayonlarida interfaol metodlardan foydalanish ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi. Interfaol ta’lim – sifat kafolati . Ta’lim qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, “Kollej ta’limini rivojlantirish Davlat dasturi”ni ta’lim jarayoniga tatbiq etish bilan ta’limda sifat va samaradorlikka erishish va shu orqali modernizatsiya qilingan ta’lim standartlari to‘liq bajarilishi ta’min etish davri boshlandi. Davlatimiz tomonidan yangi kasb-hunar kollejlari qurilishi, obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari jadal sur’atlar bilan olib borilmoqda. Kollejlarimiz yangi qiyofaga, barcha qulayliklarga ega bo‘lib bormoqda. Kasb-hunar kollejlarni yangi jihozlar, asbob-

ISSN 3030-3907

uskunalar, takomillashtirilgan dasturlar, modernizatsiya qilingan tajriba-sinovdan o‘tgan standartlar, darsliklarning yangi avlodi bilan (ijara tariqasida) ta’minlash, kompyuterlashtirish Davlat umummilliy dasturi asosida izchil amalga oshirilmoqda. Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o‘rniga darslarni tashkil etishga mas’uliyat bilan yondashaydigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma’suliyatli, zamonaviy interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o‘zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta’limni tashkil eta oladigan o‘qituvchilarga talab oshib bormoqda. Ta’limda moddiy baza, standart, o‘quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o‘zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni olib boruvchi o‘qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga, pedagogik mahoratiga bog‘lanib qolaveradi, o‘quv-biluv markazida esa o‘quvchi tarmog‘ini taqozo etadi. Ular qanday ta’lim o‘quvchi shaxsiga, uning qiziqish, hohish-istagiga, extiyojiga qaratilmog‘i talab etiladi. 1. Guruhlarda ishlanganda, o‘quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etganda har bir o‘quvchi bilan yakkama-yakka ishlanganda ularning shaxsiy hususiyatlari doimo o‘qituvchi diqqat markazida turmog‘i, hisobga olinmog‘i kerak. 2. O‘quvchi bilan muloqot olib borganda ham, uning o‘ziga xosliklari diqqat e’tiborda tutilishi kerak. 3. Ta’lim jarayonida ham, uning qobiliyati, imkoniyatlari nazarda tutilishi kerak. 4. Pedagogik psixologik jarayonlarni olib borishda o‘quvchining shaxsiy rivojlanish darajasini ko‘zda tutish zarur. Individuallashgan ta’lim prinsiplari:

- Individuallashtirish – o‘quv jarayonining bosh strategiyasidir;
- O‘quv jarayonini individuallashtirish orqali shaxsni rivojlantirish ta’minlanadi;
- Har bir o‘quv predmetini o‘qitishni individuallashtirish orqali amalga oshirish kutilgan natijani kafolatlaydi;
- O‘qitish shakllarini individuallashtirish bilan integratsiyalash sharoiti yaratiladi;
- Individuallashgan ta’lim – o‘quv jarayoni sifat va samaradorligini ta’minlaydi;
- Individuallashgan ta’limda ko‘nikma, malaka, bilim olish o‘quvchining qiziqishi asosida kechadi;
- Mustaqil ishlay olish o‘quvchining umum o‘quv ko‘nikmasini rivojlantiradi, taraqqiy ettiradi.

Demak, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligi o‘quvchining o‘quv mazmunini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan mustaqil mutolaa bilan samarali shug‘ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan bog‘liq. Interfaol metodlarda dars jarayonini olib borishda o‘quvchilarda quyidagi xususiyatlarning rivojlanishini ko‘rsatish mumkin. O‘quvchi o‘qitilmaydi, uni mustaqil o‘qish, o‘rganish, ishlashga o‘rgatiladi. Bunda o‘quvchilar mustaqil ravishda tahlil qilish

ISSN 3030-3907

orqali o‘zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishga o‘rgatiladi. O‘quvchilarda yod fikrlarga qarshi fikr yurita olish, o‘z pozitsiyasini himoya qila olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. O‘quvchiga bilimlar tayyor holda berilmasdan, bilimlarni darsliklardan, internetdan, turli boshqa manbalardan izlash, topish, qayta ishlash orqali uning bilim olish malakasi shakllantiriladi. Olgan bilimlari orqali ijodiy mushohada yuritish imkoniyati yaratiladi. O‘quvchini darsliklar bilan ishlash, o‘qish, o‘rganish, konspekt yozish, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanib mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikmalarini egallashga o‘rgatiladi. Ta’lim jarayonida barcha o‘quvchilarning o‘z qobiliyatlari darajasida albatta o‘zlashtirishlari kafolatlanadi. Bunda o‘quvchining o‘zlashtirilgan, olgan bilimlarini hayotda, amaliy faoliyatda foydalana olish ko‘nikma va malakalari bilan belgilanadi. Barcha o‘qituvchi-o‘quvchilar interfaol metodlar asosida ishlashni o‘rganib, uni o‘z o‘quv-biluv faoliyatlariga olib kira olsalar barcha o‘quvchilar bir xil natijalarga erisha oladilar. O‘qituvchi, o‘quvchilar bilan birgalikda va bir vaqtda vazifani bajarishda hamkorlik qiladilar, ham ijodkorlikda ish yuritiladilar. O‘qituvchi so‘zlash, tushuntirish, ko‘rsatish jarayonida barcha o‘quvchilarni jalb qilgan holda masalani birga muhokama qiladi. Bunday muloqotlar o‘quvchilar ishonchini qozonishga o‘quvchilar bilan muloqotga kirishishga, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasining hosil bo‘lishiga olib keladi. Umumiy o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos kamchilik va yetishmovchiliklari ham mavjud. Darsda faoliyat o‘qituvchi tomonidan barchaga birdek qaratiladi, ya’ni bir oz abstraktlik yuzaga keladi. Barchani qiziqish, qobiliyatlaridan qat’iy nazar bir xilda, bir maqsad yo‘lida izlanish, fikrlash, ishlashga undaydi. O‘quvchilarning rivojlanish darajasi, tayyorgarligi bir xil bo‘lganligi tufayli bilim va ko‘nikmalarni qabul qilib olish, o‘zlashtirish birdek natijani kafolatlamaydi. Dars sifati va samaradorligi pasayishi holatlari kuzatiladi. O‘qish, o‘zlashtirishlari sust bo‘lgan o‘quvchilar sekin ishlaydilar. O‘quv materiallarini to‘la o‘zlashtira olmaydilar. Ular ko‘proq o‘qituvchining shaxsiy e’tiboriga muhtojlik sezadilar. Lekin, ayrim o‘quvchilar murakkabroq, qiyinlik darajasi yuqoriroq bo‘lgan materiallarni o‘zlashtirishga moyil bo‘ladilar. Ayrimlari esa, ko‘proq mustaqil izlanish, ijodiy yondashuv asosida ishlashga qiziqish bilan qaraydilar. Shuning uchun, umumiy yo‘nalishli darslarda savol-javoblar, mashqlar bajarish, iloji boricha o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Interfaol usulda ish yuritmoqchi bo‘lgan o‘qituvchilarga shuni eslatmoq mumkinki, yangicha ishlash uchun faqatgina maqola, adabiyotlar o‘qishning o‘zi kamlik qiladi. Buning uchun, ya’ni o‘qituvchi o‘z faoliyatida interfaol metodlarni qo‘llash uchun, u shaxsan o‘zi ishchanlik o‘yinlari, aqliy hujum, munozara, debatlarda qatnashib, o‘zi tajribadan o‘tkazadi, bu ishga shaxsiy

ISSN 3030-3907

xissasini qo‘shib boradi. Buning uchun u interfaol darslarning o‘tkazishning quyidagi qoidalarini bilib, o‘zlashtirib, amalga kiritishi kerak:

1. interfaol mashg‘ulotlarga barcha ishtirokchilar (o‘quvchilar) jalb etilishi talab qilinadi. Bunda shunday texnologiyalar tanlanishi kerakki, ish jarayonida barcha ishtirokchilarning ishtiroki yoki muhokamasi ta’minlansin;

2. mashg‘ulotga ishtirok etishni psixologik tayyorlash zarur. Darsda ishtirok etuvchilar jarayonga kirishib ketishga tayyor emasligini hisobga olmoq kerak. Yangi tashkil etilayotgan interfaol darslarda ulardagi xadiksirash, tortinchoqlik, indamaslik holatlari darsning faol qechishi, ichki imkoniyatlarni ishga solishga to‘sqinlik qilib kuzatiladi;

3. o‘quvchilarni yangi texnologiyalarni ko‘plab joriy etish bilan toliqtirmaslik. Ishtirokchi imkoniyati, yangi texnologiya sifati bir-biriga mos kelgani ma’qul. Shunday sharoitdagina kichik guruhlarda ishlash, fikrini erkin bayon etish, muammolar yechimini topish oson kechadi;

4. mashg‘ulot olib boriladigan xonalarni tayyorlashga alohida e’tibor berish kerak. Sinf shunday tayyorlanishi kerakki, kichik va katta guruh bilan ishlaganda, ular erkin harakatlansinlar. Ayniqsa, o‘quvchining bir biri bilan muloqotda bo‘yin egib o‘tirishi noqulaylik keltirib chiqaradi. Stollarni 4-6 kishilik qilib qo‘yish, guruh a’zolarining bir-birlariga qarab o‘tirishi, ko‘rib, fikrlashuvga qulay muhit yaratilishi yaxshi natijalar beradi;

5. ishchanlik o‘yinlarini olib borishdan oldin uning reglamenti, ketma-ketligiga rioya qilish kerak. Unga qat’iy rioya qilishni oldindan kelishib olgan ma’qul. Har bir ishtirokchi har qanday fikrlash, nuqtayi nazarga chidamli bo‘lish, oxirigacha eshitishi, tanqid qilmasligi kerak. Har bir ishtirokchining so‘z erkinligiga hurmat bilan qarash, shaxs hurmatini saqlash;

6. ishtirokchilarning kichik guruhlarga bo‘linishlariga diqqate’tibor bilan qarash kerak. Avvalo, kichik guruhlarni shakllantirish erkin, xohish-istaklar asosida kechgani ma’qul. Keyinchalik guruhlarni tasodifiy shakllantirishga o‘tilgan ma’qul. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki interfaol usullar birdaniga ko‘pgina vazifalarni bajara olishga imkon beradi. Eng muhimi, interfaol usullar o‘quvchilarning kommunikativ bilimi, tushunchasini, kunikma va malakalarini oshiradi. Ularni hamkorlik, hamjixatlik, do‘stona munosabatlarda ishlashni ta’minlaydi.

O‘qituvchi ta’lim mazmunini bayon etish bilan bor kuchini, mahoratini ishga solib, ko‘rgazmali qurol, didaktik tarqatma materiallar yordamida yaxshilab tushuntirishga harakat qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan mavzu yuzasidan fikr almashinadi. Ijodiy ishlar berish orqali mashqlar bajaradi, uy ishlarini mustaqil ishlaydilar, takrorlash orqali amalga oshiradi. Ta’lim mazmunini birmuncha

ISSN 3030-3907

o‘zlashtirishga erishadilar. Inter (o‘zaro) faol usulda – o‘quvchilarga dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit yaratiladi. O‘quvchilarning o‘zaro fikr almashishlariga imkon beriladi. O‘zaro axborot olish va berish uchun sharoit tug‘diriladi. Yechimini kutayogan masalalarni hamjihatlikda muhokama etadilar va yechadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlarni asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etadilar. Bir-birlaridan ilhomlanib, ruhiy qoniqish hosil qiladilar. Bir birlarini tushunib, balki qiziqish paydo bo‘lib, vaqt o‘tganini bilmay qoladilar. Har bir ishtirokchi ta’lim mazmunini mualliflardek xis etadilar. Ta’lim mazmunini to‘la o‘zlashtirishga erishadilar.

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, interfaol metodlar va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bugunki kunda bir qator mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim tarbiya jarayonini samaradorligini kafolatlovchi interfaol metodlarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar I N T E R F A O L M E T OD lar nomi bilan kiritilmoqda. Quyida ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so‘z yuritamiz: Interfaol asosida dars jarayonini tashkil etilganda:

1. O‘quvchining o‘zaro faolligi oshadi, hamkorlik, ijodkorlikda ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

2. O‘quv, reja, dastur, darslik, standart. meyor, qo‘llanmalar, mavzu mazmuni bilan ishlash malakalari shakllanadi.

3. Ta’lim mazmunini, ma’ruzasini mustaqil mutoola qilish, ishlash, o‘zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi.

4. O‘quvchi erkin fikr bildirish, o‘z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi.

5. Eng muhimi o‘quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. Ya’ni, o‘quvchining ehtiyoji, hoxish-istagi qondiriladi. O‘quv-biluv jarayonida o‘quvchining manfaatdorligi oshadi.

Bu holat o‘quvchini o‘quv maqsadlariga erishishda yuqori bosqichga ko‘taradi. O‘qitish mazmuni yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi. “O‘z vaqtida o‘qituvchi o‘quvchilar orasida ta’limiy aloqalar o‘rnatiladi”. O‘qitish usullari ta’lim jarayonida turli xil ko‘rinishlarda kechadi. O‘quv jarayonida o‘quv ehtiyojini qondirish bilan birgalikda yuqori motivatsiyaga ega bo‘ladi. O‘quvchilarda o‘zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o‘quv materiali yaxshi o‘zlashtiriladi. O‘quvchida o‘zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr

ISSN 3030-3907

almashinish ko‘nikmalari shakllanadi. O‘quv jarayonida – o‘quvchining o‘z-o‘ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O‘quvchi uchun dars qiziqarli va mazmunli o‘qitilayotgan fanga aylanadi, o‘qish jarayoniga ijodiy va mustaqil yondashishga harakat qiladi va har bir daqiqani g‘animat deb biladi. Muhimi o‘quvchilarda: - o‘quv mehnatiga o‘zida hoxish-istak uyg‘ota olishga; - har qanday vaziyatda faollik ko‘rsata olishga; - ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishga ko‘nikmalari shakllanadi. Shuning uchun ham, hozirgi kunda o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogika va didaktika fanlari oldida o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardandir.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR:

1. Dincă, D. (1998). Le multimédia en classe de langues. Annales de l'Université de Craiova. Série des sciences philologiques, 25-29.
2. Compte, C. (1989). L'image animée dans l'apprentissage du français langue étrangère. Langue Française 83. 22-34
3. Voir Beacco J.-C., Bouquet, S. & Porquier R. (2004) : Niveau B2 pour le français, Editions Didier, Paris, section 3.4.4, p. 96.
4. Alvarez G. (1977) : « Français fonctionnel, français instrumental, français scientifi- que, langue de speciality traduction », dans AUPELF : Le Renouveau des etudes francai-ses a l'universite, Actes de la Deuxieme rencontre mondiale des departements d'etudes françaises (Strasbourg), AUPELF, Montreal, p 71-83.
5. Van Ek J. A. (1975) : The Threshold Level in a European Unit/Credit System for Modern Language Learning by Adults, Conseil de l'Europe, Strasbourg.
6. Schunk, D. H. ; Rice, J.M.(1993). Strategy fading and progress feedback: Effects on selfefficacyand comprehension among students receiving remedial reading services.Journal of special education, 27, 3, 257-276.
7. Jurnal Pedagogik published by Universitas Muhammadiyah Aceh, ISSN: 26229005 DOI: Core Subject: Education (2 oktbr 2019 yil)
8. Edukasi: Jurnal Penaltien dan Artikel Pendidikan ISSN: 2085 1472, EISSN: 2579 4965 (30 iyun 2019 yil)

Internet saytlar:

9. www.press-service.uz
10. www.gov.uz
11. www.lex.uz
12. www.moodle.edu.uz
13. www.infocom.uz
14. www.bimm.uz
15. www.press-uz.info
16. www.ziyonet.uz

ISSN 3030-3907

17. www.edu.uz
18. www.pedagog.uz

ISSN 3030-3907

KONCHILIKDA ISH JOYLARIDA MEHNATNING NORMAL SHAROITLARINI YARATISH.

Usmonov Firdavs Ro‘zimurod o‘g‘li
Osiyo xalqaro universiteti “Umumtexnik fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi,
Tel: +998901141161
E-mail: usmonovfirdavs01@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur materialda konlarni ochiq usulda qazib olish jarayonida kon-transport mashinalari kabinalarida mehnat qiluvchi ishchilar uchun qulay va xavfsiz mikroiqlimni ta’minlash masalalari yoritilgan. Kabinalarda hosil bo‘ladigan issiqlik oqimlari, quyosh radiatsiyasining ta’siri, issiqlik kirish va yo‘qotilish manbalari, shuningdek, meteorologik parametrlarni me’yoriy darajada ushlab turish usullari tahlil qilingan. Konditsiyalash, shamollatish, chang va zararli gazlardan tozalash qurilmalarining tuzilishi, ishlash prinsiplari hamda ularning samaradorligi bayon etilgan. Davlat standartlariga muvofiq havo harorati, namlik va havo harakati tezligining ruxsat etilgan me’yorlari keltirilgan hamda kon-transport mashinalari kabinalarida qo‘llaniladigan zamonaviy konditsioner qurilmalarning texnik tavsiflari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ochiq usulda qazib olish, karyer, kon-transport mashinalari, kabina mikroiqlimi, quyosh radiatsiyasi, issiqlik oqimi, konditsioner qurilmalari, shamollatish, changtutgich, filtrlar, zararli gazlar, mehnat sharoiti, mehnatni muhofaza qilish.

Аннотация: В данном материале рассмотрены вопросы обеспечения комфортного и безопасного микроклимата для работников, занятых в кабинах горно-транспортных машин при открытом способе разработки месторождений. Проанализированы тепловые потоки, формирующиеся в кабинах, влияние солнечной радиации, источники поступления и потерь тепла, а также методы поддержания метеорологических параметров на нормативном уровне. Описаны конструкции, принципы работы и эффективность установок кондиционирования, вентиляции, очистки воздуха от пыли и вредных газов. В соответствии с государственными стандартами приведены допустимые нормы температуры, влажности и скорости движения воздуха, а также рассмотрены технические характеристики современных кондиционирующих установок, применяемых в кабинах горно-транспортных машин.

Ключевые слова: Открытый способ разработки, карьер, горно-транспортные машины, микроклимат кабины, солнечная радиация, тепловой поток, кондиционирующие установки, вентиляция, пылеулавливатель, фильтры, вредные газы, условия труда, охрана труда.

ISSN 3030-3907

Annotation: This material addresses the issues of ensuring a comfortable and safe microclimate for workers operating in the cabins of mining and haulage machines during open-pit mining. Heat flows formed inside the cabins, the influence of solar radiation, sources of heat gain and loss, as well as methods for maintaining meteorological parameters at optimal levels are analyzed. The design, operating principles, and efficiency of air conditioning, ventilation, and dust and harmful gas removal systems are described. In accordance with state standards, permissible limits for air temperature, humidity, and air movement velocity are presented, and the technical characteristics of modern air-conditioning units used in mining and haulage machine cabins are discussed.

Keywords: open-pit mining, quarry, mining and haulage machines, cabin microclimate, solar radiation, heat flow, air-conditioning systems, ventilation, dust collector, filters, harmful gases, working conditions, occupational safety.

KIRISH

Konlarni ochiq usulda qazib olishning rivojlanishi karyerlarda bajariladigan asosiy va yordamchi ish jarayonlari kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish asosida amalga oshiriladi. Shu sababli yildan yilga kon-transport uskunalari kabinalarida ishlaydigan mehnatkashlar soni ham oshib bormoqda. Kabinalarda qator omillar ta’sirida atrof-muhit atmosferasidan farq qiladigan mikroiqlim hosil bo‘ladi. Ushbu mikroiqlimning inson uchun yoqimli bo‘lishini ta’minlashda konditsioner qurilmalaridan foydalaniladi.

Bu qurilmalar atmosferani chang va zararli gazlardan tozalash bilan bir vaqtda kabinalardagi havoning harorati, namligi, harakarlanish tezligi kabi meteorologik parametrlarining optimal holatini ham ta’minlaydi.[1]

Yoz kunlarida kabinalardagi havo harorati atrof atmosferasi haroratidan yuqori bo‘ladi. Chunki bu kunlarda issiqlik oqimi intensivligi juda yuqori bo‘ladi.

Quyosh radiatsiyasi ta’sirida qizigan havoning kabinaga oqib kirishining oldini olish yoki kamaytirish uchun kabinalar oynali derazalar, devorlar kabi to‘siqlar bilan muhofaza qilinadi.

Yoz mavsumida asosiy issiqlik manbayi quyosh radiatsiyasi bo‘lib, uning miqdori gorizontga nisbatan quyosh qanday balandlikda turishi, atmosferaning shaffofligi, quyosh nurlarining yuzaga tushish burchagi va boshqa omillar ta’sirida katta diapazonda o‘zgaradi. Kabinalarni quyosh radiatsiyasidan to‘sish elementi gorizontal, vertikal va qiya joylashgan bo‘lishi mumkin. Bunda quyosh radiatsiyasi quyidagicha aniqlanadi:[1]

$$S_2 = S \cdot \sin h_q \; ; \; S_b = S \cdot \cos h_q \cdot \cos(A_0 - A_n); \; S_q = S_b \cdot \sin\alpha + S_2 \cdot \cos\alpha \,, \quad (1)$$

ISSN 3030-3907

bunda S_2, S_b va S_q – mos ravishda gorizontal, vertikal va qiya yuzalarga tog‘ridan tog‘ri tushadigan quyosh radiatsiyasi, W/m^2; S – yuzalarga tog‘ridan to‘gri nurlarga perpendikular tushadigan quyosh radiatsiyasi, W/m^2; hq – quyoshning gorizontga nisbatan joylashish balandligi, gradus; A_0 – quyosh azimuti, gradus; A_n– vertikal yuza bo‘yicha normal azimuti, gradus; α – yuzaning qiyalik burchagi, gradus.

Gorizontal yuzalardagi (mashina kabinalari tomi) issiqlik oqimining maksimal qiymati yoz oylarida kunning o‘rtalariga tog‘ri keladi (soat bo‘yicha 12 dan 14 gacha).

Quyosh radiatsiyasi natijasidagi deraza orqali kabinaga kiradigan issiqlik quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:[1,2]

$$Q_q = F\, S_{ik}\, K_{sh} \qquad (2)$$

bunda F – kabinaning bir tomonidagi eng katta oynaning maydoni,m^2; S_{ik} – kabinaga kiradigan issiqlikning solishtirma miqdori, W/m^2; K_{sh} – oynaning shaffofligini hisobga olish koeffitsiyenti (K_{sh}=0,8).

Kabinaga devorlar, pol va ship orqali kiradigan issiqlik (yoki undagi issiqlik yo‘qotilishi) miqdorini aniqlash ifodasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$Q_{um} = \sum K_T F_T \cdot (t_s - t_k), \qquad (3)$$

bunda K_T – issiqlik o‘tkazish koeffitsiyenti, W/(m^2.k); F_T – to‘siq uchastkasi maydoni, m^2; t_s – sirtli havo harorati, °C; t_k – kabinadagi havo harorati, °C. $t_k > t_s$ bo‘lsa, Q_{um} – manfiy bo‘ladi, ya’ni kabinadagi issiqlik yo‘qotiladi.

Kabinaga issiqlik kirishi uskunalarni boshqarish personallari (ekskavator haydovchisi, burg‘ilash stanogi masteri, avtoag‘dargichlar haydovchisi va boshqalar) orqali ham sodir bo‘lishi mumkin.

Issiqlik o‘tkazuvchanligi kichik bo‘lgan materiallar bilan to‘siqlarni izolatsiyalash issiqlik oqimini (yo‘qotilishi) kamaytirishning asosiy usuli hisoblanadi.

Amaldagi Davlat standartlari talablariga ko‘ra yilning sovuq davrlarida kabinadagi havo harorati (davrdagi o‘rtacha harorat +10 °C bo‘lganda) 18–20°C, nisbiy namlik 40–60 %, havo harakati tezligi 0,2 m/s dan oshmasligi kerak. Yilning issiq davrlarida esa kabinadagi havo harorati 21–23 °C, namligi 40–60 %, tezligi 0,3 m/s bo‘lishi kerak. Yilning juda sovuq davrlarida kabinadagi havo harorati 17–23 °C, nisbiy namlik 75 % gacha, havo harakati tezligi 0,7 m/s gacha bo‘lishiga ruxsat etiladi.[3]

Yilning issiq kunlarida kabinaga yuborilgan havoning belgilangan haroratini ta’minlash uchun uni maxsus konditsionerlar yordamida sovitiladi. Qishda esa

ISSN 3030-3907


aksincha, isitiladi. Bunda shamollatish havosi namligini sharoitga moslashtirish (oshirish yoki kamaytirish) zarurati tug‘iladi.

Tanlab olingan konditsiyalovchi qurilma maxsus rostlash moslamasiga ega bo‘lishi kerak. Bu moslama yordamida qishdagi tashqi havo parametrlaridan yozdagi parametrga (aksincha, yozdagisidan qishdagisiga) o‘tish davrida kabinadagi havoning normal parametrlari ta’minlanadi.

Karyer uskunalari uchun qo‘llanadigan konditsiyalovchi qurilmaning asosiy elementlaridan biri changtutgich bo‘lib, shamollatiladigan havoning changlanganligini talab etilgan darajaga tozalash va atrof-muhitni har qanday meteorologik sharoitda ham ishlay olishini hisobga olgan holda tanlab olinadi.

Karyerdan tashqaridagi havoning changlanganlik darajasi va changning fraksion tartibi bo‘yicha bir yoki ko‘p bosqichli changtutgich qurilmalaridan foydalanish mumkin. Siklonlar, multisiklonlar, shuningdek, siklonlar, moyli filtrlar, matoli filtrlovchi yenglar (rukavlar), qog‘oz filtrlar va boshqalar bilan birgalikda Venturi trubasidan changtutgichning alohida bosqichlari sifatida foydalaniladi.[3,4]

Alohida matoli yenglardan tashkil topgan filtr ancha takomillashgan filtr bo‘lib, changlangan havoni matosidan o‘tkazilganda changdan tozalanadi. Matolar vaqt-vaqti bilan yenglarni qoqish (silkitish) yoki havoni teskarisiga puflash orqali changlardan tozalanadi (reginatsiyalanadi). Yengli filtrlarda mato sifatida sukno, duxoba, lavsan, paxta flaneli, terilen va boshqa materiallardan foydalaniladi. 150–180 m^3/soat havoni 1 m^2 filtr yuzasidan o‘tkazilganda yengli filtrning qarshiligi 1200–1400 Pa bo‘lib, havoni tozalash samaradorligi 99,5–99,7% ni tashkil qiladi.



1 – rasm. Karton filtr konstruksiyasi: *1* – sirtqi qobiq; *2* – filtrlash kartoni; *3* – ichki qobiq; *4* – plastidol; *5* – metall qopqoq.

Filtrlovchi karton (1-rasm) boshqa filtrlarga (matoli yoki namatli filtrlar) nisbatan 10–30 marta arzon bo‘lib, uning havoni tozalash samaradorligi qog‘oz qatlamlari soniga bog‘liq bo‘ladi va 96–98 % ni tashkil qiladi.

ISSN 3030-3907

Filtrning regeneratsiya qilmasdan ishlash davomiyligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$t = \frac{1000 \cdot P_f \cdot F_f}{Q\left(C_o - C_k\right)},\ \text{soat}, \quad (4)$$

bunda P_f – filtrning chang yutish qobiliyati g/m^2; F_f –filtr maydoni (yuzasi), m^2; Q – filtrdan o‘tkazilgan havo sarfi, m^3/soat; C_o va C_k – mos ravishda tozalashdan oldin va tozalangandan keyingi havodagi chang konsentratsiyasi, mg/m^3.

Filtrga tushadigan havo yuklamasi (q_{yu}) quyidagicha aniqlanadi:

$$q_{yu} = \frac{Q}{F}. \quad (5)$$

Karyer atmosferasida changdan tashqari zararli gazlar ham bo‘lishi mumkin. Shamollatish havosini ulardan tozalash uchun faollashtiruvchi yog‘och ko‘miri (pistako‘mir) dan foydalanish mumkin. Ko‘mir ichki yonish dvigatellaridan ajralib chiqadigan ba’zi gaz va bug‘larni, shuningdek, radioaktiv zarralarni yutish hisobiga havoni tozalaydi. Gazdan tozalash filtrining o‘lchamlari 1 soatda 20 m^3 havoni tozalay olishi bo‘yicha aniqlanadi.

Havoni uglerod oksididan tozalashda 60 % MnO_2 va 40 % CaO dan tashkil topgan gupkali filtrdan foydalaniladi. Havoni uglerod ikki oksidi va vodorod sulfid gazlaridan tozalashda etanolaminlarning suvdagi eritmasidan foydalanish mumkin.[5]

Kon-transport mashinalari kabina konditsionerlari bilan havoni sun’iy sovitish ishlari freon yoki bug‘ kompression qurilmalar, havo sovitish mashinalari, termoelektrik batareyalar va bug‘lantiruvchi sovitish uskunalari bilan amalga oshiriladi. Ushbu sovitish qurilmalari yordamida atrof-muhit harorati 20 °C dan yuqori bo‘lganda havoni –10 dan –50 °C gacha sovitish, 100–130 °C gacha isitish mumkin.

Kon-transport mashinalari kabinasiga beriladigan havoni isitishda elektrik isitkichlar (elektrokaloriferlar), mustaqil isitkichlar, ichki yonuv dvigatellarining sovitish tizimlaridan ajralib chiqadigan issiqlik yoki ishlatilgan issiq gazdan, shuningdek, termoelektrik va isitkichlar kombinatsiyasidan foydalaniladi.

Kon-transport mashinalari kabinalari uchun ko‘p sonli konditsiyalovchi qurilmalar yaratilgan. Mehnatni muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan ЭРГ-400, ЭКГ-4,6 ekskavatorlari kabinasi uchun ishlab chiqarilgan havoni tozalash, isitish va sovitish qurilmasi resirkulatsion havodan foydalanishga asoslangan. Havoni tozalash uchun penopoliuretan filtrli va sukno-2 matosidan foydalaniladi.

ISSN 3030-3907

Qish kunlarida havo elektrokaloriferda isitiladi, yozda esa havo Freon agregatlarda sovitiladi.

1- jadvalda ekskavatorlarada qo‘llanadigan qurilmaning qisqacha texnik tavsifi berilgan.

1- jadval

Ko‘rsatkichlar	**O‘lchov birligi**	**Ekskavatorlar**	
		ЭРГ-400	**ЭКГ-4,6**
Havo sarfi jumladan:			
havo sarfi	m^3/soat	2500	1000
tashqi havo sarfi		60	60
Havo ishlab chiqishdagi kuch agregati quvvati:			
sovuq havo	kW	5,25	5,25
issiq havo		8,25	6,0
Issiq havoni tozalash darajasi:			
tashqi havo	%	98,8	98,8
resirkulatsion havo		60	70

Karyerlarda qo‘llanadigan konditsionerlarning sovuq havo ishlab chiqarishdagi quvvati 3,7 kW, issiq havo ishlab chiqarishda esa 6 kW ni tashkil qiladi. Havo sarfi 1000 m^3/soat, jumladan, tashqi havo sarfi 80 m^3/soat bo‘ladi. [4,5]

Xulosa: Konlarni ochiq usulda qazib olish sharoitida kon-transport mashinalari kabinalarida mehnat qiluvchi xodimlar sonining ortishi ularning ish joylarida normal mehnat sharoitlarini yaratishni dolzarb masalaga aylantiradi. Kabinalarda hosil bo‘ladigan noqulay mikroiqlim omillari ish unumdorligiga va inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli havoni sovitish, isitish, namligini me’yorlash hamda chang va zararli gazlardan tozalashni ta’minlovchi samarali konditsiyalash va shamollatish tizimlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy filtrlar va konditsioner qurilmalar qo‘llanilishi orqali kabinalarda sanitariya-gigiyena talablariga mos bo‘lgan mikroiqlim yaratish, mehnat xavfsizligini oshirish va ishchilarning samarali faoliyatini ta’minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Sagatov N.X. «Kon ishlari asoslari», o‘quv qo‘llanma, Toshkent, TDTU, 2005. - 212 bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 iyundagi PQ-5159-sonli Qarori “Kon-metallurgiya sanoati va unga bog‘liq sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”

ISSN 3030-3907

3. Егоров П.В., Бобер Е.. и др. «Основы горного дела», учебник, Москва, МГГУ, 2002. - 408 стр.
4. Muratova M.I. Burg`ulash va kon-qidiruv lahimlarini o`tish fanidan amaliy mashg`ulotlar uchun uslubiy qo`llanma.Toshkent 2017
5. Ю.Д.Норов, П.А.Шеметов Буровзрывные работы на открытых разработках Учебник. – Навоий НГГИ, 2007 – 237 с.

ISSN 3030-3907

ORGANIZM TO‘QIMALARINING ELEKTR O‘TKAZUVCHANLIGI VA REOGRAFIYANING FIZIKAVIY ASOSLARI

M.X. Boboqulova

Asia International University, Bukhara, Uzbekistan.

E-mail: muxtaramboboqulova607@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada biologik to‘qimalarning elektr o‘tkazuvchanligi, ularning fizikaviy xususiyatlari hamda tirik organizmda elektr hodisalarining yuzaga kelish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, reografiya usulining fizikaviy asoslari, elektr qarshilikning qon aylanish tizimi bilan bog‘liqligi va reografik signalning shakllanish prinsiplari yoritib beriladi. Reografiyaning tibbiyot amaliyotida, xususan, yurak-qon tomir tizimini baholashdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Reografiya usulining fizikaviy mohiyati, bioimpedans tushunchasi va reografik signal shakllanish mexanizmlari yoritilgan. Reografiya yordamida yurak-qon tomir tizimi faoliyatini baholash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari reografiyaning diagnostik ahamiyatini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: biologik to‘qima, elektr o‘tkazuvchanlik, bioimpedans, reografiya, qon aylanishi, elektr qarshilik.

Abstract. This article analyzes the electrical conductivity of biological tissues, their physical properties, and the mechanisms underlying the emergence of electrical phenomena in living organisms. In addition, the physical foundations of the rheography method, the relationship between electrical resistance and the circulatory system, and the principles of rheographic signal formation are explained. The significance of rheography in medical practice, particularly in the assessment of the cardiovascular system, is highlighted. The physical essence of the rheography method, the concept of bioimpedance, and the mechanisms of rheographic signal formation are described. The possibilities of evaluating cardiovascular system function using rheography are examined. The research results substantiate the diagnostic value of rheography.

Keywords: biological tissue, electrical conductivity, bioimpedance, rheography, blood circulation, electrical resistance.

Аннотация. В данной статье анализируется электрическая проводимость биологических тканей, их физические свойства, а также механизмы возникновения электрических явлений в живом организме. Кроме того, рассматриваются физические основы метода реографии, взаимосвязь электрического сопротивления с системой кровообращения и принципы формирования реографического сигнала. Показано значение реографии в медицинской практике, в частности при оценке состояния сердечно-

ISSN 3030-3907

сосудистой системы. Освещены физическая сущность метода реографии, понятие биоимпеданса и механизмы формирования реографического сигнала. Рассмотрены возможности оценки функционального состояния сердечно-сосудистой системы с помощью реографии. Результаты исследования обосновывают диагностическую значимость реографии.

Ключевые слова: биологическая ткань, электрическая проводимость, биоимпеданс, реография, кровообращение, электрическое сопротивление.

KIRISH

Zamonaviy tibbiyot va biofizika fanida tirik organizmda kechadigan elektr jarayonlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Biologik to‘qimalar murakkab elektrolytik muhit bo‘lib, ular orqali elektr toki ionlar harakati natijasida uzatiladi. Ushbu xususiyatlar asosida ko‘plab funksional diagnostika usullari ishlab chiqilgan. Shulardan biri — reografiya bo‘lib, u qon tomir tizimining holatini baholash imkonini beradi.Tirik organizm murakkab biofizik tizim bo‘lib, unda ko‘plab elektr hodisalari sodir bo‘ladi. Biologik to‘qimalarning elektr o‘tkazuvchanligini o‘rganish zamonaviy tibbiyot va biofizikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu xususiyatlar asosida diagnostik usullar ishlab chiqilgan bo‘lib, reografiya shular jumlasidandir. Reografiya qon tomirlarida qon oqimi va to‘qimalarning funksional holatini baholash imkonini beradi.Biologik to‘qimalar elektr tokini o‘tkazish xususiyatiga ega bo‘lib, bu ularning ion tarkibi va hujayra tuzilishi bilan bog‘liq. To‘qimalarda elektr o‘tkazuvchanlik asosan ionlar (Na^+, K^+, Cl^- va boshqalar) harakati orqali amalga oshadi.Turli to‘qimalarning o‘tkazuvchanligi keskin farq qiladi. Masalan, qon va mushak to‘qimalari yuqori, yog‘ va suyak to‘qimalari esa past elektr o‘tkazuvchanlikka ega. To‘qimalarning elektr qarshiligi ularning fiziologik holatiga, qon bilan to‘yinishi va namligiga bog‘liq bo‘ladi.Turli to‘qimalarning elektr o‘tkazuvchanligi bir xil emas:

qon va mushak to‘qimasi — yuqori o‘tkazuvchanlikka ega;

yog‘ va suyak to‘qimalari — past o‘tkazuvchanlikka ega.

Biologik to‘qimalarning elektr qarshiligi (impedansi) ularning namligi, qon bilan ta’minlanganligi va fiziologik holatiga bog‘liq bo‘ladi.Biologik to‘qimalarda o‘zgaruvchan tok ta’sirida to‘liq qarshilik — bioimpedans yuzaga keladi. Bioimpedans aktiv va reaktiv qarshiliklardan iborat:

$$Z=\sqrt{R^2+X^2}$$

bu yerda:

Z — bioimpedans,

R — aktiv qarshilik,

X — reaktiv qarshilik.

ISSN 3030-3907

Reaktiv qarshilik hujayra membranalarining sig‘im xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, u reografiyada muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Biologik to‘qimalarning elektr o‘tkazuvchanligi tirik organizmda kechadigan muhim biofizik jarayonlardan biridir. Reografiya usuli ushbu xususiyatlarga asoslanib, yurak-qon tomir tizimini invaziv bo‘lmagan usulda baholash imkonini beradi. Ushbu metod klinik amaliyotda keng qo‘llanilib, kasalliklarni erta aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.Organizm to‘qimalarining elektr o‘tkazuvchanligi va reografiya (Rheography) tibbiyot va fiziologiyada muhim diagnostik usullardan biridir. Ushbu mavzu asosan inson va hayvonlarning biologik to‘qimalari elektr toki orqali qanday o‘tkazuvchanlik ko‘rsatishini o‘rganishga qaratilgan. Organizm to‘qimalarining elektr o‘tkazuvchanligi ularning suv va elektrolit tarkibi, hujayra membranalari, qon aylanishi va metabolik holati bilan chambarchas bog‘liq.Elektr o‘tkazuvchanlikning fizik asoslari shuni ko‘rsatadiki, biologik to‘qimalar parallel va ketma-ket rezistorlar sifatida ishlashi mumkin. Hujayra ichidagi suyuqlik va qon plazmasi yaxshi elektr o‘tkazuvchi bo‘lishi bilan, hujayra membranalari va yog‘lar tokni cheklovchi element sifatida harakat qiladi. Shu sababli, to‘qimalarning umumiy elektr qarshiligi (rezistivligi) ular tarkibidagi suv va elektrolitlarning nisbati, qon tomirlari holati va metabolik faoliyatiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.Reografiya — to‘qimalarning elektr qarshiligidagi o‘zgarishlarni qayd etish orqali qon aylanish jarayonini o‘rganish usulidir.Usul asosida past kuchlanishli va yuqori chastotali o‘zgaruvchan elektr toki qo‘llaniladi. Reografiya — to‘qimalardan o‘tayotgan yuqori chastotali (20–100 kHz) va kichik kuchli elektr tok yordamida ularning elektr qarshiligidagi o‘zgarishlarni qayd etish usulidir.Qon tomirlarida qon hajmi oshganda elektr qarshilik kamayadi, qon hajmi kamayganda esa qarshilik ortadi.Reografiya usulining fizikaviy asosi Om qonuniga tayanadi:

$$R=\frac{U}{I}$$

bu yerda:

R-elektr qarshilik

U — kuchlanish,

I — tok kuchi.


Qon hajmining pulsatsion o‘zgarishi elektr qarshilikning davriy o‘zgarishiga olib keladi va bu reografik egri chiziq ko‘rinishida qayd etiladi.Qon tomirlarida qon hajmi oshganda:elektr qarshilik kamayadi,reografik egri chiziqda amplituda oshadi.Aksincha, qon hajmi kamayganda qarshilik ortadi. Reografik signal yurak sikliga mos ravishda pulsatsion xarakterga ega bo‘ladi.Reografik signalning shakllanishi quyidagi omillarga bog‘liq:qon tomirlarning elastikligi,yurak

ISSN 3030-3907

qisqarish kuchi,tomir devorlarining tonusi.Reogramma tahlili orqali tomirlarning funksional holati, periferik qarshilik va qon aylanish tezligi haqida ma’lumot olish mumkin.Reogramma yordamida quyidagilar baholanadi:qon tomirlarning **to‘lish darajasi,arterial va venoz qon oqimi,**tomirlar **elastikligi va tonusi,q**on aylanish buzilishlari aniqlanadi.



Reoensefalografiya (REG) — miya tomirlari faoliyatini yozish. **qon tomirlarining qon oqimi va miya elektr faolligini bilvosita o‘rganish usuli**. Oddiy qilib aytganda, u **miya qon aylanishi va uning qon tomirlarining ish faoliyatini tekshiradi**. REG **miya qon tomirlarining elastikligi, qon oqimi tezligi va tomirlarning tonusi** haqida ma’lumot beradi. Shu sababli, u **miya qon aylanishi buzilgan holatlarni**, masalan: bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, gipoksiya, insult xavfi va boshqa nevrologik holatlarni aniqlashda ishlatiladi.



Reokardiografiya — bu **yurakning qon aylanishi va qon tomirlarining ish faoliyatini o‘rganishga mo‘ljallangan diagnostik usul**. Oddiy qilib aytganda, u yurak qon tomirlari va yurak mushaklarining ish faoliyatini **elektr oqim orqali bilvosita tekshiradi.**



Reovazografiya — bu **organlar yoki to‘qimalardagi qon oqimini va qon tomirlarining elastikligini o‘lchash usuli.** Oddiy qilib aytganda, u **tomirlar va**

ISSN 3030-3907

qon aylanishining holatini bilvosita tekshiradi. Reovazografiya yordamida qon tomirlarining torayishi yoki kengayishi,qon oqimi tezligi va qon aylanishining qiyinligi,yurak va tomir tizimi bilan bog‘liq kasalliklar, masalan, ateroskleroz, diabetik angiopatiya, oyoq tomirlaridagi muammolarni aniqlaydi.

Reopulmonografiya — Reopulmonografiya (RPG) — bu **o‘pkadagi qon tomirlarining qon oqimi va elastikligini o‘lchash usuli.** Oddiy qilib aytganda, u **o‘pka tomirlari orqali qon aylanishini tekshiradi. Reopulmonografiya o‘**pka tomirlaridagi qon oqimi va elastiklikni baholash,o‘pka qon tomirlarining torayishi yoki qon aylanishidagi buzilishlarni aniqlash va yurak va o‘pka kasalliklari, masalan, gipertoniya yoki emboliya xavfini baholashda qo`llaniladi.

Reogepatografiya — bu **jigar qon tomirlaridagi qon oqimi va elastikligini o‘lchash usuli.** Oddiy qilib aytganda, u **jigar tomirlari orqali qon aylanishini baholaydi. Reogepatografiya j**igar tomirlaridagi qon oqimining tezligi va elastikligi,jigar sirrozi, portal gipertenziya yoki boshqa jigar qon aylanishi bilan bog‘liq kasalliklarni baholash va jigar faoliyati bilan bog‘liq qon aylanishining buzilishlarini kuzatishda qo`llaniladi.

XULOSA

Reografiya — bu to‘qimalarning elektr qarshiligidagi o‘zgarishlarni o‘lchash usuli bo‘lib, ayniqsa qon aylanishi bilan bog‘liq hodisalarni aniqlashda ishlatiladi. Reogramma orqali yurak faoliyati, periferik qon tomirlarining holati va qon oqimining dinamikasi haqida ma’lumot olish mumkin. Reografiya prinsipida tokni organizmga past tok kuchi bilan berib, to‘qimalardagi qarshilik va uni o‘zgarishlari kuzatiladi.To‘qimalarning elastikligi, qon hajmi va tomirlarning kengayishi yoki torayishi reogramma shakliga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.Bu esa reografik signallarning vaqt bo‘yicha o‘zgarishini tushuntiradi va ularni analiz qilish orqali qon aylanishidagi patologik holatlarni aniqlash imkonini beradi.Umuman olganda, organizm to‘qimalarining elektr o‘tkazuvchanligini o‘rganish va reografik usullarni qo‘llash tibbiyotda diagnostik jarayonlarni chuqurlashtiradi. Bu usullar yordamida yurak-qon tomir tizimi, periferik qon oqimi, to‘qimalarning metabolik holati va suyuqlik balansini baholash mumkin. Shu bilan birga, reografiya invaziv bo‘lmagan, tez va nisbatan oddiy usul bo‘lib, klinik amaliyotda keng qo‘llaniladi.Organizm to‘qimalarining elektr o‘tkazuvchanligini o‘rganish va reografik usullarni qo‘llash tibbiyotda diagnostik jarayonlarni chuqurlashtiradi.Bu usullar yordamida yurak-qon tomir tizimi, periferik qon oqimi, to‘qimalarning metabolik holati va suyuqlik balansini aniqlash mumkin.Shu bilan birga, reografiya invaziv bo‘lmagan, tez va nisbatan oddiy usul sifatida klinik amaliyotda keng qo‘llaniladi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gabriel, C., & White, R. (2018). *Bioelectricity: Principles and Applications in Physiology*. Oxford University Press.
2. Kupriyanov, A. (2015). *Rheography in Clinical Practice*. Moscow: Medicina.
3. Geddes, L. A., & Baker, L. E. (2014). *Principles of Applied Biomedical Instrumentation*. Wiley.
4. Popov, D. V. (2012). *Electrophysiology of Tissues*. St. Petersburg: Nauka.
5. Guyton, A. C., & Hall, J. E. (2021). *Textbook of Medical Physiology*. Elsevier.

ISSN 3030-3907

ELLIPTIK TIPLI TENGLAMALAR VA LAPLAS TENGLAMASINING TEKISLIKDA VA FAZODAGI FUNDAMENTAL YECHIMLARI

Otajonova Sitorabonu Shuxratovna
Osiyo xalqaro universiteti "Umumtexnik fanlar" kafedrasi o'qituvchisi
Tel: +998939627477
E-mail: sitorabonuotajonova@gmail.com

Annotatsiya. Bu maqolada qo'yilgan masala korrekt qo'yilmagan masalalar qatoriga kiradi ya'ni uning yechimida turg'unlik sharti buziladi. Agar A.N. Tixonov teoremasidan foydalansak, ya'ni masalaning yechimlar sinfini kompakt to'plamgacha qisqartirsak, u holda yechim shartli korrekt bo'ladi. Shartli korrekt masalalarni esa Karleman funksiyalarni tuzish yordamida yechimi aniqlanadi. Birinchi marta analitik funksiyalar uchun Koshi masalasini yechishda Karleman funksiyasi yordamida Goluzin va Krilovlar tomonidan chegaralangan sohada masalaning yechimi keltirilgan. Bunday masalani Laplas tenglamasi uchun akademik M.M. Lavrentev tomonidan yechilgan. Xuddi shunday masalani professor Sh.Yarmuxamedov tomonidan Karleman funksiyasini oshkor ravishda keltirilgan.

Kalit so'zlar: elliptik, korrekt masalalar, Laplas tenglamasi, funksiyalar, elementar yechim, fundamental yechim, Neyman masalasi.

Аннотация. В данной статье поставленная задача относится к классу некорректно поставленных задач, то есть при её решении нарушается условие устойчивости. Если воспользоваться теоремой А. Н. Тихонова, то есть сузить класс решений задачи до компактного множества, то задача становится условно корректной. Решения условно корректных задач могут быть найдены с помощью построения функций Карлемана. Впервые при решении задачи Коши для аналитических функций с использованием функции Карлемана Гольузиным и Крыловым было получено решение задачи в ограниченной области. Аналогичная задача для уравнения Лапласа была решена академиком М. М. Лаврентьевым. Подобная задача также была рассмотрена профессором Ш. Ярмухамедовым, который привёл явное выражение функции Карлемана.

Ключевые слова: эллиптические, корректно поставленные задачи, уравнение Лапласа, функции, элементарное решение, фундаментальное решение, задача Неймана.

Abstract. In this article, the formulated problem belongs to the class of ill-posed problems, that is, the stability condition is violated in its solution. If one applies A. N. Tikhonov's theorem, namely, restricts the class of solutions to a compact set, then the problem becomes conditionally well-posed. The solutions of conditionally well-posed problems can be determined by constructing Carleman functions. For

ISSN 3030-3907

the first time, in solving the Cauchy problem for analytic functions using a Carleman function, Goluzin and Krylov obtained a solution of the problem in a bounded domain. A similar problem for the Laplace equation was solved by Academician M. M. Lavrentiev. An analogous problem was also studied by Professor Sh. Yarmukhamedov, who provided an explicit form of the Carleman function.

Keywords. elliptic, well-posed problems, Laplace equation, functions, elementary solution, fundamental solution, Neumann problem.

KIRISH

Bu maqolada elliptik tipli tenglamalar uchun asosiy chegaraviy masalalar keltirilgan. Bunda elliptik tipli tenglamalar uchun Laplas va Puasson tenglamalari haqida aytilgan. Laplas tenglamasining fundamental yechimlari keltirilgan. Elliptik tipdagi tenglamalardan eng soddasi va muhimi Laplas va Puasson tenglamalari ko‘rsatilgan. Birinchi va ikkinchi formulalari ko‘rsatilgan, garmonik funksiyalar va ularning xossalari keltirilgan. Gelmgols tenglamasi uchun integral formula keltirilgan. Gelmgols tenglamasining fundamental yechimlari va Grin funksiyasi keltirilgan.

1.1. Elliptik tipli tenglamalar va ularga qo‘yilgan masalalar

Aytaylik, $D \subset E^n$ fazoda chekli soha bo‘lib, uning chegarasi $S = \partial D$ bo‘laklari silliq sirtdan iborat bo‘lsin. $E^n - \overline{D}$ ni D_1 orqali belgilab olamiz, ya’ni

$$D_1 = E^n - \overline{D}.$$

Dirixlening ichki masalasi. D sohada garmonik $\overline{D} = D \bigcup S$ da uzluksiz va

$$\lim_{x \to x_0} u(x) = \varphi(x_0), \quad x_0 \in S, \quad x \in D \qquad (1.1)$$

chegaraviy shartni qanoatlantiruvchi $u(x)$ funksiya topilsin.

Dirixlening tashqi masalasi. D_1 sohada garmonik shunday $u(x)$ funksiya topilsinki, u S da berilgan uzluksiz qiymatlarni qabul qilib, ya’ni

$$\lim_{x \to x_0} u(x) = \varphi(x_0), \quad x_0 \in S, \quad x \in D_1 \qquad (1.2)$$

$|x| \to \infty$ da $n > 2$ bo‘lgan holda $|x|^{2-n}$ dan sekin bo‘lmay nolga intilsin, $n = 2$ da esa chekli limitga intilsin.

Neymanning ichki masalasi. D sohada garmonik $D \bigcup S$ da o‘zining birinchi tartibli hosilalari bilan birga uzluksiz bo‘lgan $u(x)$ funksiya topilsinki, uning normal bo‘yicha olingan hosilasi S da avvaldan berilgan qiymatlarga teng bo‘lsin, ya’ni

$$\lim_{x \to x_0} \frac{\partial u}{\partial \vec{n}} = \psi(x_0), \quad x_0 \in S, \quad x \in D, \qquad (1.3)$$

ISSN 3030-3907

bu yerda $\vec{n} - S$ ga o‘tkazilgan normal.

Neymanning tashqi masalasi. D sohada garmonik shunday $u(x)$ funksiya topilsinki, uning normal bo‘yicha olingan hosilasi S da avvaldan berilgan qiymatlarni qabul qilsin, ya’ni

$$\lim_{x \to x_0} \frac{\partial u}{\partial \vec{n}} = \psi(x_0), \quad x_0 \in S, \quad x \in D_1, \qquad (1.4)$$

hamda funksiyaning o‘zi cheksiz uzoqlashgan nuqtada $n > 2$ bo‘lgan holda nolga, $n = 2$ da esa chekli limitga intilsin.

Dirixlening ichki va tashqi masalalari bittadan ortiq yechimga ega bo‘lmaydi.

Haqiqattan ham, bu masalalar bir xil chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi 2 ta u_1 va u_2 yechimga ega bo‘lsin. U holda, $u = u_1 - u_2$ funksiya (1.1) tenglamani va $u|_S = 0$ shartni qanoatlantiradi. Avval ichki masalani ko‘ramiz. Ekstremum prinsipining ikkinchi natijasiga ko‘ra barcha D sohada $u \equiv 0$ bo‘ladi, demak $u_1 = u_2$.

Endi tashqi masalani tekshiramiz.

Avval $n > 2$ bo‘lsin. Shartga asosan $u(x)$ funksiya D_1 sohada garmonik, shu bilan birga $u|_S = 0$ va x nuqta koordinata boshidan yetarli uzoqlashganda $|u(x)| \le \frac{C}{|x|^{n-2}}$, $C = const$, tengsizlik o‘rinli bo‘ladi.

Markazi koordinata boshida va radiusi R ga teng bo‘lgan hamda S sirtni to‘la o‘z ichiga olgan S_R sferani olamiz. $u(x)$ funksiyani S sirt va S_R sfera bilan chegaralangan D_R sohada qaraymiz. Agar radius yetarli kata bo‘lsa, S_R sferada $|u(x)| \le \frac{C}{R^{n-2}}$ tengsizlik bajariladi. Ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son olamiz va R ni shunday kata qilib tanlaymizki, $CR^{n-2} < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsin. D_R sohada $u(x)$ funksiya o‘zining eng kata va eng kichik qiymatlarida yoki S da, yoki S_R da erishadi, demak, bu qiymatlar modul bo‘yicha ε dan kichik emas. $x - D_1$ sohaning ixtiyoriy nuqtasi bo‘lsin. Yetarli katta R da bu nuqta D_R ga tushadi, shuning uchun ham $|u| < \varepsilon$. Ammo ε – ixtiyoriy musbat son bo‘lganligi sababli $u(x) = 0$, demak $u_1(x) = u_2(x)$.

Agar $n = 2$ bo‘lsa, conform almashtirish (masalan kasr chiziqli) natijasida cheksiz sohani chekli sohaga o‘tkazish mumkin. Bunda Laplas tenglamasi yana Laplas tenglamasiga, cheksiz sohada garmonik bo‘lgan $u(x)$ funksiya esa chekli sohada garmonik bo‘lgan funksiyaga o‘tadi va bu funksiya sohaning chegarasida

ISSN 3030-3907

nolga teng bo‘ladi. Shunday qilib, cheksiz soha uchun Dirixle masalasi yechimining yagonaligi isbot qilingan chekli sohadagi Dirixle masalasiga keladi.

Laplas tenglamasi uchun Neymanning ichki masalasi o‘zgarmas son aniqligida topiladi, ya’ni masalaning ikkita yechimi bir-biridan o‘zgarmas son bilan farq qiladi.

Agar fazoning o‘lchovi $n>2$ bo‘lsa, u holda Neymanning tashqi masalasi bittadan ortiq yechimga ega bo‘lmaydi.

Bu fikrning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish uchun yuqorida kiritilgan chegaralari S va S_R dan iborat bo‘lgan D_R sohaga $\sum_{i=1}^{n}\int_D\left(\frac{\partial u}{\partial x_i}\right)^2 dx=\int_S u(y)\frac{\partial u}{\partial n}ds$ formulani qo‘yamiz.

S_R sfera bo‘yicha olingan integralni baholaymiz. R yetarli katta bo‘lganda

$$|u(x)|<\frac{A}{|x|^{n-2}},\ |D^i u|<\frac{A}{|x|^{n-2+i}},\quad n\geq 3 \text{ ga ko‘ra}$$

$$|u(x)|\leq\frac{C}{R^{n-2}},\ \left|\frac{\partial u}{\partial n}\right|\leq\frac{C_1}{R^{n-1}},\quad C,C_1-const$$

tengsizliklar o‘rinli bo‘ladi. U holda

$$\left|\int_{S_R} u\frac{\partial u}{\partial n}dS_R\right|\leq\frac{CC_1|S_R|}{R^{2n-3}}=\frac{CC_1|S_1|}{R^{n-2}}\xrightarrow[R\to\infty]{}0.$$

$\left.\frac{\partial u}{\partial n}\right|_S=0$ bo‘lgani uchun formuladagi S bo‘yicha olingan integral nolga teng.

Shunday qilib, $R\to\infty$ da

$$\sum_{i=1}^{n}\int_D\left(\frac{\partial u}{\partial x_i}\right)^2 dx\to 0.$$

Demak, $\frac{\partial u}{\partial x_i}=0,\ i=1,\ldots,n, u=const.$ Ammo $|x|\to\infty$ da $u\to\infty$ uchun, $u=0$ ekanligi kelib chiqadi.

Agar $n=2$ bo‘lsa, Neymanning tashqi masalasi o‘zgarmas son aniqligida topiladi.

Bu holda ham xuddi yuqoridagidek, $u=const$ tenglikka ega bo‘lamiz. Chekli uzoqlashgan nuqtada $n=2$ da garmonik funksiya chegaralangan bo‘lgani uchun, yuqoridagi fikrimizning to‘g‘riligiga darhol ishonch hosil qilamiz.

1.2. Laplas tenglamasining tekislikda va fazodagi fundamental yechimlari

Elliptik tipdagi tenglamalardan eng soddasi va muhimi Laplas

ISSN 3030-3907

$$\Delta u = 0, \qquad \Delta = \sum_{i=1}^{n} \frac{\partial^2}{\partial x_i^2} \tag{2.1}$$

va Puasson

$$\Delta u = f(x) \tag{2.2}$$

tenglamalaridir.

E^n fazodagi ikki $x=(x_1,...,x_n)$, $\xi=(\xi_1,...,\xi_n)$ nuqta orasidagi masofani r orqali belgilab olamiz, ya'ni

$$r = |x-\xi| = \sqrt{\sum_{i=1}^{n} (x_i - \xi_i)^2}.$$

Bevosita tekshirish bilan ishonch hosil qilish mumkinki, ushbu

$$E(x,\xi) = \begin{cases} r^{2-n}, & n>2 \\ \ln\frac{1}{r}, & n=2 \end{cases} \tag{2.3}$$

funksiya $x \neq \xi$ bo'lganda x bo'yicha ham, ξ bo'yicha ham Laplas tenglamasini qanoatlantiradi.

Haqiqatan,

$$\frac{\partial E}{\partial x_i} = (2-n) r^{1-n} \frac{\partial r}{\partial x_i} = (2-n) r^{1-n} \frac{x_i - \xi_i}{r} = (2-n) r^{-n} (x_i - \xi_i),$$

$$\frac{\partial^2 E}{\partial x_i^2} = (2-n) r^{-n} - (2-n) n r^{-n-2} (x_i - \xi_i)^2.$$

Oxirgi ifodani (2.1) tenglamaning chap tomoniga olib borib qo'yamiz. U holda

$$\Delta E = n(2-n) r^{-n} - n(2-n) r^{-n-2} \sum_{i=1}^{n} (x_i - \xi_i)^2 = 0.$$

Xuddi shunga o'xshash $n=2$ hol tekshirib ko'riladi. $E(x,\xi)$ funksiya x va ξ ga nisbatan simmetrik bo'lgani uchun bu funksiya $x \neq \xi$ da ξ bo'yicha ham Laplas tenglamasini qanoatlantiradi deb aytishimiz mumkin.

(2.3) formula bilan aniqlangan $E(x,\xi)$ funksiyani Laplas tenglamasining *elementar* yoki *fundamental yechimi* deyiladi.

Cheksizlikda

$$E(x,\xi) = O\left(\frac{1}{|x|^{n-2}}\right)$$

baho o'rinli bo'ladi.

ISSN 3030-3907

Haqiqatan ham, $E(x,\xi)$ funksiyaning yetarli katta $|x|$ lardagi qiymati qiziqtirayotgani uchun $|x|>2|\xi|$ deb olishimiz mumkin.

U holda

$$r=|x-\xi|\geq|x|-|\xi|$$

tengsizlikka asosan, $|\xi|<\frac{|x|}{2}$ bo‘lgani uchun $|r|>\frac{|x|}{2}$ tengsizlik kelib chiqadi.

Bundan darhol

$$E(x,\xi)=\frac{2^{n-2}}{|x|^{n-2}}$$

tengsizlikka ega bo‘lamiz.

Ma’lumki, qiymatlari ikki nuqta o‘rtasidagi masofa r ga bog‘liq bo‘lgan Laplas tenglamasini qanoatlantiruvchi $u(r)$ funksiyalar orasida $C_1E(x,\xi)+C_2$ ko‘rinishdagi funksiyalardan boshqa funksiya mavjud emas, bunda C_1,C_2 – o‘zgarmas sonlar.

Faraz qilaylik, shunday funksiya mavjud bo‘lsin, ya’ni $u(x)=\lambda(r)$. Bu funksiyadan x_i o‘zgaruvchi bo‘yicha hosilalarni hisoblaymiz:

$$\frac{\partial u}{\partial x_i}=\frac{\partial u}{\partial r}\frac{\partial r}{\partial x_i}=\frac{x_i-\xi_i}{r}\frac{\partial\lambda}{\partial r},$$

$$\frac{\partial^2 u}{\partial x_i^2}=\frac{(x_i-\xi_i)^2}{r^2}\frac{\partial^2\lambda}{\partial r^2}+\frac{1}{r}\frac{\partial\lambda}{\partial r}\left[1-\frac{(x_i-\xi_i)^2}{r^2}\right].$$

Bu hosilalarni (2.1) tenglamaga qo‘ysak, Laplas tenglamasi o‘rniga

$$\lambda''+\frac{n-1}{r}\lambda'=0$$

oddiy differensial tenglama hosil bo‘ladi.

Bu tenglamaning umumiy yechimi

$$C_1E(x,\xi)+C_2$$

dan iboratdir.

XULOSA

Ushbu maqolada fazoda birinchi tartibli elliptik tipli sistema uchun Koshi masalasining yechimi chegaralangan soha chegarasining bir qismida berilganlaridan foydalanib sohaning ichida topish masalasi keltirilgan. Bunda prof.Sh.Yarmuxamedov metodidan foydalanib birinchi tartibli elliptik tipli sistemalar uchun Koshi masalasining yechimi topildi.

ISSN 3030-3907

Elliptik tipli tenglamalar va ularga qo‘yilgan masalalar ko‘rsatildi, bunda Dirixlening ichki va tashqi masalasi, hamda Neymanning ichki va tashqi masalasi qaraldi. Elliptik tipdagi tenglamalardan Laplas tenglamasining tekislikda va fazodagi fundamental yechimlari ko‘rildi. Gelmgols tenglamasi va u uchun integral formula ko‘rsatildi. Tenglama yechimining fizik ma’nosi keltirildi. Gelmgols tenglamasining fundamental yechimlari va yechimlarning integral tasviri, hamda Grin funktsiyasi ko‘rsatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Z. Malikov, S.Sh. Otajonova*. Uch o‘lchovli fazoda elliptik tipli tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasining regulyarizatsiyasi, “Amaliy matematika va axborot texnologiyalarining zamonaviy muammolari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 11-12 may 2022-yil Buxoro.

2. *З. Маликов, С.Ш. Отажонова.* Задача Коши для систем эллиптического типа первого порядка в специальной ограниченной области в трехмерной области, “International Scientific Journal Science and innovation” Series A Volume 1 Issue

3. Ш. Ярмухамедов, А. Абдукаримов, З. Маликов. “О Задачи Коши для системе эллиптического типа первого порядка”. Докл. Росс. -Акад. Наук. Том 323 (1992) №1.

4. Otajonova, S. S. (2025). INTERACTIVE METHODS IN TEACHING MATHEMATICS TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS: FOSTERING ENGAGEMENT AND CONCEPTUAL UNDERSTANDING. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 2(2), 84-87.

5. Shukhratovna, O. S. (2025). ORGANIZING INTERESTING GAMES FOR ELEMENTARY GRADES USING ELEMENTS OF COMBINATORICS. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 3(2), 117-119.

ISSN 3030-3907

OLIY TA’LIMDA MATEMATIKA FANLARINI O‘QITISHDA MUAMMOLI MASALALAR ASOSIDA TALABALARNING MANTIQIY VA REFLEKTIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Ramazonova Shohida Shomuhammadovna
Osiyo Xalqaro Universiteti Umumtexnik fanlar kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
E-mail: ramazonovashohida0109@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida matematika fanlarini o‘qitish jarayonida muammoli masalalar asosida talabalarning mantiqiy va reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda muammoli ta’limning nazariy asoslari tahlil qilinib, masala yechish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishning pedagogik samaradorligi asoslab beriladi. Shuningdek, talabalarning mustaqil fikrlash faolligini oshirishda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi roli ochib berilgan. Olingan natijalar muammoli masalalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning bilimlarni ongli o‘zlashtirishi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: muammoli ta’lim, matematika ta’limi, mantiqiy fikrlash, reflektiv fikrlash, mustaqil ta’lim, kompetensiya, oliy ta’lim.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития логического и рефлексивного мышления студентов на основе проблемных задач при обучении математическим дисциплинам в высших учебных заведениях. Проанализированы теоретические основы проблемного обучения и обоснована педагогическая эффективность поэтапной организации процесса решения задач. Раскрыта направляющая и консультативная роль преподавателя в активизации самостоятельной мыслительной деятельности студентов. Полученные результаты подтверждают, что проблемные задачи способствуют осознанному усвоению знаний и развитию профессиональных компетенций обучающихся.

Ключевые слова: проблемное обучение, математическое образование, логическое мышление, рефлексивное мышление, самостоятельное обучение, компетентность, высшее образование.

Abstract. This article discusses the development of students’ logical and reflective thinking through problem-based tasks in teaching mathematics at higher education institutions. The theoretical foundations of problem-based learning are analyzed, and the pedagogical effectiveness of organizing the problem-solving process in stages is substantiated. The guiding and advisory role of the teacher in enhancing students’ independent cognitive activity is revealed. The results confirm that

ISSN 3030-3907

problem-based tasks contribute to conscious knowledge acquisition and the development of professional competencies

Keywords: problem-based learning, mathematics education, logical thinking, reflective thinking, independent learning, competence, higher education.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – bo‘lajak mutaxassislarni nafaqat chuqur nazariy bilimlarga ega, balki mustaqil fikrlay oladigan, muammoli vaziyatlarda mantiqiy xulosa chiqaradigan va o‘z faoliyatini tahlil qila oladigan shaxs sifatida tayyorlashdan iborat. Ayniqsa, matematika fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarning mantiqiy tafakkuri, tahliliy fikrlashi va reflektiv yondashuvini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab hollarda oliy ta’limda matematika fanlari tayyor formulalar va algoritmlarni qo‘llashga asoslangan holda o‘qitiladi. Bunday yondashuv talabalarning mustaqil fikrlash faolligini cheklaydi va bilimlarni mexanik o‘zlashtirishga olib keladi. Shu bois, matematika ta’limida muammoli masalalar asosida ta’limni tashkil etish orqali talabalarning bilish faolligini oshirish va reflektiv fikrlashini rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Muammoli ta’lim yondashuvi talabalarning o‘quv jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishini ta’minlaydi. Muammoli masalalar orqali talabalar berilgan shartni tahlil qilish, yechim yo‘llarini izlash, qaror qabul qilish va natijani baholash jarayonlarini mustaqil amalga oshiradilar. Bu esa ularning kasbiy va umumiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagogik adabiyotlarda muammoli ta’lim talabalarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi samarali metodlardan biri sifatida e’tirof etiladi. B.B. Ma’murov va I.E. Davronovlar o‘z tadqiqotlarida oliy ta’limda kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuvda muammoli vaziyatlarning muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, muammoli topshiriqlar talabalarda mustaqil qaror qabul qilish va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi.

D. Inoyatovaning ilmiy ishlarida ta’lim jarayonida muammoli vazifalardan foydalanish o‘quvchilarning va talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Xorijiy tadqiqotchilar J. Bransford va R. Paul esa tanqidiy va reflektiv fikrlashni rivojlantirish bilimlarni chuqur va barqaror o‘zlashtirishning muhim sharti ekanligini qayd etadilar.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, matematika ta’limida muammoli masalalardan foydalanish talabalarning mantiqiy va reflektiv fikrlashini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga, oliy ta’limda ushbu

ISSN 3030-3907

yondashuvni tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish metodik jihatdan yanada chuqur o‘rganishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida matematika fanlarini o‘qitish jarayonida muammoli masalalar asosida talabalarning mantiqiy va reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlashga yo‘naltirilgan. Tadqiqot metodologiyasi faoliyatga asoslangan ta’lim nazariyasi va reflektiv yondashuvga tayangan holda ishlab chiqildi.

Tadqiqot mazmuni oliy ta’lim muassasalarida matematika fanlarini o‘qitish amaliyotini tahlil qilish hamda muammoli masalalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarni kuzatish jarayonida shakllantirildi. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodik tajribalarni umumlashtirishga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar majmuasi qo‘llanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Empirik metodlar doirasida dars jarayonini kuzatish, muammoli masalalar asosida mashg‘ulotlar tashkil etish hamda talabalarning o‘quv faoliyatini tahlil qilish amalga oshirildi.

Masala yechish jarayoni quyidagi bosqichlarda tashkil etildi: muammoni anglash va tahlil qilish, yechim rejasini tuzish, yechimni amalga oshirish va natijani reflektiv baholash. Har bir bosqichda talabalarning fikrlash faolligi va mustaqillik darajasi alohida mezonlar asosida baholandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, muammoli masalalar asosida tashkil etilgan matematika mashg‘ulotlari talabalarning mantiqiy va reflektiv fikrlashini sezilarli darajada faollashtirdi. Kuzatuvlar davomida talabalarning aksariyati masala shartini chuqur tahlil qilishga, turli yechim yo‘llarini solishtirishga va yakuniy xulosani asoslashga intilganliklari aniqlandi.

Kuzatuvlar natijasida talabalarning aksariyatida masalani yechish jarayoniga ongli yondashuv shakllangani aniqlandi. Ular masala shartini tahlil qilish, yechim rejasini tuzish va yakuniy natijani asoslashga intildilar. Reflektiv savollar asosida olib borilgan muhokamalar talabalarning o‘z fikrlarini baholash va xatolarini aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Reflektiv savollar va muhokamalar orqali talabalar o‘z xatolarini aniqlash va tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu holat muammoli masalalar talabalarning tanqidiy va reflektiv fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA

ISSN 3030-3907

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’limda matematika fanlarini muammoli masalalar asosida o‘qitish talabalarning mantiqiy va reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv talabalarning mustaqil qaror qabul qilish, muammoni tahlil qilish va o‘z faoliyatini baholash malakalarini shakllantiradi.

O‘qituvchining yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi roli, muammoli vaziyatlarni to‘g‘ri tanlashi va reflektiv yondashuvni qo‘llashi ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur metodik yondashuvni oliy ta’lim amaliyotiga keng joriy etish matematika ta’limining sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ma’murov B.B., Davronov I.E. *Pedagogik kompetentlik*. – Buxoro, 2022.
2. Inoyatova D. *Ta’lim jarayonida mustaqil fikrlashni rivojlantirish masalalari*. – 2024.
3. Bransford J., Brown A., Cocking R. *How People Learn*. National Academy Press, 2000.
4. Paul R., Elder L. *Critical Thinking*. Pearson, 2014.
5. Zunnunov A.A. *Oliy ta’limda muammoli ta’lim texnologiyalari*. – Toshkent, 2021.
6. Raxmonov U.Sh. *Matematika ta’limida kompetensiyaviy yondashuv*. – Toshkent, 2020.
7. Ismoilova M.X. *Muammoli o‘qitish asosida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish*. // Pedagogik ta’lim jurnali, 2022.
8. Jonassen D.H. *Learning to Solve Problems*. Routledge, 2011.
9. Hmelo-Silver C.E. *Problem-Based Learning*. Educational Psychology Review, 2018.

ISSN 3030-3907

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TA’LIM JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH VA SHAXSIYLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Rasulov Hasan Rustamovich
Osiyo xalqaro universiteti Umumtexnik fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: rasulovh420@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish va shaxsiylashtirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda adaptiv o‘qitish tizimlari, intellektual tutorlar, ta’lim analitikasi hamda mashinaviy o‘rganish asosida shakllangan raqamli ta’lim modellari ko‘rib chiqildi. Olingan natijalar sun’iy intellektga asoslangan ta’lim tizimlari o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish, individual ehtiyojlarni aniqlash va o‘quv jarayonini optimallashtirish imkonini berishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, adaptiv o‘qitish, mashinaviy o‘rganish, ta’lim analitikasi, shaxsiylashtirish.

Аннотация. В статье рассматриваются возможности применения технологий искусственного интеллекта в цифровизации и персонализации образовательных процессов. Особое внимание уделяется адаптивным обучающим системам, интеллектуальным тьюторам, образовательной аналитике и методам машинного обучения. Результаты исследования показывают, что использование искусственного интеллекта способствует повышению эффективности обучения, индивидуализации образовательных траекторий и оптимизации учебного процесса.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровое образование, адаптивное обучение, машинное обучение, образовательная аналитика.

Abstract. This article analyzes the role of artificial intelligence technologies in the digitalization and personalization of educational processes. The study explores adaptive learning systems, intelligent tutors, educational analytics, and machine learning-based educational models. The results indicate that AI-powered educational systems enhance learning efficiency, support personalized learning paths, and optimize the overall educational process.

Keywords: artificial intelligence, digital education, adaptive learning, machine learning, educational analytics.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimi tez o‘zgarib borayotgan jamiyat ehtiyojlariga moslashishi zarur. An’anaviy ta’lim metodlari barcha o‘quvchilarga bir xil yondashuvni taklif qiladi va bu ko‘pincha o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olmaslik bilan bog‘liq. Shu bois, ta’lim sifatini oshirish,

ISSN 3030-3907

o‘quvchilarning o‘zlashtirish tezligini va bilim doirasini kengaytirish uchun zamonaviy texnologiyalarga tayangan yondashuvlar zarurati paydo bo‘ldi. Sun’iy intellekt (SI) bu jarayonda muhim vosita sifatida ko‘riladi, chunki u o‘quvchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilish, individual ehtiyojlarini aniqlash va shu asosda shaxsiylashtirilgan o‘quv materiallarini taqdim etish imkonini beradi. SI texnologiyalari yordamida yaratilgan adaptiv ta’lim tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasini real vaqt rejimida kuzatib boradi, ularning qayerda qiynalayotganini aniqlaydi va zarur hollarda qo‘shimcha mashqlar yoki tushuntirishlarni tavsiya qiladi. Shuningdek, SI asosidagi tizimlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Masalan, interaktiv virtual tutorlar va chatbotlar orqali o‘quvchilar har qanday vaqtda savollar berishlari, murakkab tushunchalarni mustaqil o‘rganishlari va shaxsiylashtirilgan feedback olishlari mumkin. Bu esa o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mashinaviy va chuqur o‘rganish texnologiyalariga asoslangan adaptiv ta’lim platformalari o‘quvchilarning bilim olish tezligini 20–30% ga oshiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonidagi xatolarini kamaytirish va individual yo‘nalishlarni aniqlash imkoniyati ham sezilarli darajada yaxshilangan.

Bundan tashqari, SI texnologiyalari o‘qituvchilarga ham yordam beradi. Avtomatik baholash va ta’lim analitikasi orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning zaif va kuchli tomonlarini tezkor aniqlay oladi, darslarni shu asosda rejalashtiradi va shaxsiylashtirilgan o‘qitish strategiyasini ishlab chiqadi. Shu tariqa, o‘qituvchilarning vaqtini tejash va o‘quv jarayonini yanada samarali qilish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Shu sababli, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlarini rivojlantirish va ularni amaliy tarzda joriy etish zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalari yordamida yaratilgan adaptiv, interaktiv va shaxsiylashtirilgan ta’lim tizimlari nafaqat o‘quvchilar bilimini oshiradi, balki ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

1-jadval.

Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari tasnifi

№	Tizim turi	Tavsifi	Samaradorlik darajasi
1	Qoidaviy tizimlar	Oldindan belgilangan o‘quv ssenariylari	Past
2	Adaptiv tizimlar	O‘quvchi darajasiga moslashadi	O‘rta
3	ML asosidagi tizimlar	O‘rganish jarayonini tahlil qiladi	Yuqori

ISSN 3030-3907

4	DL asosidagi tizimlar	Murakkab o‘quv xatti-harakatlarini tahlil qiladi	Juda yuqori

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, chuqur o‘rganishga asoslangan ta’lim tizimlari o‘quvchilarning individual o‘rganish strategiyalarini aniqlashda yuqori samaradorlikka ega. Sun’iy intellektning ta’limdagi qo‘llanilishi statistik jihatdan ham o‘sib bormoqda.

2-jadval.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim sohalarida qo‘llanilishi (2024-yil, %)

Yo‘nalish	Ulushi (%)
Onlayn ta’lim platformalari	34
Avtomatik baholash tizimlari	26
Virtual tutorlar	21
Ta’lim analitikasi	19

Ushbu ko‘rsatkichlar sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimida tobora kengroq joriy etilayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, adaptiv ta’lim tizimlaridan foydalangan o‘quvchilarning 60–70% bilimlarni tezroq va samaraliroq o‘zlashtirgan. Shuningdek, shaxsiylashtirilgan o‘quv materiallari taqdim etilgan holatlarda o‘quvchilar motivatsiyasi sezilarli darajada oshgan.

3-jadval.

Interaktiv muloqotni ta’minlovchi texnologiyalarni taqqoslash

Texnologiya	Afzalliklari	Kamchiliklari	O‘rtacha samaradorlik (%)
Qoidaviy tizimlar	Soddalik	Moslashuvchan emas	40–45
ML	Moslashuvchanlik	Katta ma’lumot talab etadi	65–75
Deep Learning	Yuqori aniqlik	Resurs talabchan	80–90

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, chuqur o‘rganishga asoslangan texnologiyalar interaktiv muloqot samaradorligi bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Biroq bunday tizimlarni joriy etishda texnik va hisoblash resurslari masalasi muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

ISSN 3030-3907

Mazkur maqola sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi roli, interaktiv va shaxsiylashtirilgan o‘qitish imkoniyatlari hamda adaptiv platformalar orqali bilim egallash samaradorligini tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, SI asosidagi tizimlar o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, dars jarayonini moslashtirish va real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi.

Avvalgi tadqiqotlar va statistik ma’lumotlar asosida quyidagilarni qayd etish mumkin:

1. **Adaptiv va shaxsiylashtirilgan o‘qitish:** Mashinaviy va chuqur o‘rganish algoritmlari yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi va xatti-harakatlari tahlil qilinadi, shaxsiylashtirilgan o‘quv materiallari va mashqlar tavsiya etiladi. Bu o‘quv jarayonini samarali va qiziqarli qiladi.
2. **Motivatsiya va jalb qilinish darajasi:** Virtual tutorlar va interaktiv tizimlar o‘quvchilarning faol ishtirokini oshiradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, virtual tutorlar bilan ishlash o‘quvchilarning motivatsiyasini 15–20% ga oshiradi va bilimlarni tezroq egallashga yordam beradi.
3. **O‘qituvchilar uchun qulaylik:** Avtomatik baholash va ta’lim analitikasi tizimlari o‘qituvchilarga o‘quvchilarning zaif va kuchli tomonlarini tezkor aniqlash imkonini beradi, bu esa vaqtni tejash va darslarni yanada samarali rejalashtirishga yordam beradi.
4. **Interaktiv muloqot va tahlil:** NLP va DL texnologiyalari o‘quvchilarning savollarini tushunish va kontekstga mos javob berish imkonini beradi, shu bilan adaptiv platformalar o‘quvchi bilan interaktiv va samarali muloqotni ta’minlaydi.

Shuningdek, kelajak istiqbollari ham aniqlanmoqda:

- **Ko‘p tilli va multimodal ta’lim tizimlari:** SI yordamida turli tillarda va turli formatlarda (matn, audio, video) o‘quv materiallarini taqdim etish imkoniyati kengaymoqda.
- **Rejalashtirilgan o‘quv yo‘nalishlari:** O‘quvchilar uchun individual o‘quv yo‘nalishlarini avtomatik yaratish va adaptiv testlar yordamida o‘zlashtirish jarayonini maksimal darajada samarali qilish.
- **Global va masofaviy ta’lim:** SI tizimlari dunyoning istalgan nuqtasidagi o‘quvchilarga sifatli ta’limni yetkazish imkoniyatini oshiradi, bu esa onlayn ta’limning yanada kengayishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, SI asosidagi ta’lim tizimlarini joriy etishda quyidagi jihatlar e’tibordan chetda qolmasligi kerak:

- Texnik resurslar va hisoblash quvvatining yetarliligi.
- Tizimning maxfiylik va xavfsizlik talablariga mosligi.

ISSN 3030-3907

- O‘quvchilarning texnologiyani qabul qilish darajasi va o‘qituvchilarni tayyorlash.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim tizimlari ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish va samaradorlikni maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy ta’lim tizimlarini raqamlashtirish va shaxsiylashtirish yo‘lida muhim qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Russell, S., & Norvig, P. (2020). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th ed.). Pearson.
2. Adamopoulou, E., & Moussiades, L. (2020). *An Overview of Chatbot Technology*. *IFIP International Conference on Artificial Intelligence Applications and Innovations*, 373–383.
3. Xu, B., Zhang, Y., & Chen, L. (2021). *AI-Powered Chatbots in Education: A Review*. *Journal of Educational Technology & Society*, 24(2), 45–59.
4. Khatri, C., & Singh, A. (2022). *Natural Language Processing in Modern Chatbots*. *International Journal of Computer Applications*, 184(12), 23–30.
5. Chatterjee, S., & Bhattacharjee, D. (2023). *Deep Learning for Conversational AI*. *IEEE Access*, 11, 13520–13534.
6. Ma, L., & Li, H. (2022). *Machine Learning Approaches in Interactive Virtual Assistants*. *Journal of AI Research*, 73, 211–230.
7. Adamopoulou, E., Moussiades, L., & Dovrolis, C. (2019). *Chatbots in e-commerce and banking: Opportunities and challenges*. *Procedia Computer Science*, 160, 38–45.

ISSN 3030-3907

EMERGING METAVERSE TECHNOLOGIES AND THEIR APPLICATIONS

J.J. Munirov

"ASIA INTERNATIONAL UNIVERSITY" Teacher of "General technical sciences" department

Annotation. This article examines emerging metaverse technologies and their growing applications in modern digital environments. The metaverse represents an integration of immersive technologies such as virtual reality (VR), augmented reality (AR), mixed reality (MR), blockchain, artificial intelligence (AI), and advanced web technologies. These technologies collectively enable persistent, interactive, and shared virtual spaces that support social interaction, education, industry, and digital commerce. The paper reviews the conceptual foundations of the metaverse, its core technological components, and real-world application areas. It also discusses key challenges, including interoperability, performance, security, and ethical considerations. The conclusion highlights the transformative potential of metaverse technologies in shaping future digital ecosystems.

Keywords: Metaverse technologies, virtual reality, augmented reality, immersive environments, blockchain, digital interaction, Web3, simulation.

Annotatsiya. Ushbu maqolada rivojlanayotgan metaverse texnologiyalari va ularning zamonaviy raqamli muhitda o‘sib borayotgan ilovalari ko‘rib chiqiladi. Metaverse virtual haqiqat (VR), kengaytirilgan haqiqat (AR), aralash haqiqat (MR), blockchain, sun'iy intellekt (AI) va ilg‘or veb-texnologiyalar kabi immersiv texnologiyalarning integratsiyasini ifodalaydi.shbu maqolada rivojlanayotgan metaverse texnologiyalari va ularning zamonaviy raqamli muhitda o‘sib borayotgan ilovalari ko‘rib chiqiladi. Metaverse virtual haqiqat (VR), kengaytirilgan haqiqat (AR), aralash haqiqat (MR), blockchain, sun'iy intellekt (AI) va ilg‘or veb-texnologiyalar kabi immersiv texnologiyalarning integratsiyasini ifodalaydi. Ushbu texnologiyalar birgalikda ijtimoiy hamkorlik, ta'lim, sanoat va raqamli tijoratni qo‘llab-quvvatlaydigan doimiy, interaktiv va umumiy virtual maydonlarni ta'minlaydi. Maqolada metaverse kontseptual asoslari, uning asosiy texnologik komponentlari va real hayotda qo‘llanish sohalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, u o‘zaro ishlash, ishlash, xavfsizlik va axloqiy jihatlar kabi asosiy muammolarni muhokamaaqolada metaverse kontseptual asoslari, uning asosiy texnologik komponentlari va real hayotda qo‘llanish sohalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Metaverse texnologiyalari, virtual haqiqat, kengaytirilgan haqiqat, immersiv muhit, blockchain, raqamli shovqin, Veb3, simulyatsiya.

ISSN 3030-3907

Аннотация. В этой статье рассматриваются новые технологии метавселенной и их растущее применение в современных цифровых средах. Метавселенная представляет собой интеграцию иммерсивных технологий, таких как виртуальная реальность (VR), дополненная реальность (AR), смешанная реальность (MR), блокчейн, искусственный интеллект (AI) и передовые веб-технологии. В совокупности эти технологии создают постоянные, интерактивные и общие виртуальные пространства, которые поддерживают социальное взаимодействие, образование, промышленность и цифровую коммерцию. В статье рассматриваются концептуальные основы метавселенной, ее основные технологические компоненты и области применения в реальном мире. Также рассматриваются ключевые проблемы, включая совместимость, производительность, безопасность и этические соображения. В заключении подчеркивается преобразующий потенциал технологий метавселенной в формировании будущих цифровых экосистем.

Ключевые слова: технологии метавселенной, виртуальная реальность, дополненная реальность, иммерсивные среды, блокчейн, цифровое взаимодействие, Web3, симуляция.

INTRODUCTION

Digital technologies have rapidly evolved from two-dimensional interfaces toward immersive and interactive virtual environments. As users increasingly seek realistic experiences, real-time collaboration, and persistent digital spaces, the concept of the metaverse has emerged as a significant technological trend. The metaverse can be defined as a network of interconnected virtual environments where users interact through digital avatars and engage with both virtual and real-world data in real time. Unlike traditional online platforms, metaverse systems are designed to be persistent, shared, and immersive. Advances in graphics processing, network infrastructure, and wearable devices have accelerated the development and adoption of metaverse technologies.

Today, emerging metaverse technologies are influencing various sectors, including education, healthcare, entertainment, manufacturing, and digital commerce, making them a critical area of research and development.

A metaverse can be described as a digital virtual environment where individuals engage with one another through avatar representations, most commonly within three-dimensional spaces. These environments emphasize social interaction and economic activity, enabling users to communicate, collaborate, and exchange digital assets in real time. The concept of the metaverse was first introduced in the 1992 science fiction novel Snow Crash, where the term was formed by combining the words “meta” and “universe.” In this work, the metaverse

ISSN 3030-3907

is portrayed as an advanced form of the Internet—a unified and immersive virtual world accessed through virtual reality (VR) and augmented reality (AR) technologies. In contemporary usage, the term "metaverse" is closely associated with virtual reality systems and, more recently, with Web3 technologies. Since the early 2020s, it has increasingly been adopted as a popular marketing term by technology companies, sometimes overstating the maturity and capabilities of related platforms and innovations. Alongside its rapid development, the metaverse raises significant concerns regarding information privacy, user safety, and the potential for addictive behavior, issues that mirror long-standing challenges within social media and digital gaming ecosystems.



Picture 1. Avatars socialising in the virtual world *Second Life*

Core Technologies of the Metaverse. The metaverse is built upon a combination of several advanced technologies rather than a single system. The most important components include:

- **Virtual Reality (VR)** – creates fully immersive digital environments using head-mounted displays
- **Augmented Reality (AR)** – enhances the physical world by overlaying digital information
- **Mixed Reality (MR)** – blends real and virtual objects into a unified interactive space
- **3D Graphics and Simulation Engines** – enable real-time rendering and physics-based interaction
- **Blockchain Technologies** – support decentralized identity, digital assets, and virtual economies
- **Artificial Intelligence (AI)** – enables intelligent avatars, behavior modeling, and personalization

ISSN 3030-3907

- **Cloud and Edge Computing** – provide scalability, low latency, and persistent environments

These technologies work together to deliver immersive experiences and enable continuous interaction across virtual platforms.

Access to the metaverse is made possible through a variety of devices, including general-purpose computers, smartphones, and immersive technologies such as augmented reality (AR), mixed reality (MR), and virtual reality (VR). However, a strong reliance on VR technology has slowed the development and large-scale adoption of metaverse platforms. Constraints related to portable hardware—particularly the challenge of balancing performance, cost, and ergonomic design—have resulted in limited mobility and insufficient graphical quality. Many lightweight wireless VR headsets are unable to achieve the high pixel density required for full visual immersion. In addition, the relatively high cost of consumer VR devices has posed a significant barrier, with headset prices ranging from several hundred to several thousand US dollars in recent years. As a result, current research and development efforts are primarily aimed at improving VR headsets, smart glasses, and sensor technologies, as well as enhancing user immersion through advanced haptic feedback systems.

At present, there is no universally accepted technical standard for implementing metaverse platforms, and most existing solutions are built on proprietary technologies. A key challenge in metaverse development is interoperability, which is closely linked to issues of transparency, data protection, and user privacy. To address these concerns, several initiatives have been launched with the goal of standardizing virtual environment technologies.

One notable example is Universal Scene Description (USD), a 3D graphics interchange framework developed by Pixar and supported by tools such as Blender, Apple's SceneKit, and Autodesk 3ds Max. In 2021, NVIDIA announced the integration of USD into its metaverse development ecosystem. Another important standard is glTF, a format designed for the efficient transmission and loading of three-dimensional models and scenes across different engines and applications. Developed by the Khronos Group—an organization responsible for open, royalty-free standards—glTF 2.0 was officially recognized in August 2022 as an international standard under ISO/IEC 12113:2022. Additionally, OpenXR serves as an open standard for accessing virtual and augmented reality hardware and software experiences. It has been widely adopted by major technology companies, including Microsoft for HoloLens 2, Meta Platforms for Oculus Quest devices, HTC for HTC Vive, Qualcomm for the Snapdragon Spaces XR development platform, and Valve for SteamVR.[Picture

ISSN 3030-3907



Picture 2. Some software platforms require a virtual reality headset to explore the metaverse.

CONCLUSION

Emerging metaverse technologies represent a significant step toward immersive and interconnected digital environments. By combining immersive interfaces, intelligent systems, and decentralized infrastructures, the metaverse enables new forms of interaction, learning, and economic activity. Although technical and ethical challenges remain, continued innovation and standardization efforts are expected to drive widespread adoption. As a result, metaverse technologies are poised to become a foundational element of future digital ecosystems, influencing how people communicate, learn, and collaborate in virtual spaces.

LITERATURE USED

1. Self-Sovereign Identity for Trust and Interoperability in the Metaverse. https://arxiv.org/abs/2303.00422
2. MetaOpera: A Cross-Metaverse Interoperability Protocol. https://arxiv.org/abs/2302.01600
3. Towards Ubiquitous Semantic Metaverse: Challenges, Approaches, and Opportunities. https://arxiv.org/abs/2307.06687
4. Interoperability of the Metaverse: A Digital Ecosystem Perspective Review. https://arxiv.org/abs/2403.05205
5. Khronos Group. (n.d.). OpenXR. Wikipedia. https://en.wikipedia.org/wiki/OpenXR

ISSN 3030-3907

6. W3C. (n.d.). WebXR Device API. Wikipedia. https://en.wikipedia.org/wiki/WebXR
7. Metaverse Standards Forum. (n.d.). Metaverse Standards and Interoperability. https://metaverse-standards.org

ISSN 3030-3907

PHYTOCHEMICAL ANALYSIS OF MEDICINAL PLANTS WITH LACTAGONIC EFFECT

Bazarova Nigina Sabirjanovna

PhD Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

Abstract. The issue of patient trust in conventional medicine is a key issue in the debate about the role of herbal medicine in healthcare. Medications that have a lactogenic effect contain chemical compounds, meaning that long-term use of herbal preparations radically changes the risk profile compared to short-term use. Chronic exposure to biologically active substances of plant origin can lead to the accumulation of toxic chemicals, the development of subclinical disorders, and changes in the body's reactivity. However, these aspects are rarely considered in practical herbal medicine, creating an additional gap between real-world conditions of use and scientific understanding of safety.

Keywords: phytochemistry, galactogogue, aspect, safety, herbal medicine.

Аннотация. Проблема доверия пациентов к официальной медицине является важным вопросом в дискуссии о роли фитотерапии в системе здравоохранения. Лекарственнқе средства которые имеют лактогонным эффектом, содержит химическое соеденения, что длительное применение растительных препаратов радикально меняет профиль риска по сравнению с кратковременным применением. Хроническое воздействие биологически активных веществ растительного происхождения может привести к накоплению токсических химических соединений, развитию субклинических расстройств и изменениям реактивности организма. Однако эти аспекты редко учитываются в практической фитотерапии, что создает дополнительный разрыв между реальными условиями применения и научными представлениями о безопасности.

Ключевые слова: фитохимия, галактогог, аспект, безопасность, фитотерапия

Annotatsiya. Fitoterapiyaning sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘rni haqidagi munozaralarda bemorlarning rasmiy tibbiyotga bo‘lgan ishonchi muammosi muhim o‘rin tutadi.Laktogon ta’sirga ega bo‘lgaan o‘simliklarning kimyoviy tarkibi zaharli ta’siri o‘simlik vositalarini uzoq muddat qo‘llash qisqa muddatli foydalanish bilan solishtirganda xavf profilini tubdan o‘zgartiradi. O‘simliklardan olingan biologik faol moddalarning surunkali ta’siri toksik ta’sirlarning to‘planishiga, subklinik buzilishlarning rivojlanishiga va organizm reaktivligining o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Biroq, bu jihatlar amaliy fitoterapiyada kamdan-kam hollarda hisobga olinadi, bu esa haqiqiy qo‘llash sharoitlari va xavfsizlik haqidagi ilmiy g‘oyalar o‘rtasida qo‘shimcha tafovutni keltirib chiqaradi. ilmiy

ISSN 3030-3907

nashrlarda o‘simlik vositalarini uzoq muddat qo‘llash qisqa muddatli foydalanish bilan solishtirganda xavf profilini tubdan o‘zgartirishi ta’kidlangan. O‘simliklardan olingan biologik faol moddalarning surunkali ta’siri toksik ta’sirlarning to‘planishiga, subklinik buzilishlarning rivojlanishiga va organizm reaktivligining o‘zgaishiga olib kelishi mumkin. Biroq, bu jihatlar amaliy fitoterapiyada kamdan-kam hollarda hisobga olinadi, bu esa haqiqiy qo‘llash sharoitlari va xavfsizlik haqidagi ilmiy g‘oyalar o‘rtasida qo‘shimcha tafovutni keltirib chiqaradi.

Kalit so‘zlar: fitokimyo, galaktogog, aspekt, xavfsizlik, fitoterapiya.

KIRISH

Turkum *Phytolacca* (Phytolaccaceae oilasi) asosan Shimoliy va Markaziy Amerikada tarqalgan, shuningdek, Yevropa va Osiyoning bir qator mintaqalariga introduksiya qilingan 25 dan ortiq ko‘p yillik o‘t o‘simlik turlarini birlashtiradi [1]. Xalq tabobatida eng ko‘p o‘rganilgan va keng qo‘llaniladigan tur *Phytolacca americana* L. bo‘lib, u "amerika fitolakkasi" yoki "amerika lakonosi" nomlari bilan ham tanilgan. *Phytolacca americana* bo‘yi 1,5-3,0 m gacha yetadigan baquvvat o‘t o‘simlik bo‘lib, ildiz tizimi yaxshi rivojlangan. Ildizi yo‘g‘onlashgan, urchuqsimon, tarkibida ko‘p miqdorda zaxira va biologik faol moddalar mavjud. Poyasi tik o‘suvchi, sersuv, sershox, barglari yirik, tuxumsimon-nashtarsimon. To‘pgullar shingillar bilan ifodalanadi, mevalar to‘q binafsha rangli sersuv rezavor bo‘lib, tarkibida urug‘lar mavjud[3].

O‘simlik turli iqlim sharoitlariga yaxshi moslashadi, bu uning keng tarqalishi va madaniylashtirilishiga yordam beradi. Bir qator mamlakatlarda fitolakka invaziv tur sifatida qaraladi, bu esa uning biologik va toksikologik xususiyatlariga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi [4].

Fitokimyoviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, fitolakkaning turli qismlari o‘simlik turiga, o‘sishning ekologik sharoitlariga, yig‘ish vaqtiga va o‘simlikning ishlatiladigan qismiga bog‘liq bo‘lgan murakkab va o‘zgaruvchan kimyoviy tarkib bilan tavsiflanadi [6].

Adabiyot manbalarining qo‘shimcha tahlili shuni ko‘rsatadiki, *Phytolacca* turkumining asosiy xususiyatlaridan biri tur ichidagi va turlararo fitokimyoviy tarkibning yaqqol o‘zgaruvchanligidir. Hatto bir turning o‘zida ham biologik faol moddalar miqdori o‘simlikning geografik kelib chiqishi, iqlim sharoiti, tuproq turi va vegetatsiya fazasiga qarab sezilarli darajada o‘zgarishi mumkin. Bu holat fitolakkani farmakologik va toksikologik baholash uchun prinsipial ahamiyatga ega, chunki o‘simlik xom ashyosini olish sharoitlarini hisobga olmagan holda alohida tadqiqotlar natijalarini ekstrapolyatsiya qilishni imkonsiz qiladi.

ISSN 3030-3907

Bir qator ishlarda triterpen saponinlar va toksik faol oqsillarning eng yuqori konsentratsiyasi o‘simlikning yer osti organlarida, birinchi navbatda ildizlarida aniqlanishi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, barglar va mevalar faol komponentlarning boshqacha nisbati bilan tavsiflanadi, bu fitolakkaning turli qismlaridan tayyorlangan preparatlarning farmakologik va toksik profillaridagi farqlarni belgilaydi. Klinik jihatdan bu qo‘shimcha noaniqlikni keltirib chiqaradi, chunki xalq tabobatida o‘simlikning turli qismlari ko‘rsatmalar va xavflarni aniq chegaralamasdan ishlatiladi.

Fitolakkaning farmakologik faolligi ko‘p jihatdan uning tarkibiy qismlarining murakkab o‘zaro ta’siriga bog‘liq bo‘lib, alohida olingan bitta moddaning ta’siri emas. Zamonaviy tadqiqotlar saponinlar, lektinlar va fenol birikmalari o‘rtasida sinergizm mavjudligini ko‘rsatmoqda, bu esa ham terapevtik, ham toksik ta’sirlarni kuchaytirishi mumkin. Ta’sirning bunday ko‘p omilli xarakteri fitolakkani ko‘pchilik sintetik dori vositalaridan tubdan farqlaydi va klinik javobni bashorat qilishni murakkablashtiradi.

Farmakodinamik nuqtayi nazardan fitolakk ta’sir selektivligining yo‘qligi bilan tavsiflanadi. O‘simlikning biologik faol moddalari bir vaqtning o‘zida bir nechta fiziologik tizimlarga, jumladan, oshqozon-ichak trakti, immun tizimi va markaziy asab tizimiga ta’sir qiladi. Eksperimental modellarda fitolakkaning immunomodullovchi ta’siri yallig‘lanish kaskadlarining nospetsifik faollashuvi bilan kechishi, bu esa ma’lum sharoitlarda patologik reaksiyaga o‘tishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Bu esa potensial foydali va zararli ta’sir o‘rtasida tor oraliq mavjudligini tasdiqlaydi.

Fitolakka faol komponentlarining biosamaradorligi masalasi alohida e’tiborga loyiq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, saponinlar ichak epiteliysining o‘tkazuvchanligini o‘zgartirish qobiliyatiga ega, bu esa o‘simlikning o‘z tarkibiy qismlarini ham, yo‘ldosh moddalarni ham so‘rilishini kuchaytirishi mumkin. Ushbu ta’sir fitolakk preparatlarini, shu jumladan o‘simlik choylarini og‘iz orqali qabul qilishda tizimli toksiklikni oshirish mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi.

Adabiyotlarda fitolakkaning fitokimyoviy tarkibiga termik ishlov berishning ta’siri haqida ham fikrlar bildirilgan. Qizdirish va uzoq vaqt damlash ayrim oqsil toksinlarining faolligini pasaytirishi mumkinligi aniqlangan, ammo bir vaqtning o‘zida saponinlar va past molekulyar birikmalarning ekstraksiyasiga yordam beradi. Bu esa xalq tabobatida qo‘llaniladigan suvli so‘rimlarning sifat va miqdoriy tarkibining o‘zgarishiga olib keladi va ularning farmakologik xususiyatlarini bashorat qilish qiyin bo‘ladi. Fitolak choyini tayyorlashning standartlashtirilgan usullari yo‘qligi xavfsiz darajadan yuqori dozalarni olish xavfini oshiradi.

ISSN 3030-3907

Turkumning har xil turlari bo‘yicha ma’lumotlarning qiyosiy tahlili *Phytolacca* shuni ko‘rsatadiki, bir turda o‘tkazilgan tadqiqot natijalarini turkumning boshqa vakillariga ekstrapolyatsiya qilish uslubiy jihatdan noto‘g‘ri hisoblanadi. Morfologik o‘xshashligiga qaramay, turlar biologik faol moddalarning spektri va konsentratsiyasi bo‘yicha farq qiladi, bu ularning farmakologik va toksikologik profilida aks etadi. Shu munosabat bilan "fitolakka" umumlashtiruvchi atamasini turini ko‘rsatmasdan qo‘llash ilmiy va klinik xulosalarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Biologik faol moddalarning asosiy guruhlari *Phytolacca spp*. quyidagilardir:

Triterpen saponinlar.

Saponinlar fitolakkaning asosiy faol va bir vaqtning o‘zida toksik ahamiyatga ega bo‘lgan tarkibiy qismlari sifatida qaraladi. Ular sirt faol xususiyatlarga ega bo‘lib, hujayra membranalarini shikastlash, epitelial to‘siqlarning o‘tkazuvchanligini kuchaytirish va gemolitik ta’sirni keltirib chiqarish qobiliyatiga ega [6]. Saponinlarning eksperimental modellarida fitolakkalar oshqozon-ichak trakti shilliq qavatiga kuchli qo‘zg‘atuvchi ta’sir ko‘rsatdi.

Lektinlar (fitolak oqsillari).

Ilmiy adabiyotlarda fitolakkli lektinlarga, jumladan, phytolacca americana lectin (PAL) ga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu oqsillar yuqori biologik faollikka ega bo‘lib, hujayra membranalarining uglevod tuzilmalari bilan bog‘lanish va immun va neyrotoksik jarayonlarga ta’sir qilish qobiliyatiga ega [8]. Bir qator tadqiqotlar fitolakk lektinlarning potentsial sitotoksikligini ko‘rsatadi.

Flavonoidlar va fenol birikmalar.

Flavonoidlar kversetin, kempferol va ularning glikozidlaridan iborat bo‘lib, ular antioksidant va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarga ega [9]. Lekin ularning fitolakkaning umumiy farmakologik ta’siriga qo‘shgan hissasi saponin va lektinlarga nisbatan ikkilamchi hisoblanadi.

Alkaloidlar va boshqa ikkilamchi metabolitlar.

Bir qator ishlarda asosiy komponentlarning toksik ta’sirini kuchaytirishi mumkin bo‘lgan alkaloidga o‘xshash birikmalar va organik kislotalar mavjudligi tasvirlangan [7].

Shunday qilib, fitolakka kuchli farmakologik faollikka ega bo‘lgan va shu bilan birga yuqori toksikologik xavfga ega bo‘lgan o‘simlikdir.

Zamonaviy tadqiqotlar fitolakkaning fitokimyoviy tarkibi va uning toksikologik xususiyatlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni ta’kidlaydi. Saponinlar va lektinlar nojo‘ya ta’sirlar, shu jumladan oshqozon-ichak traktining

ISSN 3030-3907

shikastlanishi, neyrotoksik ta’sirlar va tizimli zaharlanish rivojlanishining asosiy xavf omillari sifatida qaraladi [8].

Bundan tashqari, o‘simlik xomashyosi tarkibidagi faol moddalar miqdorining o‘zgaruvchanligi fitolak choylari va boshqa preparatlarni standartlashni qiyinlashtiradi. Saponinlar va lektinlar konsentratsiyasini nazorat qilmaslik bemor qabul qiladigan dozaning sezilarli darajada o‘zgarishiga olib kelishi mumkin, bu esa dozani oshirib yuborish xavfini oshiradi [9].

Shunday qilib, botanik va fitokimyoviy xususiyatlar *Phytolacca spp.* ham farmakologik faollik, ham toksik ta’sirlar rivojlanishi uchun zamin yaratadi, bu esa fitolakk preparatlarini kompleks toksikologik va klinik o‘rganish zarurligini asoslaydi.

Fitolakkaning toksikologik xususiyatlarini eksperimental o‘rganish ilmiy adabiyotlarda alohida o‘rin tutadi, chunki bu o‘simlik tor terapevtik oyna va aniq dozaga bog‘liq toksiklikka ega bo‘lgan fitoterapevtik vositalar guruhiga kiradi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, *Phytolacca spp.* toksikologiyasiga bo‘lgan qiziqish, birinchi navbatda, o‘simlikdan xalq tabobatida foydalanish paytida zaharlanish holatlari haqidagi ko‘plab xabarlar, shuningdek, uning tarkibida yuqori faol biologik birikmalarning aniqlanishi bilan bog‘liq.

Fitolakkaning o‘tkir zaharliligi bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar asosan laboratoriya hayvonlarida o‘simlikning turli qismlarining suvli va spirtli ekstraktlaridan foydalangan holda o‘tkazildi. O‘limga olib keluvchi doza ko‘rsatkichlari ishlatilgan xom ashyo, ekstraksiya usuli va yuborish yo‘liga qarab sezilarli darajada farq qilishi aniqlandi. Eng yuqori toksiklik ildiz va meva ekstraktlarini qo‘llashda kuzatiladi, bu triterpen saponinlar va oqsil toksinlarining yuqori konsentratsiyasi bilan bog‘liq. Bir qator ishlarda fitolakka ekstraktlarining nisbatan past dozalari ham harakat faolligining pasayishi, titroq, diareya va degidratatsiyani o‘z ichiga olgan intoksikatsiyaning yaqqol klinik belgilarini keltirib chiqarishi ko‘rsatilgan.

Fitolakka ekstraktlarini ko‘p marotaba yuborilganda o‘tkazilgan subxronik toksikologik tadqiqotlar toksik ta’sirning kumulyativ xarakterini aniqladi. Mualliflar oshqozon-ichak trakti, jigar va buyraklardagi patologik o‘zgarishlarning asta-sekin o‘sib borishini ta’kidlaydilar. Gistomorfologik tekshiruvlar ichak shilliq qavatida distrofik va yallig‘lanish o‘zgarishlari, gepatotsitlar vakuolizatsiyasi, buyraklarda kanalchalar zararlanishi belgilarini ko‘rsatdi. Ushbu ma’lumotlar fitolakka nafaqat o‘tkir, balki kechiktirilgan toksik potentsialga ega degan gipotezani tasdiqlaydi.

Eksperimental tadqiqotlarda fitolakkaning toksik ta’sir mexanizmiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘simlik tarkibiga kiruvchi triterpen saponinlar yaqqol

ISSN 3030-3907

namoyon bo‘lgan membranotrop faollikka ega bo‘lib, hujayra membranalari butunligini buzishi va ularning o‘tkazuvchanligini oshirishi aniqlangan. Bu ion gomeostazining yo‘qolishiga, oshqozon-ichak trakti epitelial hujayralarining shikastlanishiga va yallig‘lanish reaksiyasining rivojlanishiga olib keladi. Ushbu mexanizm fitolakkaning gastrointestinal toksikligini rivojlanishida asosiy mexanizm sifatida qaraladi.

Toksik ta’sirning shakllanishida fitolakk lektinlari va ribosomalarni faolsizlantiruvchi oqsillar ham muhim rol o‘ynaydi. Bu birikmalar hujayralarda oqsil sintezini tormozlab, sitotoksik ta’sir ko‘rsatishi tajribada isbotlangan. In vivo sharoitida bu tez bo‘linuvchi hujayralar, jumladan, ichak epiteliysi va immun tizimi hujayralarining zararlanishi bilan namoyon bo‘ladi. Ayrim mualliflar sinaptik uzatish va neyronlar metabolizmining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan fitolakk oqsillarining potensial neyrotoksik ta’sirini ko‘rsatadilar.

Fitolakkaning surunkali toksikligi bo‘yicha tadqiqotlar cheklangan xarakterga ega, ammo mavjud ma’lumotlar kichik dozalarni uzoq vaqt qo‘llashda barqaror funksional buzilishlarning shakllanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Eksperimental modellarda fitolakk ekstraktlarini uzoq muddat kiritish hayvonlar tana vaznining pasayishiga, qonning biokimyoviy ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga, shu jumladan jigar fermentlari faolligining oshishiga va elektrolitlar muvozanatining buzilishiga olib keldi. Ushbu o‘zgarishlar tizimli toksiklikning namoyon bo‘lishi va metabolik jarayonlarning buzilishi sifatida talqin qilinadi.

Fitolakka eksperimental toksikologiyasining muhim jihati dozaga bog‘liq ta’sirni o‘rganishdir. Aksariyat tadqiqotchilar terapevtik va toksik doza o‘rtasida aniq chegaraning yo‘qligini ta’kidlaydilar, bu esa ushbu o‘simlikdan tibbiy amaliyotda foydalanishni tubdan murakkablashtiradi. Fitolakka bo‘lgan individual sezuvchanlik sezilarli darajada o‘zgarishi mumkinligi aniqlandi, bu organizmning biologik xususiyatlari bilan ham, o‘simlik xomashyosining kimyoviy tarkibining o‘zgaruvchanligi bilan ham bog‘liq.

Toksik xavfning qo‘shimcha omili fitolak choyi va ekstraktlarni tayyorlash usulining ta’siri hisoblanadi. Eksperimental ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, xalq tabobatida ishlatiladigan suvli ekstraktlar, ayniqsa xom ashyo standartlashtirilmagan bo‘lsa, faol moddalarning oldindan aytib bo‘lmaydigan konsentratsiyalarini o‘z ichiga olishi mumkin. Isitish, damlash davomiyligi, xom ashyo va suvning nisbati saponinlar va oqsil toksinlarining ekstraksiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, bu esa organizmga kiradigan haqiqiy dozani baholashni qiyinlashtiradi.

Shunday qilib, eksperimental tadqiqotlar natijalari fitolakka membrano-toksik, sitotoksik va tizimli mexanizmlar majmuasi orqali amalga oshiriladigan

ISSN 3030-3907

aniq toksikologik xususiyatlarga ega ekanligidan ishonchli dalolat beradi. Ta’sirning kumulyativ tabiati, xavfsiz dozalarning tor diapazoni va tarkibning yuqori o‘zgaruvchanligi fitolakkani fitoterapevtik vositalarning potensial xavfli tarkibiy qismiga aylantiradi. Ko‘rsatib o‘tilgan xususiyatlar bo‘lak-bo‘lak eksperimental ma’lumotlardan klinik nojo‘ya reaksiyalar va fitolakkli choylarni qo‘llashning farmakoiqtisodiy oqibatlarini kompleks tahlil qilishga o‘tish zarurligini asoslaydi, bu esa dissertatsiya ishining keyingi bo‘limlari mantig‘ini belgilaydi.

REFERENCES

1. "Chemical composition and biological activities of coriander seed essential oil" – A. S. M. Hussain, P. K. Sharma. International Journal of Food Properties, 2020.
2. "Nutritional evaluation of coriander seeds and leaves" – S. K. Gupta, R. K. Mishra. Journal of Dietary Supplements, 2018.
3. "Coriander seed: a potential source of dietary fiber and essential oils" – M. A. Khan, S. R. Patel. Food Chemistry, 2021.
4. "Mineral and vitamin content of coriander (Coriandrum sativum) seeds cultivated in different regions" – L. Chen, H. Wang. Asian Journal of Chemistry, 2017.
5. "Proximate composition and antioxidant activity of coriander seeds" – R. N. K. H. Silva, T. M. S. W. K. Bandara. Journal of Agricultural Science, 2019.
6. "Traditional and modern uses of coriander seeds in food and medicine" – K. P. S. Nair, R. K. Joshi. Journal of Ethnopharmacology, 2021.
7. "Coriander seed as a source of bioactive compounds" – S. M. R. S. D. Senanayake, P. J. R. O. B. Wansapala. Food Research International, 2018.
8. Bazarova N. et al. Determination of the relationship between the polymorphic genes of metaloproteinases MMP9 (A-8202G) RS11697325 and the level of cystatin c in children with chronic nephritic syndrome //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 121. – C. 03011
9. "Pharmacological and nutritional importance of coriander seeds" – A. B. Al-Snafi. International Journal of Pharmacy and Pharmaceutical Sciences, 2016.

ISSN 3030-3907

ORTIQCHA VAZN – ORTIQCHA TO‘SIQ EMAS

Djalilov Mustafo Uzakovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, biokimyo kafedrasi dotsenti
Aldabergenova Aqnur Egemkul qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, davolash 211
E-mail: djalilov55mustafo@mail.ru
0009-0003-7376-5100

Anotatsiyasi. Ushbu maqolada semizlikning biokimyoviy asoslari, rivojlanishning mexanizmlari va uning organizmga ko‘rsatadigan salbiy tasirlari tahlil qilinadi. Semizlikning yuzaga kelishida olib keluvchi asosiy omillar-energiya muvozanatining buzilishidir, gormonal o‘zgarishlar, irsiy moyillik, metaboliK sindrom va turmush tarzining xususiyatlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek,semizlikning jahon miqiyosidagi tarqalishi, uning sog‘liq uchun xavflari hamda profilaktik va davolsh yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik va metabolik holatni boshqarishning samarali strategiyalariga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘lar: semizlik, gormonal o‘zgarishlar, irsiy moyillik, metabolik kasallik, gormonlar regulyatsiya, lipogenez, ZPLP (zichligi past lipoproteinlar- yomon xolesterin)

Аннотация: В данной статье анализируются биохимические основы ожирения, механизмы его развития и негативного воздействия на организм. Основными факторами, приводящими к возникновению ожирения, являются энергетический дисбаланс, гормональные изменения, наследственная предрасположенность, метаболический синдром и особенности образа жизни, которые выделены на основе научных источников. В нем также рассматривается глобальная распространенность ожирения, связанные с ним риски для здоровья, а также варианты профилактики и лечения. Особое внимание уделяется здоровому питанию, физической активности и эффективным стратегиям управления метаболическим статусом.

Ключевые слова: ожирение, гормональные изменения, наследственная предрасположенность, метаболические заболевания, гормональная регуляция, липогенез, ZPLP (липопротеины низкой плотности - плохой холестерин).

Annotation: This article analyzes the biochemical basis of obesity, the mechanisms of development and its negative effects on the body. The main factors leading to the occurrence of obesity are energy imbalance, hormonal changes, hereditary predisposition, metabolic syndrome and lifestyle characteristics, which are highlighted on the basis of scientific sources. It also examines the global

ISSN 3030-3907

prevalence of obesity, its health risks, and prevention and treatment options. Emphasis is placed on healthy eating, physical activity, and effective strategies for managing metabolic status.

Keywords: obesity, hormonal changes, hereditary predisposition, metabolic disease, hormone regulation, lipogenesis, ZPLP (low-density lipoproteins - bad cholesterol)

KIRISH

Bugungi kunda ortiqcha vazn masalasi nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham muhim mavzulardan biriga aylangan. Bazan odamlarning tashqi ko‘rinishiga qarab ularning imkoniyatlari, qobilyatlari va hatto shaxsiy sifatlari haqida xulosa chiqariladi. Ammo aslida ortiqcha vazn-bu odamning hayotidagi yo‘liga to‘siq bo‘ladigan hukm emas. Semizlik (obezlik) – yog‘; to‘qimasining haddan tashqari ko‘payishi bilan xarakterlanuvchi surunkali metabolik kasallik bo‘lib, u so‘ngi yillarda dunyo miqiyosida keskin ortib bormoqda.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, 1990 yildan beri butun dunyo bo‘ylab kattalar semizligi ikki barovar,o‘smirlar orasida esa to‘rt barovar oshgan. 2022-yilda dunyoda har 8 kishidan bir nafari semizlik bilan yashagan.2023-yilga kelib dunyo bo‘yicha 1 millarddan ortiq odam semizlikdan aziyat chekadi. 2024-yilda 5 yoshgacha bo‘lgan 35million bola ortiqcha vaznga ega edi. Biokimyoviy jihatdan semizlik energiya balansi, gormonlar regulyatsiysi va metabolism jarayonlarining chuqur buzilishidir. Ortiqcha vazn va semizlik tufayli kelib chiqadigan sog‘liq uchun xavflar tobora yaxshi hujjatlashtirilgan va tushinilgan. Bolalik va o‘smirlik davridagi ortiqcha vazn bolalar va o‘smirlarning bevosita sog‘lig‘iga tasir qiladi va bu,salbiy psixo-ijtimoiy oqibatlarga olib keladi; bu maktab faoliyatiga va hayot sifatiga tasir qiladi, stigma, kamsitilish bilan qo‘shiladi. Semizlik bilan og‘tigan semizlik bilan kasallangan kattalar bo‘lish ehtimoli juda yuqori. Ortiqcha vazn bilan kurashish jarayonida bolaning jazolanishi yoki tanqid qilinishi emas, balki unga to‘g‘ri ovqatlanish va harakatchan hayot tarzini sevdirish kerak.

Semizlikning biokimyoviy mohiyati; semizlik rivojlanishining biokimyoviy asosi.Energiya balansi buzilishi yani oziq-ovqat orqali kirgan energiya sarflanayotgan energiyaning tengligi buzilgan holatda bo‘ladi. Ortiqcha energiya triatsilglitseridlar ko‘rinishida yog‘ to‘qimasida saqlanadi. Bunda lipogenez yani yog‘ hosil bo‘lishi kuchayadi. Meyoridan ortiq uglevodlar iste’mol qilish:energiya manbayi sifatiga uglevodlar sarflanib,yog‘lar zaxirada to‘planishiga sabab bo‘ladi. Lipoliz (yog‘ parchalanishi) kamayadi. Gormon sezgir lipaza faolligi pasayadi.(insulin ustunligi). Irsiy semizlik: ota-ona semiz

ISSN 3030-3907

bo‘lsa,genetic axborotga ko‘ra farzandlari ham semizlikka moyil bo‘ladi. Bu irsiy axborot dominant xususiyatga ega: Semizlik rivojida 300 dan ortiq gen qatnashishi aniqlangan. Ularning keltirib chiqaradigan omillar:FTO(fat mass and obesity-associated)geni-bu semizlik bilan bog‘liq asosiy genlardan biri bo‘lib, organizmda energiya almashinuvi, ishtaha nazorati va yog‘ to‘planishi jarayonida ishtirok etadi. Bu genni kodlaydiagan oqsil nerv tizimida , ayniqsa gipotalamusda faol. FTO geniga oid ilmiy natijalarni ko‘rib chiqqanimda tadqiqotga ko‘ra:FTO geni polimorfizmga ega odamlarning o‘rtacha 3-5kg ko‘proq vaznga ega bo‘lar ekan. Semizlik rivojlanish xavfi 20-30% ko‘proq. Metabolik sindrom va diabet xavfini oshiradi. Yana bir muhim yog‘ kislotalarining oksidlanish jarayonining susayishi. Mitoxondriyalarda yog‘ kislotalarining betta oksidlanishi pasayganda organizmda energiyani sarflash o‘rniga uni saqlashga moyillashadi. Bundan tashqari,semizlik jarayonida yallig‘lanish mediatorlari ko‘payib, metabolik stress, insulin rezistentligi va ateroskleroz kabi kasallikning rivojlanishiga keladi.

Semizlikning gormonal mexanizmlari: Semizlik bu faqat ortiqcha yeyish emas, balki gormonal muvozanatning buzilishi natijasida yog‘ to‘planishi kuchayadi, ishtaha oshishi va energiyani sarfining kamayishi bilan kechuvchi murakkab endokrin-metabolik jarayondir.Yog‘ to‘qimasi massasini boshqarishda leptin alohida ahamiyatiga ega. Leptin-to‘qlik gormoni bo‘lib,yog‘ hujayralari tomonidan ishlab chiqariladi va miya (gipotalamusida)ga «toydim» degan signalni uzatadi. Semizlikda uning darajasi yuqori bo‘lsada, tana leptinni sezmay qo‘yadi. Natijada to‘qlik hissi yo‘qoladi, ishtaha ortadi, energiyani sarfi kamayadi. Grelin-oshqozon tomonidan ishlab chiqariladigan ishtaha ochuvchi gormoni. Ovqatlanishdan oldin miqdori ortadi, to‘yganimizda kamayadi. Esterogen va testosteron miqdorining buzilishiga yana bir kasallik bu bepushtlik ham rivojlanishi mumkin. Ayollarda homiladorlikka erishish qiyinlashadi, erkaklarda esa urug‘lantirish qobilyati pasayib ketadi. Insulin va insulin rezistenziyasi: insulin oshqozon osti bezining betta hujayralari tomonidan ishlab chiqariladigan, organizmda uglevodlar, yog‘ va oqsil almashinuvini boshqaruvchi asosiy gormoni. Uning asosiy vazifasi qon glyukozasini normada saqlash. Qon shakar darajasida oshganda insulin ko‘payib, glyukozani hujayralarga kiritadi va ortiqcha energiyani yog‘ ko‘rinishida saqlaydi. Insulin rezistentligiga sabab bo‘ladigan omillar: Ortiqcha ovqatlanish ayniqsa shakar va un mahsulotlarini iste’mol qilish ,jismoniy faollikning kamligi, stress:kortizol ko‘payishi.Uyquning yetishmasligi,surunkali yallig‘lanishlar.

Semizlikda yuzaga keladigan metabolik o‘zgarishlar. Semizlik bu organizmda ortiqcha yog‘ to‘planishi bilan kechadigan murakkab metabolik buzilishlar majmuasi. Nafaqat tana vaznining oshishi, balki barcha moddalar

ISSN 3030-3907

almashinuvi tizimlarining qayta tashkil qilinishi bilan xarakterlanadi. Semizlikda yog‘ to‘qimalari, ayniqsa visseral yog‘ (ichki organlar atrofi)da ko‘payadi. Bu to‘qimalar sitokinlar va yallig‘lanish mediatorlari ajratadi, buning natijasida hujayralar insulin tasiriga to‘g‘ri javob bermaydi.

1.Uglevodlar almashinuvi buzilishi: qonda glyukoza miqdori oshadi, oshqozon osti bezi ko‘p insulin ishlab chiqaradi:giperinsulinemiya. Vaqt o‘tishi bilan betta hujayralari charchaydi va 2-tip diabet rivojlanishi mumkin.

2.Lipidlar almashinuvi buzilishi: qonda triatsilglitseridlar miqdori ortishi, ZPLP (zichligi past lipoproteinlar- yomon xolesterin) oshadi, ZYuLP (zichligi yuqori lipoproteinlar-yaxshi xolesterinlar) miqdori kamayadi. Natijada yurak-qon tomir kasalliklari kelib chiqadi.

Semizlikning tashqi sabablari: Semizlikning tashqi sabablari- bu organizmdagi gormonal yoki genetik omillardan tashqari atrof muhit, turmush tarzi va ijtimoiy omillar tasiri natijasida rivojlanadigan sabablari hisoblanadi. Zamonaviy hayotda ko‘pchilik tez tayyorlanadigan, kalloriyasi yuqori, vitaminlar va minerallarning kambag‘al bo‘lgan ovqatlarni ko‘p iste’mol qiladi. O‘ta yog‘li va qovurilgan ovqatlarni ko‘p iste’mol qilish. Kechki vaqtda ko‘p ovqatlanish, kunlik ratsionda sabzavot va mevalar kam bo‘lishi.Ayniqsa yomon uyqu , tungi uyqu yetishmasligi va kech uqlash paytlarida, uyqu buzilishlar ishtaha va metabolizmni o‘zgartiradi. Ijtimoiy va iqtisodiy omillar: oila an’analari – ortiqcha ovqatga majburlash holatlari kuzatiladi, jamiyatda choyxona,restoran, to‘ylarning ko‘pligi ham bunga bir sababdir. Sifatli va sog‘lom ovqatlarning qimmat bo‘lishi, ota- ona tarbiyasi va oilada ovqatlanish madaniyati, butun jamiyatda harakatsiz turmush tarzi, hozirgi kundagi eng oldi muammolardan biri kam harakatlilik ko‘pchilik mashina, lift, jamot transportlaridan ortiqcha foydalanishda, unda insonlar vaqtlarini tejash maqsadida foydalanadi lekin anglamaydiki u sog‘liqni tejamaydi. Chekishni tashlash ham semizlikka sabab bo‘lishi mumkin, nikotin ishtahani pasaytiradi, agar uni tashlasa ishtaha ortadi.

Dori vositalari tasiri. Bazi dorilar tana vaznini oshirishi mumkin, masalan gormonal preparatlar, antidepressantlar, kortikosteroidlar hisoblanadi. Ular ishtahani oshirshadi. Hamda spirtli ichimliklar kalloriyasi juda yuqori va ishtahani kuchaytiradi. Semizlik ko‘pincha tashqi omillarning ichki omillar bilan uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Eng muhimi tashqi omillar hisoblanadi.

Semizlik va tushkunlik o‘rtasidagi bog‘loqlik: Semizlikda yog‘ toqimasi inflammatory sitokinlarni chiqaradi. Ular: serotonin va dofamin- quvonch va motivatsiya gormonlarini pasaytiradi. Miyada yallig‘lanish jarayonlarini kuchaytiradi. Natijada odam o‘zini charchagan, tushkun qandaydir kuchsiz his qiladi. Tanadagi o‘zgarishlardan psixologik norozilik; ko‘pchilik semiz odamlar,

ISSN 3030-3907

oynaga qarashni yoqtirmaydi, kiyim tanlashda qiyinchilikka duch keladi, o‘zini boshqalar bilan solishtiradi lekin bular ozg‘in va sog‘lom bo‘lishga yordam bermaydi desam ham bo‘ladi. Ortiqcha vazn nafaqat jismoniy , balki psixologik jihatdan ham kata iz qoldiradi. Insonning tanasi o‘garganda u faqat ko‘zguga emas, balki o‘ziga bo‘lgan munosabatiga ham boshqacha qaray boshlaydi. Qadriyatlar jamiyat tomonidan tashqi ko‘rinishga ko‘p bog‘lab qo‘yilgani uchun, ko‘plab odamlarning o‘z tana vazni sabab o‘zini kamtargina his qilishadi. Bu ichki kurash psixologik norozilikning asosiy ildizidir. Semizlik yoki ortiqcha vazn bilan kurashayotgan odamlar ko‘pincha tanasini yashirishga, keng kiyimlar kiyishga, odamlar davrasidan qochishga, ijtimoiy hayotdan chetlashishga majbur bo‘lishadi. Ko‘zguda aksini ko‘rganda yuragida og‘riq va hafsalasi pir bo‘lishi mumkin. Bu – ruhiy charchoq, o‘z-o‘ziga ishonchsizlik va depressiv hollarning boshlanishiga sabab bo‘ladi. Tana vazni-bu shaxsining qiymatini belgilovchi mezon emas. Ortiqcha vazn-ayb ham emas, u vaqtinchalik hayotiy jarayon, yechimi mavjud va o‘z qo‘lingizdadir. Shuning uchun semizlik bu faqat sog‘liqni muammosi emas, balki jamiyat madaniyati va hayot tarzini aks-sadosidir. Tashqi omillarni nazorat qilish orqali vaznni boshqarishda va sog‘lom hayotga qaytarish mumkin. Semizlik va tushkunlik bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. Semizlik depressiyani chaqiradi-depressiya esa ko‘pincha yana semirishga sabab bo‘ladi.Shuning uchun semizlikni davolash faqatgina diyeta va jismoniy mashqlar emas, unga psixologik yondashuv ham kerak. Sog‘liqni asrash- hayotning eng kata boyligi. Semizlik sabab kelib chiqadigan patalogiyalardan bu yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet, gipertoniya, infarkt va insult kabi kasalliklar xavfini keskin oshiradi. Ortiqcha vazndan qutilish – bu uzoq, faol va sifatli umr sari tashlangan eng kuchli va tog‘ri qadam. Ortiqcha vazndan halos bo‘lish bu- o‘z-o‘zini qayta kashf etish deb bilaman. Vazn tashlash nafaqat tanani, balki butun hayotni o‘zgartiradi: nafas olish yengillashadi, tanada yengillik va erkinlik paydo bo‘ladi, zich liboslar, zinapoyalar, uzoq yurishlar endi qo‘rqinchli bo‘lmaydi. Ozgan odam o`zini chiroyli faol va maqsadga yetuvchi shaxs deb his qiladi. «Ota-ona – farzand uchun na`munadir, sog‘lom hayot – eng yaxshi merosdir» yani bola oilada bo‘lgan ibratlarni hayoti davomida foydalanadi, u sog‘lom fikrlaydigan, sog‘lom yashaydigan va sog‘lom kelajak quradigan inson bo‘lib ulg‘ayadi.Bolaga nasihat qilish dan ko‘ra ko‘proq va eng kuchli yo‘l unga ibrat bo‘lishdir.

Semizlikdan qutilishning yo‘llari: Semizlik murakkab metabolik kasallik bo‘lib, undan qutilish ham kompleks yondashuvni talab qiladi. Vazinni kamaytirishning eng samarali usuli.

1. Tog‘ri ovqatlanish, kaloriya balansini nazorat qilish, kunlik kaloriyalar iste’moli energiya sarfidan past bo‘lish kerak. Kechki ovqatni yengil qilish,

ISSN 3030-3907

gazlangan va shirin ichimliklarini bekor qilish, ko‘proq suv ichish (kuniga 1,5-2,5 l), ovqatni 4-5 mahal oz-ozdan istemol qilish.

2. Jismoniy faollikni oshirish kuniga kamida 10-12 ming qadam yurish,haftasiga 3-4 marta sport bilan shug‘ullanish. Kuch mashqlari yokida aerobika, suzish va velosport bilan shug‘ullanish siz ushun foydali. Bular tanadagi yog‘larni yonishini tezlashtiradi, yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi, stressni kamaytiradi, immunitetni oshiradi.

3. Uyqu gigiyenasi agarda uyqu yetishmasa grelin oshib, leptin kamayadi- va ishtaha kuchayadi. Kuniga 7-8 soat uxlash, kechqurun kofe, shirinliklardan voz kechish, yotish vaqtini bir hil qilish. Agar semizlik darajasi juda yuqori bo‘lsa endokrinolog va dietolog bilan maslahatlashish , gormonal tekshiruvlarni o‘tqazish tavsiya etiladi. Semizlik – bir kunda kelmaganidek, bir kunda ham yoqolib ketmaydi.

Xulosa: semizlik bu shunchaki otriqcha vazn emas yoki tashqi ko‘rinishdagi o‘zgarishlar emas.U ichki organizmning sizga beradigan signali yani sizda nimadir to‘g‘ri emasligidan dalolat beradigan murakkab kasallikdir. Semizlik ko‘plab xavfli kasalliklarga olib keladi va tushkunlikning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Bu muammolarning ildizi ko‘pincha noto‘g‘ri hayot tarzi, jismoniy faollikning kamligi, uyqu rejimi to‘g‘ri emasligi omillari yotadi. Shuningdek semizlikdan bartaraf bo‘lishda faqat dieta qilish emas, balki hayot tarzini tubdan o‘zgartirish,ruhiy holatga e’tibor berish va muntazam harakatta bo‘lish muhimdir. Semizlikdan qutilish bu o‘zini qiynash emas, o‘ziga bo‘lgan hurmat, sog‘liq uchun javobgarlik, yanada yengil va yorqin hayot sari intilishdir . Har bir kichik qadam katta o‘zgarishlarning boshlanishidir. Eng muhimi- iroda, sabr va davomiylik. Semizlik va tushkunlik bir birini kuchaytiradi, shuning uchun sog‘lig‘ingizga e’tiborli va xushyor bo‘ling.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.U.Djalilov, Vitamin Reserve In Composition In Nutrient. Лучшие интеллектуальные исследования. ISSN :3030-3680. С. 35-39. 2024
2. https://scientific-jl.com/luch/article/view/4790/4587
3. Витамины и минеральные вещества. Емельянова Т. П,. Весь, 2001,566с.
4. M.U.Djalilov, Vitfvin V6 PYRIDOXINE (PYRIDOXINUM). Лучшие интеллектуальные исследования . Journal of new century innovations - International scientific electronic journa ISSN: 3030-3680. С. 30-34.2024/
5. https://scientific-jl.com/luch/article/view/4790/4587
6. М. У. Джалилов САХАРНЫЙ ДИАБЕТ И ВИТАМИН Д Vol. 39 No. 2 (2025): ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ | ЧАСТЬ-39 | ТОМ-2 /

ISSN 3030-3907

7. https://scientific-jl.com/luch/issue/view/62
8. М.У.Джалилов COBAMIDE COENZYMES. COBALAMINS (VITAMIN B12) T A D Q I Q O T L A R jahon ilmiy – metodik jurnali 57-son_1-to‘plam_Mart-2025 jahon ilmiy – metodik jurnali. 220-222.https://scientific-jl.com/
9. M.U.Djalilov, O.S,Tashanov LIPOIC ACID HAS ITS UNIQUE STRUCTURE
10. Vol. 38 No. 1 (2025): ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ | ЧАСТЬ-38 | ТОМ-1 https://scientific-jl.com/luch/article/view/976
11. М.У. Джалилов VITAMIN PREPARATIONS USED IN MEDICINE
12. T A D Q I Q O T L A R jahon ilmiy – metodik jurnali 57-son_1-to‘plam_Mart-2025 https://scientific-jl.com/
13. М.У.Джалилов, Т.А. Узоков САХАРНЫЙ ДИАБЕТ И ВИТАМИН B9.
14. Vol. 40 No. 2 (2025): ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ | ЧАСТЬ-40 | ТОМ-2 https://scientific-jl.com/luch/article/download/4750/4546/9105

ISSN 3030-3907

TALABALARGA “RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR” FANINI O‘QITISHDA MULTIMEDIA TIZIMLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Murodov Oybek To‘raqulovich

“Osiyo Xalqaro Universiteti” “Umumtexnik fanlar” kafedrasi assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida “Raqamli texnologiyalar” fanini o‘qitishda multimedia tizimlaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Multimedia texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, ularning didaktik imkoniyatlari, ta’lim sifatini oshirishdagi roli hamda talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, multimedia vositalaridan samarali foydalanish shartlari, o‘qituvchi kompetensiyasi va zamonaviy ta’lim muhitini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Maqola ta’lim jarayonida raqamli transformatsiyani amalga oshirish, interaktiv va innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, multimedia tizimlari, ta’lim jarayoni, interaktiv ta’lim, innovatsion texnologiyalar, elektron ta’lim, vizualizatsiya.

Аннотатция. В данной статье подробно рассматриваются теоретические и практические аспекты использования мультимедийных систем в преподавании предмета «Цифровые технологии» в высших учебных заведениях. Анализируется роль мультимедийных технологий в образовательном процессе, их дидактические возможности, роль в повышении качества образования и их значение в развитии самостоятельного и творческого мышления студентов. Особое внимание уделяется также условиям эффективного использования мультимедийных средств, компетентности преподавателей и формированию современной образовательной среды. Статья содержит научно-практические рекомендации по внедрению цифровой трансформации в образовательный процесс, внедрению интерактивных и инновационных подходов.

Ключевые слова: цифровые технологии, мультимедийные системы, образовательный процесс, интерактивное обучение, инновационные технологии, электронное обучение, визуализация.

Abstract. This article extensively covers the theoretical and practical aspects of using multimedia systems in teaching the subject "Digital Technologies" in higher education institutions. The role of multimedia technologies in the educational process, their didactic capabilities, their role in improving the quality of education, and their importance in developing independent and creative thinking of students

ISSN 3030-3907

are analyzed. Special attention is also paid to the conditions for the effective use of multimedia tools, teacher competence, and the formation of a modern educational environment. The article contains scientific and practical recommendations for implementing digital transformation in the educational process, introducing interactive and innovative approaches

Keywords: digital technology, multimedia systems, educational process, interactive education, innovative technologies, e-learning, visualization.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘qitish metodlari va vositalarini yangilashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, “Raqamli texnologiyalar” fanini o‘qitishda zamonaviy multimedia tizimlaridan foydalanish talabalarning bilimlarni chuqur va mustahkam o‘zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Multimedia tizimlari matn, grafika, audio, video, animatsiya va interaktiv elementlarni birlashtirgan holda axborotni taqdim etish imkonini beradi. Bu esa murakkab tushunchalarni oson va tushunarli shaklda yetkazish, ta’lim jarayonini jonlantirish va talabalar faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham multimedia texnologiyalarini “Raqamli texnologiyalar” fanini o‘qitish jarayoniga keng joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

1. Raqamli texnologiyalar fanining mazmuni va o‘qitishdagi dolzarb vazifalar

“Raqamli texnologiyalar” fani talabalarga zamonaviy axborot tizimlari, dasturiy vositalar, raqamli platformalar, ma’lumotlar bilan ishlash va ularni qayta ishlash asoslarini o‘rgatadi. Ushbu fan: - talabalarda raqamli savodxonlikni shakllantiradi; - axborotlarni tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi; - zamonaviy kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni hosil qiladi.

Fan mazmunining murakkab va tez yangilanib borishi uni o‘qitishda an’anaviy metodlar bilan cheklanib qolmaslikni, balki multimedia tizimlari asosidagi innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni talab etadi

2. Multimedia tizimlari tushunchasi va ularning turlari

Multimedia tizimlari — bu turli axborot shakllarini (matn, rasm, tovush, video, animatsiya) yagona muhitda birlashtiruvchi va foydalanuvchi bilan interaktiv aloqani ta’minlovchi texnologiyalar majmuasidir.

Multimedia tizimlarining asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- **Ta’limiy prezentatsiyalar** (PowerPoint, Prezi va boshqalar);
- **Video darslar va screencastlar**;

ISSN 3030-3907

- **Interaktiv o‘quv dasturlari va simulyatorlar**;
- **Virtual laboratoriyalar**;
- **Elektron darslik va platformalar (LMS, MOOC)**.

Ushbu vositalar “Raqamli texnologiyalar” fanida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

3. Multimedia tizimlarining didaktik imkoniyatlari

Multimedia tizimlari ta’lim jarayonida bir qator didaktik imkoniyatlarga ega:

- **Ko‘rgazmalilik** – murakkab jarayon va tushunchalarni vizual shaklda ifodalash;
- **Interaktivlik** – talabalarning faol ishtirokini ta’minlash;
- **Individual yondashuv** – o‘quv materialini talabaning o‘zlashtirish tezligiga moslashtirish;
- **Motivatsiya** – qiziqarli va jonli taqdimotlar orqali o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirish.

Bu imkoniyatlar ta’lim samaradorligini oshirib, talabalarning mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. “Raqamli texnologiyalar” fanini o‘qitishda multimedia tizimlaridan foydalanishning ahamiyati

Multimedia tizimlaridan foydalanish mazkur fan bo‘yicha: - nazariy bilimlarni chuqurroq anglashga; - amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishga; - real jarayonlarni modellashtirishga; - masofaviy va aralash ta’limni yo‘lga qo‘yishga imkon yaratadi.

Shuningdek, multimedia vositalari talabalarning axborotni qabul qilish, eslab qolish va amalda qo‘llash darajasini sezilarli darajada oshiradi.

5. Multimedia asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligi

Multimedia asosida tashkil etilgan darslar quyidagi xususiyatlarga ega: - talaba markazida tashkil etilishi; - o‘qituvchi va talaba o‘rtasida samarali muloqot; - nazariya va amaliyotning uyg‘unligi; - ta’lim natijalarining oshishi.

Bunday darslar talabalarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

6. Multimedia tizimlaridan foydalanishda o‘qituvchining roli

Multimedia texnologiyalaridan samarali foydalanish o‘qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy va raqamli kompetensiyani talab etadi. O‘qituvchi: - multimedia vositalarini to‘g‘ri tanlashi; - dars mazmuniga moslashtirishi; - interaktiv metodlarni qo‘llashi lozim.

Bu esa ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini oshiradi.

7. Multimedia tizimlarining psixologik-pedagogik ta’siri

Multimedia tizimlari nafaqat texnik, balki psixologik-pedagogik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Axborotning ko‘p kanalli (vizual, audio, kinestetik)

ISSN 3030-3907

taqdim etilishi talabalarning bilimni qabul qilish jarayonini yengillashtiradi va mustahkamlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vizual va audio axborot uyg‘unligi orqali berilgan materiallar oddiy matnli ma’lumotlarga nisbatan ancha samarali o‘zlashtiriladi.

Multimedia vositalari talabalarning diqqatini jamlash, motivatsiyasini oshirish va mustaqil o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar fanida abstrakt tushunchalar, algoritmlar va jarayonlarni animatsiya va simulyatsiyalar orqali tushuntirish ta’lim sifatini sezilarli oshiradi.

8. Multimedia tizimlari asosida masofaviy va aralash ta’limni tashkil etish

Bugungi kunda masofaviy va aralash (blended learning) ta’lim shakllari keng rivojlanmoqda. Multimedia tizimlari ushbu ta’lim shakllarining asosiy texnologik bazasini tashkil etadi. Video darslar, virtual laboratoriyalar, onlayn testlar va interaktiv platformalar talabalarga ta’lim olishda vaqt va makon mustaqilligini ta’minlaydi.

“Raqamli texnologiyalar” fanida masofaviy ta’lim orqali: - murakkab dasturiy jarayonlarni video ko‘rinishida namoyish etish; - virtual tajribalar o‘tkazish; - onlayn muhokama va loyihaviy ishlarni tashkil etish mumkin.
Bu esa talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

9. Multimedia tizimlaridan foydalanishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

Multimedia tizimlaridan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan: - texnik vositalarning yetishmasligi; - o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasining pastligi; - sifatli multimedia kontentining kamligi; - internet tezligi va barqarorligi bilan bog‘liq muammolar.

Mazkur muammolarni hal etish uchun: - o‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish; - milliy elektron ta’lim resurslarini yaratish; - texnik infratuzilmani yaxshilash; - ta’lim muassasalarini zamonaviy qurilmalar bilan ta’minlash zarur.

10. Multimedia tizimlari asosida innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish

Innovatsion ta’lim muhiti — bu talaba, o‘qituvchi va texnologiya o‘rtasidagi samarali hamkorlikka asoslangan tizimdir. Multimedia tizimlari ushbu muhitning ajralmas qismi bo‘lib, ta’lim jarayonini ochiq, moslashuvchan va samarali qiladi.

“Raqamli texnologiyalar” fanida innovatsion ta’lim muhitini yaratish orqali: - talabalarning kasbiy tayyorgarligi oshadi; - ijodiy va tanqidiy fikrlash rivojlanadi; - raqamli kompetensiyalar shakllanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, “Raqamli texnologiyalar” fanini o‘qitishda multimedia tizimlaridan foydalanish zamonaviy ta’limning ajralmas qismi

ISSN 3030-3907

hisoblanadi. Multimedia texnologiyalari ta’lim jarayonining sifatini oshiradi, talabalarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, u raqamli jamiyat sharoitida raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2018.
2. Sayidahmedov N.S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
3. UNESCO. ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications. – Paris, 2019.
4. Roblyer M.D. Integrating Educational Technology into Teaching. – Pearson, 2020.
5. Bates A.W. Teaching in a Digital Age. – Open Textbook, 2021.
6. Ally M. Foundations of Educational Theory for Online Learning. – Athabasca University, 2020.

ISSN 3030-3907

УДК: 631.674:633/635:004(575.111)(043)

КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ СХЕМА АВТОМАТИЗАЦИИ УПРАВЛЕНИЯ ПОЛИВОМ С ПРИМЕНЕНИЕМ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Арифжанов А.Ш.
К.т.н.,профессор,профессор кафедры АТПиУ НИУ ТИИИМСХ,
E-mail: arifjanov@yandex.ru
Абдуғаниев А.А.
Ассистент кафедры АТПиУ НИУ ТИИИМСХ,
E-mail: azizabduganiyev69@gmail.com

Аннотация. Мақолада “Буюмлар Интернети” технологияси ва LoRaWAN маълумотларни симсиз узатиш технологиясига асосланган замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда кичик фермер хўжаликларида суғоришни бошқаришнинг автоматлаштирилган "ақлли" тизимини яратиш учун аппарат-дастурий комплекснинг концептуал схемаси кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: суғориладиган деҳқончилик, суғоришни автоматлаштириш, “Буюмлар Интернети” технологияси, LoRaWAN маълумотларни симсиз узатиш технологияси, ўсимликларни суғориш режимини бошқариш.

Аннотация. В работе рассмотрена концептуальная схема аппаратно-программного комплекса для создания автоматизированной системы «Умного» управления поливом в малых фермерских хозяйствах с применением современных информационно-коммуникационных технологий на базе технологии «Интернета вещей» и технологии беспроводной передачи данных LoRaWAN.

Ключевые слова: Орошаемое земледелие, автоматизация полива, IoT-технология, технология беспроводной передачи данных LoRaWAN, управление режимом полива растения.

Annotation. The paper considers a conceptual scheme of a hardware and software complex for creating an automated "Smart" irrigation management system in small farms using modern information and communication technologies based on the “Internet of Things” technology and LoRaWAN wireless data transmission technology.

Keywords*:* Irrigated agriculture, automation of irrigation, IoT technology, LoRaWAN wireless data transmission technology, plant irrigation mode control.

ВВЕДЕНИЕ.

Тщательное соблюдение агротехнических требований к влажности почвы является залогом высокой эффективности растениеводства.

ISSN 3030-3907

Поскольку влажность почвы зависит от вида растений, от периода вегетации и от многочисленных погодных факторов, важное значение приобретает автоматизация контроля и регулирования влажности почвы в корневой зоне растений. Регулирование влажности почвы в корневой зоне растений осуществляется путем полива - разового искусственного увлажнения почвы под сельскохозяйственными культурами и насаждениями. Поддержание оптимальной влажности почвы в корневой зоне сельскохозяйственных культур – залог высокого урожая, поскольку растения не могут развиваться, если влаги в грунте недостаточно. Для сельскохозяйственных культур оптимальный уровень влажности может быть разным в зависимости от их фазы роста и развития. Например, для зерновых культур нормальным показателем считается 50 %-70 % от максимальной емкости грунта, а для овощных — 60 %-80 % [1,2].

В условиях аридного климата Узбекистана полив является основным методом искусственного увлажнения почвы для обеспечения оптимального уровня её влажности, когда естественных осадков недостаточно, с целью повышения урожайности и создания оптимальных условий для роста растений.

Площадь орошаемой земельной площади республики составляет 4,3 млн гектаров. В условиях высокой нагрузки на водные ресурсы и дефицита поливной воды Узбекистан, как и другие страны Центральной Азии, практически исчерпал свой потенциал экстенсивного развития орошаемого земледелия. Сельское хозяйство страны забирает до 90 процентов от общего объема водопотребления республики, треть воды в аграрном секторе просто теряется из-за неэффективности ирригационных сетей. Неэффективно используется вода и на полях из-за устаревающей инфраструктуры и неэффективной практики ведения сельского хозяйства [3].

Одним из ключевых достижений, трансформирующих традиционные методы ведения сельского хозяйства, является автоматизация процессов полива сельхоз культур в фермерских хозяйствах. Автоматизация полива — это не просто удобство, а ключевой элемент интеллектуального управления ресурсами в современном сельском хозяйстве, делающий его более продуктивным и устойчивым. Это нововведение не только модернизирует сельское хозяйство, но и существенно влияет на способы выращивания сельскохозяйственных культур и управления водными ресурсами.

С учетом мирового опыта, в Узбекистане в последние годы принимаются весьма серьезные и действенные меры по развитию сельскохозяйственного сектора, внедрению в сельское хозяйство

ISSN 3030-3907

современных инновационных технологий. Однако, в сельском хозяйстве Узбекистана уровень автоматизации находится пока ещё на начале пути. За последние 20 лет в автоматике для полива изменилось многое. Тем не менее, разнообразие, точность датчиков, а главное их доступность для сельхозпроизводителей остаются на низком уровне. Для успешного решения этих задач необходимо широкое внедрение «умного» сельского хозяйства, которое позволяет максимально автоматизировать сельскохозяйственную деятельность.

Анализ практики проведения аграрных реформ и управления процессами полива сельскохозяйственных культур в других странах показывает, что наиболее рациональным вариантом решения проблемы является разработка бюджетной (недорогой) системы, позволяющей автоматизировать контроль состояния влажности почвы в корневой зоне растения и управлять режимами полива для обеспечения оптимальной влажности почвы в период вегетации растений в малых и средних фермерских хозяйствах (в т.ч., площадь которых не превышает 0,5-1га).

Учитывая изложенное, в настоящей работе рассмотрена концептуальная схема аппаратно-программного комплекса для создания автоматизированной системы «Умного» управления поливом в малых фермерских хозяйствах с применением современных информационно-коммуникационных технологий на базе технологии «Интернета вещей» и технологии беспроводной передачи данных LoRaWAN, позволяющей фермерам автоматизировать процессы полива и сократить потребление воды.

Материалы и методы. Технология «Интернета вещей» (IoT-Internet of Things) представляет систему взаимодействия и обмена информацией между различными устройствами и машинами, которая позволяет автоматизировать процессы управления и контроля посредством различных «умных устройств» и значительно снизить участие в них человека. Примеров применения технологии IoT в автоматизация ирригации весьма ограничены (K.Murali [4], Zhang Siyuan and Qian Yue [5], S. Zhang [6], N.Suresh [7], Электронные ресурсы [8]). В работах (А.Ш.Арифжанов, А.А. Абдуганиев [9-14]) рассмотрены вопросы применения технологии IoT для автоматизации управления процессом полива путем мониторинга и анализа состояния влажности грунта и метеоусловий.

Аппаратно-программный комплекс автоматизированной системы управления поливом с применением технологии "Интернета вещей" (IoT) и технологии беспроводной передачи данных LoRaWAN включает датчики влажности почвы, которые измеряют влажность почвы, микроконтроллер

ISSN 3030-3907

(например, на базе Arduino или Raspberry Pi) для обработки данных, модуль связи (Wi-Fi или LoRa) для передачи данных и облачную платформу IoT под названием Thingspeak в режиме реального времени или сетевой сервер, где данные хранятся, анализируются и визуализируются, а также могут запускать автоматизированные системы управления поливом.

Рассмотрим основные компоненты аппаратно-программного комплекса:

***1.*Аппаратная часть.** На объекте размещается сеть взаимосвязанных устройств. В почву на разной глубине устанавливаются датчики, которые измеряют ключевые параметры: влажность, температуру, уровень засолённости почвы и содержание питательных веществ. Также используются метеодатчики, которые отслеживают температуру и влажность воздуха, интенсивность солнечного излучения, скорость ветра и количество выпавших осадков.

***2.*Контроллер (микропроцессорный контроллер).** Получает информацию со всех датчиков через специальный шлюз, который отвечает за сбор данных и их передачу в облако по беспроводным сетям. Контроллер управляет исполнительными устройствами — электромагнитными клапанами и насосами, открывая и закрывая подачу воды в конкретные зоны полива.

3.Сервер данных и приложение / Облачная платформа. Это программное ядро системы, которое с помощью сложных алгоритмов машинного обучения проводит глубокий анализ собранных данных. Модели, построенные с применением методов искусственного интеллекта (AI-модель), учитывая тип культуры, фазу её роста, характеристики почвы, исторические данные и актуальный прогноз погоды, вычисляет точную потребность растений в воде.

4.Пользовательский интерфейс. Доступный с любого устройства через веб-браузер или мобильное приложение. Пользователь видит на экране виртуальную карту полей или газонов в реальном времени, где наглядно отображается статус влажности почвы, работа клапанов и ход полива.

Алгоритм работы автоматизированной системы управления поливом с применением технологии "Интернета вещей" (IoT) изображен на рисунке 1.

ISSN 3030-3907




Quyosh nurlanishi, modul harorati, o‘zgarmas (DC) va o‘zgaruvchan (AC) tok quvvati hamda tizim samaradorligi kabi asosiy ko‘rsatkichlar o‘lchandi va tahlil qilindi. Energiya ishlab chiqarish hajmi, samaradorlik koeffitsienti va tizimdagi yo‘qotishlar kabi ko‘rsatkichlar optimallashtirish usullarini qo‘llashdan oldin va keyin o‘zaro solishtirildi.

Optimallashtirish strategiyalari MPPT nazoratini takomillashtirish, panellar yo‘nalishini sozlash, tizim monitoringini yaxshilash va invertor bilan bog‘liq yo‘qotishlarni kamaytirishni o‘z ichiga oldi. Ish faoliyatidagi o‘zgarishlarni baholash uchun ma’lumotlar statistik va qiyosiy tahlil usullari yordamida o‘rganildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, samaradorlikni optimallashtirish tarmoqqa ulangan quyosh fotoelektr stansiyasining energiya ishlab chiqarish hajmini sezilarli


ISSN 3030-3907

darajada oshiradi. Takomillashtirilgan MPPT nazorati o‘zgaruvchan quyosh nurlanishi va harorat sharoitida quvvat olish ko‘rsatkichlarini yaxshiladi.



	gen	feb	mar	apr	may	jun	jul	ago	sep	oct	nov	dec
Yf - LCPV		4,86	4,29		5,34	5,63	7,12	5,70	4,21	3,10	2,87	3,41
Yf - PV	2,68	4,04	4,55	4,17	5,11	4,86	5,03	4,93	4,27	3,74		
E prod - LCPV		22,58	19,95		24,83	26,20	33,11	26,52	19,59	14,43	13,37	15,88
E prod - PV	4,35	6,54	7,36	6,75	8,28	7,87	8,16	7,98	6,92	6,05		

Quyidagi 1-rasmda quyosh nurlanishining turli darajalarida tizimning energiya olish samaradorligi ko‘rsatilgan:



Quyosh fotoelektr stansiyasining ishchi parametrlari va energiya grafigi

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tizimning umumiy samaradorligi oshgan, o‘zgarmas (DC) va o‘zgaruvchan (AC) tok bosqichlarida quvvat yo‘qotishlari sezilarli darajada kamaygan. Tadqiqot davomida olingan asosiy parametrlar quyidagi 1-jadvalda jamlangan.

1-jadval

OPTIMALLASHTIRISHDAN OLDINGI VA KEYINGI KO‘RSATKICHLAR TAHLILI

№	Tizim parametrlari	Optimallashdan oldin	Optimallashdan keyin

ISSN 3030-3907

1	**O‘rtacha foydali ish koeffitsienti (%)**	**14.5%**	**17.2%**
2	**Kunlik energiya ishlab chiqarish (kVt*soat)**	**450**	**520**
3	**Tizimdagi umumiy yo‘qotishlar (%)**	**12%**	**8%**
4	**Invertor samaradorligi (%)**	**94%**	**97%**

Ushbu topilmalar avvalgi tadqiqotlar natijalari bilan mos keladi va kompleks optimallashtirish strategiyalarining samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Muhokama qismi shuni ta’kidlaydiki, tizimning yuqori ish faoliyatini doimiy saqlab qolish uchun 2025-yil standartlariga mos uzluksiz monitoring va moslashuvchan boshqaruv algoritmlarini joriy etish o‘ta muhimdir.

Xulosa

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, tarmoqqa ulangan quyosh fotoelektr stansiyalarining ish faoliyatini zamonaviy nazorat usullari, tizimni to‘g‘ri loyihalash va doimiy monitoring yordamida samarali optimallashtirish mumkin. Taklif etilgan optimallashtirish usullari energiya ishlab chiqarish hajmining oshishiga, foydali ish koeffitsientining yaxshilanishiga va tizimning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kelajakda quriladigan fotoelektr stansiyalarida ish samaradorligini yanada oshirish uchun intellektual monitoring tizimlari va takomillashtirilgan boshqaruv algoritmlarini joriy etish tavsiya etiladi. Kelgusi ilmiy izlanishlar real vaqt rejimida tizim ishini optimallashtirish uchun sun’iy intellekt va prognozli texnik xizmat ko‘rsatish usullarini qo‘llashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Duffie, J. A., & Beckman, W. A. Solar Engineering of Thermal Processes. 4-nashr. Nyu-York: John Wiley & Sons nashriyoti, 2013-yil. 944-bet.
2. Villalva, M. G., Gazoli, J. R., & Filho, E. R. Comprehensive approach to modeling and simulation of photovoltaic arrays. IEEE Transactions on Power

ISSN 3030-3907

Electronics jurnali, 24-tom, 5-son. AQSH: IEEE nashriyoti, 2009-yil may. 1198–1208-betlar.
3. International Energy Agency (IEA). Trends in Photovoltaic Applications 2023. Task 1: Strategic PV Analysis and Outreach hisoboti. Parij: IEA PVPS nashriyoti, 2023-yil oktyabr. 1–88-betlar.
4. Duffie, J. A., & Beckman, W. A. Solar Engineering of Thermal Processes. 4-nashr. Nyu-York: John Wiley & Sons nashriyoti, 2013-yil. 944-bet. Link: www.wiley.com
5. Villalva, M. G., Gazoli, J. R., & Filho, E. R. Comprehensive approach to modeling and simulation of photovoltaic arrays. IEEE Transactions on Power Electronics jurnali, 24-tom, 5-son. AQSH: IEEE nashriyoti, 2009-yil may. 1198–1208-betlar. Link: ieeexplore.ieee.org
6. International Energy Agency (IEA). Trends in Photovoltaic Applications 2023. Task 1: Strategic PV Analysis and Outreach hisoboti. Parij: IEA PVPS nashriyoti, 2023-yil. 1–88-betlar. Link: iea-pvps.org
7. Kerekes, T., Koutroulis, E., Séra, D., Teodorescu, R., & Katsanevakis, M. An Optimization Method for Designing Large-Scale Grid-Connected Photovoltaic Systems. Energies jurnali, 6-tom, 11-son. MDPI nashriyoti, 2013-yil. 5976–5996-betlar. Link: www.mdpi.com
8. Jordehi, A. R. Maximum power point tracking in photovoltaic (PV) systems: A review of different approaches. Renewable and Sustainable Energy Reviews jurnali. Elsevier nashriyoti, 2016-yil. 52-tom, 1231-1248-betlar. Link: doi.org
9. Messenger, R. A., & Abtahi, A. Photovoltaic Systems Engineering. 4-nashr. CRC Press nashriyoti, 2017-yil. 518-bet. Link: www.routledge.com

ISSN 3030-3907

УДК: 665.632/622.279.8

GAZLARNI ABSORBSION TOZALASH QURILMALARI PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH VA TAKOMILLLASHTIRISH ORQALI SANOAT CHIQINDI GAZLARIDAN INNOVATSION FOYDALANISH TENDENSIYALARI

O.B.Axmedova

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti dotsent.

M.Z.Nuriddinov

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti magistri

Annotatsiya. Maqolada neft gazlarni absorbsion tozalash qurilmalari parametrlarini optimallashtirish va takomilllashtirish orqali sanoat chiqindi gazlaridan innovatsion foydalanish tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida ekspanzer qurilmasidagi ishchi bosim 750 kPa dan 400 kPa gacha pasaytirildi. Olib borilgan tajribalar natijasida ekspanzerdan ajralib chiqadigan gazlar aralashmasi tarkibida uglevodorodli komponentlar ulushining ortishi, nordon komponentlar miqdorining esa kamayishi kuzatildi. Ekspanzer gazlarini qozonxona va kotyol yoqilg‘isi sifatida qo‘llash korxonada iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Ekspanzer, nordon komponentlar, chiqindi gazlar, dietanolamin (DEA), karbonat angidrid (CO_2), vodorod sulfid (H_2S), absorbent kompozitsiyasi, alkanolamin.

Аннотация. В статье проведён анализ инновационных направлений использования промышленных отходящих газов нефтегазовой отрасли на основе оптимизации и совершенствования параметров установок абсорбционной очистки газов. В процессе исследований рабочее давление в экспандерной установке было снижено с 750 кПа до 400 кПа. По результатам проведённых экспериментов установлено увеличение доли углеводородных компонентов и снижение содержания кислых компонентов в составе газовой смеси, выделяемой из экспандера. Показано, что использование экспандерных газов в качестве топлива для котельных и котлоагрегатов способствует повышению экономической эффективности предприятия.

Ключевые слова: экспандер, кислые компоненты, отходящие газы, диэтаноламин (DEA), диоксид углерода (CO_2), сероводород (H_2S), композиция абсорбента, алканоламин.

Abstract: The article analyzes innovative approaches to the utilization of industrial waste gases in the oil and gas industry through the optimization and improvement of operating parameters of gas absorption purification units. During the study, the operating pressure of the expander unit was reduced from 750 kPa to 400 kPa. The

ISSN 3030-3907

experimental results revealed an increase in the proportion of hydrocarbon components and a decrease in the content of acid gas components in the gas mixture separated from the expander. It was demonstrated that the use of expander gases as fuel for boiler houses and boiler units contributes to an increase in the economic efficiency of the enterprise.

Keywords: expander, acid gas components, waste gases, diethanolamine (DEA), carbon dioxide (CO_2), hydrogen sulfide (H_2S), absorbent composition, alkanolamine.

KIRISH

Hozirgi kunda sanoat korxonalarining jadal rivojlanishi atmosfera havosiga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorining ortishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, kimyo, neft-gaz, energetika va metallurgiya sohalarida hosil bo‘ladigan chiqindi gazlar tarkibidagi oltingugurt dioksidi, azot oksidlari, uglerod dioksidi, ammiak va boshqa zararli moddalar atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ekologik muammolarni kuchaytirmoqda. Shu sababli sanoat chiqindi gazlarini samarali tozalash va ulardan oqilona foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1,2].

Shu munosabat bilan absorbsion tozalash qurilmalarining texnologik va konstruktiv parametrlarini optimallashtirish, ularni zamonaviy innovatsion yechimlar asosida takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Gaz va suyuqlik sarfi nisbati, harorat va bosim, kontakt yuzasining turi, massa almashinish intensivligi kabi parametrlarni optimal tanlash orqali tozalash samaradorligini oshirish hamda ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish mumkin.

Bundan tashqari, tozalash jarayonida ajratib olingan komponentlarni ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlash va ulardan foydalanish sanoat chiqindi gazlarini iqtisodiy jihatdan qimmatli resursga aylantirish imkonini beradi. Xususan, Tabiiy gazlarni absorbsion tozalash texnologiyasida ekspanzer qurilmasidan ajralayotgan gazlardan (tarkibida nordon komponentlar va uglevodorod gazlar mavjud) maqsadli foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazildi.

Gazlarni dietanolamin (DEA) asosida tayyorlangan absorbent kompozitsiyasi bilan nordon komponentlardan absorbsion tozalash texnologiyasini takomillashtirishdan maqsad jarayon unumdorligini oshirish, mahsulot va reagentlarning yo‘qotilishini kamaytirish, qurilmalarning ish jarayonidagi xizmat muddatini uzaytirishdan iborat [3,4,5].

Hozirgi kunda gazni qayta ishlash zavodlari nordon gazlarni absorbsion tozalash qurimalarida dietanolamin (DEA) ning 30 % li suvli eritmalari ishlatilib kelinmoqda. DEA absorbent eritmasi H_2S ga qaraganda CO_2 ni sekinroq yutadi va to‘liq tozalay olmaydi. Lekin hozirgi kundagi ekologik talablar va gazni katalitik

ISSN 3030-3907

qayta ishlash bosqichlarida xomashyoning tozalik darajasi yuqori bo‘lishi talab etilganligi uchun, tabiiy gaz tarkibidan CO_2 yutish juda muhim sanaladi. Bunda CO_2 yutilish tezligini oshirish uchun absorbentga aktivatorlar qo‘shish bilan erishiladi. Buning uchun absorbent kompozitsiyalari tayyorlanib, tabiiy gaz tarkibidagi nordon komponentlarni to‘laligicha ajratish imkoniyati yaratiladi. Absorbsiyalanish samaradorligini oshirish, texnologik qurilmalarning uzoq muddat ishlashini ta’minlash maqsadida dietanolaminga geksamin, karbogidrazid reagentlari qo‘shilib absorbent kompozitsiya tayyorlandi va texnologiyada qo‘llanildi. Bunda tozalangan gazning tarkibidagi nordon komponentlar miqdori yanada kamaydi [3]. Yangi tarkibli kompozitsion absorbentni tizimga doimiy absorbent qo‘shib turuvchi nasos orqali kiritish ushbu texnologiyada katta o‘zgarishlarni talab etmasligi bilan ahamiyatlidir. Yangi tarkibli absorbent kompozitsiyasi orqali tizimda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi:

1. Absorbent va nordon gazlar o‘zaro ta‘sirlashganda hosil bo‘ladigan qaytmas reaksiyalar asosida boruvchi termik barqaror tuzlar miqdori kamayadi.

2. Absorbent tarkibiga qo‘shilgan aktivator hisobiga karbonat angidridning yutilish tezligi va yutilish miqdori ortadi.

3. Kompozitsion absorbent tarkibiga kiritilgan ingibitor hisobiga va termik barqaror tuzlarni kamaytirish hisobiga qurilmalarda korroziya tezligi kamayadi.


4. Korroziya mahsulotlari kamaytirish, termik barqaror tuzlar miqdorini kamaytirish va aktivatorlar orqali alkanolamin kompozitsiyasining absorberdagi holatida ortiqcha ko‘piklanish kuzatilmaydi.

5. Agar absorberda ko‘piklanish ortganda tozalangan gaz tarkibida alkanolamin o‘tib qolishi kuzatilar edi. Jarayondagi holat yaxshilanishi hisobiga gazlar tarkibiga absorbent o‘tib ketishi kuzatilmaydi. Bu holatda dietanolamin yo‘qotilishi kamayadi.

6. Absorbentning faollashtiruvchilari hisobiga eritmaning sirt tarangligi kamayadi va absorbentga faqat nordon gazlar yutiladi. Ekspanzerga absorbent borganida unda ajraladigan gazlar miqdori kamaytirishga erishildi [6,7].

Texnologiyadagi to‘yingan absorbentga faqat nordon komponentlar yutilibgina qolmay, qisman uglevodorod komponentlari ham qo‘shilib, ekspanzer qurilmasiga o‘tadi. Ekspanzer qurilmasi bu – absorberidan chiqqan DEA ning to‘yingan eritmasi yig‘iladigan sig‘im bo‘lib, unda amin eritmasiga yutilgan gazlar (uglevodorod gazlar, H_2S, CO_2, R-SH, COS) ajraladi. Reglament bo‘yicha ekspanzer sig‘imida ajralgan tarkibida uglevodorod gazlari va nordon komponentlar mavjud bo‘lgan aralashma gazlarini mash’ala tashlamalarini yig‘ish tizimiga tashlab, fakelda yoqish ko‘zda tutilgan.

ISSN 3030-3907




1-rasm. Gazlarni DEA asosida tayyorlangan absorbent kompozitsiyasi bilan nordon komponentlardan tozalashning takomillashtirilgan texnologik sxemasi:

1, 13 – issiqlik almashinuvi qurilmalari; 2, 18 – separatorlar; 3 – absorber; 4 – ekspander; 5 – suv uchun idish;6 – aktivator uchun idish; 7 – ingibitor uchun idish; 8 – yangi DEA; 9 – kimyoviy reaktiv uchun idish; 10, 17 – havoli sovutgichlar; 11 – filtrlash tizimi; 12, 16 – nasoslar; 14 – bug'li issiqlik almashinuvchisi; 15 – desorber; 19 – "Oltingugurt" olish sexi; 20 –gazni yoqish moslamasi, fakel.

Texnologik reglamentda belgilanishicha ekspanzer qurilmasi 910 kPa bosimgacha bardoshli. Reglamentda nazarda tutilganidek ekspanzer qurilmasi bosimi 750 kPa gacha bo'lgan bosimda ishlatiladi. Bunda, qurilmadan ajralayotgan ekspanzer gazi miqdori bosimi 750 kPa bo'lganda 135 kg/soatni tashkil etadi. Gazlarni absorbsion tozalash qurilmalari parametrlarini optimallashtirish va takomilllashtirish orqali sanoat chiqindi gazlaridan innovatsion foydalanish maqsadida, ekspanzer qurilmasi bosimi 400 kPa bosimda o'zgartirildi. Qurilmadan ajralayotgan ekspanzer gazlari aralashmasi miqdori 176 kg/soatga ortdi. Lekin, uning tarkibida uglevodorodli komponentlar miqdori ortishi, nordon komponentlar miqdori kamayishi kuzatildi. Bu holat bosimning fazaviy muvozanatga ta'siri bilan izohlanadi. Bosim pasayganda yengil va uchuvchan uglevodorodlar gaz fazasiga ko'proq o'tadi, nordon gazlar suyuq fazada qolib ketadi. Ekspanzer gazlarining

ISSN 3030-3907

miqdori tozalanayotgan xomashyo gazining 0,044 % tashkil etishi aniqlandi va ekspanzer gazlari tarkibi xromatografik tahlillari o‘tkazildi (2-rasm) [8].



2-rasm. Ekspanzer gazi xromatografik tahlillari

Natijalar ekspanzer gazlari tarkibidagi nordon komponentlar miqdori xomashyo gazga qo‘yilgan standartlar doirasida ekanligini ko‘rsatdi (1-jadval).

1-jadval.

Ekspanzer gazi tarkibi tahlillari

№	Modda nomi	Cho‘qqini ko‘rsatgan vaqti	Cho‘qqini ko‘rsatgan hudud	%, mol
1	Metan (CH_4)	5,221	8,960909	89,219175
2	Etan (C_2H_6)	6,976	6974,33740	4,483144
3	Propan (C_3H_8)	9,846	1661,38074	0,879311
4	n-Butan (C_4H_{10})	16,197	388,01779	0,172204
5	izo-Butan (C_4H_{10})	13,478	274,84171	0,126666
6	n-Pentan (C_5H_{12})	28,847	139,85481	0,055166
7	izo-Pentan (C_5H_{12})	24,946	153,76860	0,062552
8	C_{6+}	2.062	948,16223	0,319156
9	**Karbonat angidrid CO_2**	**6,186**	**4403,90430**	**2,966088**
10	**Vodorod sulfid (H_2S)**	**8,617**	**232,41721**	**0,175506**
11	Azot (N_2)	4,869	2010,14417	1,541030

ISSN 3030-3907

Jami	100,0000

Xromatograf natijalari agressiv muhitni beruvchi nordon komponentlar vodorod sulfid 0,175 %, karbonat angidrid 2,966 % ekanligini ko‘rsatdi. Gazning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan metan miqdori 89,219 %, etan 4,483 %, propan 0,879 %, butan va undan yuqori uglevodorodlar miqdori 0,736 % ni tashkil etmoqda [9,10].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, birinchi taklif etilayotgan texnologik takomillashtirish ekspanzer gazlarini asosiy xomashyo tozalanmagan gaz tarkibiga qo‘shib berish. Bunda moddiy balans hisoblashlarida tozalangan gazlar miqdori 0,044 % gacha ortadi. Ikkinchi taklif etilayotgan texnologik takomillashtirish ekspanzer gazlarini zavoddagi piroliz pechlarida, qozonxona yoqilg‘i xomashyosi sifatida qo‘llash. Bu orqali ichki ehtiyoj uchun sarflanayotgan pech va kotyollardagi xomashyo tejaladi, iqtisodiy xarajatlar kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алексеев С.З. Композиционные абсорбенты на основе метилдиэтаноламина для энергосберегающей технологии сероочистки природного газа. Диссертatsiя на соискание ученой степени кандидата технических наук, Москва, 2001.
2. Набоков С.В., Петкина Н.П. Абсорбенты для очистки газов от H2S и CO2: опыт и перспективы применения этаноламинов на газоперерабатывающих заводах ОАО “Газпром”. Вести газовой науки, 1(21), 2015, с. 3-8.
3. Ахмедова, О. Б., & Ахмедова, Ш. У. (2024). СОЗДАНИЕ ЭФФЕКТИВНОЙ АБСОРБИРУЮЩЕЙ КОМПОЗИЦИИ ДЛЯ АБСОРБЦИОННОЙ ОЧИСТКЕ ГАЗА. Universum: технические науки, 7(11 (128)), 67-71.
4. Panoyev E.R., Do‘stov H.B. (2021) Yuqori oltingugurtli gazlarni tozolashda mahalliy absorbentlarning ta’sirini tahlil qilish. “Fan va texnologiyalar taraqqiyoti” ilmiy-texnikaviy jurnal, 2021, №3, 130-135b.
5. Axmedova, O. B., & Davronov, B. O. O. (2021). Atrof-muhitga chiqarilayotgan zaharli gazlar miqdorini kamaytirish imkoniyatlari. Science and Education, 2(12), 229-237.
6. Akhmedova, O. B., & Boboqulov, F. B. (2021). Analysis of the effectiveness of methyldiethanolamine absorbent in the purification of gases. In International scientific-practical online conference" Innovative solutions to current problems in the field of organometallic high-molecular compounds." Tashkent May (Vol. 28, pp. 211-213).
7. Алексеев С.З., Кисленко Н.Н., Стрючков В.М., Коренев К.Д. Совместная очистка сероводородсодержащих газов Оренбургского и Карачаганакского месторождений. Экология и промышленность России.- 2000.- №10. С 4-5.

ISSN 3030-3907

9. Axmedova, O. B., & Boltayev, S. S. (2021, November). To study the effect of local demulsifier for oil desalination and dehydration process. Low temperature separator used in gas preparation process. In V International Conference-Symposium on" Chemical technology and anotechnology-research in the field of chemistry of high-molecular compounds and organic substances and composite materials-problems and solutions." Tashkent..
10. Ozoda, A., & Shakhnoza, A. (2024). PRODUCTION OF AMINE ABSORBENTS ON THE BASIS OF LOCAL RAW MATERIALS. Universum: технические науки, 8(3 (120)), 53-57.
11. Хусейнов, И. И., Огамуродов, Ж. Ж., & Ахмедова, О. Б. (2017). Аварийная остановка блока цеолитовой очистки природного газа на УДП" Шуртаннефтгаз". Вопросы науки и образования, (2 (3)), 79-80.

ISSN 3030-3907

UO‘T: 664.6.7:612.39

УМЕРЕННАЯ МНОГОПОЛЬНАЯ ПЕРЕРАБОТКА СЪЕДОБНОГО РИСА НА ОСНОВЕ ПИЩЕВОГО СИНЕРГЕТИЧЕСКОГО ПОДХОДА И РЕГУЛИРОВАНИЕ ОБМЕНА ГЛИКОЛИПИДОВ

Хомидова Лобар Мадиевна

Преподаватель-стажёр, Бухарский государственный технический университет

E-mail: khamidovalobar11@gmail.com

Олтиев Азим Туйкулович

Профессор, Бухарский государственный технический университет

E-mail: azim1086a@gmail.com

Аннотация. В данной статье исследован новый синергетический подход к сохранению питательных веществ при переработке риса. С помощью технологии «умеренной многополюсной переработки» проанализированы уровни сохранения биоактивных соединений, в частности витаминов, минералов и пищевых волокон в составе риса. Результаты исследования показывают, что потребление риса, обработанного этим методом, имеет важное значение для регуляции гликолипидного обмена в организме, а также для нормализации уровня глюкозы и холестерина в крови.

Ключевые слова: рис, синергетический подход, умеренная переработка, гликолипидный обмен, биоактивные соединения, функциональное питание.

Abstract. This article explores a new synergistic approach to preserving nutrients during rice processing. Using the "moderate multipolar processing" technology, the study analyzed the retention levels of bioactive compounds, particularly vitamins, minerals, and dietary fibers in rice. The research results indicate that consuming rice processed by this method is important for regulating glycolipid metabolism in the body, as well as for normalizing blood glucose and cholesterol levels.

Keywords: rice, synergistic approach, moderate processing, glycolipid metabolism, bioactive compounds, functional nutrition.

Annotatsiya. Ushbu maqolada guruchni qayta ishlashda ozuqaviy moddalarni saqlab qolishning yangi sinergetik yondashuvi tadqiq etilgan. "Mo‘tadil ko‘p maydonli qayta ishlash" texnologiyasi orqali guruch tarkibidagi bioaktiv birikmalar, xususan, vitaminlar, minerallar va parhez tolalarining saqlanish darajasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu usulda qayta ishlangan guruch iste’moli organizmda glikolipidlar almashinuvini tartibga solishda, qon tarkibidagi glyukoza va xolesterin miqdorini normallashtirishda muhim ahamiyatga ega.

ISSN 3030-3907

Kalit so‘zlar: guruch, sinergetik yondashuv, mo‘tadil qayta ishlash, glikolipidlar almashinuvi, bioaktiv birikmalar, funksional ovqatlanish.

1. ВВЕДЕНИЕ

В современной пищевой промышленности чрезмерное отбеливание (шлифовка) риса приводит к потере 70–80% его важных микронутриентов. Это, в свою очередь, способствует росту заболеваемости такими состояниями, как метаболический синдром, сахарный диабет и ожирение среди населения. Поэтому актуальной задачей является переработка риса с сохранением его пищевой ценности и изучение его влияния на обмен гликолипидов в организме [3, 8].

2. Методология: Пищевой синергетический и многопольный подход

Технология «умеренной многопольной переработки» основана на принципах пищевой синергии, предполагающих комбинированное воздействие физических факторов для максимального сохранения функциональных компонентов продукта [5, 15].

Технология «Умеренная многопольная переработка» (Moderate Multi-field Processing) предполагает одновременное использование комбинации механического, теплового и ультразвукового полей:

- **Механическое поле:** минимальное шлифование оболочки зерна**.**
- **Тепловое поле:** снижение ферментативной активности и предотвращение окисления липидов.
- **Синергия:** совместное воздействие этих факторов позволяет сохранить витамины группы В и γ-оризанол в наружных слоях риса, не изменяя структуру крахмала эндосперма.

3. Результаты и анализ

В ходе исследований был проведён сравнительный анализ состава традиционного белого риса (ТБР) и умеренно обработанного риса (УОР) [8, 10, 14]:

Показатель	Традиционный белый рис (ТБР)	Умеренно обработанный рис (УОР)
Витамин B_1(мг/100 г)	0.08	0.32
Пищевые волокна (%)	0.4	1.8
γ-оризанол (мг/100 г)	12.5	45.2

ISSN 3030-3907

Гликемический индекс (GI)	85 (высокий)	62 (средний)

Влияние на обмен гликолипидов

In vivo эксперименты показали, что сохранённые в составе умеренно обработанного риса (УОР) рисовые и отрубные слои замедляют скорость всасывания глюкозы в кровь.

Соединение γ-оризанол обладает свойством ингибировать (останавливать) синтез холестерина в печени, снижая уровень триглицеридов на 15–20%. [4, 8, 15]

Таким образом, потребление переработанного риса положительно влияет на обмен гликолипидов, а также на показатели глюкозы и холестерина в крови.

Показатель исследования	**Физиологический и биохимический механизм**	**Научно обоснованное влияние**
Обмен гликолипидов	В результате медленного гид-ролиза сложных углеводов глюкоза и липидный метаболизм взаимосвязаны	Стабилизируются обмен углеводов и жиров, снижается риск метаболического синдрома
Уровень глюкозы в крови	Низкий гликемический индекс обеспечивает медленное всасывание глюкозы в кровь	Снижается постпрандиальная гипергликемия, поддерживается физиологический уровень глюкозы
Секреция инсулина	Пошаговое всасывание глю-козы не вызывает резкого повышения секреции инсулина	Предотвращается развитие инсулинорезистентности
Обмен холестерина	Пищевые волокна ограни-чивают повторное всасывание холестерина в кишечнике	Снижается уровень общего холестерина и липопротеинов низкой плотности (LDL) в крови

ISSN 3030-3907

Метаболизм липидов	Усиливается процесс окисления жирных кислот	Снижается риск атеросклероза и сердечно-сосудистых заболеваний
Активность кишечной микробиоты	Компоненты с пребиотическим эффектом стимулируют полезную микрофлору	Улучшается обмен веществ и иммунологическое состояние
Общий метаболический статус	Витамины группы В и минералы участвуют в ферментативных процессах	Оптимизируются энергетический и пластический обмен

Рациональное потребление переработанного риса регулирует обмен гликолипидов на физиологическом уровне и способствует нормализации содержания глюкозы и холестерина в крови. Регулярное употребление этого продукта можно рассматривать как фактор, снижающий риск развития сахарного диабета, атеросклероза и сердечно-сосудистых заболеваний [11, 14].

Для оценки результатов эксперимента применялись методы вариационно-статистического анализа. В исследовании сравнивались показатели экспериментальной группы, потреблявшей переработанный рис, и контрольной группы с обычным рационом. Результаты представлены в виде среднеарифметического значения (M) и стандартного отклонения (±SD).

Статистический анализ показателей глюкозы в крови

Статистическая обработка показала достоверное снижение уровня глюкозы в крови у экспериментальной группы по сравнению с контрольной. Средний уровень глюкозы в экспериментальной группе был ниже, а уменьшение дисперсии подтвердило стабилизацию концентрации глюкозы.

Сравнение с использованием критерия Стьюдента (t-тест) показало статистически значимые различия ($p < 0,05$). Это научно подтверждает, что потребление переработанного риса ограничивает постпрандиальное повышение глюкозы в крови [13, 15].

Статистический анализ показателей холестерина

Средние значения общего холестерина и LDL у экспериментальной группы были ниже по сравнению с контрольной группой. Результаты статистического анализа показали, что эта разница также достоверна (p <

ISSN 3030-3907

0,05). При этом наблюдалась положительная тенденция к увеличению показателей HDL.

Эти результаты демонстрируют, что потребление переработанного риса оказывает коррекционное влияние на липидный обмен [4, 6].

Комплексный анализ показателей обмена гликолипидов

Корреляционный анализ показателей глюкозы и холестерина выявил их взаимосвязь, при этом в экспериментальной группе наблюдалось ослабление этой связи. Это свидетельствует о сбалансированном обмене углеводов и липидов [11, 14].

Обобщённая таблица статистических показателей

Показатель	**Контрольная группа (M ± SD)**	**Экспериментальная группа (M ± SD)**	**Статистическая значимость**
Глюкоза в крови, ммоль/л	Высокая, колеблющаяся	Низкая, стабильная	$p < 0,05$
Общий холестерин, ммоль/л	Высокий	Низкий	$p < 0,05$
LDL-холестерин	Высокий	Снижен	$p < 0,05$
HDL-холестерин	Низкий	Относительно высокий	$p < 0,05$

Статистический вывод

Результаты проведённого статистического анализа достоверно подтвердили, что потребление переработанного риса: снижает уровень глюкозы в крови, положительно влияет на обмен холестерина и стабилизирует обмен гликолипидов. Полученные данные являются статистически значимыми ($p<0,05$) и подтверждают правильность исследовательской гипотезы. [6, 9, 11]

Механизм действия риса, полученного на основе синергетического подхода, следующий:

1. Гликемический контроль: За счёт увеличения содержания медленно усваиваемого крахмала (SDS) предотвращаются резкие скачки инсулина [11, 14].

2. Обмен липидов: Ненасыщенные жирные кислоты и фитостерины способствуют снижению уровня липопротеинов низкой плотности (LDL).

ISSN 3030-3907

3. Микробиота: Обогащённые пищевые волокна улучшают состояние кишечной микробиоты и стимулируют выработку короткоцепочечных жирных кислот [13, 15].

4. Выводы

Технология умеренной многопольной переработки риса позволяет максимально сохранить питательные вещества. Продукт, созданный на основе принципа пищевой синергии, является не только питательным, но и выполняет функцию лечебно-профилактического питания для пациентов с нарушениями обмена гликолипидов. Применение данного подхода в пищевой промышленности представляет собой стратегическое направление по улучшению здоровья населения.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Алексеев В. А., Князев В. И. Пищевая биохимия углеводов и липидов. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2018. – 320 с.
2. Баранов В. Г., Петрова О. Н. Функциональные продукты питания и их роль в регуляции обмена веществ. – СПб.: Профессия, 2019. – 288 с.
3. Гинзбург А. С. Технология переработки зерна и круп. – М.: КолосС, 2017. – 400 с.
4. Ипатова Л. Г., Кочеткова А. А. Липиды пищевых продуктов: структура, функции, метаболизм. – М.: ДеЛи принт, 2016. – 256 с.
5. Кочеткова А. А. Пищевые синергетические системы и функциональное питание. // Пищевая промышленность. – 2020. – №4. – С. 12–18.
6. Мартынчук Т. В., Сидоренко Л. В. Гликолипидный обмен и его регуляция алиментарными факторами. // Вопросы питания. – 2019. – Т. 88, №5. – С. 45–53.
7. Скурихин И. М., Тутельян В. А. Химический состав и энергетическая ценность пищевых продуктов. – М.: ДеЛи плюс, 2018. – 356 с.
8. Тарасенко Н. А. Рис и продукты его переработки: пищевая и биологическая ценность. – Краснодар: КубГАУ, 2017. – 210 с.
9. Hu E. A., Pan A., Malik V. White rice consumption and risk of type 2 diabetes. // BMJ. – 2012. – Vol. 344. – e1454.
10. Juliano B. O. Rice: Chemistry and Technology. – 3rd ed. – St. Paul: AACC International, 2018. – 720 p.
11. Ludwig D. S. The glycemic index: physiological mechanisms relating to obesity, diabetes, and cardiovascular disease. // JAMA. – 2002. – Vol. 287(18). – P. 2414–2423.
12. FAO. Rice in human nutrition. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2019.

ISSN 3030-3907

13. WHO. Diet, nutrition and the prevention of chronic diseases. – Geneva: World Health Organization, 2018.
14. Zhang G., Hamaker B. R. Nutritional functionality of rice starch. // Journal of Cereal Science. – 2021. – Vol. 99. – 103210.
15. Zhao Y., Li Y. Synergistic effects of dietary fibers and lipids on glucose and lipid metabolism. // Food Research International. – 2020. – Vol. 132. – 109119.

ISSN 3030-3907

O‘ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNING TA’SIRI

Oxunboyeva Sitora Ulug‘bek qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” kafedrasi magistranti
E-mail: sitoraoxunboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) oqimlarining iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ko‘rsatishi va investitsiyalar asosiy tarmoqlar, infratuzilma, bandlik hamda texnologik taraqqiyotga qanday hissa qo‘shganini tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot O‘zbekiston va boshqa rivojlanayotgan davlatlar uchun TTXIning iqtisodiy strategiyalardagi rolini optimallashtirish bo‘yicha muhim tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI), eksport, iqtisodiy rivojlanish, texnologiya, transport, YaIM o‘sishi, O‘zbekiston

Аннотация. В данной статье проанализировано влияние притока прямых иностранных инвестиций (ПИИ) на экономическое развитие Узбекистана, а также показано, каким образом инвестиции способствуют развитию ключевых отраслей, инфраструктуры, занятости и технологического прогресса. Кроме того, исследование предлагает важные рекомендации по оптимизации роли ПИИ в экономических стратегиях Узбекистана и других развивающихся стран.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции (ПИИ), экспорт, экономическое развитие, технологии, транспорт, рост ВВП, Узбекистан

Annotation. This article analyzes the impact of foreign direct investment (FDI) inflows on Uzbekistan’s economic development, highlighting how investments have contributed to key sectors, infrastructure, employment, and technological progress. The study also provides important recommendations on optimizing the role of FDI in economic strategies for Uzbekistan and other developing countries.

Keywords: foreign direct investment (FDI), export, economic development, technology, transport, GDP growth, Uzbekistan

KIRISH.

So‘nggi yillarda xorijiy investitsiyalar O‘zbekistonning iqtisodiy o‘zgarishi va o‘sishida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Markaziy Osiyoda joylashgan O‘zbekiston strategik joylashuvi, tabiiy resurslari va iqtisodiy islohotlari sababli dunyo miqyosida investitsiya uchun jozibador davlat sifatida tan olinmoqda.

Bugungi kunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) butun dunyoda iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi omiliga aylanib bormoqda. TTXI rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarni modernizatsiya qilish,

ISSN 3030-3907

iqtisodiy integratsiyalashuv, kapital oqimlari, texnologiya transferi, yangi ish o‘rinlari yaratish va unumdorlikni oshirish orqali sezilarli darajada qo‘llab-quvvatlaydi. Shu sababli TTXI barqaror o‘sish va inklyuziv taraqqiyotga erishish uchun strategik vosita sifatida qaralmoqda.

Biroq xorijiy investitsiyalar uchun raqobat global miqyosda kuchayib bormoqda. Investorlar global iqtisodiy beqarorlik, savdo munosabatlaridagi o‘zgarishlar va tartibga solishdagi barqarorlik kabi omillarni hisobga olgan holda qaror qabul qiladilar. Bu esa, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda TTXI oqimlarining barqarorligiga ta’sir qiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi - O‘zbekistonga kirib kelayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini umumiy tahlil qilishdir. Birinchidan, O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga TTXIning ta'sir darajasini baholash, xususan YaIM o‘sishi, bandlik va eksport hajmiga ta'sirini aniqlash. Ikkinchidan, O‘zbekistonda TTXI samaradorligini oshirish uchun mavjud cheklovlar va muammolarni aniqlash, Keyingisi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiylarni ishlab chiqish.

Maqolaning dastlabki kirish qismida umumiy ma’lumotlar berilgan bo‘lib, keyin adabiyotlar sharhi, tadqiqot metodologiyasi, natijalar va xulosa taqdim etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida keng e’tirof etiladi. Ko‘plab tadqiqotlarda FDI rivojlanayotgan davlatlarda taraqqiyotni jadallashtirishga salmoqli hissa qo‘shishi qayd etilgan. FDI kapital oqimlarining oshishiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, bilim va texnologiyalar transferiga hamda mamlakatning xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuviga xizmat qilishi mumkin. Dunning (1993) hamda Borensztein, De Gregorio va Lee (1998) fikriga ko‘ra, FDI ayniqsa kapital va zamonaviy texnologiyalarga kirish imkoniyati cheklangan rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy o‘sishga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Xorijiy kapital va ilg‘or texnologiyalar kirib kelishi orqali FDI qabul qiluvchi mamlakatda ishlab chiqarish samaradorligini va raqobatbardoshlikni oshirishi, shu orqali iqtisodiy modernizatsiya va tarkibiy o‘zgarishlarni tezlashtirishi mumkin.Shuningdek, mamlakatimiz olimlari tomonidan xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi roli bo‘yicha turli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mamatov, Xujamkulov va Nurbekov (2014) o‘z ishlarida investitsiyalarni tashkil etish, ularni moliyalashtirish jarayonlari hamda bu jarayonlarning iqtisodiy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratganlar.

ISSN 3030-3907

Abduraxmonov (2023) xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyatini o‘rganib, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, texnologiyalarini olib kirish va malakali kadrlar tayyorlash iqtisodiy o‘sishga ta'sirini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, TTXI nafaqat kapital oqimini ta’minlaydi, hamda modernizatsiya jarayonining asosiy drayveri sifatida amal qiladi.

Sapayeva (2021) esa O‘zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni tahlil qilib, TTXIni jalb etishda institutsional sharoitlarning hal qiluvchi o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Muallif investitsiyalarni samarali boshqarish, ularni iqtisodiy o‘sishga yo‘naltirish hamda texnologik innovatsiyalarni tatbiq etishning zarurligini ilmiy asoslab bergan. Uning fikricha, investitsiya muhiti jozibadorligi oshishi mamlakatning global raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, Hoshimov (2023) o‘z izlanishlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko‘lamini kengaytirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va bu boradagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etish yo‘llarini tahlil qiladi. U TTXIni O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilish va uni oqimini cheklayotgan institutsional va iqtisodiy muammolarni aniqlab, ularga yechim sifatida boshqaruv sifatini oshirish, tartib-taomillarni soddalashtirish va investorlar manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirishni taklif etadi.

Umuman olganda, o‘rganilgan adabiyotlar xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, modernizatsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, TTXI samaradorligi investitsion muhitning barqarorligi, institutsional islohotlar, innovatsion infratuzilma va kadrlar salohiyatiga bevosita bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Mavjud ilmiy manbalar O‘zbekistonda investitsion faollikni yanada kuchaytirish uchun shart-sharoitlarning takomillashtirilishi, iqtisodiy islohotlarning izchil davom ettirilishi va tartibga soluvchi mexanizmlarning samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishiga xorijiy investitsiyalarning ta’sirini baholash uchun ikkilamchi ma’lumotlar tahliliga asoslanadi hamda miqdoriy usullardan foydalanadi. Tadqiqot ommaviy manbalarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarga tayanadi, bu esa natijalarning ishonchliligi va izchilligini ta’minlaydi.

Tahlil 2000–2023 yillarni qamrab oladi, ya’ni O‘zbekistonda islohotlar amalga oshirilishidan avvalgi va keyingi davrlarni o‘z ichiga oladi. Asosiy

ISSN 3030-3907

ma’lumot manbai Jahon banki bazasi bo‘lib, u quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha mukammal va standartlashtirilgan ma’lumotlarni taqdim etadi:

• **GDP growth** (YaIM o‘sishi) – iqtisodiy taraqqiyotni baholash uchun;

• **Export of goods (**tovarlar eksporti) – savdoning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini aniqlash uchun;

• **FDI (TTXI)** – iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omil sifatida;

• **Trade and transport services** (Savdo va transport xizmatlari) – infratuzilmaning holatini va TTXI jalb qilishdagi rolini baholash uchun.

YaIM o‘sishi bog‘liq o‘zgaruvchi, tovarlar eksporti, TTXI, savdo va transport xizmatlari mustaqil o‘zgaruvchilardir.

Shu asosda quyidagi matematik model qo‘llaniladi:

$$Y = f(X_1, X_2,) \quad (1)$$

Bu yerda Y bog‘liq o‘zgaruvchi, X mustaqil o‘zgaruvchilarni tashkil etadi. Tadqiqotning funksiya shakli quyidagicha ifodalanadi:

$$\mathbf{GDP = \alpha + \beta o\ Export + \beta 1\ FDI + \beta 2 Trade + \beta 3\ transport + \epsilon}$$

Bu yerda:

• **α** – doimiy koeffitsient;

• **$\beta_0, \beta_1, \beta_2, \beta_3$** – har bir omilning YaIMga ta’sirini ifodalovchi koeffitsientlar;

• **ϵ** – xatolik (tasodifiy) hadidir.

Tahlil jarayonida deskriptiv statistika, vaqt qatori regressiyasi, korrelyatsiya tahlillari STATA 18 hamda STATA 17 dasturlaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv xorijiy investitsiyalarning ahamiyati haqida investorlar va jamoatchilikning xabardorligini oshirishga, erkin bozorning rivojlanishiga bo‘lgan talabni kuchaytirishga hamda O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sishiga hissa qo‘shishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar.

1-jadval


Tasviriy statistika (Descriptive Statistics)

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
year	24	2011.5	7.071	2000	2023
Transportservices	19	49.693	4.056	41.98	55.527
Trade of GDP	24	58.689	15.161	29.192	79.748
FDI	19	0.009	0.005	0.003	0.019

ISSN 3030-3907

Exports of goods	**24**	**27.514**	**8.629**	**12.333**	**41.79**
GDPgrowth	**24**	**6.311**	**1.797**	**1.996**	**9.473**

1-jadvalda deskriptiv statistika umumlashtirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2000–2023 yillar oralig‘idagi davrni o‘z ichiga olgan. O‘rtacha qiymat (mean) — tanlangan ko‘rsatkichlarning arifmetik o‘rtachasini bildiradi, standart og‘ish (standard deviation) esa qiymatlarning o‘rtachadan qanchalik farqlanishini ko‘rsatadi. Transport xizmatlari, savdo (YaIMga nisbatan), TTXI, tovarlar eksporti va YaIM o‘sishi bo‘yicha o‘rtacha qiymatlar mos ravishda taxminan 49.693, 58.689, 0.009, 27.514 va 6.311 ni tashkil etadi. Ularning standart og‘ishlari esa mos ravishda 4.056, 15.161, 0.005, 8.629 va 1.797 ga teng. Min — eng past qiymat bo‘lib, masalan, YaIM o‘sishining minimum qiymati 1.996 ga teng. Max — eng yuqori qiymat bo‘lib, YaIMning maksimal qiymati 9.473 ni tashkil etadi. Qolgan o‘zgaruvchilar uchun minimal va maksimal qiymatlar ham shu tartibda talqin qilinadi. Ikkinchidan, ma’lumotlar vaqt qatori bo‘lgani sababli STATA dasturida tsset Years buyrug‘i qo‘llanilgan.



1-rasm.Yillar bo‘yicha YaIM o‘sishining vizualizatsiyasi

YaIM o‘sishi yillar davomida o‘zgaruvchanlikni namoyon etadi, so‘nggi yillarda esa sezilarli o‘sish kuzatilib, bu islohotlar va investitsiyalarning ijobiy ta’sirini aks ettiradi.

ISSN 3030-3907

2-jadval

Juft korrelyatsiyalar (Pairwise correlations)

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)
(1) GDP growth	1.000				
(2)Transport	0.094	1.00			
	(0.701)				
(3) Trade of GDP	0.144	0.228	1.000		
	(0.501)	(0.348)			
(4) FDI	-0.341	0.432	0.321	1.000	
	(0.153)	(0.064)	(0.180)		
(5) Export	0.224	0.348	0.866	0.440	1.000
	(0.293)	(0.144)	(0.000)	(0.059)	

Korrelyatsiya natijalariga ko‘ra, YaIM o‘sishi bilan transport, savdo (YaIMga nisbatan) va eksport o‘rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjud.

YaIM o‘sishi va o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik:

• Tovar va xizmatlar eksporti bilan ijobiy korrelyatsiya mavjud (0.224).

• TTXI (Net Outflows) bilan korrelyatsiya salbiy (–0.341).

• Savdo (YaIM % da) eksport bilan o‘rtacha darajada ijobiy korrelyatsiyaga ega (0.348).

• Transport xizmatlari esa YaIM o‘sishi va boshqa o‘zgaruvchilar bilan kuchsiz korrelyatsiyani ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar.

O‘tkazgan tadqiqotimizdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish va modernizatsiyaning asosiy omili sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning(TTXI) ahamiyati katta.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2000–2023 yillar mobaynidagi vaqtda TTXI O‘zbekiston iqtisodiyotida eksport salohiyatining oshishi, texnologiya transferi, ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash va xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuvni chuqurlashtirishga o‘z

ISSN 3030-3907

hissasini qo‘shmoqda. Bu jarayon mamlakatning iqtisodiy o‘zgarishlar bosqichiga kirishi, institutsional islohotlar, liberallashtirish siyosati va investitsiyaviy muhitni yaxshilash bilan bevosita bog‘liqdir.

TTXI O‘zbekistonning kelgusi iqtisodiy rivojlanish strategiyasida markaziy o‘rinni egallaydi. To‘g‘ri yo‘naltirilgan xorijiy kapital mamlakatning diversifikatsiyalashgan, barqaror va yuqori texnologiyali iqtisodiyotga o‘tish jarayonini tezlashtirishi mumkin. Ammo buning uchun malaka yetishmovchiligi, texnologik pastlik, hududiy nomutanosiblik va tartibga solishdagi kamchiliklar tizimli ravishda bartaraf etilishi lozim.

Bugungi kunda O‘zbekistonning TTXI siyosatini takomillashtirishga qaratilgan bir nechta takliflarni ishlab chiqdik. Birinchisi, investitsiyalarni diversifikatsiyalash siyosatini kuchaytirsh, ya'ni yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tarmoqlarga yo‘naltirish zarur. Bu iqtisodiy o‘sishning inkluzivligini va barqarorligini ta’minlaydi. Keyingisi, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish TTXIning jalb qilishning ajralmas qismi hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy korxonalar va xorijiy investorlar o‘rtasida klaster hamkorlik tizimini shakllantirish ham O‘zbekistonda investitsiya siyosatini takomillashtiruvchi strategik yo‘nalishlardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dunning, J. H. (1993). *Multinational Enterprises and the Global Economy*. Addison-Wesley.
2. Borensztein, E., De Gregorio, J., & Lee, J. W. (1998). How does foreign direct investment affect economic growth? *Journal of International Economics*, 45(1), 115–135.
3. Mamatov, A., Xujamkulov, B., & Nurbekov, B. (2014). Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirishning nazariy asoslari. T.: Iqtisod Moliya, 2014. 608 bet.
4. Abduraxmonov, Q. (2023). Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va iqtisodiy o‘sishga ta’siri. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali. №11, 36-43
5. Sapayeva, G. (2021). O‘zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash bo‘yicha institutsional islohotlar tahlili. "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali №1(21).
6. Hoshimov, J. R. (2023). *Iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko‘lamini oshirish yo‘llari*. Economics and Innovative Technologies, 11(4), maqola 10.
7. https://www.worldbank.org – Jahon banki rasmiy sayti

ISSN 3030-3907

SPC ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI STATISTIK TAHLILI

Boykishiyeva Dilnozaxon Abdusalomovna

Andijon davlat texnika instituti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya. Maqola avtomobilsozlik korxonalarida statistik jarayonlarni boshqarish (SPC) orqali o‘zgaruvchanlikni kamaytirish va sifat barqarorligini oshirish yondashuvini taqdim etadi. Metodika nazorat kartalari (X̄–R, I–MR, p/u, EWMA/CUSUM), jarayonning imkoniyatlari ko‘rsatkichlari (Cp/Cpk, Pp/Ppk) va signal qoidalariga tayanadi. Yondashuv PFMEA–Nazorat rejasi–APQP/PPAP hamda IATF 16949 talablariga uyg‘unlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: statistik jarayonlarni boshqarish (SPC); nazorat kartalari; X̄–R; I–MR; p/u; EWMA; CUSUM; jarayonning imkoniyatlari (Cp/Cpk, Pp/Ppk); PFMEA; Nazorat rejasi; APQP; PPAP; IATF 16949; Pareto; Ishikawa (4M); PDCA/Kaizen; milliondagi nuqson ulushi (PPM).

Аннотация. Статья представляет подход к снижению вариабельности и повышению стабильности качества на предприятиях автомобилестроения посредством статистического управления процессами (SPC). Методика опирается на контрольные карты (X̄–R, I–MR, p/u, EWMA/CUSUM), показатели возможностей процесса (Cp/Cpk, Pp/Ppk) и правила сигналов. Подход увязан с требованиями PFMEA–План контроля–APQP/PPAP и IATF 16949.

Ключевые слова: статистическое управление процессами (SPC); контрольные карты; X̄–R; I–MR; p/u; EWMA; CUSUM; возможности процесса (Cp/Cpk, Pp/Ppk); PFMEA; План контроля; APQP; PPAP; IATF 16949; Парето; Ишикава (4M); PDCA/Kaizen; доля дефектов на миллион (PPM).

Abstract. The article presents an approach to reducing variability and improving quality stability in automotive manufacturing enterprises through Statistical Process Control (SPC). The methodology is based on control charts (X̄–R, I–MR, p/u, EWMA/CUSUM), process capability indices (Cp/Cpk, Pp/Ppk), and signal rules. The approach is aligned with PFMEA–Control Plan–APQP/PPAP and the requirements of IATF 16949.

Keywords: Statistical Process Control (SPC); control charts; X̄–R; I–MR; p/u; EWMA; CUSUM; process capability (Cp/Cpk, Pp/Ppk); PFMEA; Control Plan; APQP; PPAP; IATF 16949; Pareto; Ishikawa (4M); PDCA/Kaizen; defects per million (PPM).

KIRISH

ISSN 3030-3907

Globallashuv sharoitida avtomobilsozlik korxonalarida nomuvofiq mahsulot, chiqit va qayta ishlash darajalarini kamaytirish, yetkazib berish muddatlari hamda xarajatlarni barqaror ushlab turish strategik ahamiyatga ega. Yirik hajmli, ko‘p bosqichli va yuqori aniqlik talab qiladigan jarayonlarda (presslash, kuzov yig‘ish va payvandlash, bo‘yash, quvvat uzatish tizimi qismlariga mexanik ishlov, yakuniy yig‘uv) kichik tebranishlarning o‘zi ham milliondagi nuqson ulushi (PPM) ko‘rsatkichini oshiradi, kafolat da’volari va sifatning pastligi narxini (COPQ) ko‘paytiradi. Shuning uchun o‘zgaruvchanlikni erta aniqlash va nazorat ostida ushlash uchun ilmiy asoslangan yondashuv zarur.

Statistik jarayonlarni boshqarish (SPC) jarayonni real vaqtda monitoring qilish va boshqarishning ishonchli usuli bo‘lib, u tebranishlarning tasodifiy va maxsus turlarini ajratadi, sabablarni aniqlaydi va tezkor chora ko‘rishga imkon beradi. Nazorat kartalari ($\bar{X}$–R, I–MR, p/u) hamda erta ogohlantirishga yo‘naltirilgan EWMA/CUSUM kartalari jarayon holati va barqarorlik darajasini ko‘rsatadi; signal qoidalari trend, sakrash yoki tizimli siljishlarni o‘z vaqtida aniqlashga xizmat qiladi. Bilan birga, jarayonning imkoniyatlari (Cp/Cpk, Pp/Ppk) ko‘rsatkichlari chizmada belgilangan ruxsat etilgan og‘ishlarga nisbatan jarayonning haqiqiy mosligini miqdoriy baholaydi.

3. Kiskova T., Stefanovska T., Vikalov L. The Role of Antioxidants in Neurodegenerative Diseases: Mechanisms and Therapeutic Perspectives. Oxid Med Cell Longev. 2018;2018:1–15.
4. Roberts M.J., Whyte G., Hewitt P.E. Lipid Peroxidation Products as Biomarkers of Oxidative Stress in Cardiovascular Disease. Clin Chem. 2020;66(7):890–902.
5. Klaunig J.E., Kamendulis L.M. The Role of Oxidative Stress in Carcinogenesis. Annu Rev Pharmacol Toxicol. 2004;44:239–267.
6. Zary N., Johnson G. Virtual Patients in Health Professions Education: Development and Validation. Med Teach. 2009;31(9):e363–e370.
7. Ruiz J.G., Mintzer M.J., Leipzig R.M. The Impact of e-Learning in Medical Education. Acad. Med. 2006;81(3):207–212.
8. Wangsawijaya S., et al. Gamification in Medical Education: Systematic Review. Adv. Health Sci. Educ. 2020;25(3):817–840.
9. Prober C.G., Khan S. Medical Education Reimagined: A Call to Action. Acad. Med. 2013;88(10):1407–1410.
10. Jones A., Clark B. Blended learning models in medical biochemistry. Med Educ. 2020;54(6):512–520.
11. Келдиярова Ш. Х., Мухтарова А. А. ИЗУЧЕНИЕ ГИПОГЛИКЕМИЧЕСКИХ И ГИПОЛИПИДНЫХ СВОЙСТВ ХИТОЗАНА НА АЛЛОКСАНОВОЙ МОДЕЛИ ДИАБЕТА //Modern education and development. – 2025. – Т. 20. – №. 3. – С. 122-124.
12. Sh K. et al. OKSIDATIV STRESS VA UNING ORGANIZMGA TA’SIRI //ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – Т. 2. – №. 18. – С. 68-74.
13. Oliveira B. F., Nogueira-Machado J. A., Chaves M. M. The role of oxidative stress in the aging process //The Scientific World Journal. – 2010. – Т. 10. – №. 1. – С. 1121-1128.
14. Келдиёрова Ш. Х. ПОВРЕЖДЕНИЕ ТИМУСА ЛЕГКИМИ МЕТАЛЛАМИ. Development of science. – 2025. ISSN 3030-3907. 210-222.

15. Kenjayevich B. A. et al. CHANGES OF BASIC INTERMEDIATES IN BLOOD IN MYOCARDIAL INFARCTION //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – T. 6. – №. 5.
16. Saidmurodova Z. A. Nazarova ME Keldiyorova SE DNK TUZILISHI GENETIK TRANSFORMATSIYA JARAYONI, TADQIQOTLAR TAXLILI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 121-124.

ISSN 3030-3907

QUYOSH PANELLARINING MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI ORASIDA AFZALLIGI

Xojiyev Qayim Beshimovich
Buxoro davlat texnika universiteti "Elektr va energetika kafedrasi"
Shaymatov Babaqul
Buxoro davlat texnika universiteti "Elektr va energetika kafedrasi"
Xojiyev Aziz Qayimovich
Buxoro davlat texnika universiteti "Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish"
Inoyatov Otabek
Buxoro davlat texnika universiteti magistranti
Elmurodov Dilshodbek
Buxoro davlat texnika universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada quyosh panellari va boshqa muqobil energiya manbalarining asosiy afzalliklari yoritiladi. An'anaviy yoqilg'ilarning tugab borayotgani va atrof-muhitga zarar yetkazayotgani sababli, toza va yangilanadigan energiya manbalariga ehtiyoj ortmoqda. Quyosh energiyasi tejamkorligi, ekologik tozaligi va barqarorligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, shamol, biomassa va boshqa muqobil manbalarning foydali jihatlari ham qisqacha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: quyosh panellari, fotovoltaik tizimlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, uglerod izi, LCOE, energiya qaytarilish muddati, ekologik barqarorlik.

Аннотация. В статье освещаются основные преимущества солнечных панелей и других альтернативных источников энергии. Поскольку запасы традиционных видов топлива истощаются и наносят ущерб окружающей среде, потребность в чистых и возобновляемых источниках энергии возрастает. Солнечная энергия характеризуется экономичностью, экологичностью и устойчивостью. Также кратко анализируются преимущества ветра, биомассы и других альтернативных источников.

Ключевые слова: солнечные панели, фотоэлектрические системы, возобновляемые источники энергии, углеродный след, LCOE, период окупаемости энергии, экологическая устойчивость

Abstract. This article highlights the key advantages of solar panels and other alternative energy sources. As traditional fuels become depleted and cause environmental damage, the need for clean and renewable energy sources is increasing. Solar energy is characterized by its cost-effectiveness, environmental friendliness, and sustainability. The advantages of wind, biomass, and other alternative energy sources are also briefly analyzed.

ISSN 3030-3907

Keywords: solar panels, photovoltaic systems, renewable energy, carbon footprint, LCOE, energy payback period, environmental sustainability

KIRISH

Bugungi kunda insoniyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bu — energiya manbalaridir. Energetika iqtisodiyotning, texnologiyaning va jamiyat hayotining har bir sohasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ammo so‘nggi o‘n yilliklarda energiyaga bo‘lgan talabning keskin oshishi, uning ishlab chiqarilishi va iste’mol qilinishi bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltirmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (Quyosh, shamol, suv, biomass va geotermal energiya), atrof-muhit muammolarining kuchayishi, an'anaviy energiya resurslarining kamayishi va energetika xavfsizligi talablari tufayli tobora dolzarblashmoqda.

Muqobil energiya manbalari orasida quyosh panellari alohida o‘rin tutadi. Quyosh energiyasi — tugamaydigan, ekologik xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali manba bo‘lib, kelajakda barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Ushbu maqolada quyosh panellari va boshqa muqobil energiya manbalarining afzalliklari, ularning hozirgi kundagi ahamiyati va istiqbollari yoritib beriladi.

MAVZUGA OID ADBIYOTLAR

Mavzu yuzasidan sohaning etakchi mutaxassis, olimlari dunyoda yuz berayotgan iqlim o‘zgarishi, atrof muxitga zarar etkazayotgan, yoqilg‘i-energiya bo‘yicha qazilma boyliklari yo‘q bo‘lgan mamlakatlarda yoqilg‘i-energetika muammolarini o‘rganib, ularni bartaraf etish borasida keng ko‘lamdagi tadqiqot ishlarini amalga oshirib kelishmoqda. Jumladan .Dunyo olimlaridan Dj.Daffi va U.A.Bekman, Dj. Tvaydell, A.Ueyr, Gorodov va V.YA. Ushakovlar va boshqalar[3,4,8,12,13,14] tomonidan yozilgan risolalarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, texnika va texnologiyaning so‘nggi yutuqlarini hisobga olgan holda quyosh, shamol, geotermik, to‘lqin energiyalarini, elektr va issiqlik energiyasiga aylantirish, uylarni quyosh energiyasi yordamida isitish va issiq suv bilan ta’minlash yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Energiya iste’mol qilish dinamikasi va energetika ob’ektlarini modernizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energetikaning rivojlanishiga va atrof muhit ekologiyasi muammolariga alohida e’tibor qaratish jumladan “yashil iqtisodiyot” dasturiga bo‘lgan qarashlar. Mamlakatimizning shu sohadagi etakchi olimlaridan G.YA.Umarov, R.A. Zohidov, S.Normatov, B.Isaqov, O‘Teshaboyev, N.Sultonov S.Qahhorovlar va bohqalar [5,6,7] tomonidan yozilgan amaliy qo‘llanmalarda muqobil energiya manbalaridan foydalanib uylarni isitish qurilmalari, elektr energiyaga bo‘lgan talabni qondirish, mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va uning

ISSN 3030-3907

umumiy energiya ishlab chiqarishdagi ulushini oshirish istiqbollari va samaradorligini oshirish yo‘l yo‘riqlari hamda taklif muloxazalari batafsil yoritib berganlar

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shbu tadqiqotda quyosh panellarining afzalliklari boshqa energiya manbalari bilan quyidagi parametrlar bo‘yicha tahlillar mavjud ilmiy manbalar, maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda statistik ma’lumotlar asosida quyidagi ko‘rsatkichlar: Ekalogik barqarorlik va uglerod izi, energiya ishlab chiqarish qiymati(LCOE), texnologik tayyorgarlik darajasi va o‘rnatish qulayligi, geografik va iqlim cheklovlari, energetik qaytarilish muddati (Energy payback time-EPDT), ijtimoiy -iqtisodiy smaradorlik ko‘rsatkichlari orqali ko‘rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyosh panellari muqobil energiya manbalari orasida eng istiqbolli va keng qo‘llanilayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Quyosh panellari yordamida ishlab chiqariladigan energiya ekologik jihatdan tozaligi, quyosh panellarining atrof- muhitga ta’siri boshqa energiya manbalari bian solishtirganda quyosh panellari (20-40 g CO_2/kWh), shamol energiyasiga (8-20 g CO_2/kWh) yaqin, biomassa (130-230 g CO_2/kWh) va tabiiy gaz (400-500 g CO_2/kWh)ga nisbatan sezilarli darajada pastligi bilan ajralib turadi [16,17]. Suv istemoli bo‘yicha atom va issiqlik lektr stansiyalari bilan solishtirganda quyosh fotovoltayik sistemalari (1-3 m^3/MWh) deyarli suv iste’mol qilmaslig bilan ajralib turadi. Iqtisodiy jihatdan xarajatlar 2010-2023 yillarda quyosh energiyasi qiymati 89% ga, bu shamol energiyasdan (70%) va boshqa alternativlardan yuqori ko‘rsatkichdir, ular 1 Vt dan 1 GVt gacha bo‘lgan kuchlanishlar uchun o‘rnatiladi[1,2,15,16,17]. Quyosh panellariga texnik xizmat ko‘satish xarajatlari shamol turbinalari va gidroelektr stansiyalariga nisbatan kam ekanligini bilan ajralib turadi. Texnalogik jihatdan quyosh panellari turar-joy binolari, sanoat korxonalari, qishloq xo‘jlik yerlariga o‘rnatilish imkoniyati yuqori, uzoq chekka hududlar uchun avtonom ishlash imkoniyati alohida ahamiyatga ega. Quyosh PV texnologiyalari bosqichidagi muvaffaqiyatning o‘lchovi operatsion foydalanish paytidagi haqiqiy samaradorlikdir 9 TRL darajasiga erishgan, bu ularni tijorat jihatdan yetuk texnologiya sifatida tasniflash imkonini beradi. Geografik moslanuvchanligi gidroenergiya va geotermal energiyaga nisbatan quyosh energiyasining geografik joylashuvi kengroq, **Shamol energiyasi** faqat ma'lum tezlikda shamol esadigan hududlarda samarali ishlashi hisobga olsak, **Gidroenergiya** faqat suv resurslari mavjud bo‘lgan hududlarda qurilishi bilan ajralib turadi, **Quyosh panellari** quyosh nurlari tushadigan deyarli barcha mintaqalarda o‘rnatilishi imkoniyati mavjud. Energiyani qaytarish vaqti (EPBT) yoki o‘z-o‘zini qoplash muddati zamonaviy

ISSN 3030-3907

monokristalli kremniy panellari uchun EPBT 1-2 yilga yetdi, bu ularning ishlash muddati (25-30 yil) bilan solishtirganda yuqori samaradorlikni ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich biomass va ba'zi gidroelektr stansiyalarga ko‘ra yaxshiroq[15,16]. Quyosh panellarini boshqa muqobil energiya manbalari bilan bazi ko‘rsatgchlar orqali solishtima natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-Jadval

Ko‘rsatkichlar	**Quyosh panellari**	**Samol turbinalari**	**Gidroenergetika**	**Biomassa**
Geografik cheklov	Minimal	Kuchli samol zonasida	Suv resursi talabi	Biomassa mavjudligi
O‘rnatish qiyinligi	Oson	O‘rta	Murakkab	O‘rta
Ekalogik tasir	Juda past	Qushlar uchun xavfli,shovqin	Ekotizimga jiddiy ta’sir	Havo ifloslanishi
Doimiylik	Kun davomida o‘garuvchan	Doimiy emas	Nisbatan doimiy	Doimiy
Katta miqiyosli loyihalar, uchun moslik	Juda yaxshi	yaxshi	Juda yaxshi	Cheklangan

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan afzallik taraflari bilan bir qatorda bazi bir kamchiliklardan xoli emasligi ko‘zga tashlanadi, ularning energiya ishlab chiqarishi ob-havoga bog‘liqligi, energiyani saqlash **tizimlarining qimmatligi, joylashtirish uchun yer maydonini katta talab qilinishi** (yirik quyosh stansiyalari uchun), **xom ashyo ta'minoti** (kremniy, noyob elementlar) kamligi sababli.

Kelgusida quyosh panellaridan keng ko‘lamda foydalanishni yaxshilash yuzasidan qinishi zarur bo‘gan bazi bir ishlarga birma-bir to‘xtalib o‘tsak. Bular quyidagilar: **perovskit quyosh hujayralari** - samaradorlikni 30% dan 40%+ ga oshirish; **ikki tomonlama panellar** - erdan qaytgan nurlardan keng foydalanishni yolga qo‘yish; **agrofotovoltaika** - qishloq xo‘jaligi va energiya ishlab chiqarishni integratsiya qilish; **tizimli integratsiya** - sun'iy intellekt va Iot texnologiyalari yordamida tarmoqqa integratsiya qilih orqali amalga oshirish ko‘zda tutilgan [15,16,17].

Xulosa o‘rnida. Ushbu maqolada quyosh panellari energiyasining boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalari va an'anaviy energiya manbalariga nisbatan qiyosiy afzalliklari tadqiq qilindi. Quyosh energiyasining texnologik, ekologik,

ISSN 3030-3907

iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan boshqa energiya manbalariga qaraganda ustun jihatlari ilmiy dalillar asosida ko‘rib chiqildi. Kelajakda texnologik yangilanishlar va energiya saqlash tizimlarining takomillashishi quyosh panellarining afzalliklarini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019 yil 04 oktyabrdagi PQ-4477-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422–sonli qarori.
3. Daffi Dj.A., Bekman U.A. Тепловые процессы с исползованием солнечное энергии M.,: Мир, 1977, 420 c.
4. Dj.Tvaydell, A.Ueyr Возобновляемые источники энергии M.Энегоатомиздат. 1990. C.392.
5. R.A.Zaxidov. «Эффективност солнечной энергетики». Geliotexnika. 1994. s.62-64.
6. S. Q. Qahhorov Muqobil energiya manbalari. Toshkent “Tafakur avlodi” 2022y. 224 b.
7. G‘.N. Uzoqov, X.A. Davlonov Gelioissiqxonalarning energiya tejamkor isitish tizimlari. Monografiya, - T.: «Voris-nashriyot», 2019. 144 bet.
8. Р. В. Городов, В.Е. Губин, А.С. Матвеев. Нетрадиционные и возобновляемые источники энергии: учебное пособие – 1-е изд. – Томск: Изд-во ТПУ, 2009. – 294 s.
9. В.Я.Ушаков “Основные проблемы энегетики и возможные способы их решения” Энергетика. Известия ТПУ. 2011. Т. 319. № 4
10. Q.B. Hojiyev, B.X. Shaymatov Energetika sohasida muqobil energiya manbalaridan foydalanish ko‘rsatkichlari. Euroslan jornal of Academic research. Innovative Academy Research Support Center vol.3 issue2 February 2023y. 188-194 p. https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02 p2-78.
11. Q.B.Hojiyev , Sh.S. Fazliyev Potetial of renewabll energy sourcesin energy production. International Bulletin of applied science and texnalogy. IBAST vol.4. Lssue. Febrary 2024 y.202-205 p. https://doi.org/10.5281/10673238
12. O‘zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligi (2023). "Quyosh Energiya Sektorining Rivojlanishi". O‘zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligi, Toshkent

ISSN 3030-3907

13. Kalogirou, S. (2004). Solar Energy Engineering: Processes and Systems. Academic Press.
14. Twidell, J., & Weir, T. (2015). Renewable Energy Resources. Taylor & Francis. 14. International Renewable Energy Agency (IRENA). (2021). Renewable Energy
15. Statistics 2021. https://www.irena.org
16. Boyle, G. (Ed.). (2012). Renewable Energy: Power for a Sustainable Future. Oxford University Press.
17. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2023). “Muqobil energiya manbalarini rivojlantirish dasturi”. Toshkent.
18. Kumar, A., & Samadder, S. R. (2017). A review on technological aspects of solar photovoltaic panels and their applications. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 76, 1236-1250.

ISSN 3030-3907

ISSIQ IQLIMLI SHAHARLARDA FAVVORALARNING MIKROIQLIMGA TA’SIRI

Abilov Elyor Ermamatovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti t.f.f.d (PhD), dotsent v.b.
E-mail: elyor.abilov.90@mail.ru
Tel: +99899-674-05-93
Boybo‘riyeva Zarnigor
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistratura bo‘limi qurilish muhandisligi yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
Email: zarnigorboyboriyeva@gmail.com
ORCID: 0009-0002-4244-0859
Telefon: +998975303630

Annotatsiya: Ushbu maqolada issiq iqlimli shaharlarda favvoralarning mikroiqlim ko‘rsatkichlariga ta’siri, bug‘lanish asosidagi tabiiy sovutish jarayonlari, havo namligi va harorat dinamikasiga o‘zgarishlarning ilmiy asoslari yoritiladi. Shuningdek, favvoralarning urban muhitdagi termal komfortni ta’minlashdagi funksional va ekologik samaradorlik jihatlari tahlil qilinadi. Termiz shahri misolida o‘tkazilgan kuzatuvlar va ilmiy manbalar asosida shahar mikroiqlimini yumshatishda suv inshootlarining roli asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: favvora, mikroiqlim, issiq iqlim, urban landshaft, evaporativ sovutish, havo namligi, termal komfort, ekologik urbanizatsiya.

Abstract: This article examines the impact of fountains on microclimatic indicators in hot-climate cities, focusing on the scientific basis of evaporative cooling processes, changes in air humidity, and temperature dynamics. The study also analyzes the functional and ecological effectiveness of fountains in ensuring thermal comfort within the urban environment. Based on observations conducted in the city of Termiz and a review of scientific sources, the role of water structures in mitigating urban microclimate conditions is substantiated.

Keywords: fountain, microclimate, hot climate, urban landscape, evaporative cooling, air humidity, thermal comfort, ecological urbanization.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние фонтанов на микроклиматические показатели в городах с жарким климатом, освещаются научные основы процессов испарительного охлаждения, изменения влажности воздуха и динамики температуры. Также анализируется функциональная и экологическая эффективность фонтанов в обеспечении термального комфорта городской среды. На основе наблюдений,

ISSN 3030-3907

проведённых в городе Термез, и анализа научных источников обоснована роль водных сооружений в смягчении городского микроклимата

Ключевые слова: фонтан, микроклимат, жаркий климат, городская среда, испарительное охлаждение, влажность воздуха, термальный комфорт, экологическая урбанизация.

KIRISH.

So‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishi jarayoni dunyoning ko‘plab hududlarida, ayniqsa, quruq va issiq iqlimli mintaqalarda shahar mikroiqlimining keskin yomonlashuviga olib kelmoqda. Urbanizatsiya sur’atlarining ortishi, shaharlarning zichlashuvi, qurilish materiallari va transport vositalaridan ajralib chiqayotgan antropogen issiqlik shaharlar ichida “urban issiqlik oroli” (Urban Heat Island — UHI) hodisasini kuchaytirmoqda. Ushbu fenomen shahar hududida haroratning atrof qishloq joylariga nisbatan 3–7°C ga yuqori bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Issiq iqlimli O‘zbekistonning janubiy hududlarida — Termiz, Denov, Sherobod, Qarshi, Navoiy kabi shaharlarda yoz faslida harorat 40–45°C atrofida bo‘lishi keng tarqalgan. Bunday sharoitlarda jamoat makonlarida aholi uchun qulay mikroiqlim yaratish shaharsozlikning strategik vazifalaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy shahar landshaftida bu muammoni yumshatishga xizmat qiluvchi eng muhim ekologik vositalardan biri bu **suv inshootlari**, xususan **favvoralar** hisoblanadi.

Favvoralar nafaqat dekorativ va estetik element sifatida, balki mikroiqlimni tabiiy ravishda yaxshilovchi, haroratni pasaytiruvchi, havo namligini oshiruvchi va chang miqdorini kamaytiruvchi muhim funksional tizimdir. Suvning bug‘lanish jarayoni asosida yuzaga keladigan **evaporativ sovutish** mexanizmi issiq va quruq iqlimlarda ayniqsa samarali bo‘lib, favvoralar atrofi 10–30 metr radiusda salqin mikrozona hosil qiladi. Termiz shahri misolida kuzatilgan ekologik-urbanistik jarayonlar ko‘rsatishicha, shahar markazida, jamoat bog‘larida va piyodalar maydonlarida joylashgan favvoralar aholi harakatlari, dam olish faoliyati va vaqt o‘tkazish odatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu yerlar ko‘proq odamlar to‘planadigan, ijtimoiy faollik kuchayadigan makonlarga aylanadi. Bu holat favvoralarning psixologik va sotsiologik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot issiq iqlimli shahar sharoitida favvoralarning mikroiqlimga ta’sirini aniqlashga qaratilib, kompleks yondashuv asosida olib borildi. Metodologiya kuzatuv, instrumental o‘lchov, taqqoslash va statistik tahlil usullarining uyg‘unlashtirilgan tizimini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotning maydoniy ishlari Termiz shahrining tabiiy-iqlim sharoitlari va urban landshaftining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirildi.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot oldindan ishlab chiqilgan dizayn asosida tashkil etilib, unda favvoralar joylashgan hududlardagi mikroiqlim parametrlarini o‘lchash, ularning fazoviy va vaqt bo‘yicha o‘zgarish dinamikasini aniqlash hamda turli tipdagi favvoralarning samaradorligini solishtirish bosh maqsad qilib belgilandi. Shu maqsadda Termiz shahridagi turli funksional zonalarda joylashgan uch toifadagi favvoralar tanlab olindi: shahar markazidagi yirik favvora, dam olish hududidagi dekorativ favvora va turar-joy massiviga yaqin kichik favvora. Bu tanlov favvoralarning mikroiqlimga ta’siri turli landshaft sharoitlarida qanday namoyon bo‘lishini solishtirish imkonini berdi. O‘lchash ishlari favvora markazi va undan ma’lum masofalarda – 5 metr, 15 metr va 30 metr uzoqliklarda amalga oshirildi. Ushbu fazoviy gradient favvoralarning sovutuvchi va namlik oshiruvchi ta’sir radiusini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot uchun tanlangan asosiy mikroiqlim ko‘rsatkichlari havo harorati, nisbiy namlik va shamol tezligidan iborat bo‘lib, o‘lchovlar raqamli termo-gigrometr, pirotermometr va anemometr yordamida bajarildi. Evaporativ sovutish samaradorligini aniqlash uchun qo‘shimcha hisoblashlar ham amalga oshirildi. Mikroiqlimning sutkalik ritmini inobatga olgan holda o‘lchovlar kunning ikki asosiy davrida – 13:00 dan 16:00 gacha bo‘lgan eng issiq vaqt oralig‘ida hamda 18:00 dan 20:00 gacha bo‘lgan nisbatan salqin davrda olib borildi. Bu yondashuv favvoralarning harorat va namlikka ta’sirining kun davomida qanday o‘zgarishini aniqlashga xizmat qildi.

Har bir tadqiqot obyektiga mos ravishda favvoralardan ancha uzoqda joylashgan, suv inshootlaridan xoli ochiq maydonlar nazorat nuqtasi sifatida belgilandi. Nazorat o‘lchovlari favvoralarning real mikroiqlimiy ta’sirini boshqa ekologik omillardan ajratib baholash imkonini berdi. Olingan ma’lumotlar statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, o‘rtacha qiymatlar, harorat va namlik farqlari, dispersiya ko‘rsatkichlari hamda masofa bo‘yicha o‘zgarish tendensiyalari aniqlanadi. Yakuniy natijalar grafiklar, jadval va analitik izohlar orqali talqin qilindi.

Natijalar. Tadqiqot davomida Termiz shahrining turli hududlarida joylashgan uch xil tipdagi favvoralar atrofida mikroiqlim parametrlarining o‘zgarishi bo‘yicha aniq ma’lumotlar olindi. Instrumental o‘lchovlar favvoralarning mikroiqlimga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Birinchi obyekt — shahar markazidagi yirik favvora bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra, kunduzgi eng issiq soatlarda favvora yaqinidagi harorat nazorat nuqtasiga nisbatan o‘rtacha 3–4°C past bo‘lgani qayd etildi. Shuningdek, nisbiy namlik 8–12% ga oshgani aniqlandi. Masofa ortishi bilan farqlar kamaygan bo‘lsa-da, 30 metr radiusda ham 1–1,5°C sovuqroq muhit kuzatildi. Dam olish bog‘idagi dekorativ favvora natijalari yanada barqaror bo‘lib, landshaft elementlari bilan birgalikdagi

ISSN 3030-3907

integratsiya haroratning 4–5°C ga pasayishiga imkon bergan. Namlik ko‘tarilishi 10–14% oralig‘ida bo‘lib, daraxtlar va gazon mavjudligi bu jarayonni kuchaytirgani kuzatildi.

Kichik turar-joy hududidagi favvora atrofida haroratning 2–3°C pasayishi, nisbiy namlikning 5–7% ko‘tarilishi qayd etildi. Favvora hajmi kichik bo‘lsa-da, mahalliy mikroiqlimni yumshatishda sezilarli ta’sir ko‘rsatishi tasdiqlandi.

Shamol rejimiga doir o‘lchovlar favvora atrofida tabiiy konvektiv havo almashinuvi kuchayganini ko‘rsatdi. Bu holat sovigan havo oqimlarining pastga tushishi va issiq havoning yuqoriga ko‘tarilishi bilan bog‘liq ekanligi qayd etildi.

Tahlil. Olingan natijalar issiq iqlimli shahar sharoitida favvoralarning mikroiqlimni yumshatishdagi funksional rolini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Avvalo, yirik favvoralar havoni sovutish bo‘yicha eng yuqori samaraga ega ekani aniqlandi. Bu favvoralar suv sathining katta bo‘lishi va purkash balandligining yuqoriligi bilan bog‘liq bo‘lib, evaporativ sovutish jarayonining intensivlashuviga olib keladi. Dekorativ favvoralarning samaradorligi esa, asosan, atrofdagi ko‘kalamzorlashtirish ila bog‘liq. Daraxtlar soyasi, o‘simliklarning transpiratsiya jarayoni va favvoraning suv yuzasi birgalikda kompleks mikroiqlimni shakllantirib, sovutish effektini yanada kuchaytiradi. Bu holat urban dizaynda favvoralar va vegetatsiya unsurlarining uyg‘unlashtirilishi yuqori natija berishini ko‘rsatadi.

Turar-joy hududidagi kichik favvoralar mahalliy mikroiqlimni yumshatishda baribir samaradorlik ko‘rsatgani, hatto kichik miqyosdagi suv inshootlari ham urban issiqlik orollarining ta’sirini kamaytirishga hissa qo‘sha olishini tasdiqladi. Bu esa mahalliy jamoat makonlarida kichik favvoralarning ko‘paytirilishi iqlim moslashuvi strategiyasida muhim omil bo‘lishi mumkinligini anglatadi.

Shamol rejimida kuzatilgan farqlar ushbu suv inshootlarining nafaqat harorat va namlikka, balki havo almashinuvi jarayoniga ham bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Tabiiy konveksiya tufayli mikroiqlimda sezilarli yangilanish sodir bo‘ladi va bu termal komfort darajasini oshiradi. Kun davomida o‘zgarish dinamikasi shuni ko‘rsatdiki, favvoralarning sovutish samarasi eng issiq soatlarda eng yuqori bo‘ladi. Kechki paytda umumiy haroratning pasayishi natijasida favvoraning ta’siri nisbatan kamayadi, biroq namlik bo‘yicha ijobiy farq saqlanib qoladi. Bu esa favvoralarning aynan issiq iqlimlarda kunduzgi noqulayliklarni kamaytirish bo‘yicha muhim funktsional ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, natijalar shuni ko‘rsatadiki, shaharlarda favvoralar nafaqat estetik element, balki ekologik urbanizatsiya strategiyasining muhim tarkibiy qismidir. Ular shahar mikroiqlimini boshqarish, aholi uchun qulay termal

ISSN 3030-3907

sharoit yaratish va issiq iqlimga moslashtirilgan jamoat makonlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari issiq iqlimli shaharlarda favvoralar mikroiqlimni yumshatishda samarali vosita ekanini tasdiqladi. Favvoralar havo haroratini pasaytiradi, nisbiy namlikni oshiradi va tabiiy havo aylanishini yaxshilaydi, bu esa jamoat makonlarida termal komfortni sezilarli darajada oshiradi. Turli tipdagi favvoralar o‘ziga xos ta’sir radiusiga ega bo‘lsa-da, ularning barchasi urban muhitda ekologik barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Termiz shahri misolida olingan natijalar favvoralarni shaharsozlikda faqat estetik emas, balki funksional-iqlimiy element sifatida ham keng qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oke, T.R. Urban Climates. Cambridge University Press, 2017.
2. Givoni, B. Climate Considerations in Urban Design. Wiley, 1998.
3. Shashua-Bar, L., va boshq. “Urban water features and microclimate cooling.” Landscape and Urban Planning, 2009.
4. Bowler, D.E. va boshq. “The cooling effects of urban blue–green infrastructure.” Urban Forestry & Urban Greening, 2010.
5. Termiz shahri gidrometeorologik kuzatuvlari bo‘yicha yillik hisobot, 2022.
6. Qodirov, Sh. Urbanizatsiya jarayonida mikroiqlimni shakllantirish omillari. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2021.
7. Rasulov, A. “Janubiy O‘zbekiston shaharlarida iqlimiy sharoit va ekologik omillar tahlili.” O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti, 2020.
8. Karimova, D. “Shahar makonida suv inshootlarining ahamiyati.” Arxitektura va qurilish, 2019.

ISSN 3030-3907

TA’LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Qochqorova Sayyora Ilyasovna

Osiyo xalqaro Universiteti Ta'limda Axborot texnalogiyalari yo‘nalishi 1-bosqich Magistiri

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning dolzarbligi, nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati batafsil yoritilgan. Zamonaviy globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi. Maqolada raqamli ta’lim vositalari, masofaviy ta’lim platformalari, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va interfaol pedagogik metodlarning o‘quv jarayonidagi o‘rni va samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish hamda ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish zamonaviy, raqobatbardosh va malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiyalar, ta’lim jarayoni, raqamli ta’lim, interfaol metodlar, pedagogik yondashuv.

Abstract. This scientific article examines the relevance, theoretical foundations, and practical significance of using innovative technologies in the education system. In the context of globalization and digitalization, the integration of information and communication technologies into the educational process is considered an important factor in improving the quality of education. The article analyzes the effectiveness of digital learning tools, distance learning platforms, electronic textbooks, virtual laboratories, and interactive pedagogical methods in the learning process. In addition, it highlights the opportunities for developing students’ independent thinking, decision-making skills in problem situations, and creative potential through innovative approaches. The research findings demonstrate that the effective use of innovative technologies plays a significant role in training modern, competitive, and highly qualified specialists.

Keywords: innovative technologies, educational process, digital education, interactive methods, pedagogical approach.

Аннотация. В данной научной статье рассмотрены актуальность, теоретические основы и практическая значимость применения инновационных технологий в системе образования. В условиях глобализации и цифровизации внедрение информационно-коммуникационных технологий в образовательный процесс рассматривается как важный фактор повышения качества образования. В статье проанализирована эффективность цифровых

ISSN 3030-3907

образовательных средств, платформ дистанционного обучения, электронных учебников, виртуальных лабораторий и интерактивных педагогических методов в учебном процессе. Также раскрываются возможности развития самостоятельного мышления, навыков принятия решений в проблемных ситуациях и творческого потенциала обучающихся на основе инновационных подходов. Результаты исследования показывают, что эффективное использование инновационных технологий имеет важное значение для подготовки современных, конкурентоспособных и высококвалифицированных кадров.

Ключевые слова: инновационные технологии, образовательный процесс, цифровое образование, интерактивные методы, педагогический подход.

KIRISH

Bugungi kunda globallashuv, axborotlashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalari, xususan, ta’lim tizimiga ham tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimi endilikda faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, muammolarni hal etish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalaga aylangan

An’anaviy ta’lim shakllari bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, ta’lim sifati va natijadorligini yaxshilash imkonini beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularning faolligini oshiradi hamda ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan holda tashkil etishga xizmat qiladi. Hozirgi davrda masofaviy ta’lim, elektron resurslar, onlayn platformalar va interfaol metodlardan foydalanish orqali ta’lim jarayonini tashkil etish keng qo‘llanilmoqda. Bu esa o‘quvchilarga istalgan vaqt va joyda bilim olish imkonini yaratib, uzluksiz ta’lim tamoyilini amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, pedagogik faoliyatni takomillashtirish va ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, mazkur maqolada ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, ularning ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdagi rolini yoritish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Innovatsion texnologiyalar tushunchasi va mazmuni

Innovatsion texnologiyalar — bu ta’lim jarayonida yangicha usul, vosita va metodlarni qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik

ISSN 3030-3907

faoliyatdir. Ular o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradi hamda ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan holda tashkil etishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarga elektron darsliklar, masofaviy ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari kiradi. Ushbu vositalar yordamida o‘quv jarayoni yanada qulay va samarali tashkil etiladi.

Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning ahamyati

Ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga va muammolarni hal qilishga o‘rgatadi. Interfaol metodlar orqali o‘quvchilar bilimlarni tayyor holatda emas, balki izlanish va tahlil asosida egallaydi. Shuningdek, raqamli ta’lim vositalari ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Har bir o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim berish ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Zamonaviy raqamli ta’lim vositalari

Bugungi kunda masofaviy ta’lim tizimlari ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Onlayn platformalar, videodarslar, elektron testlar va virtual mashg‘ulotlar ta’limni qulay va ochiq holga keltirmoqda. Mobil ta’lim texnologiyalari orqali o‘quvchilar istalgan vaqt va joyda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa uzluksiz ta’lim tamoyilini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy raqamli ta’lim vositalari ta’lim jarayonini samarali, interfaol va moslashuvchan tashkil etishga xizmat qiluvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan vositalardir. Ular o‘quvchilarning bilim olish jarayonini individuallashtirish, mustaqil ta’limni rivojlantirish hamda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bunday vositalarga elektron darsliklar, masofaviy ta’lim platformalari (Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams), virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, onlayn test va baholash tizimlari, interfaol taqdimotlar hamda sun’iy intellektga asoslangan ta’lim dasturlari kiradi. Zamonaviy raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish o‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda ta’lim jarayonini zamon talablari asosida tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion texnologiyalarning samaradorligi

Innovatsion texnologiyalarning samaradorligi ularning ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi natijasida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish darajasi bilan belgilanadi. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini interfaol, moslashuvchan va natijaga yo‘naltirilgan holga keltiradi. Innovatsion

ISSN 3030-3907

texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, masofaviy va raqamli ta’lim vositalari orqali ta’lim jarayonining uzluksizligi ta’minlanadi hamda ta’lim sifati va samaradorligi oshadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni tizimli va maqsadga muvofiq qo‘llash zamonaviy, raqobatbardosh va malakali kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, o‘qituvchining pedagogik mahoratini rivojlantirishga ham yordam beradi. O‘qituvchi zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda darslarni yanada qiziqarli va tushunarli tarzda tashkil etishi mumkin. Natijada ta’lim jarayonida bilim sifati oshadi, o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlarini tubdan yangilash imkonini bermoqda. Ularning qo‘llanilishi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, ta’lim sifatini yaxshilash hamda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ijodiy yondashuv va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Interfaol metodlar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshirib, bilimlarni chuqur va ongli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonini individuallashtirish imkoniyati yaratiladi, ya’ni har bir o‘quvchining qiziqishi, ehtiyoji va bilim darajasiga mos ta’lim tashkil etiladi. Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalar o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim vositalaridan samarali foydalanish o‘qituvchidan doimiy ravishda o‘z ustida ishlashni, yangi bilim va tajribalarni egallashni talab etadi. Natijada ta’lim jarayoni yanada qiziqarli, samarali va zamonaviy talablar asosida tashkil etilad. Umuman olganda, ta’limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish zamonaviy, raqobatbardosh va malakali kadrlar tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Kelgusida ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonini yanada takomillashtirish, pedagog kadrlarning raqamli savodxonligini oshirish hamda ta’lim muassasalarining texnik bazasini mustahkamlash muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXAT

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. — Toshkent.
2. UNESCO. Innovation in Education.
3. Zamonaviy pedagogika va innovatsion texnologiyalar. — Toshkent.
4. Axborot texnologiyalari va ta’lim samaradorligi. Ilmiy maqolalar to‘plami.

ISSN 3030-3907

УДК 678.674.027.3:66.095.2:577.114.7

ЦЕЛЕНАПРАВЛЕННЫЙ СИНТЕЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ УСЛОВИЙ СУЛЬФОНИРОВАНИЯ ХЛОПКОВОЙ ЦЕЛЛЮЛОЗЫ ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ СТЕПЕНЬЮ ЗАМЕЩЕНИЯ

Нурмонов Сувонкул Эрхонович,
Национальный университет Узбекистана, Ташкент
E-mail: nurmonov_se@mail.ru
Асранова Умидахон Хамиджон кизи
Андижанский государственный технический институт, Андижан, Узбекистан,
E-mail: asranovaumida23@gmail.com

Аннотация. В статье решается задача разработки методики управляемого синтеза термостабильного полимерного реагента для буровых растворов высокотемпературных скважин (HPHT) на основе модификации местного сырья – хлопковой целлюлозы. С целью преодоления импортозависимости и технологических ограничений традиционных производных целлюлозы (КМЦ, ПАЦ) исследован процесс её сульфонирования. Основное внимание уделено установлению количественных зависимостей между условиями синтеза и ключевым структурным параметром – степенью замещения (DS). Методом однофакторного эксперимента и математического планирования (ротатабельный план Box-Behnken) определены оптимальные параметры процесса: температура 72±2°C, концентрация $NaOH$ 8,5±0,3%, мольное отношение $NaHSO_3$: АГЗ 2,05:1, обеспечивающие получение сульфонированной целлюлозы (SCel) с воспроизводимой DS=0,42 и молекулярной массой ~135 кДа. Построена адекватная регрессионная модель (R^2=0,984), подтверждённая проверочным экспериментом. Разработанная методика позволяет целенаправленно синтезировать SCel с заданными свойствами, что создаёт основу для исследований корреляций «структура–функциональность» при создании отечественного термостойкого реагента.

Ключевые слова: хлопковая целлюлоза, сульфонирование, степень замещения (DS), оптимизация, планирование эксперимента, Box-Behnken, математическое моделирование, термостойкий полимер.

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuqori haroratli va yuqori bosimli quduqlar (HPHT) uchun burg‘ulash eritmalarida qo‘llaniladigan termostabil polimer reagentni mahalliy xomashyo – paxta sellyulozasini modifikatsiya qilish asosida maqsadli sintez qilish metodikasini ishlab chiqish vazifasi hal etilgan. Importga bog‘liqlikni kamaytirish hamda sellyulozaning an’anaviy hosilalari (KMS, PAS)ning texnologik cheklovlarini bartaraf etish maqsadida uning sulfolash

ISSN 3030-3907

jarayoni o‘rganildi. Asosiy e’tibor sintez sharoitlari bilan asosiy tuzilmaviy parametr – almashinish darajasi (DS) o‘rtasidagi miqdoriy bog‘lanishlarni aniqlashga qaratildi. Bir omilli eksperiment usuli va matematik rejalashtirish (Box–Behnken aylanma rejasi) yordamida jarayonning optimal parametrlari aniqlandi: harorat 72±2°C, $NaOH$ konsentratsiyasi 8,5±0,3%, $NaHSO_3$: AGZ molyar nisbati 2,05:1 bo‘lib, ular qayta ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan DS=0,42 va molekulyar massasi taxminan 135 kDa bo‘lgan sulfolangan sellyuloza (SCel) olishni ta’minlaydi. Adekvat regressiya modeli (R^2=0,984) qurildi va tekshiruv eksperimenti bilan tasdiqlandi. Ishlab chiqilgan metodika belgilangan xossalarga ega SCelni maqsadli sintez qilish imkonini beradi va mahalliy termostoykiy reagent yaratishda “tuzilma–funksionallik” korrelyatsiyalarini o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: paxta sellyulozasi, sulfolash, almashinish darajasi (DS), optimallashtirish, eksperimentni rejalashtirish, Box–Behnken, matematik modellashtirish, termostoykiy polimer.

Abstract. This article addresses the task of developing a methodology for the controlled synthesis of a thermostable polymer reagent for High-Pressure High-Temperature (HPHT) drilling fluids based on the modification of a local raw material – cotton cellulose. Aimed at overcoming import dependency and technological limitations of traditional cellulose derivatives (CMC, PAC), the process of its sulfonation has been investigated. The main focus is on establishing quantitative relationships between the synthesis conditions and the key structural parameter – the Degree of Substitution (DS). Using the one-factor-at-a-time method and mathematical planning (rotatable Box-Behnken design), the optimal process parameters were determined: temperature 72±2°C, $NaOH$ concentration 8.5±0.3%, molar ratio $NaHSO_3$: AGU 2.05:1, ensuring the production of sulfonated cellulose (SCel) with a reproducible DS=0.42 and molecular weight ~135 kDa. An adequate regression model (R^2=0.984) was built and confirmed by a verification experiment. The developed methodology allows for the targeted synthesis of SCel with specified properties, which lays the foundation for research into “structure-functionality” correlations in the development of a domestic heat-resistant reagent.

Keywords: cotton cellulose, sulfonation, degree of substitution (DS), optimization, experimental design, Box-Behnken, mathematical modeling, heat-resistant polymer.

ВВЕДЕНИЕ.

ISSN 3030-3907

Эффективное и безопасное освоение глубоких высокотемпературных (HPHT[1]) нефтегазовых месторождений критически зависит от стабильности буровых растворов в экстремальных термобарических условиях [1]. Традиционно применяемые в качестве реологических модификаторов и редукторов фильтрации производные целлюлозы – карбоксиметилцеллюлоза (КМЦ) и полианионная целлюлоза (ПАЦ) – подвергаются интенсивной термо- и гидролитической деструкции при температурах свыше 120–130 °C, что приводит к катастрофическому ухудшению реологических и фильтрационных характеристик растворов [2]. Одним из наиболее эффективных путей принципиального повышения термостабильности целлюлозного каркаса является его химическая модификация путём введения сульфогрупп ($-SO_3^-$), сообщающих полимеру повышенную гидрофильность, устойчивость к минерализованным средам и, что наиболее важно, структурную стабилизацию гликозидных связей [3]. В этом контексте хлопковая целлюлоза, являющаяся массовым возобновляемым сырьём в Узбекистане, представляет собой стратегическую основу для создания отечественного конкурентоспособного реагента [4].

Несмотря на отмечаемую в литературе перспективность сульфонированных производных целлюлозы, сохраняется существенный научно-методический пробел [5]. Отсутствуют системные исследования, посвящённые целенаправленному и управляемому синтезу сульфонированной хлопковой целлюлозы (SCel), в частности, установлению количественных корреляций между условиями процесса и ключевым структурным параметром – степенью замещения (DS), который детерминирует функциональные свойства конечного продукта [6]. Большинство известных работ ограничивается изучением сульфонирования древесной целлюлозы без применения современных методов математического планирования эксперимента для комплексной оптимизации и прогнозирования свойств [7].

Цель работы – установление количественных зависимостей между условиями сульфонирования (мольным соотношением реагентов, концентрацией щёлочи, температурой, временем) и степенью замещения (DS) хлопковой целлюлозы, а также определение оптимальных параметров синтеза с использованием методов однофакторного эксперимента и ротатабельного центрального композиционного планирования (Box-

[1] **HPHT** (от англ. *High Pressure, High Temperature*) – международная классификация условий эксплуатации скважин, характеризующихся высокими пластовыми давлениями (свыше 10 000 psi или 69 МПа) и высокими температурами (свыше 300°F или 149°C).

ISSN 3030-3907

Behnken) для разработки воспроизводимой методики получения SCel с заданными структурными характеристиками.

Объекты и методы исследования

Исходные материалы. В работе использовали следующие реактивы и сырьё:

Хлопковая целлюлоза, полученная из линтера (коротковолокнистый пух) хлопка-сырца сорта Gossypium hirsutum L., выращенного в условиях Узбекистана [8]. Сырьё подвергали многостадийной очистке (щелочная варка, отбеливание пероксидом водорода, кислотная обработка) по методике, адаптированной из [9]. Очищенный продукт соответствовал требованиям ГОСТ 32750-2014 «Целлюлоза для химической переработки»: содержание α-целлюлозы ≥ 98,5%, зольность ≤ 0,15%, массовая доля влаги ≤ 6,5% [10]. Степень полимеризации (СП), определённая вискозиметрически в медно-аммиачном растворе, составляла 12500 ± 1500 [11].

Бисульфит натрия ($NaHSO_3$, гидросульфит натрия) марки «чистый» (ч.) по ГОСТ 902-2020, с массовой долей основного вещества не менее 96,5%. Использовался в качестве основного сульфонирующего агента [12].

Гидроксид натрия ($NaOH$) марки «чистый для анализа» (ч.д.а.) по ГОСТ 4328-2017, в виде гранул [13]. Применялся для приготовления растворов заданной концентрации (4–12% масс.) с целью активации целлюлозы и поддержания щелочности среды [14].

Изопропиловый спирт (C_3H_8O) технический по ТУ 6-09-402-87 [15], используемый в качестве осадителя и промывного агента для выделения и очистки синтезированного продукта [16].

Сульфит натрия (Na_2SO_3, ч., ГОСТ 195-2016) [17] вводили в реакционную смесь в количестве 5% от массы $NaHSO_3$ для стабилизации среды и предотвращения окисления сульфит-иона [18].

Соляная кислота (HCl, х.ч., ГОСТ 3118-2017) [19] применялась для нейтрализации реакционной смеси по окончании синтеза [20].

Методика синтеза сульфонированной целлюлозы (SCel). Синтез проводили в лабораторном стеклянном реакторе, снабжённом мешалкой, термометром и обратным холодильником, по двухстадийной схеме [21, 22]:

Щелочная активация (мерсеризация). Навеску воздушно-сухой хлопковой целлюлозы (10,00 г) обрабатывали водным раствором $NaOH$ заданной концентрации (4–12% масс.) при гидромодуле 10:1 (мл/г) и температуре 25±2°C в течение 60 мин. Полученную щелочную целлюлозу отжимали до трёхкратного увеличения исходной массы.

ISSN 3030-3907

Сульфоэтерификация. Активированную целлюлозу диспергировали в дистиллированной воде (гидромодуль 15:1). При интенсивном перемешивании и температуре 40°C в суспензию вносили расчётные количества $NaHSO_3$ и Na_2SO_3. Реакционную массу нагревали до заданной температуры (50–90°C) и выдерживали в течение определённого времени (1–6 ч), поддерживая pH в интервале 9–11 периодическим добавлением раствора $NaOH$. По окончании процесса смесь охлаждали, нейтрализовали HCl до pH 6,5–7,0 и осаждали продукт трёхкратным объёмом изопропанола. Осадок отделяли фильтрованием, последовательно промывали 70%-м водным раствором изопропанола и ацетоном для удаления солей и побочных продуктов, после чего сушили в вакуумном шкафу при 50°C до постоянной массы.

Методы аналитического контроля. Степень замещения (DS) определяли двумя независимыми методами для взаимного контроля: 1) Титриметрически по методу путём титрования водного раствора H-формы SCel 0,1 M раствором $NaOH$ [23]. 2) Расчётом на основе элементного анализа по содержанию серы, определённому на элементном анализаторе EuroVector EA3000 (Италия) в режиме CHNS-анализа [24].

Молекулярная масса (M_w) и молекулярно-массовое распределение оценивали методом гель-проникающей хроматографии (ГПХ) на системе Agilent 1260 Infinity II (США), оснащённой колонками PL aquagel-OH MIXED-H и детектором по показателю преломления. Элюент – 0,1 M раствор нитрата натрия, скорость потока 1,0 мл/мин, калибровка по стандартам полиоксиэтилена [25].

Планирование эксперимента и статистическая обработка данных. После проведения однофакторных экспериментов для математического моделирования и оптимизации использовали метод ротатабельного центрального композиционного планирования Бокса-Бенкена (Box-Behnken design) для трёх факторов [26]. Статистическую обработку, построение регрессионных моделей и дисперсионный анализ (ANOVA) проводили с использованием программного пакета Design-Expert версии 13 (Stat-Ease, США) [26].

Результаты и обсуждение. *Однофакторный анализ влияния условий синтеза на степень замещения.* Для выявления предварительных закономерностей было проведено изучение влияния ключевых параметров на степень замещения (DS) и молекулярную массу (M_w) SCel. Результаты представлены на рис. 1 и обобщены в табл. 1.

ISSN 3030-3907




Рис. 1. Графическое представление влияния (а) мольного отношения $NaHSO_3$: АГЗ, (б) концентрации $NaOH$ и (в) температуры на степень замещения (DS) и молекулярную массу (M_w) сульфонированной целлюлозы.

Таблица 1.

Оптимальные диапазоны и установленные эффекты ключевых факторов синтеза SCel

Фактор	Исследуемый диапазон	Оптимальный диапазон (по DS)	Основное влияние на процесс	Влияние на M_w
Мольное отношение $NaHSO_3$: АГЗ	0,5:1 – 3,0:1	2,0:1 – 2,2:1	Линейный рост DS до достижения диффузионного предела (~2,0:1).	Незначительное снижение при избытке >2,5:1.
Концентрация $NaOH$, % масс.	4 – 12	8 – 9 (pH 10–11)	Двоякое: активация целлюлозы и формирование	Резкое падение при $[NaOH]$ >10% из-за

ISSN 3030-3907

			SO_3^{2-} при недостатке; гидролиз при избытке.	деструкции цепи.
Температура, °C	50 – 90	70 – 75	Экспоненциальный рост скорости реакции и DS до 70°C.	Катастрофическое падение выше 80°C.
Время реакции, ч	1 – 6	4	Достижение практического равновесия реакции.	Прогрессирующее снижение после 4 ч.
Гидромодуль, мл/г	10:1 – 20:1	15:1	Улучшение массопереноса и однородности продукта.	Слабо выражено.

Как следует из данных, ключевым лимитирующим фактором является концентрация $NaOH$. При значениях ниже 6% масса DS не превышала 0,2, что связано с недостаточной депротонизацией гидроксильных групп целлюлозы (pKa ~13) и низкой долей активного нуклеофила SO_3^{2-} ($pKa\ HSO_3^-/SO_3^{2-} \approx 7{,}2$). Оптимальный диапазон 8–9% соответствует pH 10–11, обеспечивая максимальную реакционную способность системы. Превышение этого порога ведёт к конкурирующей реакции щелочного гидролиза гликозидных связей, что подтверждается резким снижением M_w.

Аналогичный компромисс наблюдается для температуры. Её повышение до 70°C в соответствии с правилом Вант-Гоффа ускоряет процесс, однако при 80–90°C доля эндотермической деструкции цепи становится сопоставимой с полезной реакцией этерификации, что делает дальнейший рост DS неэффективным. На основании однофакторного анализа были выбраны базовые условия для последующей оптимизации: мольное отношение 2,0:1, [$NaOH$]=8%, T=70°C, t=4 ч, гидромодуль 15:1.

Математическое моделирование и оптимизация методом поверхности отклика (RSM). Для количественного описания взаимодействия факторов и поиска глобального оптимума использовали метод ротатабельного центрального композиционного планирования Бокса-Бенкена. В качестве независимых переменных выбраны три наиболее значимых фактора (табл. 2), а в качестве отклика – степень замещения (DS).

ISSN 3030-3907

Таблица 2.


Уровни и интервалы варьирования факторов в плане Box-Behnken

Фактор	Обозначение	Уровни варьирования		
		-1	0	+1
Температура, °C	X_1	65	70	75
Концентрация $NaOH$, % масс.	X_2	7	8	9
Мольное отношение $NaHSO_3$: АГЗ	X_3	1,8:1	2,0:1	2,2:1

На основе экспериментальных данных получено уравнение регрессии второго порядка в кодированных переменных (1), описывающее зависимость DS от исследуемых параметров:

$$Y(DS) = 0{,}417 + 0{,}034X_1 + 0{,}024X_2 + 0{,}027X_3 - 0{,}011X_1^2 - 0{,}005X_2^2 - 0{,}006{X_3}^2 + 0{,}008X_1X_2 + 0{,}005X_1X_3 \ (1)$$

Результаты дисперсионного анализа (ANOVA) подтвердили высокую значимость модели: p-value < 0,0001, коэффициент детерминации R^2 = 0,984, скорректированный R^2_{adj} = 0,967. Все линейные члены (X_1, X_2, X_3) и квадратичный член температуры (X_1^2) были статистически значимы (p < 0,01), что указывает на нелинейный характер влияния температуры на процесс. Положительные коэффициенты при взаимодействиях X_1X_2 и X_1X_3 свидетельствуют о синергетическом эффекте между температурой и концентрацией щёлочи, а также температурой и избытком реагента.



ISSN 3030-3907




Рис. 2. Поверхность отклика, демонстрирующая совместное влияние температуры (X_1) и концентрации $NaOH$ (X_2) на степень замещения DS при фиксированном мольном отношении 2,0:1.

Анализ поверхности отклика (рис. 2) визуализирует область экстремума. Максимальные значения DS (>0,42) достигаются в «плато», ограниченном температурами 71–74°C и концентрацией $NaOH$ 8,3–8,8%.

Определение оптимальных условий и верификация модели. Используя инструмент численной оптимизации в программном обеспечении, была поставлена задача максимизации DS при ограничении: снижение M_w не должно превышать 5% от значения, полученного при базовых условиях. Оптимальные прогнозируемые условия и результат проверочного эксперимента представлены в табл. 3.

Таблица 3.

Результаты оптимизации и проверки адекватности модели

Параметр	Прогноз модели	Результат проверочного эксперимента
Оптимальные условия:		
Температура, °C	72	72±2
[$NaOH$], % масс.	8,5	8,5±0,3
Мольное отношение	2,05:1	2,05±0,05:1
Выходные параметры:		
Степень замещения, DS	0,425	0,42 ± 0,02
Молекулярная масса, M_w, кДа	–	135 ± 3

Отличное совпадение прогнозируемого и экспериментального значений DS (погрешность <1,2%) подтверждает высокую адекватность построенной модели и эффективность применённой методологии оптимизации. Полученный продукт с DS=0,42 и M_w≈135 кДа соответствует целевому структурному «окну», определённому для последующего исследования термостойких свойств.

Установленная синергия между температурой и щёлочностью имеет важное практическое значение. Она указывает на то, что повышение температуры процесса эффективно только при достаточной концентрации $NaOH$, обеспечивающей как высокую степень активации целлюлозы, так и

ISSN 3030-3907

необходимую долю активного сульфит-иона. Это объясняет неудачи попыток повысить DS лишь за счёт увеличения температуры без корректировки щёлочности среды. Полученные оптимальные условия являются компромиссом, позволяющим достичь высокой степени модификации при минимальной деструкции полимерного каркаса, что принципиально отличает данный подход от синтеза менее термостойких производных, таких как КМЦ.

Заключение. Таким образом, в результате системного исследования впервые разработана научно обоснованная и воспроизводимая методика управляемого синтеза сульфонированной хлопковой целлюлозы (SCel) с целевой степенью замещения. Комбинацией однофакторного эксперимента и математического планирования (RSM, план Box-Behnken) установлены количественные зависимости влияния ключевых технологических параметров на глубину модификации полимера. Построенная адекватная регрессионная модель (R^2 = 0,984) позволила определить область оптимальных условий синтеза: температура 72±2°C, концентрация $NaOH$ 8,5±0,3% масс., мольное отношение $NaHSO_3$: АГЗ 2,05:1. Данный режим обеспечивает получение стандартизированного продукта с воспроизводимой степенью замещения DS = 0,42 и сохранением молекулярной массы на уровне ~135 кДа, что минимизирует деструкцию целлюлозного каркаса.

Основным научным результатом является установление синергетического эффекта между температурой и щёлочностью среды, определяющего эффективность всего процесса сульфоэтерификации. Полученные данные создают основу для перехода от эмпирического подхода к целенаправленному синтезу функциональных производных целлюлозы.

Практическая значимость работы заключается в разработке конкретной методики, позволяющей получать серию образцов SCel с заданными и контролируемыми структурными параметрами. Это открывает возможность для проведения последующих фундаментальных исследований по установлению корреляций «структура – термостабильность – реологические свойства» и является ключевым шагом на пути создания конкурентоспособного отечественного реагента для буровых растворов HPHT-класса.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Bourgoyne A. T., Millheim K. K., Chenevert M. E., Young F. S. Applied drilling engineering. – Richardson, TX : Society of Petroleum Engineers, 1986. – 502 p.
2. Caenn R., Darley H. C., Gray G. R. Composition and properties of drilling and completion fluids. – 7th ed. – Amsterdam : Elsevier, 2016. – 801 p.

ISSN 3030-3907

3. Fink J. Petroleum engineer's guide to oil field chemicals and fluids. – 3rd ed. – Oxford : Gulf Professional Publishing, 2021. – 844 p.
4. Fink J. K. Water-soluble polymers for oilfield applications. – Beverly, MA : Scrivener Publishing, 2011. – 364 p.
5. Plank J. Applications of water-soluble polymers as fluid-loss additives in the oilfield industry // Water-soluble polymers in petroleum recovery. – New York : Plenum Press, 1988. – P. 155–169.
6. Plank J. Water-soluble polymers as fluid-loss additives in the oilfield industry // ACS Symposium Series. – 1992. – Vol. 396. – P. 433–490.
7. Plank J., Gretz D. Applications of sulfonated polymers in cement and drilling systems // Construction and Building Materials. – 2019. – Vol. 215. – P. 341–352.
8. Aftab A. A review of water-based drilling fluids for high-temperature, high-pressure applications // Journal of Petroleum Science and Engineering. – 2017. – Vol. 156. – P. 718–734.
9. Patel A. D. High-performance water-based drilling fluids for HPHT applications // SPE Drilling & Completion. – 2019. – Vol. 34, No. 2. – P. 102–115.
10. Kelessidis V. C. Effect of temperature on rheological properties of water-based drilling fluids // Journal of Petroleum Science and Engineering. – 2011. – Vol. 78. – P. 758–767.
11. Amanov T. S., Umarov A. A. Analysis of the state and prospects for the development of the oil and gas industry of Uzbekistan // Chemical Technology. Control and Management. – 2021. – No. 3. – P. 15–22.
12. Abduazimov K. A., Ergashev B. A. Problems of preventing complications during drilling deep wells in the conditions of Uzbekistan // Gornyi Zhurnal. – 2022. – No. 6. – P. 54–59.
13. Klemm D. et al. Cellulose: fascinating biopolymer and sustainable raw material // Angewandte Chemie International Edition. – 2005. – Vol. 44, No. 22. – P. 3358–3393.
14. Klemm D. Comprehensive cellulose chemistry. Vol. 1. – Weinheim : Wiley-VCH, 1998. – 260 p.
15. Rogovin Z. A. Chemistry of cellulose. – Moscow : Khimiya, 1972. – 520 p.
16. BeMiller J. N. Carboxymethylcellulose // Carbohydrate chemistry for food scientists. – 2019. – P. 223–231.
17. Kim U. J. Periodate oxidation of cellulose // Biomacromolecules. – 2000. – Vol. 1, No. 3. – P. 488–492.
18. Sui H. Review of the thermal stability of cellulose derivatives in drilling fluids // Journal of Natural Gas Science and Engineering. – 2016. – Vol. 34. – P. 1104–1112.

ISSN 3030-3907

19. Zhang J. Thermal stability and degradation mechanism of carboxymethyl cellulose in drilling fluids // Journal of Applied Polymer Science. – 2020. – Vol. 137. – Art. 49381.
20. Lyu J. Evaluation of thermal degradation of carboxymethyl cellulose and its impact on filtration and rheological properties // Petroleum Science and Technology. – 2020. – Vol. 38, No. 5. – P. 446–453.
21. Barba C. Thermal degradation of cellulose and its derivatives // Polymer Degradation and Stability. – 2002. – Vol. 75, No. 3. – P. 505–509.
22. Al-Harthi M. A. Thermal degradation and morphology of cellulose and its derivatives // Journal of Thermal Analysis and Calorimetry. – 2014. – Vol. 115. – P. 1653–1661.
23. Ma L. Research on the thermal stability of AMPS/AA copolymers for oilfield applications // Polymer Degradation and Stability. – 2019. – Vol. 161. – P. 74–82.
24. Gao B. High-temperature-resistant drilling fluid additives based on AMPS // Journal of Applied Polymer Science. – 2021. – Vol. 138. – Art. 50063.
25. Knop A., Pilato L. A. Phenolic resins: chemistry, applications, standardization, safety and ecology. – Berlin : Springer-Verlag, 1985. – 313 p.
26. Montgomery D. C. Design and analysis of experiments. – 10th ed. – Hoboken : Wiley, 2019. – 688 p.

ISSN 3030-3907

OZIQ-OVQAT HAMDA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDA AMARANT (Amaranthus) DORIVOR O‘SIMLIGINING AHAMIYATI

Shukurov B.Sh.
SamDTU tibbiy kimyo kafedrasi (PhD) assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada amarant (Amaranthus) o‘simligining O‘zbekiston sharoitiga introduksiya qilingan navlari, ularning biologik va biokimyoviy xususiyatlari, oziq-ovqat, yem-xashak hamda dorivor o‘simlik sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Amarantning xalq tabobati, zamonaviy farmatsevtika va qishloq xo‘jaligidagi o‘rni ilmiy manbalar va amaliy tajribalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, amarant moyi va skvalen moddasining inson salomatligidagi muhim roli, chorvachilikda yuqori oqsilli yem sifatidagi ustunliklari keng bayon etiladi.

Kalit so‘zlar*:* amarant, amarant moyi, biokimyoviy tarkib, skvalen, amarant doni, yem-xashak, dorivor o‘simlik.

Аннотация: В данной статье рассмотрены сорта амаранта (Amaranthus), интродуцированные в условиях Узбекистана, их биологические и биохимические особенности, а также значение амаранта как пищевого, кормового и лекарственного растения. Роль амаранта в народной медицине, современной фармацевтике и сельском хозяйстве проанализирована на основе научных источников и практического опыта. Кроме того, подробно освещается важная роль амарантового масла и вещества сквалена в поддержании здоровья человека, а также преимущества амаранта как высокобелкового корма в животноводстве.

Ключевые слова: амарант, амарантовое масло, биохимический состав, сквален, зерно амаранта, корм, лекарственное растение.

Annotation: This article examines amaranth (Amaranthus) varieties introduced under the conditions of Uzbekistan, their biological and biochemical characteristics, and the importance of amaranth as a food, fodder, and medicinal plant. The role of amaranth in folk medicine, modern pharmaceuticals, and agriculture is analyzed based on scientific sources and practical experience. In addition, the significant role of amaranth oil and the compound squalene in maintaining human health, as well as the advantages of amaranth as a high-protein feed in animal husbandry, are discussed in detail.

Keywords: amaranth, amaranth oil, biochemical composition, squalene, amaranth grain, feed, medicinal plant.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, ekologik toza va yuqori biologik qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ko‘p funksiyali

ISSN 3030-3907

o‘simliklar, xususan amarant (Amaranthus) alohida ahamiyat kasb etadi. Amarant oziq-ovqat, chorvachilik, farmatsevtika va kosmetologiya sohalarida keng qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston florasi nihoyatda boy bo‘lib, respublikamiz hududida 4230 dan ortiq o‘simlik turlari mavjud. Shulardan 577 tasi shifobaxsh xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan. Ana shunday noyob o‘simliklardan biri — gultojixo‘rozlar (Amaranthaceae) oilasiga mansub amarant hisoblanadi. Ushbu o‘simlik qadim zamonlardan boshlab xalq tabobatida, oziq-ovqat va yem-xashak manbai sifatida foydalanib kelingan.

Amarant o‘simligining tarixiy va etnobotanik ahamiyati

Amarant insoniyatga qadimdan ma’lum bo‘lgan o‘simliklardan biridir. Markaziy va Janubiy Amerikada qadimgi sivilizatsiyalar — asteklar va inklar amarant donini asosiy oziq-ovqat manbai sifatida iste’mol qilganlar. Sharq tabobatida ham amarantning shifobaxsh xususiyatlari keng e’tirof etilgan. O‘rta Osiyo hududida, xususan hozirgi O‘zbekiston yerlarida amarant "gultojixo‘roz" nomi bilan qadimdan ma’lum. Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino o‘zining tibbiyotga oid asarlarida amarantdan teri kasalliklari, yaralar, og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklarini davolashda foydalanganligini qayd etgan. Qizamiq, qizil toshma, jarohatlar va yiringli yaralarni davolashda amarant asosidagi damlamalar va surtmalar qo‘llanilgan.

O‘zbekistonda amarant navlarining introduksiyasi va seleksiyasi

Dastlab O‘zbekistonda amarant asosan manzarali o‘simlik sifatida yetishtirilgan. Qizil rangli, xo‘roz tojini eslatuvchi navi keng tarqalgan bo‘lib, u dekorativ ahamiyatga ega edi. Ammo o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab olimlar tomonidan amarantning biologik va kimyoviy xususiyatlarini chuqur o‘rganish ishlari boshlandi. Professor K.S. Safarov, professor I.R. Asqarov, dotsent N.X. To‘xtaboyevlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida amarantning oziq-ovqat va dorivorlik ahamiyati ilmiy asoslab berildi. Hozirgi kunga kelib O‘zbekiston sharoitida amarantning 19 ta navi introduksiya qilingan. Tabiiy tanlash va seleksiya usullari orqali Xarkovskiy-1, Gelios, Ultra va Lera navlari asosida quyidagi mahalliy navlar yaratildi:

- "O‘zbekiston-M"
- "Andijon"
- "Marhamat"
- "Ulug‘nor"

Mazkur navlar seleksiya yutug‘i sifatida e’tirof etilib, patentlar bilan himoyalangan.

Amarantning biokimyoviy tarkibi va oziq-ovqat ahamiyati

ISSN 3030-3907

Amarant doni yuqori biologik qiymatga ega bo‘lib, oqsil, yog‘, vitamin va mineral moddalarga nihoyatda boy. Ayniqsa, uning oqsili tarkibidagi lizin aminokislotasi miqdori bug‘doy va makkajo‘xoriga nisbatan ancha yuqori.

Amarant urug‘laridan olinadigan moy farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati uchun qimmatli xomashyo hisoblanadi. Ushbu moy tarkibida:

- 77% to‘yinmagan yog‘ kislotalari;
- 50% linol va linolen kislotalari;
- tokoferollar (E vitamini);
- fitosterollar;
- rutin va vitamin R mavjud.

Amarant unining bozordagi qiymati bug‘doy uniga nisbatan 40–50 barobar yuqori. Amarant uni qo‘shilgan non va non mahsulotlari immunitetni mustahkamlaydi, kamqonlikni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega.

Skvalen va amarant moyining dorivor xususiyatlari

Amarant moyining eng muhim komponentlaridan biri — skvalen hisoblanadi. Skvalen miqdori amarant moyida 8% gacha yetadi. Avvallari bu modda asosan akula va kitlarning jigaridan olinib kelinar edi. 1931-yilda Nobel mukofoti laureati, Syurix universiteti professori doktor Klaur skvalen molekulasi o‘ziga xos biologik faollikka ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Skvalen organizmni kislorod bilan to‘yintiradi, erkin radikallarni zararsizlantiradi, hujayralarning qarishini sekinlashtiradi.

Skvalenning asosiy xususiyatlari:

- antikanserogen ta’sir;
- immun tizimini mustahkamlash;
- radioprotektor xossa;
- A va D vitaminlari almashinuvida ishtirok etish;
- kosmetik vositalarda biologik faol moddalarning teriga singishini tezlashtirish.

Amarantning yem-xashak sifatidagi ahamiyati

Amarant yuqori sifatli yem-xashak olish uchun qimmatbaho o‘simlik hisoblanadi. Uning ko‘k massasi tarkibida (quruq modda hisobida):

- xom protein: 15,6–16,75 %;
- yog‘lar: 2,4–2,8 %;
- dag‘al tolalar: 16,0–21,7 %;
- kalsiy: 2,1–2,6 %;
- fosfor: 0,2–0,21 %;
- karotin: 200 mg/kg gacha.

Solishtirish uchun, makkajo‘xori ko‘k massasida protein miqdori atigi 7,5–8 % ni tashkil etadi. Amarant asosidagi yemlar chorvachilikda yuqori rentabellik beradi.

ISSN 3030-3907

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki:

❖ yem tarkibiga 25% amarant qo‘shilganda qo‘zi va buzoqlar 1,5–2 barobar tez o‘sadi;

❖ quyon va nutriyalar 2–3 barobar tez vazn yig‘adi;

❖ sigirlarning sut mahsuldorligi va yog‘ miqdori oshadi;

❖ cho‘chqa bolalari 4 oyda 60 kg tirik vazn to‘playdi.

Iqtisodiy va eksport salohiyati

Amarant yetishtirish texnologiyalarining rentabelligi an’anaviy yem ekinlariga nisbatan 7–10 barobar yuqori. Hozirgi vaqtda amarant moyi, uni, bargi, ildizi va kunjarasini dorivor va vitaminli mahsulot sifatida eksport qilish istiqbollari o‘rganilmoqda.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, amarant o‘simligi O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati va farmatsevtika sohasi uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘p funksiyali ekin hisoblanadi. Uning yuqori biologik qiymati, dorivor xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligi kelajakda amarant ekin maydonlarini kengaytirish va chuqur qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Inomovich X. J. et al. FERMENTLARNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI VA ULARNING QO‘LLANILISHI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 38. – №. 1. – С. 285-291.

2. Kholmurodova D. K., Khudoykulov Z. I. Use of Waste in the National Economy //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 25. – С. 160-162.

3. Mamatkulov S., Jamolova N., Khudoykulov J. THE USE OF ACTIVATED MERCURY IN MEDICINE //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 108-111.

4. Холмуродова Д. К., Исломов Л. Б., Худойкулов Ж. И. ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СЫРЬЯ //IJODKOR O‘QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 33. – С. 277-281.

5. Inomovich X. J. et al. SUN'IY OQSIL OZUQA MODDALARINI ISHLAB CHIQARILISHI VA KELGUSIDAGI IMKONIYATLAR //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 38. – №. 1. – С. 292-298.

6. Мурадова Д. и др. СПИРТЛАРНИНГ АММИАК БИЛАН ЦИАНЛАШ РЕАКЦИЯСИНИНГ ТЕРМОДИНАМИКАСИ //Журнал естественных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 75-76.

7. Худойкулов Ж. И., Зиёева М. З., Мавлонова Х. И. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ В ОРГАНИЗАЦИИ

ISSN 3030-3907

//INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 154-159.
8. Икромова Ш. А., Худойкулов Ж. И. ЭЛЕКТРОХИМИЧЕСКОЕ ЛЕЧЕНИЕ И МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ //Research Focus. – 2024. – Т. 3. – №. 11. – С. 146-150.
9. Амирова П. Ж., Худойкулов Ж. ЕСТЕСТВЕННЫЕ И СИНТЕТИЧЕСКИЕ НАРКОТИКИ: ПОЛЬЗА И ВРЕД //Research Focus. – 2025. – Т. 4. – №. 1. – С. 148-152.
10. Мурадова Д. и др. СПИРТЛАРНИНГ КАТАЛИТИК ЦИАНЛАШ РЕАКЦИЯСИНИ УРГАНИШ //Журнал естественных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 71-72.
11. Nuriddinovich U. X., Inomovich X. J. GIJJALAR: YUQISH YO ‘LLARI, XAVF OMILLARI VA OLDINI OLISH CHORALARI //Research Focus. – 2025. – Т. 4. – №. 4. – С. 244-247.
12. Vozhehova R., Borovyk V., Ubaydullaev J. Inheritance of yield and fiber length in hybrids cotton of the first generation F1 //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2025. – Т. 151. – С. 04001.
13. Xayrullayeva D. M. et al. KOLLOID ERITMALARNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI VA QONNING KRIOSKOPIYA USULIDA MUZLASH HARORATINI ANIQLASH //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 4-1. – С. 272-276.
14. Ubaidullaev J. N. et al. Assessments of Chemical Composition and Properties High-Viscosity Oil Based on Elemental //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 332-339.
15. Холмуродов Т. А., Мирзаев О. О., Убайдуллаев Ж. Н. КАТАЛИТИЧЕСКОЕ ОБЛАГОРАЖИВАНИЕ ТЯЖЕЛОЙ НЕФТИ В ПРИСУТСТВИИ ПОВЕРХНОСТНО-АКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ //Добыча, подготовка, транспорт нефти и газа. – 2023. – С. 62-63.
16. Хусанов Э. С. и др. Реакционная способность несимметрично-замещений природных порфиринов с нитратами меди (II), цинка (II) и кадмия (II) кислород содержащих органических растворителей //Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 12 (59). – С. 13-18.

ISSN 3030-3907

INFORMATIKA UMUMTA’LIM KURSI MAZMUNIGA AXBOROT BIZNESI ELEMENTLARINI KIRITISH

Ulug‘Bekova Surayyo
Osiyo Xalqaro univeristeti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada informatika umumta’lim kursi mazmuniga axborot biznesi elementlarini kiritishning dolzarbligi, mazmuni va ta’limiy ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida axborot strategik resurs sifatida namoyon bo‘lib, undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini erta bosqichdan shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Informatika fanini o‘qitish jarayonida axborotni yaratish, qayta ishlash, saqlash va tijoratlashtirish asoslarini o‘rgatish o‘quvchilarda raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash hamda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Maqolada axborot mahsulotlari, elektron savdo, raqamli xizmatlar va innovatsion loyihalar orqali axborot biznesi elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: informatika, axborot biznesi, raqamli iqtisodiyot, raqamli savodxonlik, elektron savdo, tadbirkorlik, axborot texnologiyalari.

Annotattion. This article examines the relevance, content, and educational significance of integrating information business elements into the general education informatics curriculum. In the context of the rapid development of the digital economy, information has become a strategic resource, which necessitates the early formation of skills for its effective use. Teaching informatics with an emphasis on creating, processing, storing, and commercializing information contributes to the development of students’ digital literacy, critical thinking, and entrepreneurial competencies. The article highlights ways of integrating information business elements into the educational process through information products, e-commerce, digital services, and innovative project-based activities.

Keywords: informatics, information business, digital economy, digital literacy, e-commerce, entrepreneurship, information technologies.

Аннотатция. В статье рассматриваются актуальность, содержание и педагогическое значение внедрения элементов информационного бизнеса в общеобразовательный курс информатики. В условиях стремительного развития цифровой экономики информация выступает в качестве стратегического ресурса, что обуславливает необходимость формирования у учащихся навыков её эффективного использования на ранних этапах обучения. Изучение информатики с акцентом на создание, обработку, хранение и коммерциализацию информации способствует развитию цифровой грамотности, критического мышления и предпринимательских

ISSN 3030-3907

компетенций обучающихся. В работе анализируются пути интеграции элементов информационного бизнеса в образовательный процесс через информационные продукты, электронную коммерцию, цифровые сервисы и инновационную проектную деятельность.

Ключевые слова: информатика, информационный бизнес, цифровая экономика, цифровая грамотность, электронная коммерция, предпринимательство, информационные технологии.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida axborot jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga, iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylandi. Bugungi kunda axborot nafaqat bilim manbai, balki raqamli mahsulot, xizmat va biznes g‘oyalarining asosi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli ta’lim jarayonida o‘quvchilarda axborot bilan samarali ishlash, uni tahlil qilish va amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan informatika fani o‘quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirishda yetakchi fanlardan biri hisoblanadi. Biroq an’anaviy informatika kurslari ko‘pincha texnik bilimlar bilan cheklanib, axborotning iqtisodiy va amaliy qiymatini yetarli darajada ochib bera olmaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida esa informatika fanining mazmunini axborot biznesi elementlari bilan boyitish, o‘quvchilarda tadbirkorlik fikrlashini shakllantirish va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Axborot biznesi elementlarini informatika umumta’lim kursi mazmuniga kiritish o‘quvchilarning kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini oshirish, ularning mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish hamda zamonaviy mehnat bozoriga moslashuvchan bo‘lishiga xizmat qiladi. Ushbu maqolada informatika fanini o‘qitish jarayonida axborot mahsulotlari, elektron savdo, raqamli xizmatlar va innovatsion loyihalar orqali axborot biznesi elementlarini integratsiya qilish masalalari yoritiladi hamda ularning ta’limiy samaradorligi tahlil qilinadi.

Axborot biznesi — bu axborotni yaratish, qayta ishlash, saqlash, tarqatish va undan iqtisodiy foyda olishga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda axborot mahsulotlari va xizmatlari alohida iqtisodiy qiymatga ega bo‘lib, ularning ulushi global iqtisodiyotda tobora ortib bormoqda. Veb-saytlar, mobil ilovalar, raqamli platformalar, onlayn xizmatlar, elektron kutubxonalar va multimedia kontenti axborot biznesining asosiy shakllari hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Ta’lim tizimida axborot biznesi elementlarini joriy etish o‘quvchilarda axborotning iqtisodiy ahamiyatini anglash, uni nafaqat iste’molchi, balki yaratuvchi va boshqaruvchi sifatida qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, informatika fani mazmuni bu jarayon uchun qulay platforma bo‘lib xizmat qiladi, chunki u axborot bilan ishlashning texnik va mantiqiy asoslarini o‘rgatadi.

Amaldagi informatika umumta’lim kurslarida asosan algoritmlash, dasturlash asoslari, kompyuter qurilmalari, ofis dasturlari va axborot xavfsizligi masalalariga e’tibor qaratiladi. Bu bilimlar muhim bo‘lsa-da, ularning ko‘pchiligi real hayotdagi iqtisodiy jarayonlar bilan yetarli darajada bog‘lanmagan.

Natijada o‘quvchilar informatika fanini faqat texnik fan sifatida qabul qiladi va axborot texnologiyalaridan qanday qilib daromad olish, biznes g‘oyalar yaratish yoki ijtimoiy muammolarni hal etishda foydalanish mumkinligini to‘liq anglab yetmaydi. Bu esa informatika fanining amaliy va motivatsion salohiyatini pasaytiradi. Shu bois kurs mazmunini axborot biznesi elementlari bilan boyitish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Axborot biznesi elementlarini informatika umumta’lim kursi mazmuniga kiritish tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Ushbu integratsiya quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali amalga oshiriladi:

Birinchidan, o‘quvchilarga axborot mahsuloti tushunchasi va uning turlari haqida bilim berish zarur. Bunda veb-sayt, blog, mobil ilova, onlayn xizmat, raqamli dizayn va multimedia kontent kabi axborot mahsulotlarining yaratilish jarayoni tushuntiriladi.

Ikkinchidan, informatika darslarida elektron savdo va raqamli xizmatlar asoslari bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar onlayn platformalar, to‘lov tizimlari, reklama va marketingning raqamli vositalari haqida boshlang‘ich tasavvurga ega bo‘ladilar.

Uchinchidan, axborot biznesi doirasida axborot xavfsizligi va mualliflik huquqi masalalariga alohida e’tibor qaratish lozim. O‘quvchilar raqamli mahsulotlarni yaratishda axloqiy va huquqiy me’yorlarga rioya qilish zarurligini anglab yetadilar.

Axborot biznesi elementlarini samarali o‘zlashtirishda amaliy mashg‘ulotlar va loyiha faoliyati muhim rol o‘ynaydi. Informatika darslarida o‘quvchilarga kichik guruhlar asosida loyiha ishlab chiqish topshiriqlari berilishi mumkin. Masalan, oddiy veb-sayt yaratish, raqamli mahsulot konsepsiyasini ishlab chiqish yoki ijtimoiy muammoga qaratilgan axborot loyihasini tayyorlash.

Bunday faoliyat o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi va o‘z g‘oyalarini taqdim etish tajribasini

ISSN 3030-3907

oshiradi. Shu bilan birga, loyiha faoliyati orqali o‘quvchilar axborot texnologiyalarining real hayotdagi amaliy qiymatini chuqurroq anglay boshlaydilar.

Axborot biznesi elementlarini informatika umumta’lim kursi mazmuniga kiritish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon o‘quvchilarda raqamli savodxonlikni rivojlantirish, innovatsion va tadbirkorlik fikrlashini shakllantirish hamda kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorgarlikni kuchaytiradi.

Shuningdek, informatika fanining mazmuni zamonaviy talablar asosida boyitilib, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Natijada ta’lim jarayoni faqat bilim berishga emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tizimga aylanadi. Axborot biznesi elementlarini informatika umumta’lim kursi mazmuniga kiritishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar axborot bilan ishlash, muammolarni hal qilish va innovatsion qarorlar qabul qilish kompetensiyalariga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim modeli asosida o‘quvchilar real hayotga yaqin vaziyatlar orqali o‘qitiladi. Masalan, informatika darslarida axborot mahsulotini yaratish, uni targ‘ib qilish va baholash jarayonlari modellashtiriladi. Bu esa bilimlarning mustahkam va uzoq muddatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Axborot biznesi elementlari o‘quvchilarda raqamli tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Raqamli tadbirkorlik axborot texnologiyalaridan foydalanib yangi g‘oyalar yaratish, ularni rivojlantirish va iqtisodiy qiymatga aylantirish jarayonini o‘z ichiga oladi.

Informatika darslari davomida o‘quvchilar biznes g‘oya ishlab chiqish, maqsadli auditoriyani aniqlash, axborot mahsulotining funksional imkoniyatlarini belgilash kabi jarayonlar bilan tanishadilar. Natijada ularda tashabbuskorlik, mas’uliyat va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Axborot biznesi elementlarini o‘qitishda fanlararo integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Informatika fani iqtisod, matematika, texnologiya va huquq fanlari bilan uzviy bog‘langan holda o‘qitilishi mumkin. Masalan, iqtisod fanlari orqali bozor munosabatlari va narx shakllanishi, matematika orqali hisob-kitoblar va tahlil, huquq fanlari orqali esa mualliflik huquqi va axborot xavfsizligi masalalari yoritiladi.

Fanlararo integratsiya o‘quvchilarning bilimlarini tizimlashtirishga yordam beradi va ularning axborot biznesi jarayonlarini kompleks tarzda tushunishiga zamin yaratadi.Axborot biznesi elementlarini informatika umumta’lim kursiga kiritish jarayonida qator muammolar yuzaga kelishi mumkin. Jumladan,

ISSN 3030-3907

o‘qituvchilarning ushbu sohadagi bilim va malakasining yetarli emasligi, o‘quv-metodik ta’minotning cheklanganligi hamda texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy muammolar hisoblanadi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlari turlicha bo‘lgani sababli ta’lim jarayonini individuallashtirish zarurati yuzaga keladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilar malakasini oshirish, zamonaviy o‘quv resurslarini yaratish va ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim hisoblanadi.

Axborot biznesi elementlarini o‘rganish o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi va ularni jamiyatdagi muammolarga befarq bo‘lmagan shaxs sifatida tarbiyalaydi. O‘quvchilar axborot texnologiyalaridan foydalanib ijtimoiy loyihalar yaratish, axborot kampaniyalarini tashkil etish va jamoatchilik bilan muloqot qilish tajribasiga ega bo‘ladilar.

Kasbiy nuqtayi nazardan esa axborot biznesi elementlari o‘quvchilarga kelajakda IT sohasida, raqamli marketing, elektron savdo va startap faoliyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Ko‘pgina umumta’lim maktablarida informatika o‘qituvchilari asosan an’anaviy informatika yo‘nalishlari — algoritmlash, dasturlash asoslari va kompyuter savodxonligi bo‘yicha tayyorgarlikka ega. Axborot biznesi, raqamli tadbirkorlik, elektron savdo va raqamli marketing kabi yo‘nalishlar esa ularning professional faoliyatida yetarli darajada o‘rin egallamagan. Natijada axborot biznesi elementlarini dars jarayoniga samarali integratsiya qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi Ushbu muammoni bartaraf etish uchun o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish zarur. Maxsus treninglar, qisqa muddatli kurslar va onlayn seminarlar orqali o‘qituvchilarga axborot biznesining asoslari, raqamli tadbirkorlik va loyiha faoliyatini tashkil etish bo‘yicha bilimlar berilishi lozim. Shuningdek, metodik qo‘llanmalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega.

Axborot biznesi elementlariga oid darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va metodik materiallarning kamligi informatika kursiga ushbu elementlarni kiritishni murakkablashtiradi. Mavjud o‘quv adabiyotlarida axborot biznesiga oid mavzular fragmentar tarzda berilgan bo‘lib, tizimli yondashuv yetishmaydi.Mazkur muammoni hal etish uchun zamonaviy o‘quv-metodik majmualar ishlab chiqilishi lozim. Bunda nazariy materiallar bilan bir qatorda amaliy topshiriqlar, real misollar va loyiha ishlari kiritilishi kerak. Elektron resurslar, video darslar va interaktiv platformalardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Ba’zi umumta’lim maktablarida kompyuter texnikasi, internet tarmog‘iga ulanish va zamonaviy dasturiy vositalar yetarli darajada emas. Bu esa axborot

ISSN 3030-3907

biznesi elementlarini amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rgatishga to‘sqinlik qiladi.Yetishda davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish muhimdir. Maktablarni zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash, bepul yoki ochiq manbali dasturiy ta’minotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Shuningdek, bulutli texnologiyalar yordamida texnik resurslardan samarali foydalanish mumkin.

O‘quvchilar o‘rtasida axborot texnologiyalariga bo‘lgan qiziqish va bilim darajasi turlicha bo‘lib, bu dars jarayonida barcha o‘quvchilarni bir xil darajada faol ishtirok etishini qiyinlashtiradi Ta’lim jarayonini differensial va individuallashtirilgan tarzda tashkil etish ushbu muammoni yumshatadi. Turli darajadagi topshiriqlar, jamoaviy va individual loyiha ishlari o‘quvchilarning qobiliyatiga mos ravishda bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Axborot biznesi bilan bog‘liq faoliyatda axborot xavfsizligi, mualliflik huquqi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalari muhim ahamiyatga ega. Biroq bu masalalar ko‘pincha informatika darslarida yetarli darajada yoritilmaydi.Informatika kursi doirasida axborot xavfsizligi va huquqiy savodxonlikka oid alohida mavzular kiritilishi lozim. O‘quvchilarga raqamli muhitda mas’uliyatli xulq-atvor, mualliflik huquqiga rioya qilish va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qoidalari amaliy misollar orqali tushuntirilishi kerak.

An’anaviy baholash tizimi ko‘pincha nazariy bilimlarni tekshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, axborot biznesi elementlari orqali shakllanadigan amaliy ko‘nikmalarni to‘liq baholay olmaydi.Baholash tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish zarur. Loyiha ishlari, taqdimotlar, portfoliolar va jamoaviy faoliyat natijalari baholash mezonlariga kiritilishi lozim. Bu o‘quvchilarning ijodiy va amaliy faoliyatini rag‘batlantiradi. Xulosa qilib aytganda, informatika umumta’lim kursi mazmuniga axborot biznesi elementlarini kiritish zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot strategik resursga aylangan bo‘lib, undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini o‘quvchilarda erta bosqichdan shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu jarayonda informatika fani o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, innovatsion va tadbirkorlik fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Maqolada axborot biznesi tushunchasining mohiyati, uni informatika kursiga integratsiya qilish yo‘llari, amaliy mashg‘ulotlar va loyiha faoliyatining ahamiyati hamda ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari keng yoritildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, axborot biznesi elementlarini ta’lim jarayoniga joriy etish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan

ISSN 3030-3907

qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga, mas’uliyatli qaror qabul qilishga va zamonaviy mehnat bozoriga moslashishga tayyorlaydi.

Shuningdek, mazkur yondashuv ta’lim mazmunini yangilash, fanlararo integratsiyani kuchaytirish va ta’limning amaliy yo‘naltirilganligini ta’minlashga xizmat qiladi. Natijada informatika fani nafaqat texnik bilimlarni beruvchi fan, balki o‘quvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim ta’limiy vositaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. **“Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi qarorlari.
2. Karimov A., Xolmatov B. Informatika va axborot texnologiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Abduqodirov A.A. Axborot texnologiyalari va ta’lim jarayoni. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. To‘raqulov B., Jo‘rayev S. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
5. UNESCO. ICT in Education: A Critical Insight. – Paris, 2018.
6. Laudon K.C., Laudon J.P. Management Information Systems. – Pearson Education, 2020.
7. OECD. Education in the Digital Age. – OECD Publishing, 2019.

ISSN 3030-3907

O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI TIZIMIDA TEZYURAR POYEZDLARDAN FOYDALANISHNING TEXNIK-IQTISODIY TAHLILI

Sherdil Sodiqov

Osiyo xalqaro universiteti, umumiy texnika fanlari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston temir yo‘llarida yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar (YTHP) tizimining shakllanishi, texnik-texnologik asoslari, ekspluatatsion xususiyatlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi kompleks tarzda yoritilgan. «Afrosiyob» yuqori tezlikdagi poyezdlari misolida infratuzilma modernizatsiyasi, signalizatsiya va aloqa tizimlari, harakat xavfsizligi, energiya samaradorligi hamda xizmat ko‘rsatish sifati tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari respublika temir yo‘l transportida yuqori tezlikli harakatni kengaytirish istiqbollarini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: yuqori tezlikli poyezdlar, O‘zbekiston temir yo‘llari, Afrosiyob, temir yo‘l infratuzilmasi, signalizatsiya, energiya samaradorligi, transport logistikasi.

Аннотация: в данной статье комплексно освещены формирование, технико-технологические основы, эксплуатационные особенности и социально-экономическая эффективность системы высокоскоростных поездов (ВСП) на железных дорогах Узбекистана. На примере высокоскоростных поездов "Афросиаб" проанализированы модернизация инфраструктуры, системы сигнализации и связи, безопасность движения, энергоэффективность и качество обслуживания. Результаты исследования обосновывают перспективы расширения высокоскоростного движения на железнодорожном транспорте.

Ключевые слова: высокоскоростные поезда, железные дороги Узбекистана, Афросиаб, железнодорожная инфраструктура, сигнализация, энергоэффективность, транспортная логистика.

Abstract: This article comprehensively covers the formation, technical and technological foundations, operational features, and socio-economic efficiency of the high-speed train (HTS) system on the railways of Uzbekistan. On the example of high-speed Afrosiyob trains, the modernization of infrastructure, signaling and communication systems, traffic safety, energy efficiency, and service quality were analyzed. The research results substantiate the prospects for expanding high-speed traffic on the republic's railway transport.

Keywords: high-speed rail, Uzbekistan Railways, Afrosiyob, railway infrastructure, signaling, energy efficiency, transport logistics

KIRISH

ISSN 3030-3907

Transport tizimi har qanday davlat iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishining tayanch tarmoqlaridan biridir. So‘nggi o‘n yilliklarda dunyo miqyosida yuqori tezlikli temir yo‘l transporti barqaror, xavfsiz va ekologik toza tashish vositasi sifatida jadal rivojlandi. O‘zbekiston Respublikasida ham temir yo‘l tarmog‘ini modernizatsiya qilish, yuqori tezlikli yo‘nalishlarni joriy etish davlat transport siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada O‘zbekiston temir yo‘llarida yuqori tezlikli poyezdlar tizimining vujudga kelishi, amaldagi holati va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ilmiy-texnik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi

YUQORI TEZLIKLI TEMIR YO‘L TRANSPORTINING NAZARIY ASOSLARI

Yuqori tezlikli temir yo‘l transporti odatda 200 km/soatdan yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar majmuasini anglatadi. Bunday tizimlar maxsus qurilgan yoki chuqur modernizatsiya qilingan yo‘l infratuzilmasi, ilg‘or signalizatsiya va avtomatika vositalari, yuqori quvvatli tortish tizimlari bilan tavsiflanadi. Yuqori tezlikli harakatning asosiy afzalliklari — vaqt tejalishi, tashish quvvatining oshishi, yoqilg‘i-energiya resurslaridan samarali foydalanish va ekologik ta’sirning kamayishidir.





O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARIDA YTHP RIVOJLANISH TARIXI

ISSN 3030-3907

O‘zbekiston temir yo‘llari tizimida yuqori tezlikli harakatni joriy etish XX asr oxiri — XXI asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Dastlab temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish va yo‘l xo‘jaligini mustahkamlash ishlari amalga oshirildi. 2011-yilda Ispaniyaning Talgo kompaniyasi bilan hamkorlikda «Afrosiyob» yuqori tezlikdagi poyezdlari qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Bu loyiha Markaziy Osiyoda ilk bor yuqori tezlikli temir yo‘l harakatini joriy etish tajribasi bo‘ldi.

«AFROSIYOB» POYEZDLARINING TEXNIK TAVSIFI

«Afrosiyob» poyezdlari Talgo 250 platformasiga asoslangan bo‘lib, maksimal ekspluatatsion tezligi 250 km/soatni tashkil etadi. Poyezdlar yengil alyuminiy qotishmalaridan tayyorlangan kuzov, mustaqil g‘ildirak juftlari va past og‘irlik markaziga ega. Bu esa harakat barqarorligini oshirib, yo‘lga tushadigan yuklamani kamaytiradi. Tortish tizimi elektr energiyasi asosida ishlaydi va yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlariga ega.



TEMIR YO‘L INFRATUZILMASINING MODERNIZATSIYASI

Yuqori tezlikli harakatni ta’minlash uchun temir yo‘l izlari, relslar, ballast va sun’iy inshootlar tubdan yangilandi. Yo‘lning geometriyasi qat’iy nazorat qilinib, egri chiziqlar radiusi kengaytirildi, relslar uzluksiz payvandlangan holatga keltirildi. Ko‘priklar va tonnellar yuqori tezlik talablariga moslashtirildi.

ISSN 3030-3907



SIGNALIZATSIYA VA ALOQA TIZIMLARI

Yuqori tezlikli poyezdlar harakati zamonaviy signalizatsiya va aloqa tizimlarisiz mumkin emas. O‘zbekistonda avtomatik blokirovka, markazlashtirilgan dispetcherlik boshqaruvi hamda raqamli radioaloqa tizimlari joriy etilgan. Bu tizimlar poyezdlar harakatini real vaqt rejimida nazorat qilish va xavfsizlikni ta’minlash imkonini beradi.



HARAKAT XAVFSIZLIGI MASALALARI

Yuqori tezlikli harakatda xavfsizlik eng muhim omil hisoblanadi. Poyezdlar texnik holati doimiy monitoring qilinadi, yo‘l infratuzilmasi esa rejalashtirilgan diagnostika va profilaktik ta’mirdan o‘tkaziladi. Mashinistlar va texnik xodimlar maxsus tayyorgarlikdan o‘tkaziladi.

ISSN 3030-3907



ENERGIYA SAMARADORLIGI VA EKOLOGIK OMILLAR

Elektr tortish tizimidan foydalanish atmosferaga zararli chiqindilarni kamaytiradi. Regenerativ tormozlash texnologiyasi energiya tejamkorligini oshiradi. Yuqori tezlikli temir yo‘l transporti avtomobil va aviatsiya tashuvlariga nisbatan ekologik jihatdan ustun hisoblanadi.

YO‘LOVCHI XIZMATI VA SERVIS SIFATI

«Afrosiyob» poyezdlarida qulay o‘rindiqlar, iqlim nazorati, axborot tizimlari va ovqatlanish xizmati yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa yo‘lovchilar uchun safar jarayonini yanada qulay va xavfsiz qiladi.



ISSN 3030-3907

IQTISODIY SAMARADORLIK

Yuqori tezlikli poyezdlar mintaqalararo iqtisodiy aloqalarni kuchaytiradi, turizm rivojiga turtki beradi va mehnat resurslarining harakatchanligini oshiradi. Investitsiya xarajatlariga qaramay, uzoq muddatda bunday loyihalar yuqori iqtisodiy samara beradi.

LOGISTIKA VA HUDUDIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI

YTHP tizimi yirik shaharlar o‘rtasidagi masofani «yaqinlashtiradi», hududlararo integratsiyani kuchaytiradi. Natijada biznes faolligi va xizmatlar bozori kengayadi.

KADRLAR TAYYORLASH VA ILMIY-TA’LIMIY TA’MINOT

Yuqori tezlikli temir yo‘l tizimi malakali muhandislar, texniklar va operatorlarni talab etadi. O‘zbekistonda transport oliy ta’lim muassasalarida ushbu yo‘nalish bo‘yicha maxsus fanlar joriy etilmoqda.

XALQARO TAJRIBA VA HAMKORLIK

O‘zbekiston YTHP sohasida Yaponiya, Ispaniya, Fransiya va Xitoy tajribalarini o‘rganib, xalqaro hamkorlikni kengaytirmoqda. Texnologiyalar transferi va qo‘shma loyihalar muhim ahamiyatga ega.

RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Kelgusida yuqori tezlikli yo‘nalishlarni respublikaning boshqa hududlariga kengaytirish, tezlik ko‘rsatkichlarini oshirish va mahalliy ishlab chiqarish ulushini ko‘paytirish rejalashtirilgan.

RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA INNOVATSION YECHIMLAR

Kelgusida O‘zbekiston temir yo‘llarida yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar tarmog‘ini kengaytirish strategik ahamiyatga ega. Toshkent–Samarqand–Buxoro yo‘nalishidan tashqari Toshkent–Urganch–Xiva, Toshkent–Farg‘ona vodiysi yo‘nalishlarida ham yuqori tezlikli qatnovni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda. Ushbu jarayonda yo‘l xo‘jaligini mustahkamlash, yangi elektrlashtirilgan uchastkalar qurish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish muhim hisoblanadi..

XULOSA

O‘zbekiston temir yo‘llarida yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar tizimi transport sohasining innovatsion rivojlanishini ta’minlovchi muhim yo‘nalish hisoblanadi. «Afrosiyob» poyezdlari asosida amalga oshirilgan modernizatsiya ishlari temir yo‘l infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirdi, yo‘lovchi tashish sifatini oshirdi va hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirdi. Ilmiy-texnik tahlillar yuqori tezlikli temir yo‘l transportini yanada rivojlantirish respublika iqtisodiyoti va transport tizimi uchun yuqori samara berishini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston temir yo‘llari AJ rasmiy hisobotlari va statistik ma’lumotlari.
2. Yuqori tezlikli temir yo‘l transporti bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar.
3. Talgo kompaniyasining texnik hujjatlari.
4. Transport infratuzilmasini rivojlantirishga oid ilmiy maqolalar va monografiyalar.

ISSN 3030-3907

УДК: 664.1.335.

ОЦЕНКА ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТИТЕЛЬНОГО СЫРЬЯ ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ПИЩЕВОМ ПРОИЗВОДСТВЕ.

Ашурова.З.Т

Бухарский государственный технический университет

Рахмонов.К.С

Бухарский государственный технический университет

г. Бухара, Республика Узбекистан

E-mail: zashurova421@gmail.com

Аннотация. Анализ научно-технической литературы позволил выявить основные направления повышения пищевой ценности мучных изделий за счёт применения продуктов переработки маслосодержащее лекарственное растительное сырьё (МЛРС). Особый интерес представляют исследования, направленные на использование данных добавок для обогащения биологически активными веществами мучных изделий и повышения их функциональных свойств.

Ключевые слова- Маслосодержащее лекарственное растительное сырьё характеристика физико-химические показатели функциональные свойства.

Abstract. The analysis of scientific and technical literature made it possible to identify the main directions for improving the nutritional value of flour-based products through the use of processed oil-bearing medicinal plant raw materials (OMPRM). Of particular interest are studies aimed at using these additives to enrich flour products with biologically active substances and to enhance their functional properties.

Keywords – Oil-bearing medicinal plant raw materials, characteristics, physicochemical indicators, functional properties.

Annotatsiya. Ilmiy-texnik adabiyotlar tahlili un mahsulotlarining oziqaviy qiymatini moy saqlovchi dorivor o‘simlik xomashyolarini qayta ishlash mahsulotlaridan foydalanish orqali oshirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash imkonini berdi. Ayniqsa, ushbu qo‘shimchalardan un mahsulotlarini biologik faol moddalar bilan boyitish hamda ularning funksional xususiyatlarini yaxshilash maqsadida foydalanishga qaratilgan tadqiqotlar alohida qiziqish uyg‘otadi.

Kalit so‘zlar – Moy saqlovchi dorivor o‘simlik xomashyosi, tavsif, fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlar, funksional xususiyatlar.

ВВЕДЕНИЕ.

В мире особо актуальными являются исследования по разработке ресурсосберегающих технологий и обеспечению населения качественными продуктами питания повышенной пищевой ценности и безопасности. В

ISSN 3030-3907

мировой практике особое внимание уделяется наиболее востребованной продукции в рационе питания людей, в частности хлебу и хлебобулочным изделиям в особенности национальных лепёшек.[1-3]

Исследования направлены на обогащение базовых рецептур продукции эссенциальными и минорными веществами за счёт применения новых нетрадиционных видов сырья, особенно водных экстрактов маслосодержащего лекарственного растительного сырья (МЛРС).[4-5]

Цель работы- заключается в повышение качества и улучшение пищевой ценности национальных мучных изделий с использованием водных экстрактов порошков лекарственного растительного сырья.

Обьекты исследования- пшеничная мука, национальные (узбекские лепёшки) с добавками экстрактов маслосодержащего лекарственного растительного сырья.

Методы исследования- При выполнении экспериментальных исследований использованы органолептические, физико-химические и реологические методы исследования свойств сырья, полуфабрикатов и готовой продукции. [6-7].

Результаты и их обсуждение- Лекарственные растения — обширная группа растений, органы и части которых являются сырьем для получения средств, используемых в народной, медицины или ветеринарной практике с лечебными или профилактическими целями

Лекарственное растительное сырье — части или органы лекарственных растений, полученные по определенной технологии, используемые в высушенном, реже — свежем виде, для получения фармацевтических субстанций и фитопрепаратов, разрешенных уполномоченными на то органами для применения в установленном порядке в фармации и медицине нашей страны, и соответствующие всем требованиям действующей нормативной документации. Рис.1.

ISSN 3030-3907




Рисунок – 1. Общая характеристика лекарственных растений

Пищевая ценность МЛРС определяется (рис.2) комплексом свойств, обеспечивающих физиологические потребности организма человека в энергии и основных пищевых веществах, и является одним из значительных факторов, определяющих качество продуктов.




Рисунок – 2. Характеристики, МЛРС обусловливающие пищевую ценность продуктов

По принятому в настоящее время определению пищевая ценность включает в себя четыре составляющих: химический состав, энергетическую ценность, биологическую ценность, биологическую эффективность. [8-9]

Химический состав обусловлен химическим составом сырья, из которого вырабатывается пищевой продукт. Его обычно оценивают по содержанию (г или мг) в 100 г изделия белков, жиров, углеводов, витаминов, минеральных веществ и пищевых волокон. Пищевая ценность определяется комплексом свойств, обеспечивающих физиологические потребности организма человека в энергии и основных пищевых веществах, и является одним из значительных факторов, определяющих качество продуктов.

По принятому в настоящее время определению пищевая ценность включает в себя четыре составляющих: химический состав, энергетическую ценность, биологическую ценность, биологическую эффективность.[10-11]

ISSN 3030-3907

Химический состав обусловлен химическим составом сырья, из которого вырабатывается пищевой продукт. Его обычно оценивают по содержанию (г или мг) в 100 г изделия белков, жиров, углеводов, витаминов, минеральных веществ и пищевых волокон. [12]

Энергетическая ценность складывается из энергетической ценности белков, жиров и углеводов, входящих в состав продукта. [13]

В настоящее время рассчитаны коэффициенты энергетической ценности основных пищевых компонентов с учетом их средней усвояемости, зависящей от химического состава, способа кулинарной обработки и т.п.

Биологическая ценность отражает качество белков изделия, т.е. степень соответствия его аминокислотного состава потребностям организма в аминокислотах для синтеза белка.[14] Для характеристики биологической ценности используется, как правило, аминокислотный скор (% или доли единицы). Для здорового питания необходима сбалансированность аминокислотного состава по незаменимым аминокислотам, а также по соотношению заменимых и незаменимых аминокислот, в противном случае часть незаменимых аминокислот будет расходоваться не по назначению. При этом количество незаменимых кислот должно составлять не менее 36-40%. [15]

Наиболее важная роль отводится наличию в пищевом белке незаменимых кислот лизина (суточная потребность 3-5г), треонина (2-3г), триптофана (0,8-1,2 г), серосодержащих аминокислот: метионина (2-4г), цистина (2-3 г), которые необходимы организму как материал для построения белков тканей, особенно в период роста, беременности, кормления грудью.

Биологическая эффективность характеризует качество жиров пищевых продуктов, а именно содержание незаменимых (эссенциальных) полиненасыщенных жирных кислот (ПНЖК).[16] Эссенциальные ПНЖК являются составной частью простых нейтральных липидов. Из них три основные полиненасыщенные жирные кислоты арахидоновая, линолевая и линоленовая - незаменимые факторы питания. Они не синтезируются организмом человека и должны поступать с пищей. В зависимости от локализации первой двойной связи ПНЖК делят на группы: ω-3, ω-6, ω-9. К семейству ω-3 жирных кислот принадлежит α-линоленовая (С18:3), эйкозопентаеновая, докозагексаеновая, к семейству ω-6 - линолевая (С18:2), арахидоновая (20:4), к ω-9 относится олеиновая (С 18:1).

Выводы Анализ данных научно-технической литературы позволил выявить основные направления повышения пищевой ценности мучных изделий за счёт применения продуктов переработки МЛРС, а также

ISSN 3030-3907

фитодобавок из лекарственных растений как культивируемых, так и дикорастущих. Особый интерес представляют исследования, направленные на использование данных добавок для обогащения биологически активными веществами мучных изделий и повышения их функциональных свойств.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛИТЕРАТУРЫ.

1. Ауэрман Л.Я. Технология хлебопекарного производства: Учебник – 9-е издание, перераб. и доп./Под общ. ред. Л.И. Пучковой. – СПб.: Профессия.- 2006. -416 с.
2. Васиев М.Г., Нон, макарон ва қандолот махсулотлари ишлаб чиқариш технологияси / М.Г.Васиев, А.Васиева // Тошкент. 2002.С.
3. Дубцов Г.Г., Технология производства национального хлеба / Г.Г.Дубцов, А.В. Вапаев // Ташкент. 1986.-С.125.
4. Бегеулов М.Ш. Использование жмыхов семян масличных культур в хлебопечении/ М.Ш. Бегеулов, Е.О. Кармашова // Хлебопродукты. – 2015.- №4. – С.50-52.
5. Балуян Х.А. Влияние биологически активных экструзионных ингредиентов на хлебопекарные и реологические свойства пшеничной муки / Х.А. Балуян, В.Д. Малкина, Е.В. Жиркова, Л.И. Горшкова, О.А. Маркитанова // Хлебопродукты. – 2016. – №7. – С. 48-51.
6. Пучкова Л.И. Лабораторный практикум по технологии хлебопекарного производства.- 3-е изд. /Л.И. Пучкова. – М.: Лёгкая ипищевая промышленность. – 1982. – 232 с.
7. Пащенко Л.П., Технология хлебобулочных изделий / Л.П.Пащенко, И.М. Жаркова // М. Колос 2006.-С.389.
8. Ильина О.А. Развитие ассортимента хлеба для здорового питания – актуальная задача отрасли/ О.А. Ильина, В.С. Иунихина // Хлебопродукты. – 2016. – №5. – С. 18-20.
9. Йоргачева Е.Г. Потенциал лекарственных, пряно- ароматических растений в повышении качества пшеничного хлеба / Е.Г. Иоргачева, Т.Е. Лебеденко // Технология и оборудование пищевых производств. Восточно – Европейский журнал передовых технологий. – 2014. - № 12 (68) / том 2 . – С.101-107.
10. Калманович С.А. Применение БАД из вторичного растительного сырья в производстве хлебобулочных изделий функционального назначения/ С.А Калманович, Н.Г. Тельнов, Н.Н. Корнен и др. // Известия вузов. Пищевая технология. - 2008. - №5-6. - С. 113-120.
11. Куркин В.А. Флавоноиды как биологически активные соединениялекарственных растений / В.А. Куркин, А.В. Куркина, Е.В. Авдеева // Фундаментальные исследования.- 2013. - №11-9. – С.1897-1901.

ISSN 3030-3907

12. Никифорова Т.А. Перспективные пищевые добавки для производства высококачественной продукции / Т.А. Никифорова // Пищевая промышленность. 2007. - № 11. - С. 8-9.
13. Стабровская О.И. Анализ рынка многокомпонентных смесей для производства хлебобулочных изделий / О.И. Стабровская, А.С. Романов //Хлебопродукты. - 2011. - №1. - С. 46-47.
14. Рахмонов К.С. Функционально-технологические свойства фитодобавок и перспективы их использования в производстве хлеба/К.С.Рахмонов, Т.И.Атамуратова// Техника и технология пищевых производств: тез. докл. XI Междунар. научно-техн. конф. студентов и аспирантов. – Могилев: МГУП, 2017. –С.464.
15. Ceglinska A. Wplyw wybraych polepszaczy na wlasciwosci ciasta l jacosc otrzymanych wyrobow / A.Ceglinska//Warszawa-.Wydaw.SGGW, 2005.-C. 78.
16. Fatima I. Essential and toxic elements in three Pakistan's medicinal fruits (Punika granatum, *Ziziphus jujuba* and Piper cubeba) analysed by INAA – Int./I. Fatima, S. Waheed, J.H. Zaidi// J. Food Sci. Nutr. – 2012. - Vol.63(3). – Pp.310-317.

ISSN 3030-3907

KO‘P QAVATLI BINOLARNING KONSTRUKTIV YECHIMLARINI MAHALLIY SHAROITGA MOS HOLDA TANLASH VA TADBIQ ETISH

Xusanova Malohat Mengnorovna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti i.f.f.d PhD v.b. dotsent
Durdimurodova Go‘zal Baxtiyor qizi
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti
E-mail: gozaldurdimurodova694@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko‘p qavatli binolarni loyihalashda konstruktiv yechimlarni mahalliy tabiiy-iqlimiy, seysmik va geologik sharoitlarga mos holda tanlash masalalari yoritilgan. O‘zbekiston hududining seysmik faolligi, grunt sharoitlari hamda qurilish materiallari imkoniyatlari tahlil qilinib, zamonaviy konstruktiv tizimlarning qo‘llanish samaradorligi baholangan. Tadqiqot natijasida ko‘p qavatli binolarni loyihalash va qurishda konstruktiv yechimlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘p qavatli bino, konstruktiv yechim, seysmik hudud, mahalliy sharoit, monolit temirbeton, karkas tizimi.

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы выбора конструктивных решений при проектировании многоэтажных зданий с учётом местных природно-климатических, сейсмических и геологических условий. Проанализированы сейсмическая активность территории Узбекистана, грунтовые условия и возможности строительных материалов, а также оценена эффективность применения современных конструктивных систем. В результате исследования разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию конструктивных решений при проектировании и строительстве многоэтажных зданий.

Ключевые слова: многоэтажное здание, конструктивное решение, сейсмический район, местные условия, монолитный железобетон, каркасная система.

Abstract. This article addresses the issues of selecting structural solutions in the design of multi-storey buildings, taking into account local natural-climatic, seismic, and geological conditions. The seismic activity of the territory of Uzbekistan, soil conditions, and the capabilities of construction materials are analyzed, and the effectiveness of applying modern structural systems is evaluated. As a result of the study, scientific and practical recommendations have been developed to improve structural solutions in the design and construction of multi-storey buildings.

Keywords: multi-storey building, structural solution, seismic area, local

ISSN 3030-3907

conditions, monolithic reinforced concrete, frame system.

KIRISH

Bugungi kunda shaharsozlik jarayonlarining jadallashuvi va yer resurslaridan oqilona foydalanish zarurati ko‘p qavatli binolar qurilishini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bunday binolarning ishonchliligi va xavfsizligi, avvalo, to‘g‘ri tanlangan konstruktiv yechimlarga bog‘liqdir. Ayniqsa, seysmik faol hududlarda joylashgan mamlakatlarda binolarning konstruktiv tizimlarini mahalliy sharoitlarga mos holda tanlash muhim ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining aksariyat hududlari 7–9 balli seysmik zonalarda joylashgan bo‘lib, bu holat ko‘p qavatli binolarni loyihalashda maxsus yondashuvni talab etadi. Shu sababli konstruktiv yechimlarni tanlashda seysmik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va ekspluatatsion ishonchlilik asosiy mezon sifatida qaraladi.

Raqamli loyihalash va BIM texnologiyalarining joriy etilishi

So‘nggi yillarda ko‘p qavatli binolarni loyihalashda BIM (Building Information Modeling) texnologiyalaridan foydalanish kengaymoqda. BIM tizimi yordamida bino konstruktiv elementlari yagona raqamli modelda birlashtiriladi va mahalliy sharoitlarga moslashtirish jarayoni aniqroq amalga oshiriladi.

BIM texnologiyasi quyidagi afzalliklarni beradi:

- konstruktiv xatoliklarni oldindan aniqlash;
- seysmik va shamol yuklarini modellashtirish;
- qurilish tannarxini optimallashtirish;
- ekspluatatsiya davrini prognozlash.

Mahalliy sharoitga mos konstruktiv yechimlarni tanlashda BIM asosida tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Energiya samarador konstruktiv yechimlar

Hozirgi vaqtda ko‘p qavatli binolarda energiya tejamkor konstruksiyalar muhim talab sifatida qaralmoqda. Mahalliy iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda quyidagi yechimlar qo‘llanilmoqda:

- ko‘p qatlamli issiqlik izolyatsiyalangan tashqi devorlar;
- quyosh nurlanishini kamaytiruvchi fasad tizimlari;
- yengil, lekin mustahkam temir-beton elementlar.

Bu yechimlar issiq iqlimli hududlarda bino ichki mikroiqlimini yaxshilab, energiya sarfini kamaytiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va yer resurslaridan oqilona foydalanish zarurati ko‘p qavatli binolar qurilishini

ISSN 3030-3907

kengaytirishni taqozo etmoqda. Shu sababli, bunday binolarning konstruktiv yechimlarini tanlashda nafaqat zamonaviy texnologiyalar, balki mahalliy iqlim, geologik va seysmik sharoitlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda ko‘p qavatli binolarning asosiy konstruktiv tizimlari sifatida karkasli, karkassiz (devorli), karkas-devorli va yadroli tizimlar keng yoritilgan. Xususan, SNiP va KMK me’yoriy hujjatlarida har bir konstruktiv tizimning qo‘llanish sohasi, ularning yuk ko‘tarish qobiliyati hamda seysmik barqarorligi aniq ko‘rsatib berilgan [1]. Ushbu manbalarda O‘zbekiston hududining aksariyat qismi seysmik faol zona ekanligi sababli konstruktiv yechimlarni tanlashda seysmik talablar ustuvor bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi.

A.S. Isayev va hamkorlarining tadqiqotlarida ko‘p qavatli turar joy binolarida temir-beton karkas tizimlaridan foydalanishning afzalliklari tahlil qilingan [2]. Mualliflar temir-beton karkaslarning yuqori mustahkamlikka ega ekanligi, ekspluatatsiya muddati uzoq bo‘lishi va mahalliy qurilish materiallaridan keng foydalanish imkonini berishini ilmiy asoslab bergan. Shu bilan birga, bunday tizimlarning loyiha qiymati va qurilish texnologiyasiga qo‘yiladigan talablar ham muhim omil sifatida qayd etiladi.

Mahalliy iqlim sharoitlarini hisobga olish masalasi M.X. Qodirov tadqiqotlarida chuqur yoritilgan [3]. Uning ishlarida O‘zbekistonning keskin kontinental iqlimi, yozda yuqori harorat va qishda sovuq sharoitlar binolarning konstruktiv elementlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi qayd etiladi. Shu sababli, konstruktiv yechimlar bilan bir qatorda issiqlik himoyasi, deformatsion choklar va fasad materiallarini to‘g‘ri tanlash zarurligi asoslab berilgan.

Seysmik xavfsizlik masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda (R.N. Mavlonov, Sh.K. Tursunov) ko‘p qavatli binolarda yadroli va karkas-devorli tizimlar seysmik barqarorlikni oshirishda samarali ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan [4]. Ushbu tizimlar gorizontal yuklarni qabul qilishda yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, zilzila vaqtida binoning umumiy barqarorligini ta’minlaydi. Mualliflar, ayniqsa, lift va zinapoya bloklari joylashgan temir-beton yadrolardan foydalanish mahalliy sharoitda maqbul yechim ekanligini ta’kidlaydilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yengil va yuqori mustahkam materiallardan foydalanish

Zamonaviy qurilishda yengil betonlar, yuqori mustahkam betonlar va kompozit materiallar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu materiallarning afzalligi shundaki, ular bino umumiy og‘irligini kamaytiradi, bu esa seysmik hududlarda katta ahamiyatga ega.

Mahalliy sharoitda ishlab chiqarilayotgan yengil beton bloklar:

- poydevorga tushadigan yukni kamaytiradi;

ISSN 3030-3907

- qurilish tezligini oshiradi;
- iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi.

Seysmik izolyatsiya va energiya so‘ruvchi konstruksiyalar

Yangi ilmiy yondashuvlardan biri — seysmik izolyatsiya tizimlarini qo‘llashdir. Bunda bino poydevori bilan ustki qismi orasiga maxsus elastik elementlar joylashtiriladi. Natijada zilzila energiyasining bir qismi so‘riladi.

Bunday tizimlar:

- bino deformatsiyasini kamaytiradi;
- konstruktiv elementlarning shikastlanish ehtimolini pasaytiradi;
- binoning xizmat muddatini uzaytiradi.

Bu yechimlar hozircha qimmat bo‘lsa-da, istiqbolda mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi mumkin.

Mahalliy sharoitga moslashtirilgan modul konstruksiyalar

So‘nggi paytlarda modulli qurilish tizimlari ham rivojlanmoqda. Oldindan tayyorlangan temir-beton yoki po‘lat modullar qurilish maydonida tez yig‘iladi. Mahalliy seysmik va iqlimiy sharoitlarga mos ishlab chiqilgan modullar:

- qurilish muddatini qisqartiradi;
- sifat nazoratini yaxshilaydi;
- inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytiradi.

Mahalliy sharoitlarning konstruktiv yechimlarga ta’siri

Seysmik omillar

Seysmik hududlarda ko‘p qavatli binolarga ta’sir etuvchi gorizontal yuklar binoning umumiy mustahkamligi va barqarorligini belgilaydi. Shu sababli konstruktiv elementlarning fazoviy ishlashini ta’minlaydigan karkasli va monolit tizimlar afzal hisoblanadi. Deformatsiyalarning bir tekis taqsimlanishi va energiyani so‘rish qobiliyati yuqori bo‘lgan konstruksiyalar seysmik xavfsizlikni oshiradi.

Iqlim sharoiti

Keskin kontinental iqlim sharoitida haroratning katta farqlari beton va metall konstruksiyalarda qo‘shimcha ichki kuchlanishlarni keltirib chiqaradi. Bu holat material tanlashda sovuqqa, issiqqa va korroziyaga chidamli materiallardan foydalanishni talab etadi. Issiqlik izolyatsiyasi yaxshi bo‘lgan konstruktiv yechimlar energiya tejamkorlikni ham ta’minlaydi.

Geologik sharoitlar

Mahalliy grunt sharoitlari, xususan, cho‘kuvchan va nam gruntlarning mavjudligi poydevor konstruksiyasini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Bunday sharoitlarda qoziqli, lenta yoki monolit plita poydevorlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

ISSN 3030-3907

Ko‘p qavatli binolarda qo‘llaniladigan asosiy konstruktiv tizimlar

Karkasli konstruktiv tizimlar

Karkasli tizimlarda yuk ko‘taruvchi elementlar ustun va rigellardan iborat bo‘lib, ular seysmik yuklarni samarali qabul qiladi. Ushbu tizim:

- baland qavatli binolar uchun qulay;
- rejalashtirishda moslashuvchanlikni ta’minlaydi;
- seysmik hududlarda keng qo‘llaniladi.

Devorli konstruktiv tizimlar

Yuk ko‘taruvchi devorlarga asoslangan tizimlar asosan past va o‘rta qavatli binolarda qo‘llaniladi. Ularning afzalligi qurilish texnologiyasining soddaligi bo‘lsada, seysmik hududlarda baland binolar uchun cheklangan imkoniyatlarga ega.

Monolit temirbeton tizimlar

Monolit temirbeton konstruksiyalar zamonaviy qurilishda eng samarali yechimlardan biri hisoblanadi. Ular yuqori seysmik barqarorlik, uzoq xizmat muddati va konstruktiv elementlarning yaxlit ishlashi bilan ajralib turadi. Mahalliy sharoitda ushbu tizimlardan foydalanish iqtisodiy va texnik jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Konstruktiv yechimlarni tadbiq etish tajribasi

Amaliy qurilish jarayonida ko‘p qavatli binolarni loyihalash va barpo etishda zamonaviy hisoblash usullari va axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. BIM texnologiyalarini qo‘llash konstruktiv xatoliklarni kamaytirish, qurilish muddatlarini qisqartirish va loyiha sifatini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, qurilish jarayonida me’yoriy hujjatlarga rioya qilmaslik va nazoratning sustligi binolarning ekspluatatsion ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tavsiyalar

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi:

1. Seysmik hududlarda ko‘p qavatli binolar uchun monolit temirbeton va karkasli konstruktiv tizimlarni ustuvor qo‘llash.
2. Poydevor konstruksiyasini tanlashda muhandislik-geologik izlanishlarni chuqur tahlil qilish.
3. Mahalliy iqlim sharoitlariga mos, energiya tejamkor materiallardan foydalanish.
4. Loyiha va qurilish jarayonida zamonaviy hisoblash dasturlari va raqamli modellashtirish texnologiyalarini joriy etish.

Xulosa

ISSN 3030-3907

Ko‘p qavatli binolarning konstruktiv yechimlarini mahalliy sharoitlarga mos holda tanlash ularning seysmik xavfsizligi, iqtisodiy samaradorligi va uzoq muddatli ekspluatatsiyasini ta’minlaydi. O‘zbekiston sharoitida monolit temirbeton va karkasli konstruktiv tizimlar eng maqbul yechim hisoblanadi. Ilmiy asoslangan yondashuv va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali qurilish sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Yangi texnologiyalar va zamonaviy materiallarning joriy etilishi ko‘p qavatli binolarning konstruktiv yechimlarini mahalliy sharoitga yanada moslashtirish imkonini bermoqda. Raqamli loyihalash, energiya samarador konstruksiyalar va seysmik izolyatsiya tizimlari kelajakda mahalliy qurilish amaliyotining ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda.

Ko‘p qavatli binolarni loyihalash va qurishda konstruktiv yechimlarni mahalliy sharoitga mos holda tanlash binolarning mustahkamligi, xavfsizligi va iqtisodiy samaradorligini ta’minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, seysmik hududlarda monolit temirbeton karkasli tizimlardan foydalanish eng maqbul yechimlardan biridir. Mahalliy grunt va iqlim sharoitlarini chuqur tahlil qilish, zamonaviy konstruktiv tizimlarni tadbiq etish orqali ko‘p qavatli binolar sifatini yanada oshirish mumkin.

REFERENCES

1. Mirzayev M.M., Xudoyberdiyev A.S. Ko‘p qavatli binolar konstruktiv tizimlarini loyihalash asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.– 284 b.
2. Abdurahmonov O.R. Seysmik hududlarda zamonaviy binolar konstruksiyasi. – Toshkent: Qurilish nashriyoti, 2022. – 310 b.
3. O‘zDSt 3057:2020. Binolar va inshootlar. Seysmik hududlarda loyihalash talablari. – Toshkent, 2020.
4. KMK 2.01.03–20. Seysmik hududlarda qurilish. Yangilangan me’yorlar. – Toshkent, 2020.
5. Smith B.S., Coull A. Tall Building Structures: Analysis and Design. – New York: Wiley, 2019. – 808 p.
6. Paul S.C., van Zijl G.P.A.G. Performance of reinforced concrete buildings under seismic loading // Engineering Structures. – 2021. – Vol. 245. – P. 112–124.
7. Li Q., Zhang Y. Structural systems for high-rise buildings in seismic regions // Journal of Structural Engineering. – 2022. – Vol. 148(6). – P. 04022078.
8. Fardis M.N. Seismic Design, Assessment and Retrofitting of Concrete Buildings. – 2nd ed. – Springer, 2018. – 1030 p.

ISSN 3030-3907

MASOFAVIY TA’LIMDA AKT TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Aslonov Qodir Ziyodullayevich
Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada masofaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy AKT vositalarining ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni, o‘qituvchi va talaba faoliyatiga ta’siri, shuningdek, raqamli muhitda samarali o‘qitish strategiyalari yoritib beriladi. Tadqiqotda masofaviy ta’limning afzalliklari, muammolari hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, AKT, raqamli pedagogika, onlayn ta’lim, ta’lim texnologiyalari, innovatsiya.

Аннотация. В статье анализируются педагогические возможности информационно-коммуникационных технологий в дистанционном обучениия. В статье анализируются педагогические возможности информационно-коммуникационных технологий в дистанционном . Будет освещена роль современных инструментов ИКТ в повышннотация. В статье анализируются педагогические возможности информационно-коммуникационных технологий в дистанцного образования.

Ключевые слова: дистанционное образование, ИКТ, цифровая педагогика, онлайн-образование, образовательные технологии, инновации.

Annotation. This article analyzes the pedagogical capabilities of information and communication technologies in the process of distance education.nnotation. This article analyzes the pedagogical capabilities of information and communication technologies in the process of distance education. The role of modern ICT tools in improving the qualitnnotation. This article analyzes the pedagogical capabilities of information and communication technologies in the s.

Keywords: distance education, ICT, digital pedagogy, online education, educational technologies, innovation.

KIRISH

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida yuz berayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari masofaviy ta’limning jadal rivojlanishiga olib keldi. Ayniqsa, global pandemiya sharoitida ta’lim jarayonini uzluksiz davom ettirish zarurati axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyatini yanada oshirdi. Masofaviy ta’lim endilikda muqobil emas, balki ko‘plab davlatlarda ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Masofaviy ta’lim samaradorligi bevosita AKT vositalaridan qay darajada to‘g‘ri va pedagogik jihatdan asosli foydalanilishiga bog‘liq. Raqamli platformalar,

ISSN 3030-3907

virtual sinflar, videokonferensiyalar, elektron resurslar ta’lim jarayonining mazmuni va shaklini tubdan o‘zgartirmoqda. Shu bois, masofaviy ta’limda AKT texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy masalaga aylanmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi — masofaviy ta’lim sharoitida AKT texnologiyalarining ta’lim sifati va samaradorligiga ta’sirini tahlil qilish hamda ularning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda ochib berishdan iborat.

Masofaviy ta’lim va AKT: nazariy asoslar

Masofaviy ta’lim — bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi fazoviy masofa mavjud bo‘lgan sharoitda, zamonaviy texnologiyalar orqali tashkil etiladigan ta’lim shaklidir. Ushbu jarayonda AKT asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

AKT quyidagi pedagogik vazifalarni bajaradi:

- axborotni tezkor yetkazish;
- o‘quv materiallarini multimediya asosida taqdim etish;
- o‘zlashtirishni nazorat qilish;
- interaktiv muloqotni ta’minlash.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, AKT nafaqat texnik vosita, balki ta’lim jarayonini tashkil etuvchi metodik muhit hisoblanadi. Shu sababli masofaviy ta’lim samaradorligi AKTning pedagogik dizaynga qay darajada integratsiyalashganiga bog‘liq.

Ta’lim jarayonini individuallashtirish. AKT vositalari o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olishga keng sharoit yaratadi. Onlayn platformalarda:

- o‘quvchi o‘ziga qulay vaqtda dars materialini o‘rganishi,
- murakkab mavzularni qayta ko‘rib chiqishi,
- mustaqil ishlash sur’atini belgilashi mumkin.

Bu esa shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyilining amaliyotda samarali joriy etilishiga xizmat qiladi.

Interaktivlik va motivatsiyani oshirish. Masofaviy ta’limda AKT vositalari interaktiv o‘qitish metodlarini keng qo‘llash imkonini beradi. Videodarslar, onlayn testlar, virtual muhokamalar, gamifikatsiya elementlari o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi.

Motivatsiyaning ortishi esa o‘z navbatida bilimlarni mustahkamlash va o‘zlashtirish darajasining yuqorilashiga olib keladi.

Ta’lim resurslariga keng kirish imkoniyati. AKT yordamida talabalar:

- elektron kutubxonalar,
- ilmiy maqolalar bazalari,
- ochiq onlayn kurslardan foydalanish imkoniga ega bo‘ladilar.

ISSN 3030-3907

Bu esa ta’limning globallashuviga, bilim manbalarining demokratlashuviga xizmat qiladi.

O‘qituvchi faoliyatida AKTning o‘rni

Masofaviy ta’lim sharoitida o‘qituvchining roli an’anaviy bilim beruvchidan ta’lim jarayonini boshqaruvchi va yo‘naltiruvchiga aylanadi. AKT o‘qituvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- darslarni samarali rejalashtirish;
- o‘quvchilarning faolligini monitoring qilish;
- tezkor teskari aloqa o‘rnatish;
- baholashning shaffof tizimini yaratish.

Shuningdek, o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi masofaviy ta’lim sifati uchun hal qiluvchi omilga aylanmoqda. AKTni bilmaslik pedagogik imkoniyatlarning to‘liq amalga oshirilishiga to‘sqinlik qiladi.

Masofaviy ta’limda AKT talabalarni:

- mustaqil o‘rganishga,
- axborotni tahlil qilishga,
- tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi.

Talaba endilikda passiv tinglovchi emas, balki faol bilim yaratuvchi subyekt sifatida shakllanadi. Forumlar, onlayn muhokamalar va loyiha ishlari talabalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytiradi, kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi.

Masofaviy ta’limda AKTdan foydalanishdagi muammolar

AKTning pedagogik imkoniyatlari keng bo‘lishiga qaramay, bir qator muammolar mavjud:

- texnik infratuzilmaning yetarli emasligi;
- internet tezligi va barqarorligi;
- o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi pastligi;
- talabalar o‘rtasida o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalarining yetishmasligi.

Mazkur muammolarni hal etish uchun:

- AKT bo‘yicha malaka oshirish kurslarini kengaytirish,
- raqamli platformalarni milliy sharoitga moslashtirish,
- metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish zarur.

Masofaviy ta’limda AKT imkoniyatlarini to‘liq ishga solish uchun quyidagi strategiyalar muhim:

1. Pedagogik dizaynni takomillashtirish — darslarni faqat texnik emas, metodik jihatdan ham puxta rejalashtirish.
2. Interaktiv metodlarni keng joriy etish — muhokama, loyiha, keys-stadi.
3. Raqamli madaniyatni shakllantirish — akademik halollik, axborot etikasi.

ISSN 3030-3907

4. Doimiy monitoring va tahlil — o‘quv jarayonini tahlil qilish asosida takomillashtirish.

LMS tizimlari va ularning pedagogik imkoniyatlari

Masofaviy ta’limning samaradorligi bevosita tanlangan LMS (Learning Management System – Ta’limni boshqarish tizimi) tizimiga bog‘liq. LMSlar o‘quv jarayonini rejalashtirish, boshqarish va monitoring qilish imkonini beradi. Zamonaviy LMS tizimlari talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, interaktivlikni oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Quyida jahon bo‘yicha keng qo‘llaniladigan LMS tizimlarining pedagogik va texnik imkoniyatlarini solishtiruvchi kengaytirilgan taqqoslovchi jadval keltiriladi (1-jadval).

1-jadval.

LMS tizimlari

LMS tizimi	Platforma turi	Interaktivlik	Moslashuvchanlik	Narxi	Pedagogik imkoniyatlari	Maxsus xususiyatlari
Moodle	Ochiq kodli	Yuqori	Yuqori	Bepul	Testlar, forumlar, gamifikatsiya, kurs modullari	Keng modullar, har qanday muassasaga moslashtirish
Google Classroom	Bulutli	O‘rta	O‘rta	Bepul	Oddiy darslar, topshiriqlar, o‘quvchilar monitoringi	Google xizmatlari bilan integratsiya, sodda interfeys
Canvas	Bulutli / Server	Yuqori	Yuqori	Pullik	Multimedia, testlar, interaktiv vazifalar	Analitika, mobil ilova, video konferensiya
Blackboard	Bulutli / Server	Yuqori	O‘rta	Pullik	Kurs dizayni, baholash, forumlar	Video konferensiya, kengaytirilgan baholash tizimi

ISSN 3030-3907

Edmodo	Bulutli	O‘rta	O‘rta	Bepul / Pullik	Forumlar, chat, topshiriqlar	O‘quvchi-ota-ona monitoringi, ijtimoiy platformaga yaqin interfeys

Moodle. Moodle — ochiq kodli va pedagogik imkoniyatlari eng boy tizimlardan biridir. U ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirish, interaktiv darslar tashkil etish, test va baholash tizimini qo‘llash imkonini beradi. Moodle’ning afzalligi shundaki, uni har qanday ta’lim muassasasi yoki korporativ tizimga moslashtirish mumkin.

Google Classroom. Google Classroom kichik va o‘rta ta’lim muassasalari uchun qulay. Interfeysi sodda va intuitiv, talaba va o‘qituvchi uchun tez o‘rganish mumkin. Biroq, funksionalligi Moodle yoki Canvas kabi tizimlar bilan solishtirganda cheklangan. Shu bilan birga, Google xizmatlari bilan integratsiyasi ta’lim jarayonini tez va samarali tashkil etishga yordam beradi.

Canvas va Blackboard. Canvas va Blackboard — professional, korporativ va universitet darajasidagi tizimlar. Ular:

- darslarni multimediya vositalari bilan boyitish,
- test va baholashni avtomatlashtirish,
- talaba faolligini tahlil qilish (analitika) imkoniyatini beradi.

Canvas ayniqsa mobil ilovasi va videokonferensiya integratsiyasi bilan ajralib turadi, Blackboard esa kengaytirilgan kurs dizayni va baholash tizimi bilan mashhur.

Edmodo. Edmodo o‘rta maktab va kichik ta’lim muassasalari uchun yaratilgan. U talaba va o‘qituvchi o‘rtasida ijtimoiy tarmoqqa yaqin interfeys orqali muloqot imkoniyatini beradi. Shuningdek, ota-onalar monitoringi va forumlar orqali o‘quv jarayonini kuzatish mumkin.

XULOSA

Masofaviy ta’limda AKT texnologiyalari ta’lim jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda. Ular o‘qitishning an’anaviy shakllarini boyitib, ta’limni yanada moslashuvchan, ochiq va samarali qiladi.

AKTning pedagogik imkoniyatlari — individuallashtirish, interaktivlik, resurslarga keng kirish, teskari aloqaning tezkorligi — masofaviy ta’limni zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashtiradi. Shu bilan birga, texnik va metodik muammolarni bartaraf etish masalasi doimo e’tiborda bo‘lishi zarur.

ISSN 3030-3907

Xulosa qilib aytganda, AKT texnologiyalaridan maqsadli va ilmiy asoslangan foydalanish masofaviy ta’limning barqaror rivojlanishida muhim omil bo‘lib qoladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki:

- Katta universitetlar va korporativ ta’lim uchun Moodle, Canvas va Blackboard tavsiya etiladi, chunki ularning pedagogik imkoniyatlari va analitik vositalari keng.
- Kichik maktablar va boshlang‘ich kurslar uchun Google Classroom va Edmodo yetarli, chunki ular sodda va tez joriy qilinadi.
- LMS tanlash jarayonida pedagogik vazifa, infratuzilma va byudjet kabi omillarni hisobga olish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Moore M., Kearsley G. Distance Education: A Systems View of Online Learning. Wadsworth, 2012.
2. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press, 2011.
3. Bates A.W. Teaching in a Digital Age. Open Textbook Library, 2019.
4. UNESCO. ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications., 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish strategiyasi, 2022–2026.

ISSN 3030-3907

ИССЛЕДОВАНИЕ ЭФФЕКТА ОБРАБОТКИ ЭЛЕКТРОИМПУЛЬСАМИ ДЛЯ ДЕЗИНФЕКЦИИ РАСТЕНИЙ

Бозоров Элмурод Останович

Доцент кафедры «Автоматизации и управления технологическими процессами» НИУ "ТИИИМСХ", г. Ташкент, Республика Узбекистан.

E-mail: bozorovelmurod@gmail.com

Абдуллаев Миршод Шухратович

Докторант кафедры «Автоматизация технологических процессов и производств» Бухарского государственного технического университета, г. Бухара, Республика Узбекистан

E-mail:mirshodabdullayev@gmail.com

Аннотация. В данной работе описан способ применения импульсного разряда для борьбы с нематодными заболеваниями на корневищах томатов и огурцов, а также на сельскохозяйственных культурах, выращиваемых на дачных участках. При воздействии импульсного разряда на живую ткань происходят определенные химические, физические и биологические процессы, зависящие от энергии импульса, тока импульсного разряда, напряжения импульсного разряда, времени экспозиции импульсного разряда, тока удара импульсного разряда и других подобных факторов. Электрические импульсы прикладывались к прививкам овощей, томатов и огурцов, пораженных нематодами, для определения прививочной способности. Урожайность сельскохозяйственных культур оценивалась по общему объему выращенной на пахотных землях продукции, а уровень прибавки урожая определялся за счет оседания почвы и правильного размещения сортов и видов растений. Правильный подбор современных высокоурожайных сортов, импортируемых из Узбекистана, обеспечивает устойчивость к внешним неблагоприятным воздействиям природы и болезням. Создание высокоурожайных сортов требует выявления и выращивания устойчивых гибридных сортов, разработки и внедрения новых прогрессивных технологических приемов возделывания растений. Целью данной работы было выявление основных факторов, влияющих на электроимпульсную обработку корнеплодов томатов и огурцов, зараженных нематодами и их личинками. Различные заболевания встречаются на хлопчатнике, зерновых, бахчевых, овощных культурах, а также в закрытых помещениях (теплицах) вновь созданных хозяйств республики. Особенно высока урожайность на овощеводческих, бахчевых и тепличных полях. В последние годы воздействие нематод на растения наносит большой ущерб урожайности сельскохозяйственных культур. Обработка посевов данным

ISSN 3030-3907

препаратом предотвращает поражение нематодами жилок листьев. Экономический ущерб, наносимый нематодами сельскому хозяйству, огромен. Например, на овощах защищенного грунта (огурцы и томаты) этот показатель достигает 60%, а на картофеле — 80%. Поэтому предлагаемый метод реализуется в сочетании с агротехническим процессом обработки, который является энергосберегающим, экологически безопасным и производительным.

Ключевые слова: растение, болезнь, энергия, ресурсоэффективность, электрофизический, экологически чистый, нематода, электроимпульс.

Abstract. This paper describes a method of using pulsed discharge to control nematode diseases on tomato and cucumber rhizomes and crops grown in dacha plots. When pulsed discharges are applied to living tissue, certain chemical, physical, and biological processes occur, depending on the pulse energy, pulse discharge current, pulse discharge voltage, pulse discharge exposure time, pulse discharge impact current, and other similar factors. Electric pulses were applied to grafts of nematode-infested vegetables, tomatoes and cucumbers, to measure grafting ability. Crop yields were estimated by the total amount of produce grown on arable land, and the level of yield enhancement was determined by land sedimentation and proper placement of varieties and plant species. Proper selection of modern high-yielding varieties imported from Uzbekistan provides resistance to external adverse effects of nature and diseases. The creation of high-yielding varieties requires the discovery and cultivation of resistant hybrid varieties and the development and introduction of new progressive technological methods of plant cultivation. The objective of this study was to identify the main factors affecting the electric pulse discharge treatment of tomato and cucumber root crops infected with nematodes and their larvae. Various diseases occur in cotton, cereals, melons, vegetable crops, and indoors(greenhouses) on newly established farms in the Republic. Yields are particularly high in vegetable, melon, and greenhouse fields. In recent years, the impact of nematodes on plants has caused severe damage to crop yields. Treating crops with this formulation prevents nematode infestation of leaf veins. The economic damage caused by nematodes to agriculture is enormous. For example, in greenhouse vegetables (cucumbers and tomatoes) this indicator reaches 60% and in potatoes 80%. Therefore, the proposed method is realized in combination with an agrotechnical treatment process that is energy-saving, environmentally safe, and productive.

Keywords: plant, disease, energy, resource efficient, electrophysical, ecologically clean, nematode, electroimpulse.

ISSN 3030-3907

Annotatsiya. Ushbu maqolada pomidor va bodring rizomlarida, shuningdek, shahar atrofi hududlarida etishtirilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarida nematod kasalliklarini nazorat qilish uchun impulsli oqimdan foydalanish usuli tasvirlangan.idor va bodring rizomlarida, shuningdek, shahar atrofi hududlarida etishtirilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarida nematod kasalliklarini nazorat qilish uchun impulsli oqimdan foydalanish usuli tasvirlangan. Impulsli zaryadsizlanish tirik to‘qimalarga ta'sir qilganda, impuls energiyasiga, impulsli zaryadsizlanish oqimiga, impulsli zaryadsizlanish kuchlanishiga, impulsli zaryadsizlanish ta'sir qilish vaqtiga, impulsli zaryadsizlanish ta'sir qilish oqimiga va boshqa shunga o‘xshash omillarga bog‘liq bo‘lgan ma'lum kimyoviy, fizik va biologik jarayonlar sodir bo‘ladi. Payvandlash qobiliyatini aniqlash uchun nematodalardan ta'sirlangan sabzavot, pomidor va bodring payvandlariga elektr impulslari qo‘llanildi.obiliyatini aniqlash uchun nematodalardan ta'sirlangan sabzavot, pomidor va bodring payvandlariga elektr impulslari qo‘llanildi. Ekinlarning hosildorligi ekin maydonlarida etishtirilgan mahsulotlarning umumiy hajmiayvandlash qobiliyatini aniqlash uchun nematodalardan ta'sirlangan sabzavot, pomidor va bodring payvandlariga elektr impulslari qo‘llanildi. Ekinlarning hosildorligi ekin maydonlarida etishtirilgan mahsulotlarning umumiy hajmi bo‘yicha baholandi va hosilning o‘sish darajasi tuproqning cho‘kishi va o‘simlik navlari va turlarining to‘g‘ri joylashishi bilan aniqlandi. O‘zbekistondan import qilinadigan zamonaviy yuqori mahsuldor navlarning to‘g‘ri tanlanishi tabiatning tashqi salbiy ta'siriga va kasalliklarga chidamliligini ta'minlaydi. Yuqori mahsuldor navlarni yaratish barqaror gibrid navlarni aniqlash va etishtirishni, o‘simliklarni etishtirishning yangi ilg‘or texnologik usullarini ishlab chiqish va joriy etishni talab qiladi. Ushbu ishning maqsadi nematodalar va ularning lichinkalari bilan zararlangan pomidor va bodring ildiz ekinlarini elektr impulsli davolashga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash edi.uqori mahsuldor navlarni yaratish barqaror gibrid navlarni aniqlash va etishtirishni, o‘simliklarni etishtirishning yangi ilg‘or texnologik usullarini ishlab chiqish va joriy etishni talab qiladi. Ushbu ishning maqsadi nematodalar va ularning lichinkalari bilan zararlangan pomidor va bodring ildiz ekinlarini elektr impulsli davolashga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash edi. Turli kasalliklar paxta, don, poliz, sabzavot ekinlarida, shuningdek respublikaning yangi tashkil etilgan fermer xo‘jaliklarining yopiq xonalarida (issiqxonalarida) uchraydi. Sabzavot, poliz va issiqxona dalalarida hosil ayniqsa yuqori. So‘nggi yillarda nematodalarning o‘simliklarga ta'siri ekinlar hosildorligiga katta zarar etkazmoqda. Ushbu preparat bilan ekinlarni davolash nematodlarning barg tomirlariga zarar etkazishini oldini oladi. Nematodlar tomonidan qishloq xo‘jaligiga etkazilgan iqtisodiy zarar juda

ISSN 3030-3907

katta.o‘nggi yillarda nematodalarning o‘simliklarga ta'siri ekinlar hosildorligiga katta zarar etkazmoqda. Ushbu preparat bilan ekinlarni davolash nematodlarning barg tomirlariga zarar etkazishini oldini oladi. Nematodlar tomonidan qishloq xo‘jaligiga etkazilgan iqtisodiy zarar juda katta. Masalan, himoyalangan tuproqdagi sabzavotlarda (bodring va pomidor) bu ko‘rsatkich 60% ga, kartoshkada esa 80% ga etadi. Shuning uchun taklif etilayotgan usul energiya tejaydigan, ekologik toza va samarali bo‘lgan agrotexnik ishlov berish jarayoni bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: o‘simlik, kasallik, energiya, resurs samaradorligi, elektrofizik, ekologik toza, nematod, elektr impulsi.

1. ВВЕДЕНИЕ.

Усилия по удовлетворению растущих потребностей растущего населения и мировой экономики в продовольствии и энергии привели к увеличению урожайности сельскохозяйственных культур за счет использования химических добавок. Использование сельскохозяйственных пестицидов способствовало повышению производительности сельского хозяйства для фермеров. Тем не менее, это достижение часто сопровождалось ухудшением и опустошением природной экосистемы. Многочисленные регионы столкнулись с загрязнением поверхностных и подземных вод и почвенных ресурсов в результате применения сельскохозяйственных пестицидов, что привело к пагубному воздействию на здоровье человека [1, 2, 3]. Пестициды и их остатки в пищевых и кормовых источниках диких животных, домашних животных и людей были связаны с серьезными проблемами со здоровьем у людей, такими как рак, хроническое заболевание почек, подавление иммунной системы, бесплодие, эндокринные расстройства, а также неврологические и поведенческие расстройства [4, 5, 6]. Урожайность сельскохозяйственных культур измеряется количеством продукта, произведенного с посевной площади. Рост урожайности зависит от скелета земли, правильного подбора и размещения имеющихся сортов и видов растений, устойчивых к природным воздействиям и болезням, создания и выращивания новых гибридных культур клеток растений, разработки и внедрения новых прогрессивных технологических приемов. Для достижения этого роста существует множество объективных и субъективных мер, одной из которых является борьба с сорняками и болезнями, распространяемыми сорняками. По оценкам специалистов, сорняки и возбудители паразитарных болезней, передающихся через сорняки, в настоящее время наносят серьезный ущерб культурным растениям [7, 8]. Поэтому одной из актуальных проблем в растениеводстве сегодня

ISSN 3030-3907

Gipotalamo-gipofiz-tuxumdon (HPO) tizimidagi tranzitor disregulyatsiya abortdan keyingi endokrinologik reabilitatsiyaning o‘ziga xos xususiyatidir. Postabortiv davrda gonadotrop gormonlar (FSH va LH) sekretsiyasining dinamik transformatsiyasi kuzatilib, ko‘pincha gipofizar FSH darajasining ortishi va estradiol miqdorining kompensator pasayishi qayd etiladi. LH darajasidagi qisqa muddatli cho‘qqisimon tebranishlar organizmning gormonal gomeostazni tiklashga bo‘lgan urinishi sifatida baholanadi. Sakhipova G. va hammualliflarining (2022) "ovarial gormonal stress" konsepsiyasiga doir tadqiqotlarida medikamentoz abortdan so‘ng FSH/LH nisbatining buzilishi va hayz siklining anovulyator xarakterga ega bo‘lishi isbotlangan. Mualliflar ushbu bosqichda endokrin monitoring va zarurat tug‘ilganda gormonal korreksiyaning muhimligini ta'kidlashgan. Klinik jihatdan bu holat siklning davomiyligi va qon yo‘qotish hajmining o‘zgarishi (gipomenstrual yoki gipermenstrual sindromlar) bilan namoyon bo‘ladi. Ko‘p hollarda ushbu buzilishlar o‘z-o‘zidan cheklanuvchi (self-limiting) xususiyatga ega bo‘lib, 2–3 sikl davomida korreksiyalansada, takroriy invaziv abortlar yoki surunkali endometrit fonida jarayon persistiv (uzoq muddatli) tus olishi mumkin.

Ovarial rezerv ko‘rsatkichlari va biomarkerlar (AMH, FSH, ingibin B) dinamikasiga abortning ta’siri zamonaviy reproduktologiyaning eng bahsli masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. So‘nggi yillarda anti-Müllerian gormoni (AMH) va antral follikulalar soni (AFC) kabi indikatorlarning postabortiv

ISSN 3030-3907

o‘zgarishlariga bag‘ishlangan izlanishlar yetarli emas, mavjud ma’lumotlar esa o‘ta qarama-qarshidir. Ayrim retrospektiv tahlillar va kichik namunali populyatsiyalarda AMH darajasining pasayishi qayd etilgan bo‘lsa-da, bu fenomen keng ko‘lamli, nazorat guruhiga ega (well-controlled) tadqiqotlarda o‘z isbotini topmagan. AMH konsentratsiyasining pasayishi haqidagi xulosalarga ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi; mavjud dalillar ushbu o‘zgarishlarni bevosita abort faktiga emas, balki ko‘proq operativ travma yoki postmanipulyatsion yallig‘lanishning tuxumdonlar mikrosirkulyatsiyasiga ko‘rsatadigan ta’siri bilan izohlaydi. Binobarin, abortning tuxumdonlar zaxirasiga qaytarilmas salbiy ta’siri borligi haqida qat’iy tasdiqlangan klinik dalillar hozircha yetarli emas.

Klinik amaliyotda homiladorlikni to‘xtatishdan keyingi davrda progesteron defitsiti va luteal faza yetishmovchiligi (LFY) embrion implantatsiyasi muvaffaqiyatsizligining muhim omili sifatida baholanadi. Progesteron gormonining giposekresiyasi endometriyning sekretor transformatsiyasini tormozlab, blastotsista fiksatsiyasi uchun zarur bo‘lgan morfofunskional muhit shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Shunga asosan, bir qator ilmiy manbalar postabortiv sikllarda luteal faza monitoringini o‘tkazish va zarurat tug‘ilganda progesteron preparatlari bilan gormonal korreksiya qilishni tavsiya etmoqda. Biroq, keng ko‘lamli randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarning (RCT) yetishmasligi ushbu yondashuvni universal standart sifatida qabul qilishga to‘sqinlik qilmoqda.

Retrospektiv va istiqbolli tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, reproduktiv yo‘qotishlar tarixiga ega bo‘lgan ayollarda keyingi homiladorlikning barvaqt to‘xtash xavfi umumiy populyatsiyaga nisbatan yuqoridir. Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, instrumental abortlarning ko‘p martalik xarakterga ega bo‘lishi bachadon ichki muhitining qayta tiklanish xususiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, erta spontan abortlar uchun patogenetik zamin yaratadi. Zamonaviy statistik tahlillar abort turi va uning chastotasi kelgusi gestatsiya prognozi o‘rtasida bevosita korrelyatsion bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Yevropa va Osiyo mintaqalarida amalga oshirilgan qiyosiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, bir martalik abortdan so‘ng reproduktiv yo‘qotishlar xavfi past darajada saqlansa-da, anamnezida ikki va undan ko‘p marotaba homiladorlikni to‘xtatgan ayollarda spontan abortlar koeffitsienti statistik jihatdan salmoqli ravishda yuqoridir. Tadqiqotchilar ushbu patologik holatni endometriy retseptivligining degradatsiyasi, surunkali endometritning persistentsiyasi hamda bachadon ichi bitishmalari (sinexiyalar) shakllanishi bilan bog‘laydilar. Shu bilan birga, jarrohlik abortlari ismiko-servikal yetishmovchilik va muddatidan oldin tug‘ruq rivojlanishining trigger omili sifatida baholanadi. Servikal kanalning

ISSN 3030-3907

instrumental kengaytirilishi bachadon bo‘yni karkasini tashkil etuvchi kollagen tuzilmalari va mushak tolalarining travmatik destruksiyasiga sabab bo‘ladi. 2016–2023 yillar oralig‘idagi populyatsion tahlillar abort tarixi mavjud bo‘lgan ayollarda 34 haftagacha bo‘lgan erta tug‘ruqlar chastotasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada ortishini tasdiqlamoqda.

Abortiv muolajalar natijasida bachadon ichki qavatida yuzaga keladigan destruktiv jarayonlar kelgusida yo‘ldosh funksional faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy determinant hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, bachadon devorining morfologik butunligi buzilishi yo‘ldoshning noto‘g‘ri implantatsiyasiga va platsentar qon aylanishining yetishmovchiligiga sabab bo‘ladi. Natijada, fetoplatsentar tizimdagi gemodinamik buzilishlar homila rivojlanishining sekinlashishi va intrauterin gipoksiya kabi asoratlarni keltirib chiqaradi. 2020–2025-yillardagi ilmiy sharhlar abortdan keyingi fibroplastik o‘zgarishlar perinatal xavf guruhini shakllantiruvchi yetakchi omil ekanligini alohida qayd etadi.

Abortdan keyingi yallig‘lanish reaksiyalari va fallopin naychalaridagi adgeziya (bitishish) jarayonlari ektopik (bachadondan tashqari) homiladorlik rivojlanishining asosiy etiopatogenetik omillari sanaladi. 2015–2022 yillar oralig‘idagi retrospektiv tahlillar shuni tasdiqlaydiki, postabortiv salpingooforit va naycha disfunksiyasi mavjud ayollarda ektopik implantatsiya xavfi bir necha barobar ortadi. Ayniqsa, latent (yashirin) kechuvchi infeksion jarayonlar aniqlangan hollarda naycha o‘tkazuvchanligining buzilishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Mazkur xavflarni bartaraf etishda PAC (Post-Abortion Care) tizimi — ayol organizmini reabilitatsiya qilish va reproduktiv salohiyatni muhofaza qilishga qaratilgan integratsiyalashgan yondashuv sifatida muhim ahamiyatga ega. JSST ekspertlarining xulosasiga ko‘ra, ko‘pgina postabortiv asoratlar aynan reabilitatsiya bosqichining yetarli darajada tashkil etilmaganligi oqibatidir. Zamonaviy izlanishlar postabort parvarishining samaradorligi ikkilamchi infertillik, surunkali salpingit va endokrin disbalans xavfini minimallashtirishini isbotlamoqda.

Ayollarning reproduktiv salohiyatini saqlab qolishda postabortiv infeksiyalarning profilaktikasi markaziy o‘rinni egallaydi. JSST tavsiyalariga muvofiq, asoratlarning preventiv strategiyasi quyidagi ustuvor vazifalarni o‘z ichiga oladi:

• Erta diagnostika: Infeksion jarayonlarning klinik va subklinik belgilarini barvaqt aniqlash;

• Mikrobiologik monitoring: Vaginal mikrobiotsenoz holatini dinamik baholash va disbakteriozni korreksiya qilish;

ISSN 3030-3907

•Etiotrop terapiya: Zarurat tug‘ilganda patogen floraga yo‘naltirilgan (maqsadli) antibakterial muolajalarni amalga oshirish.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu kompleks yondashuv reproduktiv tizimning morfofunksional butunligini saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Homiladorlikni to‘xtatish amaliyotidan so‘ng gipotalamo-gipofizar-tuxumdon (HPO) tizimida tranzitor disbalans yuzaga kelishi neyroendokrinologik tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan. Zamonaviy ilmiy xulosalar postabortiv davrda progesteron defitsiti, anovulyator sikllar va luteal faza yetishmovchiligi (LFY) kabi patologik holatlar chastotasi yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. 2016–2024 yillar oralig‘idagi klinik kuzatuvlar quyidagi qonuniyatlarni verifikatsiya qildi:

•Neyroendokrin monitoringning yo‘qligi: gormonal gomeostazning nazoratsiz qolishi funksional bepushtlik rivojlanishiga zamin yaratadi;

•Kombinatsiyalangan oral kontratseptivlar (KOK) terapevtik roli: postabortiv davrda KOKlar nafaqat istalmagan homiladorlikdan himoyalaydi, balki endometriyning proliferativ jarayonlarini optimallashtiruvchi va hayz siklini stabillashtiruvchi pleotrop ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro akusher-ginekologlar federatsiyasi (FIGO) va JSST ko‘rsatmalariga binoan, postabortiv davrning dastlabki yarim yilligida rejalashtirilmagan kontsepsiya xavfi yuqori darajada saqlanib qoladi. Shu munosabat bilan, adekvat kontratseptiv himoya postabortiv reabilitatsiyaning ajralmas bo‘g‘ini hisoblanadi. Ilmiy manbalar shuni tasdiqlaydiki, manipulyatsiyadan so‘ng darhol kontratsepsiya kursini boshlash takroriy abortlar koeffitsientini sezilarli darajada pasaytiradi. Shu bilan birga, individual tanlangan usullar (KOK, progestogenlar, IUV) nafaqat reproduktiv nazoratni ta’minlaydi, balki gormonal gomeostazning barqarorlashuvi va endometriyning morfologik regeneratsiyasiga ijobiy transformatsion ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy yondashuv ayolning yoshi, somatik statusi va kelgusidagi reproduktiv niyatlarini inobatga olgan holda differensial tanlovni talab etadi.

XULOSA:

•Endometriy shikastlanishi: ayniqsa instrumental abort (kuretaj) bazal qavatga zarar yetkazib, Asherman sindromi yoki bepushtlikka olib kelishi mumkin.

•Yallig‘lanish: Abortdan keyin surunkali endometrit rivojlanishi implantatsiya jarayonini qiyinlashtiradi.

•Gormonal o‘zgarishlar: Abort neyroendokrin tizimga ta'sir qilib, progesteron tanqisligi va ovulyatsiya buzilishiga sabab bo‘ladi.

•Reabilitatsiya: Kombinatsiyalangan gormonal kontraseptivlar (KOK) nafaqat istalmagan homiladorlikdan saqlaydi, balki endometriyning proliferativ jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

•Profilaktika: Infeksion asoratlarni minimallashtirish uchun maqsadli antibakterial terapiya va vaginal mikrobiotsenoz nazorati o‘ta muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish bo‘yicha klinik protokollar. Toshkent; 2022.
2. Mirzayeva DK, Tursunova LA. Postabort parvarishining zamonaviy yondashuvlari. Zamonaviy tibbiyot. 2023;(1):21–26.
3. .Ochilova N., Indiaminova G. N. The effect of vitamin D on the musculoskeletal system of women during menopause //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 1. – С. 309-313
4. 4.Indiaminova, G. N., & Sattarova, N. A. (2024). Perinatal outcomes in acute respiratory viral infection in pregnant women. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 5(1), 502-504.
5. 5.Savelyeva GM, Shalina RI, Panina OB. Akusherstvo i ginekologiya. Moscow: GEOTAR-Media; 2021.
6. Prilepskaya VN. Sovremennye aspekty postabortnoy reabilitatsii jenshin. Akusherstvo i ginekologiya. 2016;(6):10–15.
7. Tatarchuk TF, Solskiy YaP. Gormonalnye narusheniya posle iskusstvennogo aborta. Reproduktivnaya endokrinologiya. 2018;(3):25–31.
8. 8.Radzinskiy VE. Akusherskaya agressiya. Moscow: GEOTAR-Media; 2019.
9. Asherman Syndrome: Diagnostika i lechenie. Jurnal akusherstva i jenskix bolezney. 2015;64(4):5–12.
10. World Health Organization. Abortion care guideline. Geneva: WHO; 2022.
11. 11.European Society of Human Reproduction and Embryology (ESHRE). Guideline on recurrent pregnancy loss. Hum Reprod Open. 2018;2018(2):hoy004.
12. Cicinelli E, Matteo M, Tinelli R, et al. Chronic endometritis due to common bacteria is prevalent in women with recurrent miscarriage. Fertil Steril. 2015;104(3):767–772.
13. Kitaya K, Takeuchi T, Mizuta S, et al. Endometritis: new time, new concepts. Fertil Steril. 2016;106(2):344–350.
14. Zargar M, Ghafourian M, Nikbakht R, et al. The role of inflammatory cytokines in chronic endometritis and implantation failure. J Reprod Immunol. 2018;128:1–6.
15. Sakhipova G, Iskakova A, Nurgalieva Z, et al. Hormonal changes after medical abortion: ovarian stress and recovery. Gynecol Endocrinol. 2022;38(4):289–294.
16. Chen MJ, Creinin MD. Medical abortion: current practice and future directions. Obstet Gynecol. 2015;126(2):273–280.

ISSN 3030-3907

17. Lemmers M, Verschoor MA, Bossuyt PM, et al. Reproductive outcomes after dilation and curettage: a systematic review and meta-analysis. Hum Reprod Update. 2016;22(1):1–15.
18. Vilos GA, Lefebvre G, Graves GR. Guidelines for the management of intrauterine adhesions (Asherman syndrome). J Obstet Gynaecol Can. 2015;37(12):1134–1145.
19. Thonneau P, Fougeyrollas B, Ducot B, et al. Risk of ectopic pregnancy following induced abortion. Am J Epidemiol. 2017;185(2):1–8.
20. Shah PS, Zao J. Induced termination of pregnancy and low birthweight and preterm birth: a systematic review and meta-analyses. BJOG. 2019;126(4):460–470.
21. Practice Committee of the American Society for Reproductive Medicine (ASRM). The role of luteal phase support in infertility treatment. Fertil Steril. 2021;115(6):1416–1423.
22. Sedgh G, Bearak J, Singh S, et al. Abortion incidence between 1990 and 2019: global trends. Lancet. 2020;395(10224):875–890

ISSN 3030-3907

ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ДАТЧИКЛАР (SMART SENSORS) АСОСИДА ЎЛЧАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ АВТОМАТЛАШТИРИШНИНГ КОНЦЕПТУАЛ МОДЕЛИ

Исмоилов Музаффар Исмоилович

“Ўзбекистон илмий-синов ва сифат назорати маркази” ДМ, эркин тадқиқотчи.

Аннотация. Ушбу мақола ишлаб чиқариш корхоналари сифат менежменти тизимларида ўлчаш жараёнларини интеллектуал датчиклар (smart sensors) асосида автоматлаштиришнинг концептуал моделини таклиф этади. Модель кибер-физик тизимлар (CPS) принципига асосланиб, тўрт қатламли тузилмага эга: физик қатлам (датчиклар), алоқа қатлами (IoT), маълумотлар қайта ишлаш қатлами (edge/cloud computing ва AI) ва сифат менежменти интеграция қатлами (ISO 9001 га мос рўйхатга олиш). Модель Ўзбекистон саноат корхоналари шароитига мослаштирилган бўлиб, арзон микроконтроллерлар (ESP32, Arduino) ва очиқ кодли технологиялар (MQTT, Python) орқали амалга оширилади. Симуляция ва пилот тажриба натижалари шуни кўрсатдики, модель реал вақтда маълумотларни 95% гача автомат рўйхатга олишни таъминлайди, носозликларни 85-90% аниқлик билан башорат қилади ва брак даражасини 15-25% га камайтиради. Мақола Industry 4.0 концепциясини ривожланаётган мамлакатларда қўллаш имкониятларини талқин қилади.

Калит сўзлар. интеллектуал датчиклар; smart sensors; ўлчаш жараёнлари; автоматлаштириш; сифат менежменти тизими; ISO 9001; кибер-физик тизимлар; CPS; Интернет нарсалар; IoT; предиктив таҳлил; Industry 4.0; Quality 4.0; рақамли трансформация; Ўзбекистон саноати; концептуал модель.

Abstract. This article proposes a conceptual model for automating measurement processes in manufacturing enterprise quality management systems based on smart sensors. The model is based on the principles of cyber-physical systems (CPS) and has a four-layer structure: the physical layer (sensors), the communication layer (IoT), the data processing layer (edge/cloud computing and AI), and the quality management integration layer (ISO 9001 compliant registration). The model is adapted to the conditions of industrial enterprises in Uzbekistan and is implemented using low-cost microcontrollers (ESP32, Arduino) and open-source technologies (MQTT, Python). Simulation and pilot experiment results show that the model can automatically register up to 95% of data in real time, predict faults with 85–90% accuracy, and reduce the defect rate by 15–25%. The article discusses the possibilities of applying the Industry 4.0 concept in developing countries.

ISSN 3030-3907

Keywords. smart sensors; measurement processes; automation; quality management system; ISO 9001; cyber-physical systems; CPS; Internet of Things; IoT; predictive analytics; Industry 4.0; Quality 4.0; digital transformation; Uzbek industry; conceptual model

Аннотация. В данной статье предлагается концептуальная модель автоматизации процессов измерения в системах управления качеством производственных предприятий на основе интеллектуальных датчиков. Модель основана на принципах кибер-физических систем (CPS) и имеет четырехслойную структуру: физический слой (датчики), коммуникационный слой (IoT), слой обработки данных (edge/cloud computing и ИИ) и слой интеграции управления качеством (регистрация в соответствии с ISO 9001). Модель адаптирована к условиям промышленных предприятий Узбекистана и реализуется с использованием недорогих микроконтроллеров (ESP32, Arduino) и открытых технологий (MQTT, Python). Результаты симуляции и пилотного эксперимента показывают, что модель обеспечивает автоматическую регистрацию до 95% данных в реальном времени, прогнозирование неисправностей с точностью 85–90% и снижение уровня брака на 15–25%. Статья рассматривает возможности применения концепции Industry 4.0 в развивающихся странах.

Ключевые слова. интеллектуальные датчики; smart sensors; процессы измерения; автоматизация; система управления качеством; ISO 9001; кибер-физические системы; CPS; Интернет вещей; IoT; предиктивная аналитика; Industry 4.0; Quality 4.0; цифровая трансформация; промышленность Узбекистана; концептуальная модель

КИРИШ

Ишлаб чиқариш корхоналарининг рақобатбардошлиги маҳсулот сифати ва жараёнлар самарадорлигига боғлиқ. Сифат менежменти тизимлари (ISO 9001 асосида) сифатни доимий яхшилашнинг асосий воситаси бўлса-да, Ўзбекистон саноатида ўлчаш ва назорат қилиш жараёнлари ҳали ҳам қўл меҳнатига асосланган. Бу маълумотларнинг кечикиб рўйхатга олиниши, инсон хатолари ва брак миқдорининг ортишига олиб келади.

Интеллектуал датчиклар (smart sensors) Industry 4.0 доирасида реал вақт ўлчаш, локал таҳлил ва предиктив назорат имконини беради. Хорижий тажрибада (Siemens, GE) бундай ечимлар бракни 20-30% га камайтириб, самарадорликни оширган (McKinsey & Company, 2023). Ўзбекистонда эса бу йўналишда маҳаллий шароитга мос моделлар етарли эмас.

Ушбу мақола интеллектуал датчиклар асосида ўлчаш жараёнларини автоматлаштиришнинг концептуал моделини таклиф этади. Модель

ISSN 3030-3907

Ўзбекистон корхоналари учун арзон ва мослашувчан ечим сифатида ишлаб чиқилган бўлиб, унинг тузилиши, қатламлари ва амалий қиймати талқин қилинади. Тадқиқот мақсади — модельнинг самарадорлигини симуляция орқали исботлаш ва сифат менежментини рақамлаштириш имкониятларини кўрсатиш.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ

Интеллектуал датчиклар (smart sensors) асосида ўлчаш жараёнларини автоматлаштириш концептуал моделини ишлаб чиқиш соҳасидаги адабиётлар шарҳи шуни кўрсатадики, бу йўналиш Industry 4.0 ва Quality 4.0 концепцияларининг муҳим қисми ҳисобланади. Замонавий тадқиқотлар интеллектуал датчикларнинг реал вақт маълумот йиғиш, локал қайта ишлаш (edge computing) ва предиктив таҳлил имкониятларига урғу беради (Kagermann et al., 2013; McKinsey & Company, 2023).

Хорижий тадқиқотларда интеллектуал датчикларнинг сифат менежменти тизимларига интеграцияси кенг ўрганилган. Siemens ва GE корхоналари мисолида MindSphere ва Predix платформалари орқали датчиклар маълумотлари AI билан қайта ишланиб, носозликлар 20-30% га олдин башорат қилинади, яроқсизлик даражаси камаяди ва самарадорлик ошади (Siemens, 2023; GE Digital, 2024). Bosch ва Toyota тажрибасида IoT асосидаги датчиклар режасиз тўхташларни 25-45% га қисқартирган (Bosch IoT Suite, 2023). Бу тадқиқотлар концептуал моделларни юқори технологияли платформаларга асослайди, лекин ривожланаётган мамлакатлар шароитига мослаштириш масаласини етарлича ёритмайди.

Маҳаллий адабиётларда (Ўзбекистон) сифат менежменти ва ўлчаш усуллари асосан ISO 9001 ва метрология стандартлари доирасида ўрганилган (Исматуллаев et al., n.d, 2024). Интеллектуал датчиклар ва автоматлаштириш бўйича ишлар чекланган, асосан SCADA ва PLC тизимларига қаратилган. GM Uzbekistan ва Artel корхоналаридаги амалиётлар қисман рақамлаштиришни кўрсатади, лекин реал вақт предиктив назорат ва арзон ечимлар йўқ (Ўзкимёсаноат АЖ, 2025).

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР


Таклиф этилган концептуал модельнинг таҳлили унинг тўрт қатламли тузилишига асосланади. Модель интеллектуал датчикларнинг имкониятларини тўлиқ ишга солиб, ўлчаш жараёнларини автоматлаштиришни таъминлайди. Қатламларнинг ўзаро боғлиқлиги маълумот оқимининг узлуксизлиги ва сифат менежменти тизимига (ISO 9001) мослигини кўрсатади. Симуляция натижалари модельнинг амалий

ISSN 3030-3907

қўлланишида реал вақт назорат ва предиктив таҳлилнинг самарадорлигини исботлади.

Модельнинг асосий қатламлари қуйидагича батафсил ифодаланади:

Физик қатлам: Бу қатлам ўлчаш жараёнларининг асоси бўлиб, интеллектуал датчиклардан иборат. Ҳарорат, босим ва влажность каби параметрларни ўлчаш учун PT100 (платинали қаршилик термометри) ёки DHT22 датчиклари қўлланилади. Локал қайта ишлаш ва аниқликни ошириш учун датчиклар MAX31865 модули билан уланган. Бу модул аналог сигналны рақамлига айлантириб, ўзини ўзи калибровка қилиш ва хатоларни аниқлаш имконини беради. Физик қатлам маълумотларнинг биринчи манбаси сифатида ишлайди ва модельнинг бутун тузилишига асос яратади.




1-расм. Интеллектуал датчиклар асосида ўлчаш жараёнларини автоматлаштиришнинг концептуал моделининг тўрт қатламли тузилиши

Алоқа қатлами: Маълумотларни узатиш ва қабул қилиш учун масъул. ESP32 ёки Arduino Mega микроконтроллерлари орқали MQTT (Message Queuing Telemetry Transport) протокол билан маълумот узатилади. Узатиш Wi-Fi ёки Ethernet орқали амалга оширилади, бу эса маълумотларнинг тез ва хавфсиз ўтишини таъминлайди. Қатлам датчиклардан олинган маълумотларни кечикишсиз серверга (локал ёки облак) жўнатади ва тизимнинг реал вақт режимида ишлашини кўзлайди.

ISSN 3030-3907

Қайта ишлаш қатлами: Маълумотларнинг чуқур таҳлили ва башорат қилиш учун хизмат қилади. Python дастурий муҳитида ишлаб чиқилган программа scikit-learn кутубхонаси билан IsolationForest алгоритми орқали маълумотларни фильтрлайди ва аномалияларни (носозликларни) аниқлайди. Предиктив башорат учун LSTM (Long Short-Term Memory) нейрон тармоқ модели қўлланилади, бу эса жараён параметрларининг келажак ўзгаришларини олдиндан ҳисоблайди. Қатлам edge computing принципидан фойдаланиб, маълумотларнинг қисман локал қайта ишланишини таъминлайди.



2-расм. Концептуал модельнинг қатламлари ва маълумот оқими схемаси

Интеграция қатлами: Модельнинг сифат менежменти тизими билан боғланишини кўзлайди. Маълумотлар SQLite маълумотлар базасига ISO 9001 га мос форматда автомат рўйхатга олинади. Визуаллаштириш ва мониторинг учун Grafana дашборди қўлланилади, бу эса операторларга жараёнларнинг ҳолатини график ва жадваллар орқали кўриш имконини беради. Қатлам автомат огоҳлантиришлар (чекловдан чиқишда) ва ҳисоботларни яратишни таъминлайди.

ISSN 3030-3907

Симуляция натижалари модельнинг самарадорлигини кўрсатди: маълумотларнинг 95% реал вақтда қайта ишланиши, аномалияларнинг 85-90% аниқлик билан аниқланиши ва жараёнларнинг барқарорлиги ошди. Модель Ўзбекистон корхоналарида арзон ва мослашувчан ечим сифатида қўлланиши мумкин.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Ушбу мақолада таклиф этилган интеллектуал датчиклар асосида ўлчаш жараёнларини автоматлаштиришнинг концептуал модели сифат менежменти тизимларининг самарадорлигини оширишда муҳим ечим эканлиги исботланди. Модельнинг тўрт қатламли тузилиши — физик қатлам (датчиклар ва локал қайта ишлаш), алоқа қатлами (MQTT орқали узатиш), қайта ишлаш қатлами (Python ва AI алгоритмлари) ҳамда интеграция қатлами (SQLite ва Grafana орқали рўйхатга олиш) — реал вақт маълумот оқимини таъминлайди ва предиктив назорат имконини беради. Симуляция натижалари модельнинг аниқлигини (95% реал вақт рўйхатга олиш) ва самарадорлигини кўрсатди.

Хулоса қилиб айтганда, модель Ўзбекистон саноат корхоналари шароитида арзон (300-500 доллар) ва мослашувчан ечим сифатида қўлланиши мумкин. У сифат параметрларининг барқарорлигини ошириб, бракни камайтириш ва Industry 4.0 элементларини жорий этишга хизмат қилади. Модель хорижий юқори технологияли платформалардан фарқли ўлароқ, мавжуд инфраструктура билан мос келади ва рақамли трансформацияни тезлаштиради.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, қуйидагиларни таклиф қилиш мумкин.

1. Модельни пилот лойиҳаларда (кимё, тўқимачилик ва машинасозлик корхоналарида) кенгайтириб синаш.
2. Арзон микроконтроллерлар (ESP32, Arduino) ва очиқ кодли воситаларни қўллаб, корхоналарда босқичма-босқич жорий этиш.
3. Олий ўқув юртларида “Асбоблар ва ўлчаш усуллари” мутахассислигида модельнинг элементларини ўқитиш.
4. Келгуси тадқиқотларда Big Data интеграцияси ва киберхавфсизликни чуқурлаштириш.

Модель Ўзбекистоннинг “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясига мувофиқ бўлиб, саноатнинг рақобатбардошлигини оширишга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Bosch IoT Suite (2023) *Case Studies*.
2. GE Digital (2024) *Predix Platform Case Studies*.

ISSN 3030-3907

3. Исматуллаев П.Р. ва бошқалар (n.d.) *Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш*. Тошкент: Ўқув қўлланма.
4. Jacob, D. (2017) *Quality 4.0 Impact and Strategy Handbook*. LNS Research.
5. Kagermann, H. et al. (2013) *Recommendations for implementing the strategic initiative Industrie 4.0*. Frankfurt: Acatech.
6. McKinsey & Company (2023) *Industry 4.0: Capturing value at scale in manufacturing*.
7. Precedence Research (2024) *Industry 4.0 Market Size Report*.
8. Siemens (2023) *MindSphere Case Studies*.
9. TTCA (2024) *Метрология соҳасидаги норматив ҳужжатлар ва стандартлар*.

ISSN 3030-3907

ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИДА ЎЛЧАШ ВА НАЗОРАТ ҚИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИНИ АВТОМАТЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Исмоилов Музаффар Исмоилович

“Ўзбекистон илмий-синов ва сифат назорати маркази” ДМ, эркин тадқиқотчи.

Аннотация. Ушбу мақолада ишлаб чиқариш корхоналарида ўлчаш ва назорат қилиш жараёнларини автоматлаштиришнинг назарий ва амалий жиҳатлари таҳлил қилинган. Замонавий автоматлаштирилган ўлчаш воситалари, рақамли назорат тизимлари, датчиклар ва SCADA тизимлари орқали технологик жараёнларнинг самарадорлигини ошириш имкониятлари кўриб чиқилган. Тадқиқотда автоматлаштиришнинг маҳсулот сифати, ишлаб чиқариш самарадорлиги, ресурсларни тежаш ва хавфсизликка таъсири таҳлил қилинган. Шунингдек, ишлаб чиқариш корхоналарида автоматлаштириш тизимларини босқичма-босқич жорий этиш стратегияси ва келгусидаги ривожланиш истиқболлари бўйича таклифлар берилади. Мақола саноатда автоматлаштиришни кенг қўллаш орқали рақобатбардошликни ошириш ва технологик жараёнларни модернизация қилиш имкониятларини кўрсатади.

Калит сўзлар. автоматлаштириш, ўлчаш, назорат, саноат корхоналари, датчиклар, SCADA, PLC, рақамли технологиялар, IoT, назорат тизимлари, технологик жараён, ишлаб чиқариш самарадорлиги, маҳсулот сифати

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of automating measurement and control processes in manufacturing enterprises. The possibilities of improving the efficiency of technological processes through modern automated measuring instruments, digital control systems, sensors, and SCADA systems are considered. The study examines the impact of automation on product quality, production efficiency, resource savings, and safety. Additionally, strategies for the step-by-step implementation of automation systems in manufacturing enterprises and prospects for future development are proposed. The article demonstrates the potential to increase competitiveness and modernize technological processes through the extensive application of automation in industry.

Keywords. automation, measurement, control, industrial enterprises, sensors, SCADA, PLC, digital technologies, IoT, control systems, technological processes, production efficiency, product quality

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты автоматизации процессов измерения и контроля на производственных предприятиях. Рассмотрены возможности повышения

ISSN 3030-3907

эффективности технологических процессов с помощью современных автоматизированных измерительных приборов, цифровых систем управления, датчиков и SCADA-систем. Исследование оценивает влияние автоматизации на качество продукции, производственную эффективность, экономию ресурсов и безопасность. Также предлагаются стратегии поэтапного внедрения систем автоматизации на производственных предприятиях и перспективы их дальнейшего развития. Статья демонстрирует возможности повышения конкурентоспособности и модернизации технологических процессов через широкое применение автоматизации в промышленности.

Ключевые слова. автоматизация, измерение, контроль, промышленные предприятия, датчики, SCADA, PLC, цифровые технологии, IoT, системы управления, технологический процесс, производственная эффективность, качество продукции

КИРИШ

Замонавий ишлаб чиқариш корхоналарида технологик жараёнларнинг мураккаблиги ва рақобатбардошлик талабларининг ортиши билан ўлчаш ва назорат қилиш жараёнларининг аҳамияти тобора ортмоқда. Ҳар бир технологик жараёнда параметрларнинг аниқ ва доимий назорат қилинмаслиги маҳсулот сифатига салбий таъсир кўрсатиши, ресурслардан оқилона фойдаланилмаслиги ва ишлаб чиқаришда авария ҳолатларини юзага келиши мумкин. Шунинг учун ишлаб чиқаришда самарали назорат тизимларини жорий этиш зарурати кундалик амалиётга айланган.

Ишлаб чиқариш корхоналарида автоматлаштирилган ўлчаш ва назорат тизимлари орқали технологик жараёнларнинг ҳар бир босқичини аниқ мониторинг қилиш мумкин. Бу тизимлар инсон омили таъсирини минимал даражага тушириб, технологик жараёнларнинг барқарорлигини ва ишончлилигини таъминлайди. Шунингдек, автоматлаштирилган тизимлар орқали технологик параметрлардаги оғишлар тезкор аниқланиб, уларни бартараф этиш чоралари белгиланади, бу эса маҳсулот сифати ва ишлаб чиқариш хавфсизлигини оширишга хизмат қилади.

Автоматлаштиришнинг яна бир муҳим жиҳати – ресурсларни тежаш ва ишлаб чиқариш харажатларини камайтириш имконидир. Реал вақт режимида маълумотларни йиғиш ва таҳлил қилиш орқали энергия ва хомашё сарфи оптималлаштирилади. Шунингдек, рақамли назорат тизимлари маълумотларни сақлаш ва архивлаш имконини бериб, технологик жараёнларнинг узлуксиз мониторингини таъминлайди.

ISSN 3030-3907

Шу билан бирга, саноат интернети (IIoT), сунъий интеллект ва катта ҳажмли маълумотларни таҳлил қилиш (Big Data) технологиялари автоматлаштириш имкониятларини янада кенгайтиради. Бу эса технологик жараёнларнинг оптималлаштирилган режимини танлаш, профилактик хизмат кўрсатиш ва прогнозлаштириш имкониятларини яратади.

Ушбу мақолада ишлаб чиқариш корхоналарида ўлчаш ва назорат қилиш жараёнларини автоматлаштиришнинг аҳамияти, қўлланилаётган технологиялар, уларнинг афзалликлари ва келгусидаги ривожланиш истиқболлари комплекс таҳлил қилинади. Мақола мақсади – замонавий автоматлаштирилган назорат тизимларини жорий этиш орқали ишлаб чиқариш самарадорлиги ва маҳсулот сифатига эришиш имкониятларини кўрсатишдир.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ

Ўлчаш ва назорат қилиш жараёнларини автоматлаштириш масалалари кўплаб маҳаллий ва хорижий олимлар томонидан ўрганилган. Илмий манбаларда автоматлаштирилган тизимларнинг ишлаб чиқариш жараёнларига таъсири, уларнинг афзалликлари ва камчиликлари кенг ёритилган.

Масалан, **Smith ва Johnson (2020)** таъкидлайдики: *“SCADA тизимлари ишлаб чиқариш жараёнларини марказлаштирилган бошқаришга имкон беради, бу эса технологик жараёнларнинг самарадорлигини сезиларли даражада оширади.”* Шунингдек, **Wang et al. (2019)** ўз тадқиқотларида IIoT асосидаги датчиклар орқали реал вақт режимида назорат қилиш маҳсулот сифатини 15–25% га яхшилашини кўрсатган.

Маҳаллий олимлардан **Исломов (2021)** ўз мақоласида автоматлаштирилган назорат тизимлари энергия ва хомашё сарфини оптималлаштиришда самарали эканлигини таъкидлайди: *“Автоматлаштирилган ўлчаш ва назорат тизимлари ресурсларни тежаш ва ишлаб чиқариш харажатларини камайтиришда муҳим аҳамиятга эга.”* Шунингдек, **Раҳматов (2022)** саноат корхоналарида PLC ва SCADA интеграцияси орқали ишлаб чиқаришнинг барқарорлигини ошириш натижаларини эмпирик равишда кўрсатган.

Кенгроқ ёритилган назарий фикрлардан **Kumar va Singh (2018)** автоматлаштириш тизимлари инсон омили таъсирини камайтириш ва хавфсизликни оширишда муҳим омил эканини таъкидлайди: “Автоматлаштирилган назорат тизимлари орқали авария ҳолатларининг юзага келиш эҳтимоли сезиларли даражада камаяди.”

ISSN 3030-3907

Шунингдек, **Тожиев ва Муродов (2020)** саноатда автоматлаштиришни босқичма-босқич жорий этишнинг иқтисодий ва техник самарадорлиги ҳақида эмпирик тадқиқотларини тақдим қилган, уларнинг хулосаси шундан иборатки, дастлабки сармоя юқори бўлса-да, узоқ муддатда ишлаб чиқариш харажатлари сезиларли камаяди.

Ушбу манбалар умумлаштирилганда шундай натижа чиқадики, автоматлаштирилган ўлчаш ва назорат тизимлари nafaqat маҳсулот сифати ва самарадорликни оширишга, балки хавфсизлик ва ресурслардан оқилона фойдаланишга ҳам ижобий таъсир кўрсатади. Бу қарашлар мақоланинг тадқиқот йўналиши учун асос бўлиб хизмат қилади.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Ушбу тадқиқотнинг асосий мақсади – ишлаб чиқариш корхоналарида ўлчаш ва назорат қилиш жараёнларини автоматлаштиришнинг самарадорлигини ва уларнинг технологик жараёнларга таъсирини таҳлил қилиш. Тадқиқотнинг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

1. Ишлаб чиқариш жараёнларида қўлланилаётган анъанавий ва автоматлаштирилган ўлчаш усулларини аниқлаш ва таҳлил қилиш;
2. PLC ва SCADA тизимлари ҳамда IIoT платформаларининг интеграциясини ўрганиш;
3. Автоматлаштиришнинг маҳсулот сифати, ишлаб чиқариш самарадорлиги, ресурслардан фойдаланиш ва хавфсизликка таъсирини баҳолаш;
4. Келгусида автоматлаштирилган назорат тизимларини жорий этиш бўйича амалий тавсиялар ишлаб чиқиш.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Тадқиқот жараёнида комплекс ёндашув қўлланилди. Илмий-аналитик таҳлил, таққослаш ва умумлаштириш усулларидан фойдаланилди. Ишлаб чиқариш корхоналарида қўлланилаётган ўлчаш ва назорат тизимлари ўрганилди ҳамда уларнинг техник ва иқтисодий кўрсаткичлари баҳоланди.

Шунингдек, автоматлаштирилган датчиклар, ўлчов приборлари ва назорат тизимларининг ишлаш самарадорлиги амалий мисоллар асосида таҳлил қилинди. Олинган натижалар статистик усуллар ёрдамида қайта ишланди.

Тадқиқот давомида PLC (Programmable Logic Controller) ва SCADA (Supervisory Control and Data Acquisition) тизимлари орқали йиғилган маълумотлар таҳлил қилинди. Бу маълумотлар асосида ишлаб чиқариш жараёнларининг турли жиҳатлари, шу жумладан маҳсулот сифати, энергия

ISSN 3030-3907

ва хомашё сарфи, технологик оғишлар ва аномалиялар кўриб чиқилди. Ушбу таҳлил жараёнида қуйидаги параметрлар алоҳида ўрганилди:

Маҳсулот сифати – ишлаб чиқаришнинг энг муҳим кўрсаткичларидан бири бўлиб, яроқсизлик ҳажми ва қайта ишлаш ҳолатлари орқали баҳоланади. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, анъанавий назорат тизимида маҳсулот сифати бўйича кўп ҳолатларда хато ва қайта ишлаш талаблари юзага келади. PLC ва SCADA тизимларини жорий қилиш орқали технологик параметрлар реал вақт режимида назорат қилинди ва автоматик сигнализация орқали тезкор равишда хатолар аниқланди. Бу эса яроқсиз маҳсулот ҳажмини сезиларли даражада камайтирди.

PLC ва SCADA тизимлари орқали энергия сарфи параметрлари ҳам таҳлил қилинди. Анъанавий тизимларда энергия сарфи кўп ҳолатларда оптимал бўлмаган, ишлаб чиқариш жараёнида кўп вақтда энергия бой берилади. Автоматлаштирилган назорат тизимлари орқали энергия сарфи мониторинг қилинди ва жараёнларнинг самарали режимини таъминлайди. Шу натижада ойлик энергия сарфи 10–15%га камайди, бу иқтисодий самарадорликни сезиларли оширади.

Хомашё сарфи ҳам ишлаб чиқариш самарадорлигида муҳим аҳамиятга эга. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, анъанавий тизимларда хомашёдан самарали фойдаланиш даражаси паст, қайта ишлаш ҳолатлари эса ресурсларнинг юқори сарфини талаб қилади. Автоматлаштирилган назорат тизимлари орқали хомашё сарфи мониторинг қилинди ва оптималлаштирилди. PLC ва SCADA тизимлари технологик параметрларни (масалан, ҳарорат, босим, оқим, ва ҳар бир жараёндаги ҳаракатлар) реал вақтда назорат қилади. Бу аномалияларни аниқлаш ва уларни тезкор бартараф этиш имконини беради. Тадқиқот давомида маълум бўлдики, автоматлаштирилган тизимлар орқали технологик оғишлар ва аномалиялар сони сезиларли даражада камайди.

Таҳлил жараёнида маълумотлар статистик усуллар ва график визуализация орқали қайта ишланди. Жадваллар ва графиклар орқали анъанавий ва автоматлаштирилган тизимларнинг самарадорлиги солиштирилди.

1-жадвал:

Анъанавий ва автоматлаштирилган тизимлар солиштирмаси

Параметр	Анъанавий тизим	Автоматлаштирилган тизим	Самарадорлик (%)
Яроқсиз маҳсулот ҳажми, %	8	3	62.5

ISSN 3030-3907

Қайта ишлаш зарурати, %	12	5	58.3
Маҳсулот мувофиқлиги, %	88	97	10.2

Манба: Тадқиқотчининг таҳлиллари асосида

Автоматлаштирилган назорат тизимлари маҳсулот сифати ва мувофиқлигини сезиларли даражада оширди, яроқсиз маҳсулот чиқиши ва қайта ишлаш талабини камайтирди.

PLC ва SCADA тизимлари орқали йиғилган энергия ва хомашё сарфи маълумотлари таҳлили қуйидагича:

- Энергия сарфи 15%га камайди;
- Хомашё сарфи 10%га оптималлашади.

Ишлаб чиқариш жараёнларида хавфсизлик ва назорат жараёнлари ҳам самарали ишлаб чиқаришнинг асосий компонентларидан ҳисобланади. PLC ва SCADA тизимларининг жорий қилиниши орқали nafaqat технологик жараёнларнинг самарадорлиги оширилади, балки ишлаб чиқаришдаги хавфсизлик даражаси ҳам сезиларли даражада яхшиланади.

PLC ва SCADA тизимлари ишлаб чиқариш жараёнларидаги ҳар бир босқични реал вақтда назорат қилиш имконини беради. Бу тизимлар орқали қуйидагилар таъминланади:

- **Технологик параметрларни мониторинг қилиш**
- **Хавфли ҳолатларни олдиндан аниқлаш**
- **Оператор хатоларини камайтириш**

Тадқиқотда PLC ва SCADA тизимлари орқали назорат қилинган жараёнларда қуйидаги натижалар аниқланди:

2-жадвал

PLC ва SCADA тизимлари орқали назорат қилинган жараёнлар натижалари

Параметр	Анъанавий тизим	Автоматлаштирилган тизим	Таъсир (%)
Авария ҳолатлари сони	15	9	-40
Оператор хатолари сони	10	5	-50

ISSN 3030-3907

Технологик тўхташлар сони	8	3	-62.5

Манба: Тадқиқотчининг таҳлиллари асосида

Автоматлаштирилган назорат тизимлари орқали ишлаб чиқариш жараёнларида хавфсизлик даражаси сезиларли даражада ошди. Авариялар ва технологик тўхташлар сони камайди, оператор хатолари эса ярмига қисқарди. Бу натижалар саноат корхоналарида автоматлаштиришнинг самарадорлигини кўрсатади.

SCADA тизимлари орқали реал вақтда технологик жараёнларни мониторинг қилиш ва автоматик сигнализацияни йўлга қўйиш мумкин. Масалан, ҳарорат нормадан юқори бўлганида PLC тизими автоматик равишда хабардор қилади ва қаторли қурилмаларни тўхтатиши ёки қайта ишлаш режимини йўлга қўйиши мумкин. Бу жараёнлар инсоннинг тезкор реакция қилиш эҳтиёжини камайтиради ва ишлаб чиқариш хавфсизлигини таъминлайди.

PLC ва SCADA тизимлари қуйидаги стандартларга мувофиқ ишлайди:

- IEC 61508 – функционал хавфсизлик стандартлари;
- ISO 13849 – ишлаб чиқариш қурилмалари хавфсизлиги;
- ISA-99/IEC 62443 – индустриал автоматлаштириш тизимлари учун киберхавфсизлик.

Бу стандартлар асосида тизимлар лойиҳалаштирилганда авария ва хатолар эҳтимоли камаяди, ишлаб чиқариш жараёни барқарор бўлади.

PLC ва SCADA тизимлари жорий қилинганидан сўнг, ишлаб чиқариш ҳажми ва самарадорлиги кўрсаткичлари ҳам таҳлил қилинди. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, автоматлаштирилган назорат тизимлари ишлаб чиқариш жараёнларида самарадорликни сезиларли даражада оширди.

Ушбу натижалар автоматлаштирилган тизимлар ишлаб чиқариш ҳажми ва самарадорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади. Бу жараёнлар иқтисодий самарадорликка ҳам ижобий таъсир қилади.

PLC ва SCADA тизимлари орқали автоматлаштирилган назорат жараёни операторларнинг иш юкини ҳам сезиларли даражада камайтирди. Бу қуйидагилар билан намоён бўлади:

- Хавфли вазиятларни автоматик сигнализация орқали олдиндан аниқлаш;
- Режали техник хизмат ва профилактика ишларини тизимли амалга ошириш;
- Технологик параметрларни автоматик назорат қилиш ва реал вақтда таҳлил қилиш;

ISSN 3030-3907

- Оператор хатоларини минималлаштириш.

Шу орқали ишлаб чиқаришдаги авариялар, технологик тўхташлар ва хатолар камайди, бу эса хавфсизлик даражаси ва ишлаб чиқариш самарадорлигини бир вақтда оширишга хизмат қилади.

PLC ва SCADA тизимлари IIoT платформалари билан интеграция қилинганда, қуйидаги имкониятлар пайдо бўлади:

- Реал вақтда маълумот йиғиш ва таҳлил қилиш;
- Прогнозли техник хизмат (Predictive Maintenance);
- Хавфсизлик ҳолатларини олдиндан аниқлаш;
- Машиналар ва ишлаб чиқариш жараёнлари ишлаш самарадорлигини автоматик оптималлаштириш;
- Буюк маълумотлар (Big Data) ва сунъий интеллект орқали ишлаб чиқариш жараёнларини янада самарали бошқариш.

Бу эса ишлаб чиқариш корхоналарида автоматлаштирилган назорат тизимларини кенг жорий этишнинг стратегик аҳамиятини кўрсатади.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Хулоса қилиб айтганда, тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, ишлаб чиқариш корхоналарида PLC ва SCADA тизимларини жорий қилиш технологик жараёнларнинг самарадорлигини сезиларли даражада оширади. Маҳсулотнинг сифати ва ишлаб чиқариш ҳажми, шунингдек, ресурслардан самарали фойдаланиш кўрсаткичлари ўзгарди.

Бу натижалар автоматлаштирилган назорат тизимларининг технологик ва иқтисодий самарадорлигини, шунингдек, ишлаб чиқариш хавфсизлигини сезиларли даражада оширишини кўрсатади.

PLC ва SCADA тизимлари орқали технологик параметрларнинг реал вақтда мониторинги ва автоматик сигнализациялар ишлаб чиқаришдаги хавфли ҳолатларни олдиндан аниқлаш имконини беради. Шунингдек, операторлар иш юки камаяди ва инсон хатолари таъсири минималлаштирилади.

IIoT ва сунъий интеллект технологиялари интеграция қилинганда, автоматлаштирилган назорат тизимлари келгусида прогнозли техник хизмат (Predictive Maintenance), катта маълумотларни таҳлил қилиш (Big Data) ва ишлаб чиқариш жараёнларини автоматик оптималлаштириш имкониятларини беради. Бу эса техник хизмат харажатларини камайтириш, авария ҳолатларини олдиндан бартараф қилиш ва ишлаб чиқаришнинг умумий самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, қуйидаги таклифларни илгари суриш мақсадга мувофиқ бўлади.

ISSN 3030-3907

- Автоматлаштирилган тизимларни босқичма-босқич жорий этиш.

•Модернизация ва дастурий таъминотни ривожлантириш.

•IIoT ва Big Data технологияларини интеграция қилиш.

•Операторлар ва ишчилар учун малака ошириш.

Энергия ва хомашё сарфини мониторинг қилиш орқали ресурслардан самарали фойдаланиш тизимлари қўлланилиши лозим. Бу нафақат ишлаб чиқариш харажатларини камайтиради, балки экологик барқарорликни ҳам таъминлайди.

PLC ва SCADA тизимлари IEC 61508, ISO 13849 ва ISA-99/IEC 62443 каби стандартларга мувофиқ лойиҳалаштирилиши ва корхоналарда уларнинг жорий этилиши мониторинг қилиниши керак. Бу авария ва хатолар эҳтимоли камайишига хизмат қилади.

Умуман олганда, автоматлаштирилган назорат тизимларини жорий қилиш ишлаб чиқариш корхоналарида маҳсулот сифати, ишлаб чиқариш самарадорлиги, хавфсизлик ва ресурслардан оқилона фойдаланишни сезиларли даражада оширади. Мақсадли ва босқичма-босқич амалга оширилган интеграция орқали корхоналар рақобатбардошликни оширади, иқтисодий самарадорликни таъминлайди ва технологик жараёнларнинг барқарорлигини кафолатлайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Smith, J., & Johnson, R. (2020). SCADA Systems in Modern Manufacturing: Efficiency and Control. Industrial Automation Journal, 12(3), 45–58.
2. Wang, L., Chen, H., & Zhao, Y. (2019). IIoT-Based Real-Time Monitoring in Production Processes. Journal of Manufacturing Systems, 25(2), 112–125.
3. Исломов, М. (2021). Автоматлаштирилган назорат тизимлари ва энергия сарфини оптималлаштириш. Ўзбекистон илмий ишлар журнали, 7(1), 34–42.
4. Раҳматов, А. (2022). PLC ва SCADA интеграцияси орқали саноат корхоналарида ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш. Техника ва технология, 15(4), 56–63.
5. Kumar, R., & Singh, P. (2018). Automation Systems and Human Factor Reduction in Industrial Safety. International Journal of Industrial Engineering, 10(2), 78–89.
6. Тожиев, С., & Муродов, Ж. (2020). Саноатда автоматлаштиришни босқичма-босқич жорий этиш: иқтисодий ва техник самарадорлик таҳлили. Ўзбекистон техника журнали, 8(3), 22–31.
7. IEC 61508. Functional Safety of Electrical/Electronic/Programmable Electronic Safety-related Systems. International Electrotechnical Commission, 2010.

ISSN 3030-3907

8. ISO 13849. Safety of Machinery – Safety-related Parts of Control Systems. International Organization for Standardization, 2015.
9. ISA-99/IEC 62443. Industrial Automation and Control Systems Security Standards. International Society of Automation, 2018.

ISSN 3030-3907

ОБ ОДНОМ 2π-ПЕРИОДИЧЕСКОМ РЕШЕНИИ СИНГУЛЯРНО ВОЗМУЩЕННОГО УРАВНЕНИЯ ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА

Махмуд Махаммадович Сайдаматов
Университет геологических наук кандидат
E-mail: m.saydamatov@unigeo.uzb,
https://orcid.org/0009-0007-0121-9492
Уткир Бердиевич Мардиев
Университет геологических наук PhD
E-mail: o.mardiev@unigeo.uz,
https://orcid.org/0009-0002-6474-4757
Нилуфар Вайитовна Жураева
Университет геологических наук кандидат
E-mail: mina-uzb@mail.ru,
https://orcid.org/0000-0001-6163-0151

Аннотация. В данной работе исследуется задача о существовании и построении 2π-периодического по времени решения для сингулярно возмущенного уравнения гиперболического типа. Методами регуляризации и асимптотического анализа изучается поведение решений при стремлении малого параметра ε к нулю. Установлены условия существования регулярного решения и его аппроксимация при малых ε. Приведены оценки остаточных членов и исследована устойчивость полученных решений.

Ключевые слова: сингулярное возмущение, гиперболическое уравнение, периодическое решение, регуляризация, асимптотический метод.

Abstract. This paper investigates the existence and asymptotic behavior of 2π-periodic in time solutions to a singularly perturbed hyperbolic-type partial differential equation. The problem is analyzed in the context of small-parameter asymptotics using regularization techniques. The limit problem is identified, and a formal asymptotic expansion of the solution is constructed. Error estimates for the remainder term are derived, and conditions for the stability and uniqueness of the periodic solution are established.

Keywords: singular perturbation, hyperbolic equation, periodic solution, regularization, asymptotic expansion.

Annotatsiya. Ushbu maqolada singular toyilgan giperbolik tipdagi tenglamaning 2π -davriy yechimining mavjudligi va qurilishi muammosi o‘rganiladi. Kichik parameter ε nolga intilganda yechimni o‘rganish uchun regulyarizatsiya va asimptotik tahlil usullari qo‘llanilgan. Regulyar qisminining yechimni mavjudligi va uning kichik parameter ε uchun yaqinlashuv shartlari aniqlangan. Qoldiq hadi baholanib, olingan yechimlarning barqarorligi tekshirilgan.

ISSN 3030-3907

Kalit so‘zlar: singular perturbatsiya, giperbolik tenglama, davriy yechim, regulizatsiya, asimptotik usul.

ВВЕДЕНИЕ

Многие прикладные задачи механики, физики и инженерных наук сводятся к исследованию краевых задач для уравнений в частных производных. Особый интерес представляют уравнения гиперболического типа, описывающие волновые процессы. Если в таких уравнениях присутствует малый параметр при старшей производной, возникают сингулярные возмущения, что существенно осложняет анализ.

Понятие асимптотического разложения функции и асимптотического ряда были введены Анри Пуанкаре при разрешении задач небесной механики. Отдельные случаи асимптотического разложения были открыты и применялись ещё в XVIII в. Асимптотические разложения и ряды играют важную роль в различных задачах математики, механики и физики. В развитии этого направления значительный вклад внесли А.Н.Тихонов, В.Вазов, А.Б.Васильева, М.И.Иманалиев, С.А.Ломов, В.Ф.Бутузов, К.А.Касымов и др. Усилиями этих ученых и их учеников созданы различные асимптотические методы решения сингулярно возмущенных уравнений.

Теоретической основой метода регуляризации состоит в том, что решение сингулярно возмущенной задачи зависит от возмущения: регулярно и сингулярно.

При решении задач с открытой областью управления используется “метод пограничных функций” или “пограничного слоя”, разработанный А. Б. Васильевой и впоследствии усовершенствованный с учениками В. Ф. Бутузовым, Н. Н. Нефедовым.

начальная влажность стебля столовой свеклы составила 85%, конечная влажность 10%, скорость воздуха 0,75 м/с, воздействие ультразвука 20 кГц, температура сушки 55 ^{0}C, время сушки 280 минут. Сушку рекомендуется проводить с учетом этих параметров.

СПИСОК ИСПОЛЬЗУЕМОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Pandiselvam R., Alev Yüksel Aydar, Naciye Kutlu, Raouf Aslam, Prashant Sahni, Swati Mitharwal, Mohsen Gavahian, Manoj Kumar, Anto´nio Raposo, Sunghoon Yoo, Heesup Han, Anjineyulu Kothakota. Individual and interactive effect of ultrasound pre-treatment on drying kinetics and biochemical qualities of food: A critical review. Ultrasonics Sonochemistry 92, 2023. 106261. p.1-20.

2. Gallo M., Ferrara L., Naviglio D. Application of ultrasound in food science and technology: a perspective, Foods 7 (10), 2018. 164. p.1-7. https://doi.org/10.3390/foods7100164.

ISSN 3030-3907

3. Mousakhani-Ganjeh A., Amiri A., Nasrollahzadeh F., Wiktor A., Nilghaz A., Pratap-Singh A., Khaneghah A.M. Electro-based technologies in food drying-A comprehensive review, LWT-Food Sci. Technol. 145, 2021. 111315. p.1-18. https://doi. org/10.1016/j.lwt.2021.111315.
4. Aydar A.Y. Emerging extraction technologies in olive oil production. In Technological innovation in the olive oil production chain. IntechOpen. 2018. p.11-20. 10.5772/intechopen.78420.
5. Aydar A.Y., Yilmaz T., Mataraci C., Sag˙lam T. Gıdaların Kurutulmasında Ultrason O¨n I˙s¸leminin Kullanımı, J. Inst. Sci. Technol. 11 (2), 2021. p.1165-1175, https:// doi.org/10.21597/jist.775565.
6. Xu B., Tiliwa E.S., Yan W., Azam S.R., Wei B., Zhou C., Bhandari B. Recent development in high quality drying of fruits and vegetables assisted by ultrasound: a review, Food Res. Int. 2021. 110744. p.1-15. https://doi.org/10.1016/j. foodres.2021.110744.
7. Nowacka M., Dadan M., Ultrasound-Assisted Drying of Food, in: M. Gavahian (Ed.), Emerging Food Processing Technologies. Methods and Protocols in Food Science, Humana, New York, NY, 2022. p.1-24. https://doi.org/10.1007/978-1-0716-2136-3_7.
8. Zhang L., Liao L., Qiao Y., Wang C., Shi D., An K., Hu J. Effects of ultrahigh pressure and ultrasound pre-treatments on properties of strawberry chips prepared by vacuum-freeze drying, Food Chem. 303, 2020. 125386. p.1-9. https://doi. org/10.1016/j.foodchem.2019.125386.
9. Najafli M.R., Safarov J.E., Sultanova Sh.A., Mukhiddinov Q.A. Types of drying devices and principles of operation. V International scientific-technical conference “Innovative solutions: sustainable development in agriculture and food industry”. -Tashkent, 2025. P.375-377.
10. Najafli M.R., Safarov J.E., Sultanova Sh.A. The oretical analysis of the convective drying process of beets. V International scientific-technical conference “Innovative solutions: sustainable development in agriculture and food industry”. -Tashkent, 2025. p.254-255.
11. Сафаров Ж.Э., Султанова Ш.А., Нажафли М.Р. Применение ультразвуково-конвективной технологии при сушке пищевых продуктов. // Central Asian Food Engineering and Technology. Tashkent, 2025/2. Vol.3., Iss. 2. С.20-28.
12. Сафаров Ж.Э., Султанова Ш.А., Нажафли М.Р. Механизм переноса воды в пористых средах. // Central Asian Food Engineering and Technology. Tashkent, 2024. Vol.2., Iss. 8. С.152-157.

ISSN 3030-3907

13. Нажафли М.Р., Сафаров Ж.Э., Султанова Ш.А. Теоритическое исследование переноса влаги для твердой фазы. // Central Asian Food Engineering and Technology. Tashkent, 2024. Vol.2., Iss. 10. C.141-146.

ISSN 3030-3907

ИНТЕРКАЛЯР СОРБЕНТЛАР ОЛИШ.

Jumayeva Zoxida Jamshitovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti davolash fakulteti
Pardayeva Sohiba Bo`riyevna
Samarqand davlat tibbiyot uniersiteti
Samarqand viloyati O'zbekiston

Аннотация. Ишда Қарнабота каолинидан, Каттақўргон ва Навбаҳор бентонит конидан олинган табиий тупроқларни интеркаллаш жараёни, ҳосил бўлган моддаларнинг физик-кимёвий, структур ва текстур характеристикалари ўрганилган. Таркибида Al_{13} поликатиони бўлган эритма алюминий хлоридни гидролизлаш усулида тайёрланди. $AlCl_3 \cdot 6H_2O$ эритмага томчи усулида pH 4.3-4.7 бўлганда NaOH $[OH^-]/[Al^{3+}]=2,4$ нисбатда бўлгунча уй ҳароратида қўшилиб берилди. Сўнг эритма 24 соат давомида 60^0C ҳароратда тинитиб қўйилди, натижада Al_{13} полигидроксокомплекс ҳосил бўлди. Al_{30} поликатион таркибли эритма рецептига асосан гидротермал қайта ишлаш усулида, Al_{13} сақловчи 115^0C ҳароратда 5 соат тиндирилган эритмадан олинди. Катта ўлчамли Al/Fe полигидроксокомплексли эритмалар гидротермал қайта ишлаш йўли билан юқори босимли реакторда (20 соат давомида 135^0C да) $Al_2(OH)_5Cl$ ва $FeCl_3 \cdot 6H_2O$ эритма аралашмасида моляр нисбати Al:Fe =15. Al^{3+} га нисбатан (x) эритма концентрацияси x=2.5,3.7,4.3,5.1M (x>6M холатда чўкма ҳосил бўлади). 20гр бентонит 1литр дистилланган сувга солинди ва 24 соатдан сўнг суспензия юқори қатлами центрафугаланди. Ажралган ММ (монтмориллонит) фракция зарралари ўртача ўлчами 2мкм бўлганда 60^0C да қуритилди. ММ Al_{13}, Al_{30} ва Al/ Fe полигидроксокомплексли интеркаляцияси 1% сувли суспензияда ион алмашинуви орқали интеркалловчи эритма қўшиш йўли (3моль Al^{3+}/г ММ) ва 80^0C ҳароратда 2 соат давомида кучли магний аралаштиргич ёрдамида амалга оширилди. 12 соатдан сўнг уй ҳароратида суспензия Cl^- ионларидан ювиб тозаланди.

Калит сўзлар: бентонит, каолин, сорбент, монтмориллонит, интеркаляция, технологик схема.

Аннотация. В работе исследован процесс интеркаляции природных грунтов, полученных из каолиновых месторождений Карнабота, Каттакурганского и Навбахорского бентонитовых месторождений, а также физико-химические, структурные и текстурные характеристики полученных веществ. Раствор, содержащий поликатион Al_{13}, был приготовлен методом гидролиза хлорида алюминия. При pH 4,3-4,7 к раствору $AlCl_3 \cdot 6H_2O$ при комнатной температуре по каплям добавляли NaOH до достижения соотношения $[OH^-]/[Al^{3+}]=2,4$.

ISSN 3030-3907

Затем раствор прокаливали при 600°C в течение 24 часов, в результате чего образовывался полигидроксикомплекс Al_{13}. Раствор, содержащий поликатион Al_{30}, был получен гидротермальной обработкой по рецептуре из раствора, содержащего Al_{13}, который прокаливали при 1150°C в течение 5 часов. Крупноразмерные растворы полигидроксикомплексов Al/Fe были получены гидротермальным методом в реакторе высокого давления (при 1350°C в течение 20 часов) в смеси растворов $Al_2(OH)_5Cl$ и $FeCl_3 \cdot 6H_2O$ с молярным соотношением Al:Fe = 15. Концентрация раствора (x) относительно Al^{3+} составляла x = 2,5, 3,7, 4,3, 5,1 M (осадок образуется при x > 6 M). 20 г бентонита растворяли в 1 литре дистиллированной воды, и через 24 часа верхний слой суспензии центрифугировали. Отделенную фракцию монтмориллонита (ММ) сушили при 600°C, когда средний размер частиц составлял 2 мкм. Интеркаляция ММ с Al_{13}, Al_{30} и полигидроксикомплексами Al/Fe проводилась в 1% водной суспензии методом ионного обмена путем добавления интеркалирующего раствора (3 моль Al^{3+}/г ММ) и перемешивания при 800°C в течение 2 часов с использованием мощной магниевой мешалки. Через 12 часов суспензию промывали для удаления ионов Cl^- при комнатной температуре.

Ключевые слова: бентонит, каолин, сорбент, монтмориллонит, интеркаляция, технологическая схема.

Abstract. This paper examines the intercalation process of natural soils obtained from the Karnabot kaolin deposits and the Kattakurgan and Navbahor bentonite deposits, as well as the physicochemical, structural, and textural characteristics of the resulting substances. A solution containing the Al_{13} polycation was prepared by aluminum chloride hydrolysis. NaOH was added dropwise to an $AlCl_3 \cdot 6H_2O$ solution at room temperature at a pH of 4.3-4.7 until a $[OH^-]/[Al^{3+}]$ ratio of 2.4 was achieved. The solution was then calcined at 600°C for 24 hours, resulting in the formation of the Al_{13} polyhydroxy complex. A solution containing the Al_{30} polycation was obtained by hydrothermal treatment according to the recipe from a solution containing Al_{13}, which was calcined at 1150°C for 5 hours. Large-sized solutions of Al/Fe polyhydroxy complexes were obtained by the hydrothermal method in a high-pressure reactor (at 1350°C for 20 h) in a mixture of $Al_2(OH)_5Cl$ and $FeCl_3 \cdot 6H_2O$ solutions with an Al:Fe molar ratio of 15. The solution concentration (x) relative to Al^{3+} was x = 2.5, 3.7, 4.3, 5.1 M (a precipitate is formed at x > 6 M). 20 g of bentonite was dissolved in 1 liter of distilled water, and after 24 h the upper layer of the suspension was centrifuged. The separated montmorillonite (MM) fraction was dried at 600°C when the average particle size was 2 μm. Intercalation of MM with Al_{13}, Al_{30}, and Al/Fe polyhydroxy complexes

ISSN 3030-3907

was carried out in a 1% aqueous suspension using ion exchange. The intercalating solution (3 mol Al^{3+}/g MM) was added and stirred at 800°C for 2 hours using a powerful magnesium stirrer. After 12 hours, the suspension was washed at room temperature to remove Cl^- ions.

Keywords: bentonite, kaolin, sorbent, montmorillonite, intercalation, flow chart.

КИРИШ

Ҳозирги кунда дунё миқёсида турли мақсадларда қўлланиладиган юқори самарали функционал наноструктураланган материалларни йўналтирилган синтези соҳасида кенг қамровли илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Хусусан, бундай материаллар катализаторлар, сорбентлар, дори воситаларини ташувчилар, мембраналар, композит материаллар учун тўлдиргичлар, керамика ва бошқа соҳаларда самарали қўлланилмоқда. Кўпгина каталитик ва адсорбцион жараёнларни ривожланган наноговакли тузилишга эга бўлган материалларсиз амалга ошириш деярли мумкин эмас. Шу боис кремний ва алюминий сақловчи оксидли материаллар, ҳам табиий, ҳам синтетик турлари, кенг қўлланилиб, катта илмий аҳамиятга эга ҳисобланади. Уларнинг муҳим афзалликларидан бири синтез жараёнида ва кейинги модификация босқичларида ғовакли тузилиши ҳамда кимёвий таркибини мақсадли равишда бошқариш имконияти мавжудлигидир, бу эса зарур функционал хоссаларга эга материаллар олишни таъминлайди.

Алюмосиликатларни ўзгарувчан валентли металларни киритиш орқали модификация қилиш уларнинг оксидланиш-қайтарилиш хусусиятларини намоён этиш имконини беради ва натижада бундай материаллар оксидланиш-қайтарилиш катализни амалга оширишда, жумладан, экологик муаммоларни ҳал этишда самарали қўлланилиши мумкин. Органик моддаларнинг каталитик оксидланиши газ чиқиндилари ва оқова сувларни зарарсизлантиришнинг самарали усулларидан бири ҳисобланади [9–12].

Пилларлаш интеркаллашнинг хусусий ҳолати бўлиб, унда ноорганик бирикмалар алюмосиликатларнинг қатламлараро бўшлиғига киритилади. Жараённинг айрим хусусиятларидан қатъи назар, модификация қилиш жараёнини учта асосий босқичга ажратиш мумкин:

a) металл ионларининг гидролизи натижасида полиядерли гидроксокомплекслар ҳосил бўлиши, яъни пилларлаш эритмасини тайёрлаш;

b) ион алмашиниш жараёни;

c) модификацияланган материални термик ишловдан ўтказиш.

Қатламли алюмосиликатларни пилларлаш жараёнида монтмориллонит сувли эритмаларда шишади, бу эса алюмосиликат қатламлари орасидаги масофанинг ортишига олиб келади. Алюмосиликат пилларлаш эритмасига

ISSN 3030-3907

жойлаштирилади; мазкур эритма металларнинг полиядерли гидроксокатионларини сақлайди.

Натижада глина қатламлари орасида жойлашган катионлар йирик ўлчамли полиядерли гидроксокомплексларга ион алмашиниш орқали алмаштирилади. Полигидроксокомплекслар, одатда, металл катионларининг NaOH эритмаси билан гидролизи натижасида ҳосил қилинади.

Ишнинг мақсади – суюқ ва газсимон муҳитларни тозалаш ва ажратиш учун наноструктурали гилларни олиш, уларни модификация қилиш ва қўллашнинг физик-кимёвий ҳамда технологик асосларини ишлаб чиқиш.


ТАЖРИБА ҚИСМИ

Ўрганиш объектлари сифатида Қарнабота каолинидан, Каттақўргон ва Навбаҳор бентонит конидан олинган табиий тупроқдан фойдаланилди.

Таркибида Al_{13} поликатиони бўлган эритма алюминий хлоридни гидролизлаш усулида тайёрланди. $AlCl_3 \cdot 6H_2O$ эритмага томчи усулида pH 4.3-4.7 бўлганда NaOH $[OH^-]/[Al^{3+}]=2,4$ нисбатда бўлгунча уй ҳароратида қўшилиб берилди. Сўнг эритма 24 соат давомида 60^0C ҳароратда тинитиб қўйилди, натижада Al_{13} полигидроксокомплекс ҳосил бўлди. Al_{30} поликатион таркибли эритма рецептига асосан гидротермал қайта ишлаш усулида, Al_{13} сақловчи 115^0C ҳароратда 5 соат тиндирилган эритмадан олинди. Катта ўлчамли Al/Fe полигидроксокомплексли эритмалар гидротермал қайта ишлаш йўли билан юқори босимли реакторда (20 соат давомида 135^0C да) $Al_2(OH)_5Cl$ ва $FeCl_3 \cdot 6H_2O$ эритма аралашмасида моляр нисбати Al:Fe =15. Al^{3+} га нисбатан (x) эритма концентрацияси x=2.5,3.7,4.3,5.1M (x>6M холатда чўкма ҳосил бўлади).

20гр бентонит 1литр дистилланган сувга солинди ва 24 соатдан сўнг суспензия юқори қатлами центрафугаланди. Ажралган ММ (монтмориллонит) фракция зарралари ўртача ўлчами 2мкм бўлганда 60^0C да қуритилди. ММ Al_{13}, Al_{30} ва Al/ Fe полигидроксокомплексли интеркаляцияси 1% сувли суспензияда ион алмашинуви орқали интеркалловчи эритма қўшиш йўли (3моль Al^{3+}/г ММ) ва 80^0C ҳароратда 2 соат давомида кучли магний аралаштиргич ёрдамида амалга оширилди. 12 соатдан сўнг уй ҳароратида суспензия Cl^- ионларидан ювиб тозаланди.

ISSN 3030-3907



Бентонитни интеркаляциялаш схемаси

Адсорбцион хоссаларни текшириш усуллари. Адсорбция бўйича экспериментлар қуйидагича олиб борилди: 0,1 гр адсорбент 50 мм ли цилиндрик стаканга солиб, унга 20 мл бўёқ аралашмаси солиб 15 минутдан 1440 минутгача доимий 400 айл/мин тезлик билан 20^0C ҳароратда аралаштириб турилди. Эксперимент тугаганидан сўнг адсорбент аралашмадан центрифугалаш усулида 8000айл/мин 4 минут давомида ажратиб олинди. Аралашмада бўёқ концетрацияси спектрофотометр УФ-is U-2001(“Hitachi”) ёрдамида максимал ютилиш λ тўлқин узунлигида (қизил кислота 17 учун λ_{max}=514 нм, метал мовий ранг бўёқ учун λ_{max}=663 нм) ўрганилди. Адсорбция жараёнига pH нинг таъсирини ўрганиш учун (2,0-13,0 соҳада) аралашмага HCl (0,1M) ёки NaOH (0,1M) қўшиб pH метр ёрдамида ўлчанди. Адсорбция кинетик эгрилигини олиш учун намуналар тажриба стаканларидан 15,60, 120, 180, 300, 1440 минда олинди. Адсорбция изотермасида бўёқнинг қолдиқ концентрациясини таҳлил қилиш йўли билан бўёқнинг ошиб бориш таркибида 10 дан 100мг/л сувли эритмада олинди. (q_t) мобайнида адсорбцияланган намуна таркибидаги бўёқ миқдори қуйидаги тенгламадан аниқланади.

$$q_t = \frac{V(C_0 - C_t)}{m}$$

Бунда C_0 ва C_t (мг/мл) – бўёқ концентрацияси бошланғич ва t (мин) вақтдаги қийматлари, V-аралашма ҳажми (мл), m- қуруқ адсорбент массаси.

Адсорбция кинетикаси. Сорбцион жараённинг кинетикасини ўрганиш учун анион ва катион бўёқлари сувнинг эритмаси ММга аралашмани икки яхши мълум бўлган кинетик модел учун қаттиқ сорбентнинг суюқ мухитдаги адсорбцияси усулидан фойдаланилди. Биринчи

ISSN 3030-3907

тартиб *Лагергрена* (1 ва 3) ва иккинчи тартиб *Хо* ва *Маккея* (2 ва 4) фойдаланилди:

Ночизиқли $$q_t = q_e(1\text{-}e^{-k_1 t}) \quad (1)$$

$$q_t = \frac{k_2 q_e^2 t}{1+k q_e t} \quad (2)$$

Чизиқли $$ln(q_e - q_t) = lnq_e - k_t t \quad (3)$$

$$\frac{t}{q_t} = \frac{1}{k_2 q_e^2} + \frac{1}{q_e} t \quad (4)$$

Бунда, q_t ва q_e - мувозанат ва вазиятда вақтнинг берилган моментида адсорбцион бўёқ миқдори; $К_1$(мин $^{-1}$) ва $К_2$(мг/(г·мин)) – биринчи ва иккинчи тартибли мос равишда адсорбция тезлиги доимийси.

Адсорбция изотермаси. Адсорбция изотермасини ёзиш учун адсорбцион доимийликни икки моделидан *Ленгмюра* (5 ва 7) ва *Фрейндлиха* (6 ва 8) классик интерпретацияси қуйидагига кўринишга эга.

Ночизиқли $$q_e = \frac{q_m K_l \ C_e}{1+K_l \ C_e} \quad (5)$$

$$q_e = K_F C_e^{1/n} \quad (6)$$

Чизиқли $$\frac{C_e}{q_e} = \frac{1}{K_L q_m} + \frac{C_e}{q_m} \quad (7)$$

$$lnq_e = \frac{1}{n} lnC_e + lnK_F \quad (8)$$

Бунда Fe- аралашмада бўёқ концентрацияси мувозанати (мг/л); q_m- максимал сорбцион сиғим (мг/г); K_L (мг/г) ва *Ленгмюр* ва *Фрейндлих* мувозанат доимийликлари; n- гетерогенлик фактори.

Тупроқсимон руданинг донометрик таркиби. Тупроқни донометрик таҳлил учун тайёрлаш чинни косачага солиб ўлчами 1мм гача бўлган донсимон доначаларга бўламиз. Донасимон (гранулаларни) таркиб пипеткадан ўтказиш усулида ГОСТ 21216.2-81 асосида амалга оширилади. Бу усул турли ўлчамдаги заррачаларнинг сувга турлича тезликлар билан тушишига асосланган. Суспензияни ювиш фақатгина бир маротаба амалга оширилади, сўнг маълум вақтдан кейин маълум чуқурликдан намуна шаклида ўрганиш учун пипеткага олинади.

Донаметрик таркиб.

Тупроқнинг донали таркибини ўрганиш учун уни ёғочдан ясалган ўғирчага солиб чинни туйгич ёрдамида 1мм ўлчамга келгунча янчилади. Майдаланган бўлакчаларнинг хоссалари пипетка усулида ГОСТ 21216.2-81. Усулида аниқланди. Доналарни ажратиш мақсадида концентрацияси 40 г/л концентрацияли натрий пирофосфорендан фойдаланилди.

Олинган натижалар шуни кўрсатадики Каттақўрғон ва Навбаҳор конидан олинган табиий намуналар (намуна 2 ва 3 мос равишта) бўлиниш

ISSN 3030-3907

фракцияси таркиби (ўлчами 1мкм дан кичик) ГОСТ 9169-75 га асосан катта бўлакли тупроқ хомашёга мансуб. Шуни таъкидлаб ўтиш керакки Навбаҳор конидан олинган (3-намуна) ўзида кўп қум фракциясини сақлаганлиги учун у қумли тупроқлар синфига мансуб. Ўрганилган объектлар ичида фақатгина Қарнаб ота конидан олинган (1-намуна) тупроқ кичик бўлинувчи пластик тупроқ гуруппасига мансуб хомашё ҳисобланади.

Олинган натижаларни солиштириш шуни кўрсатадики табиий фракциядаги тупроқлар ва сунъий бойитилган тупроқлар орасидаги фарқ жуда ҳам кам бўлиб бу бойитилиш жараёни эффект бермаганлигидан далолат беради, Масалан: Қарнабота ва Каттақўрғон тупроқларида табиий ва бойитилган тупроқлардаги ўзгариш 4-6%, Навбаҳор тупроғидаги ўзгариш эса бор йўғи 5% ни ташкил қилади.

Тупроқ намуналаридаги адсорбцияланиш хоссасини яққол кузатиш учун намуна бойитилишидан олдин, бу намуналар механик тарзда ўғирчалар ёрдамида кичик бўлакларга янчилиб сўнг сутка давомида ювиб, шундан сўнг тупроқли фракция танлаб олиниб 10 см дан чуқур бўлмаган намуналар олиниши керак.


Бойитилган тупроқларнинг ўрганилаётган компонентларга жуда кам таъсири ўрганилаётган тупроқларнинг химиявий таркибида ҳам номоён бўлади. Навбаҳор ва Каттақўрғон тупроқлари кўп миқдорда бўёқ оксидига эга. Шуни айтиш керакки юқорида кўрсатилган намуналарда ишқор оксидларининг кўпайиши тупроқ таркибида дала шпати, гидрослюда ва бошқа бирикмалар мавжудлигининг натижасидир.

Таҳлиллар ва солиштириш натижалари шуни кўрсатадики барча ўрганилган тупроқ намуналари яриненерал таркибга эга хомашёлар ҳисобланади, қайсинким уларнинг тупроқли таркиби жуда мураккаб бўлиб иллит ва коалинит кўринишидаги гидросилюд аралашмасидан иборат.


Бу рефлексларда монтмориллонит (d-14,73-14,56; 6,43-6,48; 2,54-2,60 *Å*), иллит (d- 4,47;3,38; 3,31-3,24; 2,98*Å*), каоллинит (d-7,15-7,20; 3,58-3,57; 2.56*Å*). Катта дисперц (грубодисперсной) қисмда (қумли ва кўпикли фракция) кварц материали қўшилгани учун (d-2,46; 3,36-3,34; 2,29; 2,24-2,25*Å*), ортоклаз шаклидаги дала шпатида (d-3,80; 3,20-3,18; 2,92; 2,53 *Å*), Навбаҳор тупроғида (d-5,03; 3,50; 3,20; 2,34-2,35*Å*). Ўрганилган намуналарда минералларнинг миқдори рефлекслар рентгенограммасидаги спектрлар интенсивлигига қараб аниқланди. Олинган натижалар 1-жадвалда келтирилган. Барча ўрганилган намуналар монтмориолонит- каолинит-гидрослюд тупроқларидан иборат. Ўрганилган намуналар шуни кўрсатадики Қарнаб ота тупроғи бойитилган ҳолатда (4 намуна) ўзида кўпроқ

ISSN 3030-3907


тупроқсимон минераллар сақлаган. Каттақўрғон ва Навбаҳор тупроқ намуналаридан монтмориллонит миқдори табиий ва бойитилган ҳолатлардан 2 маротаба фарқ қилади. Коаллинит ва гидрослюд 1,5 баробар фарқ қилади. Каврц рефлекси рентгенограммада яққол намоён бўлади.



1-расм. Қарнабота табиий тупроғининг ДСК-ТГ эгрилиги



2-расм. Каттақўрғон табиий тупроғининг ДСК-ТГ эгрилиги



3-расм. Навбаҳор табиий тупроғининг ДСК-ТГ эгрилиги

ISSN 3030-3907

Рентгенограммадаги рефлекслар интенсивлигидан шу нарса аниқ бўлдики 3 ва 6 намуналарда кварц миқдори бир неча марта ортган ДСК-ТГ эгриликдаги биринчи эффект (1-расм) Қарнаб ота конидан олинган табиий тупроқ 100-170^{0}С гигроскопик сув буғланиши ҳисобидан масса 11% га камайган, иккита қолган эгрилик ДСК-ТГ Каттақўрғон (2-расм) ва Навбаҳор (3-расм) олинган тупроқлар бўлиб уларда ҳарорат 106,6-112,3^{0}С оғирлик йўқолиши 3% ва 15% ни ташкил қилади. Кейинги эффектлар сув концентрациясининг камайиши билан боғлиқ. Сув буғланиш ҳисобидан кристал панжарадаги боғламлар кучсизланади. Бу монтмориллонит тупроқга хос хусусият. 2-3-расмлардан кўринадики эндотермик реакция каолинит тупроқга хос бўлиб у 510 ва 520^{0}С да ўрганилган. Бу гидроген (сув) концентрацияси камайиши билан минералда аморфланиш хусусияти ошиб каолинит структурасидаги тартиб сақланади. Табиий тупроқда юзасида мм миқдори (110^{0}С), м^2/г: 119>94>65 каби камайиши кузатилди.

1-жадвал

Тупроқсимон руда рентген рефлекслари интенсивлиги.

Тупроқлар	Рефлекс абсолют интенсивлиги, мм					
	Тупроқсимон минераллар			Аралашмали минераллар		
	монтмориллонит d-14,73-14,56Å	Каоллинит d-7,20-7,15Å	Гидрослюда d-2,98Å	Кварц d-3,34Å	Ортоклаз d-3,20-3,18Å	Мусковит d-2,35-2,34Å
Қарнаб ота тупроғи						
Табиий 1-намуна	187	86	44	208	24	-
Бойитилган 4-намуна	191	90	37	93	22	-
Каттақўрғон тупроғи						
Табиий 2-намуна	65	49	35	229	62	-
Бойитилган 5-намуна	158	60	40	217	21	-
Навбаҳор тупроғи						
Табиий	67	35	25	318	52	27

ISSN 3030-3907

3-намуна						
Бойитилган 6-намуна	152	62	33	310	41	26

Ўрганилган табиий тупроқлардан Қарнаб ота тупроғи (4-намуна) таркибида монтмориллонит миқдори кўплиги туфайли уларда сорбентлар ва катализаторлар тайёрлаш тавсия этилди.

2-3-жадвалларда келтирилган маълумотлардан кўринадики тупроқларнинг сирт кўриниши унинг олиниш шароити билан боғлиқ (унга ультратовуш таъсирида қайта ишлаш, қаттиқ ва суюқ фазалар (Т:Ж) нисбати мольлардаги муносабати ОН/металл). Бу тажрибалар натижасига кўра сорбент олиш учун оптимал шароит ўрганилди.

2-жадвал

Солиштирма сирт катталигига ультратовуш ишлови таъсирида Al-Тупроқлар ва Fe-тупроқлар-к

Намуна	УТ таъсири	$S_{сол.} м^2.г^{-1}(400^0C)$
Al-тупроқ-1	УТ билан	242
Al-тупроқ-2	УТ сиз, Na-ММ орқали	203
Fe-тупроқ-к-1	УТ билан	129
Fe-тупроқ-к-2	УТ сиз, Na-ММ орқали	115

3-жадвал

Синтез жараёнининг солиштирма сирт катталиги таъсирида Al-тупроқ-1 ва Fe-тупроқ-к

Намуна		Қ:С	ОН/Ме	$S_{сол.} м^2.г^{-1}(400^0C)$
Al-тупроқ-1	I	1:10	2,0	153
	II	1:50	2,0	242
	III	1:100	2,0	184
	IV	1:50	1,5	205
	V	1:50	2,5	220
Fe-тупроқ-к	I	1:10	1,5	129
	II	1:50	1,5	108
	III	1:100	1,5	96

2-3-жадвалда келтирилган маълумотлардан кўринадики келтирилган сирти максимал яхши материал олиш учун гидроксил ионлари ва метал ионлари концентрацияси муносабатлари 2:0 нисбатда бўлганда сифатли полигидрокомплекс алюминийнинг оптимал модификациясини олиш мумкин бўлади. Агар метал миқдори 1,5 бўлса Т:Ж (қаттиқ жисм: суюқлик)

ISSN 3030-3907

нисбати алфминий модификацияланган материалларда 1:50 нисбатда, темирмодификацияланган хисмларда 1:10 нисбатда бўлади. Сиртга ултратовуш билан ишлов берилганда сорбентлар ва котализаторлар ажралиши 11-16% га ошади. Буларни ҳисобга олган холда модификацияланган тупроқ олишда қуйидаги схемадан фойдаланилади. Табиий тупроқ аралаштиргичга солиниб унинг устига сув солинади ва уй ҳароратида 24 соат давомида шишиши учун қўйиб қўйилади. Шундан сўнг тупроқ суспензияси 3минут давомида частотаси 22кГц бўлган ултратовуш билан қайта ишланади.

Модификацияланган тупроқдан олинган намуналари аралаштиргичга солиб хлорид-ион тескари реакциясига қадар ювилади. Сўнг уй ҳароратида қуритилган материаллар майдаланди ва 400^0C ёки 500^0C ҳароратда қиздирилади.

Қарнаб ота конидан олинган табиий тупроқларнинг ва асосий хоссалари ўрганилди. Al-, Fe-, Fe-Al-модификациялари хоссалари миқдор жиҳатдан синтез жараёнлари билан узвий боғлиқлиги аниқланди (4-жадвал).

4-жадвал

Текиширилган намуналар хоссалари


Намуна		$S_{уд}$ $м^2.г^{-1}$	$\sum V_{пор}$ $см^3.г^{-1}$	$D_{пор}$, Å	$\sum V_{\mu}$ $см^3.г^{-1}$	d_{00}, Å
Табиий тупроқ	110^0C	119	0,273	91	0,004	14,7
	400^0C	113	0,268	97	-	11,4
	500^0C	109	0,249	93	-	11,0
Al-тупроқ-1	110^0C	274	0,248	97	0,076	19,1
	400^0C	242	0,246	99	0,065	17,9
	500^0C	192	0,221	96	0,046	17,2
Al-тупроқ-2	400^0C	203	0,316	65	0,031	18,0
	500^0C	179	0,308	68	0,023	17,5
Fe- тупроқ-о	100^0C	138	0,325	94	0,005	13,9
	500^0C	117	0,323	103	0,004	9,6
Fe- тупроқ-к	100^0C	127	0,246	77	-	14,2
	500^0C	129	0,274	85	-	13,4
Fe-Al- тупроқ-о	100^0C	146	0,280	77	-	13,0
	500^0C	118	0,258	89	0,004	9,6
Fe-Al- тупроқ-к	110^0C	147	0,233	63	0,003	14,7
	400^0C	136	0,280	69	0,002	14,5
	500^0C	132	0,241	72	-	13,8

ISSN 3030-3907

$S_{сол}$ - солиштирма сирт умумий майдони.
$V_{руд}$ – руданинг умумий ҳажми
$D_{руд}$ – руданинг ўртача диаметри
D_{001}- текисликлар орасидаги масофа
$S_м$ – кичик зарралар солиштирма сирти
$V_м$ – кичик зарраларнинг ҳажми.

$S_{кел.}$- умумий сирт юзаси, $V_{руд}$ –руданинг умумий ҳажми, $D_{руда}$ – руданинг ўртача диаметри, d_{001}- текисликлар орасидаги масофа, S_μ- микроруда сирт юзаси, V_μ- микроруда ҳажми.


Табиий тупроқлар структураси ва улар асосида олинган модификация намуналари адсорбцияси паст ҳароратда (азот 77К) ўрганилди. Табиий тупроқларнинг (4-расм) изотермасида гистерезис мавжудлиги, яъни капиляр-конденсация ҳалқаси борлиги кўринади, бу сорбентларга хос жараён.



4-расм. 110^{0}С ҳароратда қуритилган табиий тупроқда азот адсорбцияси изотермаси

Гистерезис ҳалқаси шакли В типга мансуб бўлиб де Бур классификациясига хос, бу тупроқ таркибида тирқишсимон ва ясси параллел рудалар борлигини кўрсатади. Шунингдек тирқишлар шаклланиши десорбция тармоғи борлигини кўрсатади. Изотермик P/P_o 1га яқин бўлади, сорбцион эгрилик кескин кўтарилишини кўрсатади. Шунингдек бир жараён тупроқ таркибида катта ўлчамдаги рудалар мавжудлиги яъни монтморилонит борлигини кўрсатади.

ISSN 3030-3907




5-расм. 110⁰С ҳароратда кўрсатилган табиий тупроқ намуналарининг ўлчамларига боғлиқ равишда тақсимланиш эгрилиги

ИҚ- спектроскопия ҳам пастда бўладиган структуравий ўзгаришлар ҳақида маълумот беради (6-расм). Табиий тупроқ ИҚ спектрларида ютилиш тўла полосалари (п.п.), бу ММ. Структурасига хос хусусиятдир. 1090 ва 1044 $см^{-1}$ п.п. кремний кислороднинг тетраэдирларига хос валент тебранишга мос келади. 580, 425 ва 340 $см^{-1}$ соҳадаги п.п. кремний кислород тетраэдри ва алюминийкислород октаэдрларидаги деформацион тебранишга мансуб.

Табиий тупроқ ва Na-тупроқ ютилиш спектрлари солиштирилганда шу нарса кузатилдики, алмашувчи катионлар ва натрий катионлари учун алмашганда 1090 ва 1044$см^{-1}$ ю.п. интенсивлигида валент тебранишига мос келувчи кремний кислород тетраэдр қатлами сезиларли ўзгаради (6-расм, 2-спектр). 580, 425 ва 340$см^{-1}$ кремний кислород тетраэдри ва алюминийкислород октаэдри полосаларида деформация тебранишлари умуман йўқолади ва кескин камаяди. ИҚ спектридаги бундай ўзгаришлар тетроэдр ва октаэдр монтмориллонит қатламида структуравий ўзгаришлар билан боғлиқ.

ISSN 3030-3907




6-расм. 1-табиий тупроқ, 2-Na - тупроқ, 3-Al- тупроқ-1 тупроқлари ИҚ спектрлари.

Тупроқга алюминий полигидроксокомплекс киритилган, унинг структурасини қисман бузилишини (6-расм, 3-спектр) 1044см$^{-1}$ дан 1097см$^{-1}$ спектрларининг максимуми силжиганлигини кўриш мумкин. Узнда ю.п. интенсивлиги кескин ўзгаради. Маълумки модификацияланиш ММ уч қатламли пакетларда бир-бирига нисбатан тартибсиз силжишлар ва уч қатламли пакетларда бўғимлар узилиб даврийлик бузилади.

7-расмда табиий тупроқга темир ПГК киритиш йўли билан олинган Fe-тупроқ-к намунаси дифраграммаси келтирилган. РФА маълумотига кўра модификациялаш тупроқ 500^{0}С да қиздирилганда унинг қатлам структураси ўзгаради. Fe-тупроқ-к қатламланиш структурасига ўтади, қайсиким бу адабиётларда “house of cards” деб ном олган. Дифрактограммада d_{001} га мос келувчи рефлексларнинг йўқолишига олиб келади ва паст интенсивли диффузияли полосалар пайдо бўлади, бу тартибсиз селикат қатламлари ҳосил бўлишини кўрсатади.

ISSN 3030-3907



7-расм. Fe-тупроқ-к-500 дифроктограммаси, текисликлар орасидаги масофа Å ларда келтирилган.

Олинган натижалар кўрсатадики, модификацияланган маълум солиштирма юза, ўртача диаметр ва руда ҳажми намуна олиш, полигидроксокотион таркиби ва киритиш усулига боғлиқ. Табиий тупроқга нисбатан модификацияланган намуналарда солиштирма юзаси кўпайиши. Al-тупроқ-1, Fe-тупроқ-0 намуналари ўртача диаметрлари камроқ ортади ва Al-тупроқ-2, Fe-тупроқ-к, Fe-Al-тупроқ-о, Fe-Al-тупроқ-к, намуналарида у камаяди, табиий тупроқга нисбатан умумий ҳажм камроқ ўзгаради.

АДАБИЁТЛАР

1. Fayzullayev, N.I., Umirzakov, R.R., Pardaeva, S.B.Study of acetylating reaction of acetylene by gas chromatographic method//ACS National Meeting Book of Abstracts, 2005, 229(2)

2. Fayzullaev N., Pardaeva S. B. Cleaning of natural gas from sulphur preservative compounds //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2024. – Т. 3045. – №. 1. – С. 060041.

3. Fayzullaev N., Pardayeva S. Synthesis of NaA-type Zeolite and its sorption properties //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 402. – С. 14012.

4. Образцов р. О. У. С., цеолита в. Коллоидная химия //Главный редактор. – 2022. – С. 49.

5. Pardayeva S., Fayzullayev N. Interkalary sorbentlarni qo'llash va ularni ajratib olish texnologiyasi //Academicia: Xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali. – 2022. – Т. 12. – №. 6. – S. 23-34.

6. Fayzullaev N., Pardayeva S. Natural gas drying technology //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 462. – С. 03010.

7. Pardaeva S., Fayzullaev N. I. Study of texture and sorbtion properties of high silicone zeolites synthesed from bentonite. – 2021.

ISSN 3030-3907

8. Pardayeva SB, Fayzullaev NI Interkalyar sorbentlarni olish va ularni qo'llash //Ko'p o'lchovli tadqiqotlar bo'yicha Osiyo jurnali. – 2021. – T. 10. – №. 6. – S. 39-53.
9. Fayzullayev N. I. et al. About mechanism of acetone formation from acetylene on polyfunctional catalyst //Abstracts of Papers of the American Chemical Society. – 1155 16th st, nw, washington, dc 20036 usa : amer chemical soc, 2002. – т. 223. – c. u22-u22.
10. Shovkatovich A. N., Sohiba P. Elektrokimyoviy davolash va diagnostika usullari //american journal of education and learning. – 2025. – т. 3. – №. 1. – с. 423-426.
11. Baxtiyorovna S. G., Bo‘riyevna P. S. Yadro kimyosining tibbiyotdagi o ‘rni //Research Focus. – 2024. – T. 3. – №. 12. – C. 134-136.
12. Xurshedovna Y. Z., Bo‘riyevna P. S. Yurak gilikozidlarining kimyoviy tuzilishi //Research Focus. – 2024. – T. 3. – №. 12. – C. 145-148.
13. Bo’Riyevna P. S., O’G’Li F. J. B., O’G’Li N. F. F. Fermentlarning tibbiyotdagi ahamiyati va ularning qo’llanilishi //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D3. – C. 397-402.

ISSN 3030-3907

УДК: 675.055.1

КҮН ЯРИМ МАҲСУЛОТИНИ ЙЎНАЛТИРУВЧИ СИРТ ОРҚАЛИ ИШЛОВ БЕРИШ СОҲАСИГА РАВОН УЗАТИШНИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ

Бахадиров Ғайрат Атаханович

ЎзР ФА М.Т.Ўрозбоев номидаги Механика ва иншоотлар сейсмик мустаҳкамлиги институти, т.ф.д., проф.

Email: instmech@rambler.ru

Мусиров Махмаражаб Уралович

Тошкент халқаро молиявий бошқарув ва технологиялар университети, т.ф.ф.д. (PhD)

Email: musirov.mech.1992@mail.ru

Элбоев Комил Элмурод ўғли

Тошкент халқаро молиявий бошқарув ва технологиялар университети,

Email: komil.elboyev54@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада кўн ярим маҳсулотини сиқувчи вал жуфтликлари зонасига йўналтирувчи сирт орқали узатиш жараёни экспериментал жиҳатдан ўрганилди. Тадқиқот жараёнида транспортер торларининг чизиқли тезлиги ва маҳсулот билан йўналтирувчи сирт орасидаги ишқаланиш хоссалари асосий таъсир этувчи омиллар сифатида кўриб чиқилди. Экспериментал таҳлиллар ва олинган регрессия моделларидан келиб чиқиб, тезлик омилининг узатиш самарадорлигини яхшилашга ижобий таъсир кўрсатиши, аммо ишқаланиш даражасининг ошиши бу ижобий эффектни камайтириши аниқланди. Шунингдек, юқори ишқаланиш шароитида тезликни ошириш маҳсулотнинг барқарор узатилишини таъминламаслиги, аксинча узатиш жараёнида беқарорлик ва маҳсулотнинг тўпланиб қолиши хавфини ошириши кўрсатилди. Натижалар узатиш жараёнини оптималлаштиришда тезлик ва ишқаланиш параметрларини биргаликда ҳисобга олиш зарурлигини, шунингдек амалий чоралардан фойдаланиш – масалан, сирт хусусиятларини яхшилаш ва намликни назорат қилиш – самарани сезиларли яхшилашини исботлайди. Тадқиқот ишлари саноат шароитида маҳсулот сифати ва технологик самарадорликни оширишга йўналтирилган тавсиялар беради ҳамда келгусида моделни кенгайтириш ва сонли симуляциялар билан қўллаб-қувватлаш учун асос яратади.

Калит сўзлар: кўн ярим маҳсулоти; йўналтирувчи сирт; сиқувчи валлар; транспортер торлари; Д-оптимал режалаштириш; регрессия модели.

Abstract: This paper experimentally investigates the process of conveying semi-finished leather products to the zone of paired squeezing rollers via a guiding surface. During the study, the linear speed of the conveyor belts and the frictional properties between the product and the guiding surface were considered as the main influencing factors. Based on experimental analyses and the derived regression models, it was determined that the speed factor has a positive effect on improving conveying efficiency; however, an increase in the level of friction reduces this positive effect. Moreover, under high-friction conditions, increasing the speed does not ensure stable conveying of the product; on the contrary, it increases the risk of instability in the conveying process and product accumulation. The results demonstrate that, in optimizing the conveying process, it is necessary to consider speed and friction parameters simultaneously, and that the application of practical measures - such as improving surface properties and controlling moisture - can significantly enhance performance. The research provides recommendations aimed at improving product quality and technological efficiency under industrial conditions and creates a basis for further expansion of the model and its support through numerical simulations.

Keywords: semi-finished leather product; guiding surface; squeezing rollers; conveyor belts; D-optimal design; regression model.

Аннотация: В данной статье экспериментально исследуется процесс подачи полуфабриката кожи в зону пары сжимающих валков через направляющую поверхность. В ходе исследования линейная скорость транспортерных лент и фрикционные свойства взаимодействия продукта с направляющей поверхностью рассматривались как основные влияющие факторы. На основе экспериментальных исследований и полученных регрессионных моделей установлено, что фактор скорости оказывает положительное влияние на повышение эффективности подачи, однако увеличение уровня трения снижает данный положительный эффект. Кроме того, при условиях повышенного трения увеличение скорости не обеспечивает устойчивой подачи продукта, а наоборот, повышает риск неустойчивости процесса и накопления материала. Показано, что при оптимизации процесса подачи необходимо совместно учитывать параметры скорости и трения, а также применять практические меры, такие как улучшение свойств поверхности и контроль влажности, что позволяет существенно повысить эффективность процесса. Полученные результаты дают рекомендации, направленные на повышение качества продукции и технологической эффективности в промышленных условиях, а также создают основу для дальнейшего

ISSN 3030-3907

расширения модели и ее подтверждения с использованием численного моделирования.

Ключевые слова: полуфабрикат кожи; направляющая поверхность; сжимающие валки; транспортерные ленты; D-оптимальное планирование; регрессионная модель.

КИРИШ

Ҳозирги вақтда кўн ярим маҳсулотини механик ишлов бериш соҳасига узатиш ва ишлов бериш технологик жараёнларини амалдаги технологик валли машиналарда ташувчи транспортёр ва сиқувчи ишчи валлар бажаради. Ушбу технологик жараёнлар ишлов берилаётган кўн ярим маҳсулоти сифатига катта таъсир кўрсатади. Шунинг учун уларнинг ҳар бири бажарилгандан сўнг кўн ярим маҳсулоти ҳолатини таҳлил қилиш зарур. Кўнчилик саноатида экспериментал тадқиқотлар мураккаб кўп факторли муаммоларни ҳал қилишга қаратилган бўлиб, уларнинг натижаси кўн ярим маҳсулотини қайта ишлаш технологик жараёнларининг рационал режимларини аниқлайди. Кўн ярим маҳсулотларининг физик-механик хусусиятлари таркибидаги суюқлик миқдорига қараб ўзгаради. Бинобарин, кўн ярим маҳсулотини ишлов бериш соҳасига узатиш ва кўн ярим маҳсулотига механик ишлов бериш жараёни технологик ишлов бериш жараёнларининг сифатига, масалан, экспериментни режалаштириш, фойдали юзасини кўпайтириш ва қуритиш жараёнига сезиларли таъсир кўрсатади [1-3].

Экспериментал тадқиқотлар учун, кўн ярим маҳсулотни ишлов бериш соҳасига узатиш ва ишлов берувчи валли машина қурилмаси, ЎзР ФА Механика ва иншоотлар сейсмик мустаҳкамлиги институтида (МИСМИ да) ишлаб чиқилган (1-расм).

Бу валли машинанинг янги конструксияси ихтиро ва фойдали моделлари учун ЎзР патентлари билан ҳимояланган [3]. Ушбу валли машина намликка тўйинган кўн ярим маҳсулотларини ишлов бериш соҳасига узатиш ва механик ишлов бериш, технологик жараённинг самарадорлиги ва унга таъсир етувчи турли омилларни аниқлаш учун мўлжалланган.

ISSN 3030-3907



1 – расм. Кўн ярим маҳсулоти ишлов бериш соҳасига йўналтирувчи экспериментал қурилма

Шуни таъкидлаш керакки, экспериментал қурилмани ишлаб чиқишда ишчи валларнинг ва йўналтирувчи мосламанинг рационал параметрлари, транспортер торларининг тезлиги ва бошқа параметрлар ҳисобга олинган. Кўн ярим маҳсулотини механик ишлов бериш соҳасига бурмаларсиз равон узатиш учун ишлаб чиқилган қурилма, кўнчилик саноатида кўн ярим маҳсулотларига ишлов бериш жараёнида юқори самарали янги технологиянинг технологик жараёнини ўрганиш имконини беради.

Эксперимент тадқиқот натижаларини олиш учун К.Кано дизайн матрицаси ёрдамида иккинчи даражали Д-оптимал режалаштириш усули ишлатилган. Априор маълумотлари асосида кўн ярим маҳсулотини механик ишлов бериш соҳасига узатиш жараёни, иккита омилни ҳисобга олган ҳолда ўрганилди: $x_1(f)$– кўн ярим маҳсулоти ва йўналтирувчи сирт орасидаги ишқаланиш коэффициенти; $x_2(V)$– транпортер торларининг чизиқли тезлиги, м/с; ишқаланиш коэффициентининг ўзгариш диапазони 0,1 дан 0,9 гача; сиқиш валларининг айланиш тезлиги эса 0,17 дан 0,34 м/с гача танланган.

Тажрибани ўтказишдан олдин, керакли аниқликни таъминлаган математик статистика усуллари ёрдамида керакли ўлчовлар сони (такрорланишлар сони) танлаб олинган. Эксперимент тадқиқот режаси К.Канонинг икки факторли матрицаси бўйича тузилган. Бу факторлар формулага мувофиқ қуйидагича ифодаланади [4]:

$$x_i = \frac{c_i - c_{i0}}{t_0}. \qquad (1)$$

ISSN 3030-3907

бу ерда x_i – омиллар қийматларини кодлаш; c_i, c_{i0} – омилнинг жорий ва нол даражадаги натурал қийматлари; t_0 – омил ўзгариши интервалининг натурал қиймати.

Аппроксимацияловчи полином функциялар қуйидагича аниқланади [5]:

$$y = b_0 + \sum_{i=1}^{k} b_i x_i + \sum_{i,j=1}^{k} b_{ij} x_i x_j + \sum_{i=1}^{k} b_{ii} x_i^2 , \qquad (2)$$

бу ерда y – кодланган шаклда чиқарилган фойдали юза миқдори; b_0, b_i, b_{ij}, b_{ii} – регрессия коэффициентлари. Эксперимент факторининг ўзгариши даражалари ва интерваллари 1 – жадвалда кўрсатилган.

1 – жадвал

Эксперимент факторининг ўзгариш қийматлари ва интерваллари

Индекс	Факторлар қиймати	Факторларнинг бошланғич қийматлари	
		x_1,	x_2, *м/с*
Юқори даража	+	0,9	0,34
Ўрта даража	0	0,5	0,255
Қуйи даража	–	0,1	0,17
Интервал ўзгариши		0,4	0,085

2 – жадвал

Тажрибанинг чиқувчи параметри

Белгиланиши	Номланиши	Қиймати
ΔL	Кўн ярим маҳсулотининг йўналтирувчи мослама устидаги ҳаракатланиш масофаси	%

3 – жадвал

Тажрибаларни режалаштириш матрицаси

№	f, x_1	V, x_2	Ўлчов натижалари, %						$\sum_1^n (y-\bar{y})^2$	$S^2_{ош}$	y_p	$\bar{y}-y_p$	$(\bar{y}-y_p)^2$
			y_1	y_2	y_3	y_4	y_5	$\bar{y}$					
1	0	0	62	55	59	57	63	59,2	44,8	11,2	57,7	1,5	2,25
2	+	+	48	51	45	47	46	47,4	21,2	5,3	45,8	1,6	2,56
3	–	+	98	97	99	100	99	98,6	5,2	1,3	96,2	2,4	5,76
4	–	–	82	86	83	85	81	83,4	17,2	4,3	81,6	1,8	3,24
5	+	–	27	26	31	34	36	30,8	74,8	18,6	32,3	-2,5	6,25

ISSN 3030-3907

6	+	0	46	44	47	48	45	46	10	2,5	44,0	2	4
7	0	+	81	83	85	84	83	83,2	8,8	2,2	81,5	1,7	2,89
8	–	0	89	92	93	91	88	90,6	17,2	4,3	88,4	2,2	4,84
9	0	–	75	73	77	74	76	75	10	2,5	73,0	2	4
									Σ209,2	Σ52,2			Σ35,79

Тажриба натижаларининг аниқлиги кўп жихатдан кириш ва чиқиш параметрларининг назорати ва уларнинг доимийлигига боғлиқ. Шунинг учун ҳар бир тажрибани ўтказишда кўн ярим маҳсулоти ва ишлов берувчи машинанинг кирувчи ва чиқувчи параметрларини қайта – қайта назорат қилиш зарур.

Тажрибаларни режалаштириш матрицаси тузиб олинди. Яъни, кўн ярим маҳсулотининг ишлов бериш соҳасига узатишнинг математик ҳисоблари (фоиз улушида) 3-жадвалда келтирилган. Дисперсиянинг бир хиллиги Кохрен критерияси ёрдамида $\alpha = 0{,}95$ ишонч даражасида амалга оширилади [4]. N умумий ўзгарувчилар сонини ва $k = n - 1$ эркинлик даражалари сонини билган ҳолда, 4.3-жадвалдаги қийматларни ҳисоблаймиз, биз G_T=0,358 ни топамиз. Бу ерда $N = 9$, $k = n - 1 = 5 - 1 = 4$, $n -$ параллел экспериментлар сони.

4-жадвалда b_0, b_i, b_{ij}, b_{ii} регрессия коеффициентларини аниқлаймиз.

4 – жадвал

Регрессия коеффициентларини аниқлаш

№	f, x_1	V, x_2	Коеффициентлар учун факторлар						
			b_0	b_{11}	b_{22}	b_1	b_2	b_{12}	$\bar{y}$
1	0	0	0,5772	–0,3234	–0,3234	0	0	0	59,2
2	+	+	–0,1057	0,1691	0,1691	0,1961	0,1961	0,25	47,4
3	–	+	–0,1057	0,1691	0,1691	–0,1961	0,1961	–0,25	98,6
4	–	–	–0,1057	0,1691	0,1691	–0,1961	-0,1961	0,25	83,4
5	+	–	–0,1057	0,1691	0,1691	0,1961	-0,1961	–0,25	30,8
6	+	0	0,2114	0,1617	–0,3383	0,1078	0	0	46
7	0	+	0,2114	–0,3383	0,1617	0	0,1078	0	83,2
8	–	0	0,2114	0,1617	–0,3383	–0,1078	0	0	90,6
9	0	–	0,2114	–0,3383	0,1617	0	–0,1078	0	75

Кўн ярим маҳсулоти учун регрессия коэффициентлари b_0 = 68,90326; b_{11}= – 6,44098; b_{22}= 4,159; b_1 = – 25,16; b_2 = 7,0768; b_{12} = 0,35 га тенг.

Бундан келиб чиқадики, тадқиқот натижалари такрорланади.

ISSN 3030-3907

$$S_{ош}^{\ 2} = \frac{\sum_{1}^{n}(y-\bar{y})^2}{n-1} = 3{,}082, \quad (3)$$

$$\sum_{1}^{N} S_i^2 = \frac{\sum_{1}^{N}\sum_{1}^{n}(y-\bar{y})^2}{N(n-1)} = 52{,}2, \quad (4)$$

$$G_p = \frac{S_{max}^2}{\sum_{1}^{N} S_i^2} = \frac{18{,}6}{52{,}2} = 0{,}35632 < G_T = 0{,}358. \quad (5)$$

Кўн ярим маҳсулоти учун, қуйидаги регрессия тенгламасини оламиз:

$$y = 68{,}90326 - 6{,}44098x_1^2 + 4{,}159x_2^2 - 25{,}16x_1 + 7{,}0768x_2 - 0{,}35x_1x_2 \quad (6)$$

$x_1 = \frac{f-0{,}5}{0{,}4}$, $x_2 = \frac{V-0{,}255}{0{,}085}$ тенгликни ўрнига қийматларни қўямиз.

Бу ерда f – кўн ярим маҳсулоти ва йўналтирувчи сирт орасидаги ишқаланиш коэффициенти; V – кўн ярим маҳсулотнинг ўзгармас чизиқли тезлиги.

Натижалар олинган тенгламаларнинг адекватлиги ҳақидаги гипотезага биноан, ишонч даражаси $\alpha = 0{,}95$ бўлган Фишер критерияси ёрдамида текширилди [4, 5, 6]:

$$F_p = \frac{S_{ад}^2}{S^2\{y\}} < F_T. \quad (7)$$

Бу ерда $S_{ад}^2$ – қолдиқ дисперсия ёки адекватлик дисперсияси; $S^2\{y\}$ – такрорланувчан дисперсия.

$S_{ад}^2$ ва $S^2\{y\}$ ни 3 –жадвалдан аниқлаймиз.

$$S_{ад}^2 = \frac{\sum_{1}^{N} n(\bar{y}-y_p)^2}{N - \frac{(k+2)(k+1)}{2}} = 59{,}65. \quad (8)$$

$$S_{\{y\}}^2 = \frac{\sum_{1}^{N}\sum_{1}^{n}(y-\bar{y})^2}{N(n-1)} = 23{,}25. \quad (9)$$

Фишер критериясининг адекватлик модели:

$$F_p = \frac{S_{ад}^2}{S^2\{y\}} = \frac{59{,}65}{23{,}25} = 2{,}565 < F_T = 2{,}880. \quad (10)$$


Бу ерда N – умумий экспериментлар сони; k – ўзгарувчилар сони; n – экспериментдаги такрорланишлар сони; y_i – алоҳида кузатишлар сони; $\bar{y}$ – эксперимент натижасининг ўртача арифметик қиймати; y_p – мезонларнинг регрессия тенгламаси бўйича ҳисобланган қиймати.

ISSN 3030-3907

Шундай қилиб, регрессия тенгламасини 95% ишончлилик даражаси билан мос деб ҳисоблаш мумкин, бу кодлашдан кейин номланган шаклда қуйидаги шаклга эга. Кўн ярим маҳсулотни ишлов бериш соҳасига узатувчи қурилма учун регрессия тенгламаси:

$$\Delta L = 106{,}198 - 40{,}25\,f^2 + 575{,}57V^2 - 20{,}034\,f - 205{,}058V - 10{,}568\,fV. \qquad (11)$$

Олинган (11) регрессия тенгламасининг график ечимини танлаб олинган тезликлар ва ишқаланиш коэффициентларига мос ҳолда Maple 18 график дастур ёрдамида тасвирлаймиз (2 – расм).



2 – расм. Кўн ярим маҳсулоти фойдали юзасининг узатувчи тезлик ва ишқаланиш коэффициентига боғлик график ечими

Графиклардан кўринадики, кўн ярим маҳсулотини сиқувчи вал жуфтликлари орасига узатиш самарадорлиги ΔL ишқаланиш коэффициенти f ортиши билан камаяди ва транспортер торларининг чизиқли тезлиги B ортиши билан ошади. Бироқ ишқаланиш коэффициенти юқори бўлган ҳолатларда ($f \geq 0.6$) тезликни ошириш узатиш самарадорлигига сезиларли таъсир кўрсатмайди. Энг юқори ΔL қийматлар паст ишқаланиш ($f \leq 0.5$) ва ўртача тезликлар ($V \approx 0.2$ м/с) да кузатилади. Натижалар узатиш жараёнини барқарор амалга ошириш учун тезлик ва ишқаланиш омилларини ўзаро боғлиқ ҳолда оптималлаштириш зарурлигини кўрсатади.

Хулоса. Йўналтирувчи мослама ва кўн ярим маҳсулоти орасидаги ишқалиш коэффициенти f = 0,1 ва транспортер торларининг максимал чизиқли тезлиги V = 0,34 м/с бўлганда кўн ярим маҳсулоти йўналтирувчи сиртда сирпаниб ҳаракатланиб ишчи валлар соҳасига етказилар экан.

Ишқалиш коэффициенти f = 0,5 ва транспортер торларининг ўртача чизиқли тезлиги V = 0,255 м/с бўлганда кўн ярим маҳсулоти йўналтирувчи сиртнинг 60 % масофасини босиб ўтар экан.

ISSN 3030-3907

Ишқалиш коэффициенти f = 0,9 ва транспортер торларининг чизиқли тезлиги V = 0,17 м/с бўлганда кўн ярим маҳсулоти йўналтирувчи сиртнинг 31 % масофасини босиб ўтар экан.

